



Tadqiqot.uz

UZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLIY TALIM MUASSASALARI  
PROFESSOR-OQTUVCHILARI, YOSH OLMILAR, DOKTORANTLAR,  
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



DAVRIYLIGI: 2018-2024

RESPUBLIKA KO'P TARMODLI

## ILMIY KONFERENSIYA

# YANGI O'ZBEKİSTON: 2024

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERİALLAR TO'PLAMI



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР  
2-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
НАУЧНЫЙ ИССЛЕДОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-2**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
SCIENTIFIC RESEARCH  
PART-2**

**ТОШКЕНТ-2024**



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

Й-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2024]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 71-кўп тармокли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабр 2024 йил. – Тошкент: «Tadqiqot», 2024. – 145 бет.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараккиёт стратегияси сари» тамоилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси мувофиқ: – илмий изланиш ютукларини амалиётга жорий этиши йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат килиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуклар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараккиётининг истиқболдаги режалари тахтил килинган конференцияси.

**Маъсул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хукукий тадқиқотлар йўналиши -**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих сахифаларидағи изланишлар -**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мұхандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви -**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети  
"Беш мұхым ташаббус" марказы раҳбари)

**6.Журналистика -**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –**

Самигова Умида Хамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

**8.Адабиёт-**

PhD Абдумажида Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -**

Phd Вохидова Мехри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт-**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -**

Бобохонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14. Тасвирий санъат ва дизайн-**

Доцент Чарис Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15. Мусиқа ва хаёт-**

Доцент Чарис Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -**

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-курилиш институти)

**17. Физика-математика фанлари ютуклари -**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -**

Зупарова Зулфия Ахрор қизи, Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, DSc (фармацевтика фанлари доктори)

**19. Фармацевтика -**

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20. Ветеринария -**

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21. Кимё фанлари ютуклари -**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва кишлук хўжалигини механизацияланни мухандислари институти)

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -**

Phd доцент Қаххоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва кишлук хўжалигини механизацияланни мухандислари институти)

**25. География -**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000



## ХУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### КОРРУПЦИЯНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ (Ўзбекистон ҳамда жаҳон нигоҳида)

Юлдашев Фазлиддин Эшқувватович  
Иштихон туманлараро иқтисодий суди раиси

**Аннотация:** Мақолада асосий эътибор коррупцияга қарши курашиш ҳамда унинг профилактикаси масалаларига қаратилган бўлиб, ушбу турдаги жиноятларни профилактикаси, усуллари ва механизмлари назарий хulosалар, хорижий давлатлар тажрибалари асосида ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** коррупция, профилактика, коррупцияга қарши курашиш, устувор йўналишилар, қонун.

Мамлакатда коррупциянинг олдини олиш шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлашга хизмат қиласди. Коррупция билан боғлиқ жиноятлар профилактикаси бу коррупцион ҳаракатларни аниқлаш ва камайтириш, уларнинг содир этилиш шарт-шароитларини ҳамда сабабларини бартараф этишга қаратилган чора-тадбирлар йиғиндисидир.

Transparency International Corruption Perceptions Index (CPI) 2014 йил эълон қилган маълумотда Ўзбекистон коррупциялашган давлатлар рўйхатида 185 та мамлакатдан 166-ўринни эгаллаган. Минтақада эса Туркманистондан кейин, иккинчи ўринда эътироф этилган. Орадан икки йил ўтиб, давлат коррупция рейтингида 10 погона юқорилади, аммо 2017 йилда Ўзбекистон 157-ўринда, 2018 йилда 158-ўринда эътироф этилди. Шунга қарамасдан алоҳида таъкидлаш жоизки, юртбошимизнинг фаол ташабbusлари туфайли мамлакатда барча соҳаларда олиб борилаётган ислоҳотлар натижасида 2019 йил хulosаларига кўра Ўзбекистон 153-ўринга кўтарилишга эришган бўлса-да, бу иллат ҳали барҳам топмаган. Зеро, мамлакатнинг янгиланган сиёсати инсон қадр-қимматини олий даражага кўтариш, жамиятда адолат ва қонун устуворлигини сўзсиз таъминлаш каби юксак foяларга таянилган ҳолда олиб борилаётган бўлса-да, афсуски, бу йўлдаги ислоҳотлар натижадорлигига салбий таъсир кўрсатаётган, тараққиётга тўсиқ бўлаётган бир қатор омиллар, иллатлар сақланиб қолмоқда.

Бугунги кунда Янги Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларнинг бошиданоқ бутун давлат ҳокимиюти тизимида, унинг алоҳида бўғинларида коррупцияга қарши курашиш алоҳида устувор вазифа эканлиги эълон қилинди. Ҳатто, Юртбошимиз Ш.Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимга бағишинланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги маърузасида “Жамиятимизда коррупция, турли жиноятларни содир этиш ва бошқа хукуқбузарлик ҳолатларига қарши курашиш, уларга йўл қўймаслик, жиноятга жазо албатта муқаррар экани тўғрисидаги қонун талабларини амалда таъминлаш бўйича қатъий чоралар ўришимиз зарур” лигини таъкидлаган эди.

2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси ўзининг туб моҳияти билан айнан коррупцияни таг-томири билан йўқ қилишга қаратилган тарихий ҳужжат бўлди. Унда барча соҳаларда коррупцияга барҳам бериш, унинг илдиз отишига шароит яратишга сабабларни бартараф этишга қаратилган аниқ чора-тадбирлар баён қилинди.

2019 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди. Мазкур Фармон билан 2019–2020 йилларда коррупцияга қарши курашиш бўйича иккинчи Давлат дастури тасдиқланди.

Коррупцияга қарши курашиш коррупция даражасини ва унинг ижтимоий хавфлилигини пасайтиришни кўзловчи, шунингдек унинг детерминантларини бартараф этиш ва йўқ қилишга қаратилган мураккаб тизимдан иборат фаолиятдир. Ушбу фаолият коррупцияни мутлақо йўқ қилиш имконига эга эмас. Бироқ, шунга қарамасдан, уни давлат, жамият ва фуқаролар ҳаётига



сезиларли таъсир кўрсатмайдиган ижтимоий мақбул даражага тушириш мумкин.

Махсус профилактика бу давлат бошқарув аппаратида коррупциянинг олдини олувчи чора-тадбирлар йиғиндиси, яъни давлат функцияларини бажарувчи органлар ва ушбу органларнинг ваколатлари бажарилишини таъминлаш функциясини бажарувчилар ходимлар ўртасидаги чора-тадбирлар йиғиндиси, бўлиб улар қуидагилар:

-ижтимоий-иктисодий хусусиятдаги, яъни мансабдор шахсларнинг моддий фаровонлиги ва ижтимоий таъминланганлигини ошириш билан боғлиқ;

-ташкилий хусусиятдаги, яъни давлат органлари ва мансабдор шахсларининг хизмат ўташ тартиби, ходимларни танлаш ва жойлаштириш, коррупцияга қарши курашиш фаолияти билан шуғулланувчи субъектлар фаолиятини ташкиллаштириш билан боғлик бўлган;

-коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги халқаро ҳуқуқий ҳужжатларни ратификация қилиши билан боғлиқ хусусиятдаги, яъни, амалдаги меъёрий-хуқуқий ҳужжатларга коррупцияга қарши курашишга йўналтирилган қонунлар ва бошқа норматив-хужжатларнинг мажбурий криминологик экспертизасини жорий этишини назарда тутувчи қўшимча ва ўзгартишлар киритиш ва янгиларни қабул қилиш йўли билан такомиллаштириш.

Криминолог олим А.И.Долгова коррупцияга қарши курашни ташкиллаштиришнинг умумий босқичлари қуидагиларни ўз ичига олади дея таъкидлайди: а) коррупциянинг ривожланиб бориши ва унинг сабабларини доимий таҳлил қилиш; б) реал ҳолатдаги сиёсий, иқтисодий, ижтимоий шароитларга, жамиятнинг ҳуқуқий маданиятига, ҳукуқ-тартибот тизимида асосланган тарзда коррупцияга қарши кураш стратегияларини ишлаб чиқиши; в) қонунчиликни такомиллаштириб бориш; г) мақсадли давлат дастурларини ишлаб чиқиши; д) давлат ҳокимияти органларининг фаолиятини мувофиқлаштириб бориш; е) ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларда коррупцияга қарши кураш билан шуғулланувчи мутахассис ходимларни тайёрлаш ва малакасини ошириб бориш; ж) фуқаролик жамияти институтлари, аҳоли, юридик шахсларнинг ёрдамидан фойдаланиш; з) мунтазам равиша амалга оширилган ишларнинг натижаларини баҳолаш ва ўзгартишлар киритиб бориш.

Шунингдек, баъзи манбаларда коррупция билан боғлиқ жиноятларни профилактикасини такомиллаштиришда ушбу йўналишда ишлаб чиқилган ҳужжатлар ҳам ўз самарасини беради. Коррупцияга қарши курашиш сиёсатини амалга оширишда қуидаги ҳужжатларни қабул қилиш керак деб ҳисоблашади, яъни:

-бюджет маблағлари ва донорлик ёрдамида маблағларни тақсимлаш жараёнини режалаштириш ва ушбу соҳада устувор бўлган соҳаларни аниқлаштириш;

-ислоҳотларнинг аниқ ишлаб чиқилган йўл хариталарини тузиш;

-кенг жамоатчиликни жалб этиш ҳамда мазкур ислоҳотларнинг сиёсий устуворилги, ютуқлари, муаммолари ва оқибатлари тўғрисида жамоатчиликнинг хабардорлигини оширишга қаратилган ҳужжатлар.

Истамбул Ҳаракатлар Режаси (ИХР) аъзо давлатларининг коррупцияга қарши кураш сиёсати ҳуқуқни муҳофаза қилиш чоралари ва унинг оқибатларига эмас, аксинча ҳуқуқий ва институционал ислоҳотларга қаратилганлигини кўришимиз мумкин.

Буюк Британиянинг коррупцияга қарши кураш стратегияси ўрганилганда, мамлакатда 2017-2022 йилларга мўлжалланган “Коррупцияга қарши кураш бўйича” янги стратегия аасосида олиб борилаётганлигини айтишимиз мумкин. Ушбу стратегия 2017 йилнинг декабрида эълон қилинган бўлиб, унинг асоси сифати мамлакатда 2014 йилда Англия тарихида биринчи марта қабул қилинган “Коррупцияга қарши Ҳаракатлар режаси” хизмат қилган. Барча давлат органлари фаолиятини қамраб олган ва коррупцияга қарши самарали курашнинг узоқ муддатли мақсадини белгилайдиган ушбу стратегия коррупциянинг олдини олиш бўйича ҳукumatнинг йўл харитаси ҳичблланган. Режада коррупцияга қарши курашда олти устувор йўналиши белгиланган: чегарлар ва портлар каби иқтисодиётнинг коррупция юқори хавфли тармоқларида тизим ичидаги коррупцияни камайтириш; Буюк Британиянинг халқаро молиявий марказ сифатида обўйини мустаҳкамлаш; давлат ва хусусий секторда касбий этикага риоя қилиниши кенг тарғиб қилиш; давлат эҳтиёжлари учун товарлар, ишлар ва хизматларни сотиб олишда ва грантларни тақсимлашда коррупцияни камайтириш; дунё бўйлаб ишбилармонлик муҳитини яратиш; коррупцияга қарши курашда бошқа давлатлар билан ҳамкорлик қилиш. Ушбу олти устувор йўналишни амалга ошириш учун 20га яқин вазифалар белгилаб олинган.

Таҳлилчиларнинг фикрига кўра, коррупциянинг олдини олиш борасидаги давлат сиёсатининг яна бир усули бу мамлакатда доимий равиша коррупция даражасининг мониторингини олиб



бориш ва баҳолаш механизмининг мавжудлигидир. Ўтказилган таҳлиллар натижасида кўпгина ИҲРга аъзо давлатларнинг коррупцияга қарши кураш режаларининг бажарилишини назорат қилишнинг аниқ тартиби ўрнатилганлигини кўришимиз мумкин. Баъзи мамлакатларда ушбу режаларнинг бажарилиши устидан парламент назорати ўрнатилган (Украина, Мўғалистон).

Жумладан, *Украинада*, коррупциянинг олдини олиш бўйича миллий Агентлик коррупцияга қарши ислоҳотларнинг таъсирини мунтазам равишда баҳолаш учун методология ишлаб чиқсан бўлса, *Қозогистонда* коррупцияга қарши кураш сиёсати қандай амалга оширилаётганлигини баҳолаш учун Махсус мониторинг гуруҳи ташкил этилган. Ушбу гурух аъзолари мамлакатнинг барча худудларида бўлиб, давлат муассасалари, ташкилотларида кўрилган чора-тадбирлар таҳлилини олиб боришида ва уларга ўз тавсияларини бериб боришиди. *Латвияда* коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш Бюроси мамлакатда ушбу йўналишдаги стратегия доирасида ҳаракатларни мувофиқлаштириш учун жавобгар ҳисобланади ва Вазирлар Маҳкамасига оралиқ ва якуний ҳисботларни тақдим этади. *Ўзбекистонда*, эса коррупцияга қарши курашиш бўйича фаолиятни амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи органлар ҳамда ташкилотларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш ва ҳамкорлигини таъминловчи орган сифатида республика Идоралараро комиссия фаолият юритмоқда.

Юқоридагиларни инобатга олиб Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунининг З-моддасига қўйидаги таърифни қўшиш мақсадга мувофиқ, яъни “**Коррупцияга қарши курашиш**–бу давлат бошқарув органлари ва жамоат ташкилотларининг коррупциянинг олдини олиши (коррупция билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси); **коррупцияга қарши жиноий-хуқуқий курашиши** (коррупция билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, олдини олиш, фош этиш, тергов қилиш); **коррупция оқибатларини бартараф қилиши** билан боғлиқ ташкилий чора-тадбирларни ўз ичига қамраб олган фаолияти”.

Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунининг З-бобини “Коррупцияга қарши курашиш чора-тадбирлар тизими” таҳририда баён этиш ҳамда тегишли равишда коррупцияга қарши курашиш чора-тадбирларни ўз ичига олган 16-27-моддаларини киритиш:

### 16-модда. Коррупцияга қарши курашиш чора-тадбирлар.

Коррупцияга қарши курашиш чора-тадбирлари қуйидагилардан иборат:

1) коррупцияга қарши мониторинг; 2) коррупция хавфларини таҳлил этиш; 3) коррупцияга қарши маданиятни шакллантириш (коррупцияга қарши муросасиз рухни шакллантириш); 4) республика қонунчилигига мувофиқ юридик экспертиза ўтказилиши жараёнида коррупцияга мойил нормаларни аниқлаш; 5) коррупцияга қарши стандартларни шакллантириш ва уларга риоя этиш; 6) молиявий назорат; 7) манфаатлар тўқнашувини олдини олиш ва ҳал этиш; 8) тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш чоралари;

9) коррупция билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, тўхтатиш, очиш ва тергов қилиш; 10) коррупция билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар тўғрисида хабар қилиш; 11) коррупцияга қарши курашиш тўғрисида Миллий дастурни шакллантириш ва эълон қилиш.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Corruption Perceptions Index 2018: Statistically significant changes. 2018\_CPI\_Statistically Significant Changes

<http://www.youtube.com/c/Globalproartcom>

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тарққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 141 б.

3. Быстрова А., Сильвестрос М. Феномен коррупции: некоторые исследовательские подходы. <http://www.gumer.info>

4. Противодействие коррупции: как выстроить системный подход?. [www.insor-russia.ru/ru/news](http://www.insor-russia.ru/)

5. [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_82959/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_82959/)

<http://miid.gov.kz/ru/pages/o-protivodeystvii-korrupsii>

Максимов В.К. Понятие коррупции (криминологический аспект) и меры ее предупреждения в государственном аппарате. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук Москва-2005, 32 стр.

Криминология: Учебник для вузов/Под общ. Ред. д.ю.н., проф. А.И.Долговой. – 2-е изд.,



## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

перераб. и доп. – М.: «НОРМА-ИНФРА», 2002. – С. 575.

Коррупцияга қарши кураш тармоғи Истамбул Ҳаракатлар Режаси (ИХР) доирасида Шарқий Европа ва Марказий Осиё давлатларининг 2016-2019 йилларда коррупцияга қарши кураш соҳасидаги ислоҳотлари Мониторинги [www.oecd.org/corruption/acn](http://www.oecd.org/corruption/acn).

Коррупцияга қарши кураш тармоғи Истамбул Ҳаракатлар Режаси (ИХР) доирасида Шарқий Европа ва Марказий Осиё давлатларининг 2016-2019 йилларда коррупцияга қарши кураш соҳасидаги ислоҳотлари Мониторинги [www.oecd.org/corruption/acn](http://www.oecd.org/corruption/acn).



### ХУҚУҚИЙ ТАЪЛИМДА-ДАВЛАТ, ХУҚУҚ, АХЛОҚ ВА МАЊНАВИЯТНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ ВА ТАРИХИЙ НАЗАРИЯСИНИ ЎРГАНИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Nuraliyeva Parvina Bozorboyevna  
Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi  
huquq va tarbiya fani o'qituvchisi

**Аннотация:** Мазкур тезисда бой ҳуқуқий меросимизни таҳлил этишнинг ҳуқуқий асослари таҳлил этилган. Илмий тадқиқотлар соҳасидаги хориж тажрибаси, давлатимизнинг тарихий манбалари таҳлили асосида қиёсий ўрганиш ва шу аснода янги илмий таклифларга эга бўлиш мақоланинг мақсади ва вазифаларини белгилайди.

**Калит сўзлар:** давлат, ҳуқуқ, тарихий манбалар, мерос, илм, тараққиёт, тадқиқот, кадрлар ва ислоҳот

Маълумки, Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқининг пойдевори–миллий давлатчилик таянчлари жуда қадимий ва мустаҳкам бўлиб, у ўзининг тарихий –ҳуқуқий манбаларига бой. Қадимда Турон, Шарқ Уйғониш даврида Мовароуннаҳр, Темурийлар Ренессанси даврида давлат ва ҳуқуқ, ўзбек ҳокимликларида давлатчилик масалалари, суд институтлари, Туркистон ҳудудида равнақ топган давлатлар жаҳон маданиятини ривожлантиришда ёрқин из қолдирган. Мазкур даврларга хос давлат бошқарувида мавжуд бўлган ҳуқуқий муносабатлар, мусулмон ҳуқуқи, Ҳидоя, Темур тузуклари каби манбалар ўз тадқиқотчиларини кутмоқдаки, сўнгги ўн йиллар давомида бу йўналишдаги илмий тадқиқотларга эътибор қаратилмагани, мавзунинг долзарблигини кўрсатади.

Давлатчилигимиз тарихи қушонлар ва эфталитлар давридан бошлаб, Сомонийлар, Қораҳонийлар, Хоразмшоҳлар, Темурийлар давлатлари ва шунингдек, ўзбек хонликларининг давлат бошқаруви тажрибаларини, ҳалқимизнинг миллий, тарихий, ҳуқуқий, мањнавий амалиёти, ҳамда ўз мустақил давлатига эга бўлиш каби асрий орзуистакларини ўзида ифода этган юз минглаб тарихий манбаларда мужассамлашган. Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев ҳақли равишда таъқидлаб ўтганидек: “Бундай қўллэзма фондлар Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси тизимида Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти ва Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейида мавжуд. Истиқлол йиллари ҳалқимизнинг бой қўллэзма меросини сақлаш, бойитиш, ундан фойдаланиш, тарғиб қилиш, тадқиқ қилиш ва нашр этиш соҳасида кўплаб ишлар амалга оширилди. Жумладан, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг янги биноси қурилди. Институт фонди 28 мингга яқин жилдга жойлашган 70 мингдан ортиқ асар, рисола, баёзлардан иборат. Фонд йиллар давомида тўлдирилиб, бойитиб келинмоқда. Бу ерда 6 мингдан ортиқ турли қўллэзма ҳужжат, мактублар ҳам сақланади.

Айниқса, ҳуқуқшуносларимиз учун ҳозир илмий тадқиқотлар учун давлат томонидан алоҳида эътибор қаратилган даврда жумладан, давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев томонидан 29-апрелдаги ПФ-5897 қабул қилинган яъни “Ўзбекистон Республикасида юридик таълим ва фанни тубдан такомилаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони миллий юридик таълим тизимини ҳамда юридик фанни янада ривожлантиришга қаратилган ўта муҳим ҳужжат бўлди.

Бу эса, Ўзбекистоннинг янги даврида умумжаҳон ва миллий давлатчилик тараққиёти қонуниятларини ўзида узвий уйғунлаштирган илмий тадқиқотлар олиб боришни талаб этади.

Иккинчидан, давлат бошқаруви соҳасида кенг амалга оширилаётган жамоатчилик назорати, Жамоатчилик Палатаси, ҳалқ қабулхоналари, қонунийлик каби институтлар қўхна тарихга эга минтақамизнинг бой маданияти асрлар давомида илму-фан дарғалари бўлмиш аждодларимиз ижодида илгари сурилган ғоялар, сиёсий ва ҳуқуқий қарашларни илмий изланишлар орқали энг яхши жиҳатларидан тараққиёт учун қўллаш нафақат бизга, балки бутун башарият учун бебаҳо мерос бўлиб хизмат қиласди.

Учинчидан, мамлакатимиз давлат ва уни бошқариш, қонунчилик ва ҳуқуқ, ҳуқуқий муносабатлар ва одил судлов масалаларини ўз ичига олган бой ҳуқуқий манбаларга эга бўлиб, жумладан (Бурхонуддин Марғинонийнинг “Ҳидоя”, Низомуммулкнинг “Сиёсатнома”, Ҳожа Самандар Термизийнинг “Дастур ул-мулк” каби минглаб тарихий-сиёсий-ҳуқуқий таълимотлар



мавжуд) асарлари илмий изланишларни талаб этади.

Шу мақсадда фармонда қайд этилган давлат, ҳуқуқ ва сиёсий-хуқуқий фикр соҳасида фундаментал ва амалий тадқиқотларни амалга оширадиган Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг Давлат ва ҳуқуқ институтини ташкил этилиши бу тарихий воқеа бўлиб, таҳсинга сазовордир.

Тўртингидан, бугунги кунда ҳалкимиз миллий ўзлигини чукур англаб, маънавий-хуқуқий қадриятларини қайта тиклашга муваффақ бўлиб, бугунги кунда ана шу қадриятлар билан адолатпарвар, ҳалол, вижданан пок юридик кадрларни тайёрлаш орқали коррпүсияга муросасиз янги юристлар мактабини шакллантириш даврини бошлаб юборди.

Бунда Ўрта Осиёлик фақиҳларимизнинг жаҳон ҳуқуқий маданияти тараққиётiga қўшган ҳиссасини чукур тадқиқ этиш давр талабидир. Чунки аждодларимизнинг бой ҳуқуқий тажрибалари ва илмий мероси ўзбек давлати тараққиётiga мустаҳкам маънавий пойдевор бўлиб ҳизмат қиласди.

Зоро, жорий йилдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида ҳам буюк мутафаккирларимизнинг Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг, Баҳоуддин Нақшбандийнинг юбилейларини нишонлаш ҳамда уларнинг ҳаёти ва илмий меросига алоҳида эътибор берилгани мавзунинг нечоғли долзарблигини белгилайди. Агар эътибор берсак, Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг сиёсий-хуқуқий қарашларида илгари сурилган фикрлар ҳамон ҳам аҳамиятини йўқотмаганини кўрамиз. Масалан, “Ёшларга мурожаат”, “Муҳтарам ёшларга мурожаат” мақолаларида маърифатнинг эрк йўлида асосий қурол бўла олишини таъкидлаган. Беҳбудий айниқса, ёшларнинг мустақил фикрли, маънавияти юксак бўлишини орзу қилган. Шунинг учун мазкур мақолаларида ёшларга мурожаат қилиб, замонавий илм эгаллашга катта аҳамият бериш лозимлигини таъкидлаган. Шунингдек, Беҳбудий ота-оналарга ҳам мурожаат қилиб, фарзандларнинг замонавий илмни эгаллаши ҳақида “лозим бўлганда мулкингизни сотсангиз-да ўғлингизни замонча ўқимоғига саъй қилингиз”, -дея маърифатга даъват этган. Дарҳақиқат, илм-маърифат қалбни поклайди, онгни равшанлаштиради. Жумладан, шундай ёзган: “Табиий, мактаб муаллимсиз қўпаймас. Ҳозирда эса, Туркистонда муаллим оз бўлиб, муаллимларга эҳтиёжимиз шундадур. Чунки бу кунларда янги мактаб ҳаваскорини кундан-кун зиёдалашмоқдадирки, муаллимлар мавжуд бўлган тақдирда ҳар йили Туркистонда юзларча мактаб очмоқ мумкиндур”. Эътибор қаратсак, Беҳбудий қаламга олган энг зарур муаммолардан бири мактаб ва илм-фан экан, бу масала ҳамма замонлар учун ҳам биринчи ва асосий бўлиб қолаверади. Демак, Беҳбудий қолдирган маънавий мерос ҳамма замонлар учун ҳам бирдай ҳизмат қолаверади, фақат бу манбаларни ҳуқуқшунослар ҳам ўз илмий ишларида тадқиқот мавзуси даражасида ёритмоғи лозим.

Шунингдек, давлатчиликка оид асарлари ва ҳуқуқий назариялари билан, ислом ҳуқуқи соҳаларини ифода этган фикр илмининг ҳар томонлама ривож топишига улкан ҳисса қўшган мовароуннахрлик олимларнинг асарлари ўз илмий тадқиқотчиларини кутмоқда. Мамлакатимиз тарихий-ҳуқуқий меросида ҳуқуқ соҳаларида янги фан ва мактабларга асос солиш билан бирга, янги ҳуқуқий назариялар яратилганки, улар ҳам бугунги кунда илмий муомалага киришга муҳтож.

Уларнинг ҳар бирини илмий ўрганиш ёш олимлар олдида турган давр талаби ва олимлик бурчидир.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. 2020 йил 29-апрельдаги ПФ-5087 “Ўзбекистон Республикасида юридик таълим ва фанни тубдан тақомилаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги фармони.
2. 2019 йил 8 октябрдаги Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги Фармони Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2020 йил.24-январь
4. Бурхонуддин Марғиноний.Ҳидоя. Тошкент: 2000.
5. Беҳбудий М. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 1999. Б-201



### ЯККА ТАРТИБДАГИ МЕҲНАТ НИЗОЛАРИ ЮЗАСИДАН ИШГА ТИКЛАШ МАСАЛАСИДА СУДЛАРГА МУРОЖААТ ҚИЛИШ ХУҚУҚИНИ ЭГА БЎЛГАН ВАКОЛАТЛИ ОРГАНЛАР БЎЙИЧА ЮЗАГА КЕЛАЁТГАН МУАММОЛАР ЮЗАСИДАН ТАКЛИФЛАР

Мирзаев Фарходжон Тахирович ва  
Гаппарова Назокат Абдукахаровналар  
Фуқарорлик ишлари бўйича Избоскан  
туманларапро судининг судьялари  
Телефон:+99891 111-77-78  
+99890 752-05-55

**АННОТАЦИЯ:** Ҳозирги кунда мамлакатимизда янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси қабул қилинганини муносабати билан айрим ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилиб, ходимларнинг якка тартибдаги меҳнат низолари бўйича уларнинг манфаатини кўзлаб Касаба уюшмаси қўмитаси ва касаба уюшмалари судларга мурожаат қилиш хуқуки борасидаги ваколатлари борасида амалиётда турли хил ёндошувлар, тушунмовчиликлар юзага келмоқда. Мазкур мақола мамлакатимизда янги таҳрирдаги Меҳнат кодекси 559-моддаси биринчи қисмининг 1-бандига ойдинлик киритади ва касаба уюшмаси қўмитаси ва касаба уюшмалари ўртасидаги фарқларни очиб беради ва турли ёндошувларга ечим топиб беради.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** касаба уюшмалари, меҳнат низоси, судга мурожаат қилиш хуқуки, иш берувчи, ходим, меҳнат шартлари, ҳудудий.

Ўзбекистон Республикаси янги таҳрирдаги Меҳнат кодекси 559-моддаси биринчи қисмининг 1-бандига асосан **якка тартибдаги меҳнат низосининг** кўриб чиқилиши учун ходим ёки **касаба уюшмаси қўмитаси** судга мурожаат қилиш хуқуқига эга.

Бироқ, амалиётда Касаба уюшмасининг ҳудудий кенгашлари ҳам якка тартибдаги меҳнат низоси ҳисобланган ишга тиклаш ва иш ҳақи ундириш каби масалалар юзасидан фуқаролик судларига мурожаат қилиб келишмоқда.

Келинг ушбу ҳолатни таҳлил қилсак.

Эски таҳрирдаги Меҳнат кодекси 268-моддасининг 1-бандига кўра ходим, **касаба уюшмаси** ёки ходимларнинг бошқа вакиллик органи меҳнат низосини кўриш ҳақидаги ариза билан судга мурожаат қилиш хуқуки мавжуд бўлган.

Қонун чиқарувчи орган ушбу ҳолатда чет эл тажрибасидан келиб чиқиб, янги таҳрирдаги Меҳнат кодексини қабул қилишда иккита ҳолатда эътибор қаратган.

**бираинчиси**, якка тартибдаги меҳнат низоси тушунчаси.

Эндиликда меҳнат низолари **якка тартибдаги** меҳнат низолари ва **жамоавий** меҳнат низоларига бўлинади. (542-модда)

Эски таҳрирдаги Меҳнат кодексида эса меҳнат низолари алоҳида турларга бўлинмаган ва барчаси умумий меҳнат низолари сифатида кўрсатилган.

Ривожланган мамлакатларда (АҚШ, Германия, Франция ва ҳ.к.) айнан меҳнат низоларининг бир неча турлари мавжуд бўлиб, Ўзбекистонда ҳам хусусий ташкилотларнинг сони ортиб бораётганлиги ва меҳнат низолари ҳам турлари кенгайиб бораётганлиги туфайли Меҳнат кодексига ўзгартириш киритиш эҳтиёжи сезилганлиги учун янги таҳрирдаги Меҳнат кодекси қабул қилинди.

**Якка тартибдаги меҳнат низолари.**

Иш берувчи ва ходим ўртасидаги қуйидаги масалалар бўйича тартибга солинмаган келишмовчиликлар якка тартибдаги меҳнат низоларидир:

меҳнат тўғрисидаги қонунчиликни, меҳнат ҳақидаги бошқа хуқуқий хужжатларни ва меҳнатни муҳофаза қилиш қоидаларини, меҳнат шартномасини қўллаш;

ходим учун якка тартибдаги янги меҳнат шартларини белгилаш ёки мавжуд якка тартибдаги меҳнат шартларини (шу жумладан меҳнатга ҳақ тўлашни) ўзгартириш;

иш берувчи ва мазкур иш берувчи билан илгари меҳнатга оид муносабатларда бўлган шахс ўртасидаги низо;

иш берувчи ва мазкур иш берувчи билан меҳнат шартномаси тузиш истагини



бидирган шахс ўртасидаги низо, агар иш берувчи ушбу шахсни ишга қабул қилишни рад этган бўлса.

### Жамоавий меҳнат низолари.

Ходимлар (уларнинг вакиллари) ва иш берувчилар (уларнинг вакиллари) ўртасидаги:  
янги меҳнат шартларини белгилаш ёки мавжуд меҳнат шартларини (шу жумладан, меҳнатга ҳақ тўлашни) ўзгартериш масалалари бўйича;

жамоа келишувларини, жамоа шартномасини, шунингдек қонунчиликка мувофиқ ходимларнинг вакиллари билан келишилган ҳолда қабул қилинадиган меҳнат ҳақидаги бошқа хукуқий хужжатларни тузиш ва ўзгартериш масалалари бўйича;

меҳнат тўғрисидаги қонунчиликни, меҳнат ҳақидаги бошқа хукуқий хужжатларни ва меҳнатни муҳофаза қилиш қоидаларини қўллаш масалалари бўйича тартибга солинмаган келишмовчиликлар **жамоавий меҳнат низолари**дир.

Кўриниб турибдики, иш берувчи ва ходим ўртасидаги меҳнат шартномасида келишилган шартлар юзасидан келиб чиқадиган низолар бу якка тартибдаги меҳнат низолари ва аксинча ходимлар ва иш берувчи ўртасида умумий масалаларда келиб чиқадиган низолар жамоавий низолар ҳисобланди.

Эндиликда Ўзбекистонда ҳам айнан меҳнат низолари кенг тарзда тушунтириб берилди.

иккичинси, **касаба уюшмаси қўмитаси** ва **касаба уюшмаси** деган сўзларга ургу берилди, яъни эски таҳрирдаги қоидаларда касаба уюшмаси деб кўрсатиб кетилган бўлса, эндиликда янти таҳрирдаги Меҳнат кодексида айнан касаба уюшмаси қўмитаси деб аниқ кўрсатилди.

Нима учун деган савол туғилади.

Келинг шу масалага ҳам ойдикнлик киритсак.

Ўзбекистон Республикасининг 06.12.2019 йилда қабул қилинган “Касаба уюшмалари тўғрисида”ги Қонуни З-моддасида касаба уюшмаларига таърифлар берилган.

Ҳусусан,

**касаба уюшмаси** — фуқароларнинг ўз фаолияти ёки ўқиши тури бўйича умумий касбий манфаатлари билан боғлиқ бўлган, уларнинг меҳнатга оид, бошқа ижтимоий-иқтисодий хукуқ ва манфаатларини ифодалаш ҳамда ҳимоя қилиш мақсадида тузиладиган, ўз устави асосида фаолият кўрсатадиган ихтиёрий жамоат бирлашмаси;

**бошланғич касаба уюшмаси ташкилоти** — бир ёки бир нечта иш берувчида ишлайдиган ёки тегишли таълим муассасасида ўқийдиган касаба уюшмаси аъзоларининг тегишли касаба уюшмаси устави асосида фаолият кўрсатадиган ихтиёрий бирлашмаси;

**касаба уюшмаларининг бирлашмаси** — ходимларнинг касбий, меҳнатга оид, ижтимоий-иқтисодий хукуқ ва манфаатларини амалга ошириш ҳамда ҳимоя қилинган тармоқка доир, худудий ёки касбий ўзига хосликни ҳисобга олувчи бошқа белги бўйича тузиладиган ихтиёрий бирлашма;

**касаба уюшмасининг бўлинмаси** — касаба уюшмасининг уставига мувофиқ ташкил этиладиган, тегишли худудда унинг вазифаларини ёки вазифаларининг бир қисмини амалга оширадиган бўлинма.

Ушбу тушунчаларни оддийроқ тушунтирадиган бўлсан касаба уюшмаси бу умумий фуқароларнинг меҳнатига оид масалалар билан шуғулланувчи ташкилот, яъни Ўзбекистонда Республика Касаба уюшмалари Федерацияси.

бошланғич касаба уюшмаси ташкилоти эса, бу айнан ходим ишлайдиган ёки ўқидиган ташкилот ва муассасада ушбу ташкилотнинг меҳнат жамоаси ичдан ходимлар томонидан сайланадиган касаба уюшмаси қўмитаси ҳисобланади. Бу қоида янги таҳрирдаги Меҳнат кодексида кўрсатиб кетилган. (МКнинг 6-моддаси ва 42-моддалари)

Кейинги ташкилотлар (касаба уюшмаларининг бирлашмаси) оддий қилиб айтганда тармоқ касаба уюшмалари, яъни тиббиёт, таълим ва бошқа соҳаларда айнан ушбу йўналишларда ташкил тэтилган касаба уюшмалари ҳисобланади.

Сўнгиси Республика Касаба уюшмалари Федерациясининг ҳар бир вилоятдаги худудий Кенгашлари ёки бирлашмалари.

**Демак, юқоридагилардан холоса қилсак касаба уюшмасининг ҳудудий бирлашмалари** бу Республика Касаба уюшмалари Федерациясининг ҳар бир вилоятдаги бўлимлари бўлса, касаба уюшмаси қўмитаси бу ҳар бир ташкилотдаги ички меҳнат жамоси ичдан сайланган ходимларнинг вакиллик органи ҳисобланди.



## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

Ўз ўзидан нима учун Янги таҳрирдаги Меҳнат кодексида якка тартибдаги меҳнат низоларини фақатгина касаба уюшмаси қўмитаси ходимлар манфаатини ўйлаб судга мурожаат қилиш хуқуқи берилди.

Чунки, ривожланган мамлакатларда ҳар бир компания ва йирик ташкилотларда айнан ушбу ташкилотдаги Касаба уюшмаси қўмиталарининг мустақиллиги ва роли жудаям кучли.

Бизда эса, эндиғина ривожланиб бормоқда.

Шу сабабли амалда касаба уюшмаси қўмитаси айнан иш берувчида ишлайдиган ходимлар орасидан сайланганлиги сабабли бўйсунув хусусияти мавжуд.

Шунинг учун камдан-кам ҳолларда ташкилотнинг касаба уюшмаси қўмитаси ходимлар манфаатини ўйлаб якка тартибдаги меҳнат низоси бўйича судларга мурожаат қиласди.

Бироқ Конунлар бизда жуда ҳам мукаммал ишлаганлиги ва халқаро тажрибага таянганлиги учун олдиндан ушбу қоидаларга ҳам ўзгартириш киритилди.

Чунки, тез орада йирик компаниялар ва ташкилотларда ҳам айнан Касаба уюшмаси қўмиталари мустақил ва ҳеч кимга бўйсунмайдиган ташкилотга айланиши кўзда тутилган.

Амалиётда жу жиҳатга эътибор берилмасдан Меҳнат кодекси 559-моддаси биринчи қисмининг 1-банди судлар томонидан нотўғри талқин қилинмоқда.

Гўёки Ўзбекистон Республикаси Олий суд пленумининг 20.11.2023 йилдаги “Судлар томонидан меҳнат шартномасини бекор қилишни тартибга солувчи қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида”ги 26-сонли қарорида тушунтириш бериб кетилганидек.

Пленум қарорида айнан касаба уюшмаси ва касаба уюшмаси қўмитаси ўртасидаги фарқ ва айнан кимлар якка тартибдаги меҳнат низолари бўйича судларга ариза билан мурожаат қилиш мумкинлиги аниқ кўрсатилмаган.

Биргина 7-банднинг учинчи хатбошисида судларга МК 540-моддасининг учинчи қисми ҳамда “Касаба уюшмалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 27-моддасига мувофиқ, касаба уюшмалари, уларнинг бирлашмалари, бўлинмалари ва бошланғич касаба уюшмалари ташкилотлари ходимларнинг манфаатида меҳнат хукуқларини ҳимоя қилиб, судга мурожаат қилишга ҳақли эканлигига қаратиш ҳақида тушунтириш берилган холос.

Лекин янги таҳрирдаги Меҳнат кодексининг 559-моддасида кўрсатилган касаба уюшмаси қўмитаси деган сўзга ва Меҳнат кодексининг бошқа моддаларида айнан қайси даражада худудий, тармоқ ва республика даражасида меҳнат низолари хусусий судларга мурожаат қилиш хуқуқи мавжудлиги тушунтириб берилмаган.

Шунингдек, ижтимоий шерикчilik ҳақида ҳам тушунчалар берилмаган.

Яъни Меҳнат кодексининг 42-моддасида ташкилотда ёки жисмоний шахс бўлган иш берувчида ходимларнинг вакиллигини ҳамда уларнинг хукуклари ва манфаатларини ҳимоя қилишни **бошланғич даражада касаба уюшмаси қўмитаси** амалга оширади. Ходимларнинг ва иш берувчиларнинг манфаатларини айнан битта вакиллик органи ифода этиши ҳамда ҳимоя қилиши мумкин эмас.

Ходимлар вакиллигини, уларнинг хукуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишни қўйидагилар амалга оширади:

**худудий ва тармоқ даражаларида** — тегишли касаба уюшмалари, уларнинг бирлашмалари ва бўлинмалари (бундан буён матнда худудий ва тармоқ касаба уюшмалари бирлашмалари деб юритилади);

**республика даражасида** — республика касаба уюшмалари бирлашмалари.

Хулоса шуки, айнан якка тартибдаги меҳнат низолари бўйича битта иш берувчида фақатгина касаба уюшмаси қўмитаси судга мурожаат қилиш хукуқига эга холос.

Бошқа Касаба уюшмаларининг худудий бирлашмалари эса умумий меҳнат масалалари юзасидан ходимлар манфаатини қўлаб судларга мурожаат қилишлари мумкин.

Шу боис Пленум қарорини қайта қўриб чиқиши ва тегишли тузатишлар киритиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз ва амалиётда бу нарса қатъий ечими топилади деган умиддамиз.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг эски таҳрирдаги Меҳнат кодекси, 1995 йил, ЎРҚ-161-1-сон, 268-моддаси.
2. Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Меҳнат кодекси, 2023 йил, ЎРҚ-798-сон, 42, 540 ва 559-моддалари.
3. Ўзбекистон Республикасининг Ўзбекистон Республикасининг “Касаба уюшмалари



тўғрисида”ги Қонуни, 2019 йил, 3-моддаси.

4. Ўзбекистон Республикаси Олий суд пленумининг 20.11.2023 йилдаги “Судлар томонидан меҳнат шартномасини бекор қилишни тартибга солувчи қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида”ги 26-сонли қарори, 7-банди.



ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

YUSUF XOS HOJIBNING AXLOQIY QARASHLARINI SHAKLLANISHINING  
TARIXIY-IJTIMOIY OMILLARI

Berdaliyeva Sevara Damirovna

Alfraganus universiteti

“Pedagogika va psixologiya”

kafedrasи o'qituvchisi

Email: sevaraberdalieva54@gmail.com

Tel: +998 955852710

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlarini shakllanishining tarixiy-ijtimoiy omillari haqida batafsil yoritilgan. Maqolada, shuningdek, muallifning mavzuga doir fikrlari, asaridan parchalar, turli tadqiqotchilarining fikr mulohazalarini taqqoslagan va tahlil qilgan holda yoritib beriladi. Bundan tashqari, “Qutadg'u bilig” asarining tarixiy hamiyati ham olib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy qadriyat, buyuk mafkura, olam, jamiyat, insonparvarlik, davlat, boshqaruv, burch, bilim, zakovat, qadr, halollik, hurmat, oqibat, odob.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadgu bilig” asari, o‘z davrining axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarini aks ettirgan muhim manbadir. “Qutadg'u bilig” – buyuk mafkuraviy, falsafiy asar. Bobolarimizning yuzyilliklar osha bizga qoldirgan olam va jamiyat haqidagi qarashlari badiiy marjonga tizilgan kitob. Yusuf Xos Hojib o‘zining ilg’or insonparvarlik qarashlari, davlat va jamiyat boshqaruvi, yurtning rivoji, davlatdagi turli mansab egalarining burchi, ularga qo'yildigan talablar, bilim va zakovatning qadri, halollik, kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, oqibat, odob, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi o'y-fikrlarini asar qahramonlarining tilidan munozara-tortishuvlari asosida yoritib beradi. “Qutadg'u bilig” asari o’rtalarda turk dunyosidagina emas, butun Sharq adabiyotida shoh kitob sifatida dovrug’ qozondi. Shu bois ham asar bir necha avlod turkologlar tomonidan muntazam ravishda o’rganilib, tadqiq etib kelinmoqda[2:4]”.

Shunday qilib, Hojibning asari zamon bilan ajralmas bog‘lanishga ega bo‘lib, ma’naviy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi, hayotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi manba sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. “Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish bugungi kunimizning asosiy vazifalaridan biridir[3:6].

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u Bilig” asari o‘zbek adabiyotining nodir durdonalaridan biri hisoblanadi. Bu asar XI asrda yozilgan bo‘lib, turkiy tilida yaratilgan dastlabki asarlar qatoriga kiradi. Uning nomi “Dono bo‘lish uchun qo‘llanma” ma’nosini anglatadi va asar bir qator mavzularni, jumladan, axloq, siyosat, va bilim haqida mulohazalar keltiradi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u Bilig” asari, o‘z zamonining ijtimoiy, madaniy va axloqiy muammolarini o‘z ichiga olgan muhim bir asar. U nafaqat o‘z zamonida, balki hozirgi kunda ham insoniyat uchun ahamiyatli saboqlarni o‘z ichiga oladi. Bu asar, “o‘zini rivojlantirish, ma’rifat va axloqiy qadriyatlarni saqlashga chaqiradi. usuf Xos Hojibning “Qutadg'u Bilig” asari ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar nuqtai nazaridan beqiyos ahamiyatga ega[6:269]”.

Yusuf Xos Hojiyning “Qutadg'u Bilig” asari bugungi kunda ham dolzarb va ahamiyatli bo‘lib qolmoqda. Ushbu asar, “insoniyat uchun ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni o‘rganish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va adolatli jamiyat qurish yo‘lida zarur bo‘lgan qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. O‘zining doimiy noyobligi va insoniyat tarixidagi o‘rnii bilan bog‘liqdir[5:32]”.

Asar orqali o‘rganiladigan axloqiy va ijtimoiy saboqlar, har doim ahamiyatini saqlab qoladi. “Aytish joizki, asrlar oshsada aholida farovon hayot kechirishga bo‘lgan intilish aslo kamaymadi. O‘rtalarda davrida xalqlarning shakllanish jarayoni ro‘y berdi, madaniyat va san’at yuksaldi. Sharqda Uyg‘onish madaniyati, Sharq Renessansi yuz berdi. O‘rtalarda Osiyoda islom dini tufayli musulmon madaniyati



shakllana boshladi. Tabiiy, ilmiy fanlar bilan birga diniy ta’limot rivoj topdi[4:14-19]”.

Bugungi kunda yoshlар zamонавиј тизимининг имкониятларидан ва innovatsion yondashuvlardan ilhomlanib, o‘z maqsadlariga erishish uchun faol harakat qilishmoqda. Global muammolarni hal qilishda, ijtimoiyadolatni ta’minlashda va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda jasur qadamlar tashlamoqdalar. Yoshlarning fikrlari va g‘oyalari, ijtimoiy o‘zgarishlar uchun zarur bo‘lgan yangi yondashuvlarni olib kelishi bilan birga, kelajakda katta o‘zgarishlarning yo‘lboshchisi bo‘lish umidini baxsh etadi. Ularning yurtga, jamiyatga bo‘lgan sodiqligi va intilishlari, albatta, kelajagimizni porloq va yuksak maqsadlar sari yo‘naltiradi.

“Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, Uyg‘onish davri kuzatilishi uchun qulay sharoit bo‘lishi bilan birgalikda, taraqqiyotga to‘siq bo‘luvchi omillar ham hal qilingan bo‘lishi shartdir[1:28]”. Shuningdek, yoshlarni tarbiyalash va ularga yetarlicha imkoniyatlar yaratish – jamiyatning vazifasi. Shuning uchun, yoshlarning fikrlari va ishtiyoqi, har birimiz uchun katta ahamiyatga ega. Ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, kelajagimizni porloq qilish yo‘lidagi eng muhim qadamdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar / Использованная литература / References

1. Muhamedov A.A. “Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten ijtimoiy-falsafiy merosining komparativistikasi”: Falsafa fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Andijon, 2024.
2. Гулчехра Рихсиева, Тошкент давлат шарқшунослик университети ректори. Табрик сўзи. ЖАҲОН ТУРКОЛОГИЯСИННИГ БЮОК ОБИДАСИ “ҚУТАДҒУ БИЛИГ” ВА УНИ ЎРГАНИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ ХАЛҚАРО КОНФЕРЕНЦИЯ ТЎПЛАМИ. – Тошкент, 2020.
3. Мирзиеев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021.
4. Муминов А. Г. Ўзбекистон барқарор ривожланиш йўлида. Философия и право, 2023, 25 (2).
5. О.А.Орлова. Эсхатологические мотивы в творчестве М. А. Булгакова (на материале романов «Белая гвардия» и «Мастер и Маргарита»). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – М, 2008.
6. Современное образование как открытая система (под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. Филонова, О.В. Суходольской-Кулешов ой). - "Институт научной и педагогической информации РАО, "ЮРКОМПАНИ", 2012 г.



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### XALQARO MUZEYLAR KENGASHI FAOLIYATI

Muazzamxon Maxmudova Sultonmaxmudovna

Farg‘ona davlat universiteti Jahon tarixi

kafedrasi katta o‘qituvchisi, (PhD).

maxmudovamuazzam1982@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Xalqaro muzeylar kengashining tashkil topishi, uning faoliyati, muzeylarning Kasbiy axloq kodeksi, moddiy yodgorliklarning talon-taroj qilinishiga qarshi e’lon qilingan “Qizil ro‘yxat” va muzeylar faoliyatini yorituvchi “ICOM News” jurnali haqida ma’lumot beriladi.

**KALIT SO‘ZLAR:** Xalqaro muzeylar kengashi, ICOM, muzeylar, Bosh Assambleya, muzey ta’rifi, “IKOM yangiliklari” jurnali.

Xalqaro muzeylar kengashi (ICOM) – muzeylar va muzey xodimlari uchun eng muhim xalqaro tashkilot hisoblanadi. ICOM yillar davomida jahon muzeylari faoliyatini takomillashtirish borasida samarali ishlarni amalga oshirdi. Xalqaro muzeylar kengashining asosiy maqsadi madaniy boyliklarni himoya qilish, saqlash va namoyish qilishdan iborat. Xalqaro muzeylar kengashi ICOM 1946-yilda muzey xodimlari tomonidan Parijda tashkil etilgan. Bosh Assambleya ICOMning qaror qabul qiluvchi organi hisoblanib, u Ijroiya kengashi a’zolarini saylaydi va ICOMning Strategik rejasini qabul qiladi. Bosh Assambleya har uch yilda ICOMning Maslahat qo‘mitasi bilan bir vaqtida yig‘iladi.

Xalqaro muzeylar kengashining faoliyati yillar davomida kengayib bordi. Bosh Assambleya tomonidan 1946-1947-yillarda Fransiya va Meksikada konferensiya tashkillandi. 1948-1965-yillar oralig‘ida esa Bosh Assambleya jami yettita konferensiya o‘tkazdi. Mazkur yillar mobaynida tashkilot geografik jihatdan takomillashib bordi. 1962-yilda Gaagada va 1965-yilda Nyu-Yorkda o‘tkazilgan konferensiyalarda muzeylarning tarbiyaviy ahamiyati, ko‘rgazmalar tashkil etish, madaniy boyliklarning xalqaro almashuvi hamda madaniy boyliklarni saqlash va tiklash masalalariga e’tibor qaratildi. Keyingi davrlarda ICOM o‘z nigojni 1977-yildan boshlab rivojlanayotgan davlatlarga qaratdi. Bosh Assambleya tomonidan 1977-yilda Moskvada rezolyutsiya qabul qilindi. Rezolyutsiyada Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlari muzey xodimlari va restavratorlarini tayyorlash ko‘zda tutilgan edi. 1996-yildan ICOM faoliyatining yangi davri boshlandi. Ushbu yilda ICOM “Qizil ro‘yxat” va “Yuzta yo‘qolgan ob‘yektlar” turkumini ishlab chiqish orqali madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashni kuchaytirdi. ICOM Osiyodagi birinchi Bosh konferensiyasini 2004-yilda Koreyaning Seul shahrida o‘tkazdi[1].

ICOM jahon hamjamiyatidagi muzeylar va muzey mutaxassislari uchun eng muhim xalqaro tashkilot bo‘lib, 138 dan ortiq davlatdan 50 000 ga yaqin a’zolarni birlashtiradi. ICOM tarkibida Albaniyadan Zambiyagacha bo‘lgan 123 ta milliy qo‘mitalar va yettita mintaqaviy alyanslar (Arab, Osiyo-Tinch okeani, Yevropa, Lotin Amerikasi va Karib havzasasi, G‘arbiy Afrika, Shimoliy Yevropa va Janubi-Sharqiy Yevropa) mavjud. Shuningdek, kiyim-kechak, tabiatni muhofaza qilish, tarixiy uy-muzeylar, memorial muzeylar, tabiiy tarix va axloqiy dilemmalar kabi o‘ziga xos qiziqish sohalariga e’tibor qaratadigan 32 ta xalqaro qo‘mitalar mavjud. Tashkilot tarkibida to‘rtta ishchi guruh va sakkizta doimiy komissiya, jumladan, Muzey ta’rifi, istiqbollari va salohiyati qo‘mitasi (MDPP) faoliyat yuritadi[2:19].

2007-yilda Avstriyaning Vena shahrida bo‘lib o‘tgan ICOM Bosh Assambleyasida muzeyning quyidagi ta’rifi qabul qilingan: “Muzey – jamiyat va uning rivojlanishiga xizmat qiluvchi, tomoshabinlar uchun ochiq, ko‘ngilochar maskan bo‘lib qolmay, insoniyatning moddiy va nomoddiy merosini saqlash, o‘rganish, tadqiq qilish va bilimni targ‘ib qilish maqsadida yoshlarga davlatlar tarixi, ajdodlar va ota-bobolar bosib o‘tgan yo‘llar haqida ma’lumot beradigan, o‘tmishga iftixon bilan qarashga o‘rgatadigan, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish bilan birga ularning



dunyoqarashini oshiradigan, badiiy estetik didni kuchaytiradigan doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi notijorat muassasadir”.

2022-yil 24-avgustda Chexiya Respublikasining Praga shahrida bo‘lib o‘tgan ICOM Bosh konferensiyasida Xalqaro muzeylar kengashi tomonidan muzeyning yangi ta’rifi qabul qilindi. Taklif butun dunyo bo‘ylab 126 milliy ICOM qo‘mitalaridan yuzlab muzey mutaxassislari ishtirok etgan 18 oylik ishtirok etish jarayonidan so‘ng a‘zolar uchun ovoz berishda ma’qullandi. Unda muzeylarga quyidagicha ta’rif berilgan: Muzey moddiy va nomoddiy merosni tadqiq etish, to‘plash, saqlash, sharplash va namoyish etish bilan shug‘ullanuvchi notijorat, jamiyat xizmatidagi doimiy muassasadir. Omma uchun ochiq, hammabop va inkylyuziv muzeylar xilma-xillik va barqarorlikni ta’minlaydi. Ular axloqiy, professional va jamoalar ishtirokida ishlaydi va muloqot qiladi, ta’lim, dam olish, fikr yuritish va bilim almashish uchun turli xil tajribalarni taklif qiladi[3].

Muzeylar uchun Xalqaro muzeylar kengashi Kasbiy axloq kodeksini ishlab chiqqan[4]. ICOMning Kasbiy axloq kodeksi 1986-yil 4-noyabrda Buenos-Ayresda (Argentina) ICOMning 15-Bosh Assambleysi tomonidan bir ovozdan qabul qilingan. ICOM axloq kodeksiga 2001-yil 6-iyulda tashkil etilgan Barselonadagi (Ispaniya) 20-Bosh Assambleya tomonidan o‘zgartirishlar kiritilgan. Seulda (Koreya Respublikasi) 2004-yil 8-oktyabrda o‘tkazilgan 21-Bosh Assambleya tomonidan qayta ko‘rib chiqilgan. Axloq kodeksi 38 xil tilga tarjima qilingan. Kodeks xalqaro muzey hamjamiyati tomonidan umumiy qabul qilingan tamoyillarni aks ettiradi.

Bugungi kunda ba‘zi bir mamlakatlarda tarixiy va madaniy boyliklarni talon-taroj qilish, kontrabanda va o‘g‘rilik holatlari uchrab turibdi. Shunday holatlarni bartaraf etish uchun ICOM tashkiloti 2000-yilda madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish maqsadida o‘zining “Qizil ro‘yxat”ini e’lon qildi. Masalan, ICOM 2015-yilda qora bozorda sotilishi xavfi ostida bo‘lgan Iroq qadimiylarining favqulodda “Qizil ro‘yxat”ini e’lon qildi. Ro‘yxatga kiritilgan ob‘yektlar orasida haykallar, tosh lavhalar, vazalar va tangalar bo‘lib, ro‘yxatda barcha madaniy yodgorliklarning tasviri va maxsus xususiyatlarining tavsifi qayd qilingan bo‘lib, bojxona va politsiya xodimlariga o‘g‘rilangan madaniy boyliklarni aniqlashni osonlashtiradi[5]. “Qizil ro‘yxat”ga e’tibor qaratilsa, asosan, mojaroli davlatlar ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Xalqaro muzeylar kengashi 1948-yildan boshlab “ICOM News” jurnalini nashr qilib kelmoqda. Ushbu jurnal bir yilda uch marta nashr qilinadi. “ICOM News” – muzey mutaxassislari uchun hisobotlar va tahliliy maqolalar, muzey xodimlari bilan suhabatlar va amaliy ma’lumotlarni taqdim etadigan jurnal. “ICOM News” yangiliklarni to‘playdi, shuningdek, muzey jamoatchiligining hisobotlari, muzey xodimlari bugungi kunda duch kelayotgan muammolar haqida maqolalar va muhokamalarni o‘quvchilarga taqdim qiladi[6].

Xalqaro muzeylar kengashi bugungi kunda bir nechta xalqaro tashkilotlar bilan, jumladan, UNESCO (Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti – xalqaro hukumatlararo tashkilot), ALECSO hamkorligi (Arab Ligasi mamlakatlarida madaniy va tabiiy merosni saqlash va boshqarish strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha hamkorlik), INTERPOL (Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti), Jahon bojxona tashkiloti bilan hamkorlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro muzeylar tashkilotining asosiy maqsadi insoniyat va tabiatni qadimdan boshlab to hozirgi kungacha bo‘lgan tarixini o‘rganish, moddiy ashyolarni saqlash, to‘plash, namoyish qilish hamda kelgusi avlodga yetkazishdir. Bugungi kunda Xalqaro muzeylar tashkiloti a‘zolari muzeylarning keljakdagi faoliyati yuzasidan qizg‘in munozaralar olib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda muzeylar tarixiy merosni targ‘ib qilibgina qolmasdan, dam olish maskani vazifasini ham bajaradi. Tashkilot a‘zolari kelgusida muzeylarni omma uchun yanada jozibador qilish haqida fikr-mulohazalar yuritmoqdalar.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

- [1]. <https://icom.museum/en/about-us/history-of-icom>
- [2]. Andreas Etges., Devid Dean. The International Council of Museums and the Controversy about a New Museum Definition – A Conversation with Lauran Bonilla-Merchav, Bruno Brulon Soares, Lonnie G. Bunch III, Bernice Murphy, and Michèle Rivet. International Public History. 2022; 5(1): 19–27.
- [3]. <https://www.ne-mo.org/news-events/article/new-icom-museum-definition-approved#:~:text=%E2%80%9CA%20museum%20is%20a%20not,museums%20foster%20>



diversity%20and%20sustainability

[4]. ICOM Code of Ethics for Museums. – ICOM, 2013. – 22 p.

[5]. <https://artguide.com/news/3176>

[6]. <https://tariksamarah.com/en/announcement-of-the-project-1945-1995-2015-in-icom-news/>



### "MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY HAYOTDA TUTGAN O'RNI" (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

**Maxmudova Orasta Mansur Qizi**  
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti  
talabasi 2-kurs magistranti  
Telefon: +998941298998  
maxmudovaorasta992@gmail.com

#### О‘zbekcha:

Mazkur maqolada mustaqillik yillarda Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda tutgan o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida muammoga yondashuvlar va metodologiyalar qo‘llanilib, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va ta’siri aniqlandi. Olingan natijalar ijtimoiy taraqqiyotga qo‘shilgan hissalarni yoritadi.

#### Русский:

В данной статье анализируется роль женщин в социально-экономической и политической жизни Каракалпакской области в годы независимости. В исследовании применены подходы и методологии для раскрытия темы, а также выявлены вклад и влияние женщин в обществе. Полученные результаты подчеркивают вклад в социальное развитие.

#### English:

This article analyzes the role of women in the socio-economic and political life of the Kashkadarya region during the years of independence. The study employs approaches and methodologies to explore the topic, highlighting women's contributions and influence in society. The findings underscore their impact on social development.

#### О‘zbekcha:

Mustaqillik, xotin-qizlar, ijtimoiy hayot, iqtisodiy rivojlanish, siyosiy ishtirok, Qashqadaryo viloyati, gender tengligi, jamiyat, ta’sir, taraqqiyot.

#### Русский:

Независимость, женщины, социальная жизнь, экономическое развитие, политическое участие, Каракалпакская область, гендерное равенство, общество, влияние, развитие.

#### English:

Independence, women, social life, economic development, political participation, Kashkadarya region, gender equality, society, influence, development.

#### Kirish

Mustaqillik yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda tutgan o‘rni masalasi jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati misolida xotin-qizlarning jamiyatga qo‘shayotgan hissasi va ularga yaratilgan sharoitlarni tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi mustaqillik yillarda Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlarning turli sohalarda tutgan o‘rnini o‘rganish, ularning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholashdir.

Tadqiqot ob’ekti sisatida Qashqadaryo viloyatidagi xotin-qizlarning turli sohalarda amalga oshirgan faoliyatlar va ularning jamiyatga bo‘lgan ta’siri tanlangan. Maqolada tadqiqot natijalari asosida xotin-qizlarning jamiyat rivojlanishiga qo‘shgan hissasini aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur ishning ilmiy ahamiyati gender tengligini ta’minalash va xotin-qizlarning ijtimoiy ishtirokini kuchaytirish bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni boyitishda, amaliy ahamiyati esa tegishli siyosiy va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi.

Keyingi qismlarda tadqiqot metodologiyasi, asosiy natijalar va tahlillar yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tanqidiy tahlili

Mustaqillik yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda tutgan o‘rniga oid tadqiqotlar so‘nggi yillarda keng muhokama qilinmoqda. Mavzuga oid ilmiy manbalarda xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, gender tengligi masalalari, shuningdek, mahalliy sharoitdagi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarning ularning hayotiga ta’siri atroficha o‘rganilgan.

Ko‘plab tadqiqotlar xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi jamiyatdagi tenglikni ta’minalashda asosiy omil ekanini ta’kidlaydi (Maslova, 2020; Karimova, 2021). Shu bilan birga, ba’zi manbalarda gender



tengligini ta'minlash jarayonida uchraydigan to'siqlar, xususan, ijtimoiy stereotiplar va iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi haqida ham fikr bildirilgan (Brown & Smith, 2019).

Qashqadaryo viloyati misolida olib borilgan tadqiqotlar esa yetarlicha keng va chuqur emasligi ko'rinadi. Mahalliy tadqiqotchilar xotin-qizlarning siyosiy ishtirokini kuchaytirish bo'yicha amaliy yondashuvlarni kamroq o'rgangan bo'lib, mavjud asarlar ko'proq umumiy fikrlar va global misollar bilan cheklangan (Saidov, 2022).

Shuningdek, ba'zi zamonaviy tadqiqotlarda xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeい va iqtisodiy imkoniyatlari bo'yicha davlat siyosatining ta'siri aniq statistik ma'lumotlar bilan boyitilmagan. Bu esa muammoning holatini real baholashda ayrim bo'shliqlarni keltirib chiqarmoqda.

Ushbu tahlildan kelib chiqib, mazkur tadqiqot xotin-qizlarning mustaqillik yillarda Qashqadaryo viloyatida turli sohalarda tutgan o'rnini yanada chuqurroq va aniqroq yoritib berishga qaratilgan. Bu orqali mavzuga oid ilmiy bo'shliqlarni to'ldirish va mavjud bilimlarni boyitishga intilish amalga oshiriladi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda mustaqillik yillarda Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagagi o'rnini aniqlash va baholash maqsad qilingan. Tadqiqot umumiy xaritasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

#### Tadqiqot falsafasi va yo'naliishi

Tadqiqot deduktiv yondashuvga asoslangan bo'lib, mavjud nazariyalar va dalillar asosida empirik tahlil amalga oshirildi. Ushbu yondashuv mavzuning ilmiy asoslilagini ta'minlash va mavzuga oid xulosalarni aniq ifodalash imkonini berdi.

#### Tadqiqot dizayni

Tadqiqot dizayni sifatida keys-stadi va kuzatish usullari tanlandi. Keys-stadi usuli yordamida Qashqadaryo viloyatidagi aniq holatlar va jarayonlar o'rganildi, kuzatishlar orqali esa xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligi bevosita tahlil qilindi.

#### Ma'lumotlarni yig'ish usullari

##### 1. Birlamchi manbalar:

o Intervyu: Mahalliy xotin-qizlar, davlat boshqaruvi vakillari va nodavlat tashkilotlar xodimlari bilan suhabatlar tashkil etildi.

o Savolnomalar: Jamiyatdagi xotin-qizlarning o'z hayotiy sharoitlari va faoliyoti haqidagi fikrlarini aniqlash uchun savolnomalar tarqatildi.

##### 2. Ikkilamchi manbalar:

o Ilmiy maqolalar, davlat hisobotlari, xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari.

o Mahalliy hokimiyat organlari va gender tengligi sohasidagi tashkilotlarning hujjatlari.

#### Namuna olish (Sampling)

Namuna olish jarayonida stratifikatsion usul qo'llanildi. Tadqiqot uchun Qashqadaryo viloyatidagi shahar va qishloq hududlaridan 150 nafar respondent tanlab olindi. Respondentlar orasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faoliyatda ishtirok etuvchi xotin-qizlar alohida guruh sifatida ajratildi.

#### Tadqiqot strategiyasi

Tadqiqot strategiyasi sifatida arxiv tadqiqotlari va kuzatishdan foydalanildi. Mahalliy sharoitda xotin-qizlarning faolligini o'rganish uchun uzoq muddatli kuzatishlar o'tkazilib, statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

#### Ishonchlilik va anqlik (Reliability and Validity)

Tadqiqotning ishonchliligi olingan ma'lumotlarning bir nechta manbalar orqali tasdiqlanishi va takrorlanishi orqali ta'minlandi. Anqlik esa ma'lumotlar yig'ishda foydalanilgan usullarning standartlashtirilganligiga e'tibor qaratish orqali ta'minlandi.

#### Tadqiqot etikasiga rioya qilish

Tadqiqot davomida barcha respondentlaming shaxsiy ma'lumotlari maxfiy saqlandi. Respondentlaming roziligi asosida ma'lumotlar yig'ildi va ularidan faqat ilmiy maqsadlarda foydalanildi.

Ushbu metodologik yondashuv Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlarning mustaqillik yillarda jamiyatda tutgan o'rnini chuqur va ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

#### Tahlil va natijalar

Tadqiqot doirasida yig'ilgan ma'lumotlar belgilangan metodologiyaga muvofiq tahlil qilindi. Quyida asosiy tahlillar va topilgan natijalar keltiriladi:

##### 1. Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatdagi ishtirok



Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlar asosan quyidagi sohalarda faol ishtirok etmoqda:

- Ta'lif va sog'liqni saqlash: Ushbu sohalarda xotin-qizlar ulushi 60% dan oshadi.
- Iqtisodiy faollik: Savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida xotin-qizlar ishtiroki 45% ni tashkil qiladi, biroq qishloq xo'jaligida bu ko'rsatkich 30% ga yaqin.

### 2. Siyosiy faoliyatdagi ishtirok

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi faolligi sezilarli darajada ortgan:

- Viloyatdagi mahalliy kengashlarda xotin-qizlar ulushi 2010-yildan 2023- yilgacha 10% dan 25% ga oshgan.

#### • Siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etuvchi xotin-qizlar soni 15% ga yetgan.

### 3. Gender tengligi va ijtimoiy muammolar

Savolnoma natijalari asosida gender tengligiga oid quyidagi muammolar aniqlandi:

- Respondentlaming 70% i xotin-qizlar iqtisodiy imkoniyatlarga teng kirish huquqiga ega emasligini ta'kidladi.

#### • Xotin-qizlarning 40% i yetarli darajada siyosiy qo'llab-quvvatlovga ega emasligini bildirdi.

### 4. Ta'lif va malaka oshirish

Xotin-qizlar o'rtaida oliv ta'limga ega bo'lganlar ulushi 15% ni tashkil qiladi, bu ko'rsatkich 2000-yillarga nisbatan 5% ga oshgan.

### 5. Hududiy farqlar

Shahar va qishloq hududlaridagi faollik o'rtaida sezilarli farqlar kuzatildi:

- Shahar hududida iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchi xotin-qizlar ulushi 50% ga yaqin bo'lsa, qishloq hududlarida bu ko'rsatkich 20% ni tashkil qiladi.

Tahlil usullarining qo'llanilishi

Tahlillar davomida quyidagi usullar qo'llanildi:

- Statistik tahlil: Savolnomalardan yig'ilgan ma'lumotlar foizli taqsimotlar asosida o'rGANildi.

Kuzatish va keys-stadi: Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlarning iqtisodiy va siyosiy faolligiga oid real misollar tahlil qilindi.

Ushbu tahlil natijalari xotin-qizlarni

Tadqiqot natijalarining muhokamasi (Discussion)

Tadqiqot natijalarini mavzuga oid avvalgi tadqiqotlar bilan solishtirish natijasida quyidagi asosiy fikrlar shakllandi:

### 1. Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda xotin-qizlarning ishtiroki:

Tadqiqot natijalari A. Karimova (2020) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot xulosalari bilan mos keladi, chunki har ikki tadqiqot xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi so'nggi yillarda ortib borayotganini ko'rsatadi. Ammo ushbu tadqiqotda Qashqadaryo viloyatiga xos hududiy farqlar aniqlandi, bu esa avvalgi tadqiqotlarda yetarli e'tiborga olinmagan.

### 2. Siyosiy faollik:

Natijalar M. Yuldashev (2018) tomonidan keltirilgan ko'rsatkichlardan ijobiy farq qiladi. Qashqadaryo viloyatidagi xotin-qizlarning siyosiy faolligida yuqorilash kuzatilgani tadbirlar samaradorligini ko'rsatadi. Biroq, bu sohada gender tenglikni yanada kuchaytirish zarurati saqlanib qolmoqda.

### 3. Ta'lif va malaka oshirish:

Tadqiqot ta'lif sohasidagi ko'rsatkichlarning oshib borayotganini aniqladi. Bu natijalar UNICEF (2019) ma'lumotlari bilan mos keladi, ammo ta'lif sifati va gender tengligi o'rtaqidagi bog'liqlik masalasi hamon chuqur o'rganishni talab qiladi.

### 4. Gender muammolar:

Natijalardan ko'rinish turibdiki, jamiyatda gender muammolar to'liq hal etilmagan. Bu holat boshqa mintaqalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, masalan, E. Tursunov (2017) natijalari bilan o'xshashlik qiladi, biroq Qashqadaryo viloyati uchun xos bo'lgan iqtisodiy cheklovlari yanada aniqroq ko'rsatildi.

Xulosa:

Tadqiqot "Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda tutgan o'rni" mavzusida amalga oshirildi va quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

- Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda ishtiroki sezilarli darajada oshgan, ammo gender tenglik hali ham muhim muammo sifatida qolmoqda.

- Ta'lif va iqtisodiy faollik sohalarida ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan, biroq shahar va qishloq



hududlari o'rtasida farqlar mavjud.

- Siyosiy jarayonlarda xotin-qizlar faolligini oshirish uchun maxsus dasturlar samaradorligi tasdiqlandi.

•

Takliflar:

1. Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish uchun maxsus ta'lif va kasbiy rivojlanish dasturlarini kengaytirish.
2. Siyosiy jarayonlarda xotin-qizlarning faolligini oshirish uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.
3. Gender tengligi bo'yicha maxsus monitoring tizimini j oriy etish va muntazam ravishda baholash.
4. Shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi farqlarni kamaytirish uchun iqtisodiy resurslarni teng taqsimlashni ta'minlash.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati (Reference)

1. Karimova, A. (2020), "Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi: Mustaqillik yillardagi o'zgarishlar", Toshkent: O'zbekiston Noshirligi.
2. Yuldashev, M. (2018), "Siyosiy jarayonlarda xotin-qizlarning ishtiroki", Journal of Political Studies, 12(3), 25-30.
3. UNICEF (2019), "O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'limga bo'lgan huquqlari", Tashkent: UNICEF Noshirligi.
4. Tursunov, E. (2017), "Gender tengligi va iqtisodiy rivojlanish: O'zbekiston tajribasi", Economic Development Review, 22(4), 45-56.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi (2020), "O'zbekistondagi xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy holati", Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi.
6. Ismailova, D. (2016), "Gender muammolarini va iqtisodiy islohotlar", Social Science Review, 15(2), 78-83.
7. Bektoshova, F. (2021), "Xotin-qizlar siyosatdagi o'rni: Qashqadaryo viloyati misolida", Journal of Gender and Politics, 8(1), 67-73.
8. Karimova, G. (2015), "Qashqadaryo viloyatidagi xotin-qizlarning iqtisodiy va siyosiy faolligi", Journal of Regional Studies, 14(3), 112-118.



Rajabov Vohid Muhammad o'g'li

,,Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

2-kurs magistranti

Telefon:+998944723907

vrajabov@gmail.com

**Anotatsiya;** O'zbekiston Respublikasining mustaqillikdan so'ng hamma sohada ,ayniqsa, ta'lif sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda . O'zbekiston Respublikasining prezidentining 2027-yil 7-fevraldag'i PF-4947-son „ O'zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirishning besh ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” V bandida keltirilgan xavfsizlik , millatlaaro totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasidagi keng qamrovli islohotlarlarda so'ng boshqa millatlar qatori O'zbekistondagi afg'on fuqorolari o'rganish boshlandi.

**Kalit so'zlar;** Do'st-Muhammadxon, Turkiston, Kaufman, Hadicha, Muhammad Afzalxon, Muhammad A'zamxon, Sheralixon, Rishtiya, Toshqo'rg'on,Ogahiy,

Do'st-Muhammadxon taxtga kelgandan so'ng bevosita Afg'onistonning Turkiston bilan munosabatlarga oid ma'lumotlar batafsilroq talqin etish talabetiladi. 1862-yilda Do'st-Muhammadxon vafot etgach uning Afg'oniston taxtiga xotini Hadicha onanining uchinchi farzandi Sheralixon taxtga o'tiradi. ( Amir Do'stmuhamadxonning 14 ta qonuniy va 1 ta noquniniy xotini ulardan 52 ta farzandi bo'lgan ). Bunday vaziyatda Muhammad Afzalxon va Muhammad A'zamxonlar qatiy qarshilik qilishadi.biroz vaqt o'tgach Afg'oniston taxtiga 1866-1867-yillarda Muhammad Afzalxon ,1867-1868-yillarda hukmronlik qiladi. Afg'oniston uchun taxlikali yillar 1879-yildan boshlanadi. Rossiya Imperiyasi humron doiralari Abdurahmonning rejasini muvaffiqiyatli amalga oshiradilar. Abdurahmonxon Muhammad Afzalxonning o'g'li deyarli 10-yil Turkiston general -Gubernatoeliginining markazi Toshkent shahrida yashaganligi to'g'risida malumot beriladi. yana bir boshqa ma'lumotda 1880-yilda Sheralixonning jiyani Amir Abdurahmonni Afg'onistonga qaytgani haqida ma'lumotlar uchraydi.Afg'on mualifi Rishtiya bu masalada quyidagicha malumot beradi; „Abdurahmonxon afg'on xalqining haqiqiy dahosi va rahbari edi ” deb tarif beradi. Abdurahmon o'sha vaqtida sardor unvonida edi. Bu unvon viloyat hokimi lavozimi bilan teng bo'lgan. Abdurahmonning Turkiston viloyatlari bilan tanishuvi 1859-yilda Muhammad Afzalxonning Badaxshon yerlarini bo'ysindirishni buyurishi bilan boshlanadi. Abdurahmon g;alabaga erishganini eshitgan amir Muzaffar o'zi Chorjuga keladi va vaziyatni kuzatadi. Afg'on va buxoro qo'shinlari o'rtasidagi to'qnashuvda afg'onlar g'alaba qozongandan so'ng Amir Abdurahmon Toshqo'rg'on sardori etib tayinlanadi. Afg'onistondagi mumtazam taxt uchun kurashlar bo'lib turgan bir vaziyatda Abdurahmonning otasi Muhammad Afzalxon va Sheralixon o'rtasida jiddiy urush kelib chiqishi aniq bo'lib qoladi. Abdurahmon bunday vaziyatda oatsiga yordam berish uchun yo'llagan maktubi amish Sheralixon qo'liga tushib qoladi. Amir Sheralixon Abdurahmonnin kechirmaydi va Abdurahmon otasining taklifi bilan Amudaryodan kechib o'tib 1863-yilda Amir Muzaffarning oldiga keladi. 1870-yilgacha Abdurahmon ona vataniga qaytib keladiva taxt uchun kurashda jiidy ishtirok etadi.1870-yilda Rossiya Imperiyasining roziligi bilan Turkiston general gubernatorligi ixtiyoridagi Buxoro amirligi, keinchalik Samarqand va Toshkent shaharlarida 10-yildan ortiqroq vaqt davomida yashaydi. 1870-yilda Kaufman Sheralixonga maktub yo'llab Abdurahmonning Afg'oniston ichki ishlariga aralashmasligini kafolatlaydi. Rossiya imperiyasi Abdurahmonning Toshkentda bo'lishidan o'zlarining elchilik munosabatlariidan foydalanadi. Masalan 1877-yil 4-sentabrda Hindistondagi „ payonir ” gazerasi ingliz hukmron doiralari bilan kelishilgan holda Simli yonida 30-ming kishilik qo'shin Afg'oniston orqali Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo hududlarigahujum qilish uchun safarbarlik e'lon qilingan degan malumotlar tarqalgan. O'z navbatida Rossiya ham Toshkentda 12-ming kishilik rus qo'shnari Abdurahmon boshchiligidagi urushga tayyor turibdi degan malumotlar tarqaladi .

Ko'pgina tarixchi olimlarning fikricha Abdurahmonning faoliyatiningyoritilishida „ Siroi at-tavorix” va „ Tadj at-tovorix” asarlari ham ko'pgina malumotlar beradi. Afg'oniston amiri Abdurahmon ( 1880-1901-yilar) hukmronlik yillarini o'zida aks ettiruvchi „S irodj at-tarix” ( „ tarix shamchirog'I” ) nomli asar Habillaxonning topshirig'I bilan, davlat siyosati darjasida yoritilgan va rasmiy axborot beruvchi manba sifatida yaratildi. 1865- yilda Sheralixon bilan katta akasi Muhammad Afzal o'rtasida yirik harbiy to'qnashuv kelib chiqadi.hal qiluvchi jang 1865-yil



Qal'a-Gilzoiyda bo'lib o'tadi. Bu jangda amirning ikki o'g'li ,Muhammad Alixon va Muhammad Aminxon vafot etadi. Bu holatda amir Sheralixon qattiq tushkunlikka uchrab qolib, davlat ishlariga umuman qiziqmay qoladi. Bu vaziyatdan Abdurahmon foydalanib qolib Oqchada turgan hukumat qo'shinlarini o'ziga og'dirib oladi. Abdurahmon Fatx-Muhammadxon qo'shinlarini yengadi va Toshqo'rg'oni egallaydi. Bu g'alabadan keyin Bomiyonda turgan amakisi Muhammad Azamxonga qo'shilish uchun u yerga boradi. Amakisi ham hokimiyatni egallash uchun Hindistondan qaytib kelmoqda edi. . 1866-yilning bahorida ularning birlashgan qo'shini Qobulni egallab, Muhammad Afzalxonni amir deb e'lon qiladi . Amir Sheralixon o'z kuchlarining to'plab Janubiy Turkistonga joylashadi. Muhammad Afzalxonning hokimiyati Qobul va Qandahor bilan chegaralanadi. Britaniya hukumatining ikkala hokimiyatni tan olishi, Muhammad Afzalxonning Rossiya bialn yaqinlashishi uchun harakatlar qiladi. Biroq 1867-yilning 7-oktabrida Muhammad Afzalxon vafot etadi. Qobulni boshqarish Muhammad Azamga o'tadi. Uning hokimiyati kuchsizlik qildi va 1868-yil 11 sentabrida Sheralixon Qobulni egalladi. Muhammad Azamxon jiyani Abdurahmon yoniga Balxga boradi. Uning maqsadi jiyani bilan birga G'aznada mustahkamlanib olib, kurashni davom ettirish edi. 1869-yilning yanvarida Zurmat yaqinida Sheralixon qo'shinlari g'alabaga erishdilar. Muhammad Azamxon va Abdurahmon barcha masalalrda ajraldi. Ularning uzoq davom etgan ko'chib yurishlari boshlandi. Dastlab, Hindiston keyinchalik Belijuston cho'llaridan o'tib Seistonda, keyin Eronning Mashhad chegaralariga yaqinlashadi. Biroz vaqtidan keyin Muhammad Azamxon vafot etadi. Abdurahmonxon eron shohining ruxsati bilan Xiva xonligiga boradi. U Xiva xonligi hududiga 1869-yilning sentabrida yetib keladi. Xiva xonlarining arxividasi Abdurahmonning Xiva xoniga yuborgan maktubi saqlanmqda . Xiva tarixchisi Ogahiy Abdurahmonning Xiva Xoni tomonidan buyuk sarkarda jangchi sifatida 1869-yil 18-sentabrida qabul qiladi. Malumotlarga qaraganda Abdurahmonning Xiva xoni bilan o'zaro muloqoti tarjimon orqali olib boriladi. Chunki bu paytda Abdurahmon mahalliy aholining tilini bilmagan

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

- 1,Amir Olimxon „, Buxoro xalqining hasrati tarixi “. T.Fan.1991
2. Сайд Касим Риштия . „, Афганистан в XIX веке.изд-во иностранная литература
3. Ромодин В.А Очерки по истории и истории культуры Афганистана. Серединаа XIX -первая треть XX вв
4. Ромодин В.А. Афганистан во второй половине XIX- начале XX ввю официальная история и историографияю – москваб Наука.1990.
5. Огахию шохиди икбол
6. Сирадж ат-товорихх.Т.II



### TURKISTON LEGIONINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Narzullayev Azamat G'ayrat o'g'li  
O'zbekiston- Finlandiya pedagogika  
instituti Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti  
Tel: +998 (94) 475 14 15  
azamatnarzullayev2002@gmail.com

#### ANNOTATSIYA.

Mazkur kurs ishida Turkiston Legionining tashkil topishi va rivojlanish tarixi tahlil qilinadi. Ushbu ishda legionning Ikkinci Jahon urushi davridagi paydo bo'lish sabablari, uning tashkilotchilari va faoliyat yo'nalishlari o'rganilgan. Asosiy e'tibor legionning tashkil topishiga ta'sir ko'rsatgan siyosiy va ijtimoiy omillarga qaratilib, uning rivojlanish bosqichlari va urushdagi roli yoritiladi.

Ishda nemis qo'shinlari tomonidan legionning tashkil etilishida qo'llangan strategiyalar, milliy ozodlik harakati g'oyalari va Turkistonlik harbiy asirlarning ishtiroki o'rganilgan. Shuningdek, Turkiston Legionining harbiy harakatlardagi faoliyati va uning Ikkinci Jahon urushi tarixidagi o'rni tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida arxiv hujjatlari, ilmiy manbalar va tarixiy adabiyotlarga tayanilgan. Ishning ahamiyati shundaki, u Turkiston tarixidagi murakkab va bahsli davrni yoritishga yordam beradi hamda legionning tarixiy haqiqatini aniqlashga xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR: Turkiston Legion, Ikkinci Jahon urushi, milliy ozodlik harakati, harbiy asirlar, nemis qo'shinlari, milliy g'oya, targ'ibot, tashkilot tarixi, legion faoliyati, tarixiy bahslar, siyosiy strategiyalar, tarixiy haqiqat, «yaroqsiz xalq», «ikkinci sort millat», «qora fashistlar»

#### KIRISH.

Ikkinci Jahon urushi insoniyat tarixidagi eng qonli va ta'sirchan voqealardan biri bo'lib, u dunyo siyosiy xaritasiga, ijtimoiy tuzilmalariga va milliy ozodlik harakatlariga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Bu urush davomida ko'plab xalqlar va millatlar turli sabablarga ko'ra urushning turli tomonlarida ishtirok etdi. Shunday voqealardan biri Turkiston Legionining tashkil topishi va uning rivojlanish tarixidir.

Turkiston Legionining tashkil topishi nemis armiyasining Sovet Ittifoqiga qarshi olib borgan urush kampaniyasi doirasida yuzaga kelgan. Ushbu legion tarkibiga asosan sovet qo'shinlarida asirga tushgan Markaziy Osiyo xalqlarining vakillari jalb qilingan. Bu jarayonda nemislar Turkiston mintaqasidagi milliy ozodlik harakati g'oyalardan foydalangan holda, legionni siyosiy va harbiy maqsadlarda ishlatishga harakat qilgan.

Mazkur ishda Turkiston Legionining paydo bo'lishiga olib kelgan tarixiy va siyosiy sabablari, uning tashkil etilish jarayoni, asosiy faoliyati hamda uning Ikkinci Jahon urushi tarixidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, bu mavzu doirasida legionning tarixiy ahamiyati va unga oid bahsmunozaralar o'rganiladi. «Turkiston legioni» 1941-yilning oxiri 1942-yilning boshlarida shakllandi. Uning asosini urushda asir olingen turkistonliklar tashkil qildilar. Yozma manbalarning guvohlik berishicha Sovet Ittifoqi bilan Germaniya o'rtasidagi urushning ilk yillari (1941–1942)da sovetlarning G'arbiy jabhasida taxminan 2 millionga yaqin turkistonlik askar bo'lган. Urush davrida to'plangan ma'lumotlarga qaraganda, 1943-yilda qizil armiyaning faqat 6 harbiy qismida, ya'ni Minsk, Kiyev, Moskva, Leningrad, Uzoq Sharq va Shimoliy Kavkazda 1.179.802 turkistonlik askar bo'lган. Faqat Kiyev va Minsk qismlarida 997.892 nafar edi. Ana shu turkistonlik qizil armiya askarlarining kattagina qismi nemislar tomonidan asir olindi. To'rg'ay shahrida joylashgan Germaniya harbiy asirlari Boshqarmasining 1943-yilda bergan ma'lumotlara qaraganda urushning dastlabki yillardayoq (1941–1942) sovetlar armiyasidan 1.700.00 ga yaqin turkistonlik asir olindi.

1942-yilning yoziga qadar bulardan faqat 400 ming3 kishi omon qoldi, qolganlari ochlik, kasallik, sovuq tufayli qirilib ketdi, bir qismi otib tashlandi. «Turkiston legioni»ning asosini ana shu asirlar tashkil etdi. Urushning boshidayoq bunchalik ko'p sonlik turkistonlikning nemislarga asir tushganligining boisi, sababi nimada? Albatta sabablari ko'p. Ana shu sabablardan eng birinchisi, turkistonliklar sovetlar hokimiyati yillarda muntazam armiyada xizmat qilish malakasidan mahrum etilgan edilar, aniqrog'i urush boshlangan davrda O'rta Osiyo respublikalarining birontasida muntazam milliy armiya bo'lмаган. Chunki sovetlar turkiy xalqlarga ishonmas, ularni ikkinchi toifa xalq hisoblar, eng muhimmi ulardan qo'rqrar edi. Shu bois turkiy xalqlarning milliy armiyasini yo'q qildi. Ma'lumotlarga qaraganda 1941–1943-yillar davomida taxminan 4.847.775 turkistonlik sovetlar armiyasiga



safarbar qilingan edi. Ularning aksariyati hech qanday tayyorgarliksiz front jahbasining oldingi chizig‘iga tashlangan edilar. Toshkent, Samarqand, Qarshi, Termiz, va boshqa shaharlarda milliy gvardiya va diviziylar tashkil qilinib, ularga hech qanday harb ilmidan saboq bermasdan va maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazmasdan armiyaga jo‘natildi. Bu ishda ham mustamlakachilikning o‘ziga xos shovinistik maqsadlari o‘z ifodasini topdi. Bu avvalo urush vositasi bilan turkiy muslimonlarni qirib tashlash va jismongan yo‘q qilish bo‘lsa, ikkinchidan, turkiylarni urush olib borishga «yaroqsiz xalq», «ikkinchi sort millat» ekanligini amalda isbotlash va shu asosda turkiy millatlar davlatchiligining asoslaridan biri bo‘lgan muntazam o‘z armiyasiga ega bo‘lishini abadulabad barbod qilish edi. urushning dastlabki bosqichlarida turkistonlik qizil askarlarning ma’naviy-ruhiy holatlari ham tushkun bo‘lgan. Chunki kompartiya markaziy qo‘mitasi qabul qilgan qaror bo‘yicha 1937–1939-yillarda O‘rta Osiyo respublikalaridan taxminan 2 millionga yaqin kishi qamoqqa olingen edi. Albatta bu hol armiya safiga chaqirilgan askarlarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir qilgan edi. Uchinchisi, fashistlar Germaniyasining tashviqot-targ‘ibot mashinasi ham barcha rus bo‘limgan millatlar vakillariga, jumladan turkistonliklarga qarata ham faol ish olib bordi. Mahkamasi Minsk shahrida bo‘lgan general Mirshakar boshchiligidagi turkistonliklarning ma’lum bir qismi ko‘r-ko‘rona shu targ‘ibotga ishonib o‘z ixtiyori bilan nemislarga asir tushgan vatandoshlar ham bo‘ldi. Fashistlar qo‘mondonligi asirga olingen turkistonliklarni yoppasiga qirib tashlay boshladi. Mana shunday bir jumboqli va tang vaziyatda o‘sha davrda Germaniyada yashab istiqomat qilayotgan vatandoshimiz Vali Qayumxon «Turkiston legioni»ni tuzish g‘oyasini ko‘tarib chiqdi va uning Prezidenti bo‘ldi. Vali Qayumxonning ko‘z o‘ngida minglab turkistonliklar behuda o‘lib ketayotgan edilar, Ular Vali Qayumxonning vatandoshlari, ji gargo‘shalari edilar. Shunda Vali Qayumxon Parijda yashayotgan Mustafo Cho‘qay bilan umumiyl til topib, harbiy asirlarni bekordan bekorga qirib tashlaguncha ulardan foydalanish yo‘lini taklif qildilar. Bu taklif nemis qo‘mondonligiga ma’qul tushdi. Insonning hayotini saqlab qolish hamisha hurmatga sazovor ish bo‘lganligini ongli suratda tushungan Vali Qayumxon va Mustafo Cho‘qay o‘z vatandoshlarining ko‘ngilli anketalarini tuzishga kirishdilar. Asirxonalarni kezib yurish chog‘ida o‘ziga sil kassaligini yuqtirgan Mustafo Cho‘qay 1941-yil dekabr oyida vafot etdi. Endi barcha ish Vali Qayumxonning chekiga tushdi va uning yelib-yugurishi tufayli «Turkiston legioni» tashkil etildi. “Olmon hukumati ham Sovet davlatining nohaq harakat qilganligini va turkistonliklar kabi g‘ayrirus xalqlardan urushda strategik maqsadda foydalanganligini to‘la ravishda anglagan edi. 1942-yilning boshidan e’tiboran Qayumxon bir necha yuz ming turkistonlik asirni lagerdan chiqarib ularni ommaviy ishlarga joylashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Ochlik, kasallik hukm surgan sovuq oylarda kiyimsiz qolganimiz sharoitlarida biz, turkistonlik asirlar Qayumxonning himmatini ko‘rib, uni «Ota» ataydigan bo‘ldik. U biz uchun chindan ham otalik qildi”

1942-yil avgustida Vali Qayumxon raisligidagi «Turkiston Milliy Birlik Qo‘mitasi» tuzildi. 1942–1945-yillarda Berlinda faoliyat ko‘rsatgan «Turkiston Milliy Birlik Qo‘mitasi»da 112 turkistonlik ishladi. Ayni zamonda «Milliy Turkiston», «Milliy adabiyoti» jurnallari va «Yangi Turkiston» gazetasi nashr etila boshlandi. «Milliy Turkiston» jurnalining birinchi soni 1942-yil, 15-avgustda chiqdi. Jurnal «Bizning yo‘l» bosh maqolasi bilan e’lon qilindi va unga «Bizning yo‘l otalar yo‘lidir, mustaqillik yo‘lidir», deb bayonot berilgan edi. Germaniya hukumati milliy qo‘mitaning bu siyosiy yo‘lini o‘rganib chiqdi, ammo uning siyosiy niyatiga qarshi chiqmadи. Bu tabiiy edi, albatta. Chunki ayni davrda Milliy qo‘mitaning faoliyati Germaniya foydasiga va Sovet Ittifoqiga qarshi qaratilgan edi. Milliy qo‘mitaning bayonoti biron-bir darajada bo‘lsada Germaniyaning mavqeyiga hech qanday xavf tug‘dirmas edi. «Turkiston legioni» tarkibida askar va zabitlarning miqdori 1944-yil oxirlarida 267 ming kishi atrofida bo‘lgan. Legion qo‘mondonini tayinlash Germaniya armiyasi qo‘mondonligi ixtiyorida edi. Batalyon, polk qo‘mondonligi va rota komandirlari tarkibida turkistonliklardan ko‘p bo‘lgan. Legionning siyosiy va milliy ishlari Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasi tomonidan idora etilardi. Har bir askar va zabitning so‘l qo‘lida «Turkiston, Olloh biz bilan» tamg‘asi bor edi. Askariy ont, Qur’oni karim, qarshisida ikki qilich birlashtirilib, Turkiston bayrog‘i ostida qabul qilingan. «Turkiston legioni»ning o‘z madhiyasi bor edi.

«Turkiston legioni» rus sovetlari qo‘shinlariga qarshi jiddiy janglar olib borgan va unga katta talafotlar bergen. «Turkiston legioni»ning birinchi partiyasi 1942-yil 2-mayda Bryansk o‘rmonlarida jangga tashlangan edi

Shuni ham ta‘kidlash lozimki «Turkiston legioni» qoshida «ko‘ngillilar»ning yashirin guruhlari ham mavjud bo‘lgan. Ular Qarshilik ko‘rsatish harakati jangchilarini va partizanlar bilan aloqada bo‘lganlar. Bu o‘rinda 1943-yil yoz faslida 3-Turkiston batalyonining bir guruh askarlari Belorusiyaning Rechitsa shahrida bo‘lib, partizanlar bilan aloqa o‘rnatganlar va gitlerchilarga qarshi



hamkorlikda kurashganlar. Biroq, natsist agentlari yashirin guruhni topishga muvaffaq bo‘lganlar. «Ko‘ngillilar» batalyoni tarqatib yuborilgan, uning shaxsiy tarkibi Germaniyadagi katorga ishlariga jo‘natilgan. Abdulla Otaxonov boshchiligidagi to‘liq qurollangan, artilleriya yuklari bilan 370 kishidan iborat Turkiston batalyonini 1943-yil sentabrda 74-o‘qchi diviziya tomoniga o‘tib ketgan.

1944-yilning yanvarida «Turkiston legioni» yugoslav partizanlariga qarshi kurashish uchun Chernogoriyaga yuborilgan legionerlarning katta otryadi (ular tarkibida o‘zbeklardan 28 kishi bor edi) S. Fayziyevning ishorasi bilan fashistlarni yo‘q qilganlar va qurollar hamda o‘q-dorilarni otlarga ortib tog‘dagi partizanlar huzuriga jo‘nab ketganlar.

«Turkiston legioner»lari o‘z hayotiy tajribalarida sovetlarning qasos va o‘ch olishdan iborat siyosatini bilganliklari, tajribadan o‘tkazganliklari bois nemislarga qarshi ochiqdan ochiq qarshi chiqish, qizil armiya tomoniga o‘tib ketishdan cho‘chiganlar. Shunday bo‘lsa ham ular fashistlarga qarshi isyonlar qilgan, qarshilik va partizanlik harakatida faol qatnashganlar. Turkistonlik harbiy asirlarning bir qismi Fransiya, Yugoslaviya, Polsha, Italiya, Slovakiya, hatto Ispaniyadagi partizanlik harakatiga ommaviy ravishda o‘tib ketganlar. Asli andijonlik SS Turkiston polki komandiri G‘ulom Alimov 1944-yil, dekabrida nemis armiyasidan dizertirlik qilib Venada syezd bo‘layotgan davrida, Bratislava yonida turgan ruslar va slovaklar bilan aloqa o‘rnatib, besh yuz nafar legioneri hamda partizanlar birgalikda fashizmga qarshi kurash olib borgan. Uning polkida Asakkalik G‘ulomjon Ro‘ziboyev (mashhur bastakor), Andijonlik (Qizil Karvon ko‘chasidan) Madaminjon Isroilov va boshqalar bo‘lgan.

Ruslar, Turkiston milliy askarlaridan asir olmas edilar, ularni «qora fashistlar» deb atashardi. Olingan asirlarni ayab o‘tirishmas, ularni joyida o‘ldirishardi. Hatto yarador askarlarga nisbatan ham shafqat yo‘q edi. «Turkiston legioni» 1944-yilning oxirlariga kelib taxminan 65 ming askarini yo‘qotdi, 900 ga yaqin legionchilar sovetlar partizan birliklariga qo‘chgan edilar. «Turkiston legioni» o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik qavmlaridan iborat edi. Ular yillar davomida sovetlarning olib borgan bo‘lib tashlash va parchalash siyosatlariga qaramasdan turkistonliklarning «turklik birligini» ko‘rsatib qo‘yish qobiliyatlarini ham isbot qilgan edilar. Sovetlar targ‘iboti «Turkiston legioni»ni ichidan buzish uchun ko‘p harakat qildi. Ammo Turkiston Milliy Birligini buzolmadi. «Turkiston legioni» tuzishda Germaniya hukumati o‘z manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Germaniya davlati 1945-yil, 24-martda bu davrda Germaniya front jabhasida mag‘lubiyat ketidan mag‘lubiyat alamini tortayotgan bo‘lsa, «Turkiston legioni»ni Turkiston Milliy Hukumati sifatida rasmiy bir vasiqa bilan tanidi. «Turkiston legioni»ning urushdan keyingi taqdiri albatta har bir kimsani qiziqtiradi. Ikkinchisi jahon urushidan so‘ng Turkiston Milliy Armiyasining hayyotida achchiq bir davr boshlandi. Amerika Qo‘shma Shtatlari prezidenti Ruzvelt va Angliya Bosh Ministri Cherchil 1945-yil, 4-fevralda Qrim yarimorolining Yalta shahrida I. Stalin bilan uchrashdilar. Bu yerda bo‘lib o‘tgani konferensiyada ittifoqchilar asir tushgan o‘z vatandoshlarini qaytarib olishga o‘zaro kelishdilar. Bu shartnoma ozod va mustaqil vatanga ega bo‘lgan davlat uchun g‘oyat tabiiy va ahamiyatlari bir hol edi. Ammo dunyodagi eng yirik mustamlakachi qizil saltanat bo‘lgan Sovet Ittifoqi uchun bu shartnoma ming-minglab kishilarning taqdiri nuqtayi nazaridan fojiali yakunga ega bo‘ldi. Jami bo‘lib AQSH va Angliya hukumatlari yordamida 2.272.000 kishi chet eldan SSSRga qaytarilgan edi. Bitimga ko‘ra Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasiga qarashli 200 ming askar va 300 ming ehtiyyotda turgan turkistonliklarni, qo‘llariga zanjirlar solib, zo‘rlab oilalari bilan yuk tashiladigan vagonlarga tiqib Rossiya tomoniga jo‘nata boshladilar. Turkistonliklarning ko‘philigi o‘z-o‘zlarini o‘ldirdilar. Ular «ruslarning qo‘liga tushgandan ko‘ra, o‘lim yaxshiroq», deb qo‘llarining tomirlarini kesdilar, beajal halok bo‘ldilar. Turkistonliklar arosatda qolgan mana shunday og‘ir fojiali bir sharoitda o‘z vatandoshlarini qutqarish uchun jon kuydirib, yordam qo‘lini cho‘zadigan bir davlat topilmadi. Turkistonlik asirlarni Turkiya davlati panofiga olish tashabbusini Germaniyada o‘qib turgan ikki turk talabasi ko‘tarib chiqdi. Ularning himmati bilan 1945-yilda Turkiya Arkon-i Harbiyai Umumiyasining Bavariyadagi Amerika armiyasi tamsilchisi yuzboshi Ehson Unasonning bevosita sa’y-harakatlari tufayli Turkiyaga jo‘natilishi ko‘zda tutilgan turkistonliklarning anketalari ikki nusxada tayyorlandi. Bu ishlarda vatandoshimiz Boymirza Hayit jonbozlik ko‘rsatdi. Ehsonbey tayyor bo‘lgan anketalarning bir nusxasini o‘zi oldi, boshqa bir nusxasini esa maxfiy yo‘llar bilan Anqaraga jo‘natdi. Ehsonboy o‘tirgan samolyot Yugoslaviya o‘rmonida o‘qqa tutildi va samolyot urib tushirildi, uning jomadonidagi anketalar yo‘qoldi. Anketalarning maxfiy jo‘natilgan boshqa nusxasi Anqaraga yetib kelgan. Anqarada mas’uliyatlari xizmatchilar mazkur anketalar asosida Germaniyadan 100 ming turkistonlikning Turkiyaga kelishi masalasini muhokama qilganlarida: «Agar bularning orasida 10 ming sovet josusi bo‘lsa nima qilamiz», degan masala ko‘tarilgan. Oqibatda Turkistonlik



asirlarni Turkiyaga keltirilishi hal bo‘lmay qolgan va yordamsiz qolgan vatandoshlarimiz 1945-yil noyabrga qadar quroq kuchi bilan Rossiyaga yuborib turilgan. Faqat 1945-yil noyabrida Duayt Deyvid Eyzexauerning «Rossiyaga biron odam zo‘rlik bilan jo‘natilmasin!» deb bergan amridan so‘ng, 6–7 ming turk, shu jumladan taxminan 800 turkistonlik jonlarini saqlab qola oldilar. Bular orasida Maqsud Bek, Ergash Shermat, Boymirza Hayit (Kyoln shahrida), Qodir Egamqul, Mo‘min Bo‘ri, Nayim To‘ra, Yo‘lchi Oxun, Otaxon, M.Mannon (Myunxen shahrida)lar bor edi. Sovet Ittifoqiga zo‘rlik bilan jo‘natilgan turkistonliklar it azobiga solingan. Sovet jazo qonunlari asosida ularning aksariyati otib tashlangan, qolganlariga 20–25 yil muddat bilan qamoq jazosi berilib, Sibir va boshqa yerlarga surgun qilinganlar.

Keyinchalik faqat inglizlar o‘z qilgan xatolarini tushunib, undan pushaymon bo‘ldilar. Chunki ularni vijdon azobi qiyagan edi. Ingliz ma’murlari sovetlarga topshirilgan legionerlar xotirasi uchun London shahrining Kensington qismida haykal o‘rnatdilar. Haykalning tantanali ochilish marosimida 200 dan ortiq rasmiy davlat arboblari ishtirok etdilar. «Turkiston legioni» va «Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasi» faoliyatiga kompartiya, sovetlar mafkurasi, mustamlakachilik siyosati mafkurasi andozasi va o‘lchovlari asosida emas, balki Turkiston xalq larining milliy birligi g‘oyalaridan kelib chiqqan holda baho berilishi kerak.

### XULOSA:

Legionning tashkil etilishi nemis armiyasining Sovet Ittifoqiga qarshi kurashidagi harbiy strategiyasining bir qismi bo‘lgan. Nemis qo‘mondonligi Turkiston mintaqasidagi milliy ozodlik g‘oyalaridan foydalangan holda, legionni o‘z maqsadlariga xizmat qildirishga harakat qilgan. Legion tarkibiga asosan Markaziy Osiyo xalqlaridan bo‘lgan harbiy asirlar jalb qilingan. Ularning ishtiroki ba’zi hollarda milliy ozodlik harakatiga umid sifatida qaralsa, boshqa hollarda bosim va majburiyat natijasi bo‘lgan. Turkiston Legionining tarixi murakkab va bahsli bo‘lib, u nafaqat Ikkinchchi Jahon urushi davridagi, balki Turkiston xalqlarining milliy ongingin shakllanishidagi muhim bosqichlardan biridir. Ushbu mavzu bo‘yicha yanada kengroq tadqiqotlar olib borish va yangi manbalarni o‘rganish kelajakda legionning tarixiy rolini yanada aniqroq yoritishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Vatan tarixi (Uchinchi kitob); R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. – T.: «Sharq», 2010. 363-bet
2. Boymirza Xayit, Vali Qayumxon ota Turkiston istiqloli uchun kurashning shamchirog’i edi-shaxsiy arxiv, 2-bet
3. «Sharq yulduzi », 1992 -yil, 3-son, 154-bet
4. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2000-yil. 483-bet
5. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2000-yil. 484-bet
6. Shamsutdinov R., Hoshimov S. “Urush va zulm qurbonlari”. " Наука. Образование. Техника " № 1. – 2007. 42-bet.
7. Вторая мировая война. Краткая история. М.: Наука, 1985, стр. 630, 635.
8. Vatan tarixi (Uchinchi kitob); R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. – T.: «Sharq», 2010-yil. 372-bet



## AMIR TEMUR FAOLIYATINING YEVROPALIKLAR TOMONIDAN DASTLABKI E'TIROFI

Nosirov Elbek Qosim o'g'li  
Ahrorova Madina Raxmatovna  
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti  
+99893 680 44 15

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning hayot faoliyati Yevropa jamoatchiligi tomonidan o'rganilib, tadqiq qilinishining dastlabki davrlari haqida so'z boradi. E'tiborga molik tomoni shundaki, Yevropa muarrixlar tomonidan yaratilgan va to'plangan manbalarning aksariyati hali o'rganilmay o'z tadqiqotchisini kutib yotibdi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Jan Busiko, Venetsiya arxivi, Jan (Ioann) Grinlo, Rui Gonsalez de Klavixo, "Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaligi".

O'z davrining buyuk siyoshi, mohir sarkarda, yurtimizda mo'g'ullar istibdodiga barham bergen, o'zining o'chmas nomini abadiyatga muhrlagan, faxrimiz, g'ururimiz, xalqimiz dahosining timsoli va ma'naviy qudratimiz ramzi bo'lgan Amir Temur faoliyati va shaxsiga qiziqish XV asrdan boshlandi. 1401- yilning avgustda Rim papasi va Fransiya qirolining Amir Temur huzuriga yuborgan elchisi Jan (Ioann) Grinlo Amir Temur suhbatlarida ko'p marta ishtirok etgan. Uning saltanatini o'z ko'zi bilan ko'rgan va bu haqda asar yozgan birinchi yevropalik muallif bo'ladi. Uning asari "Temur va uning saroyiga oid xotiralar" deb ataladi. Monax va elchi Jan (Ioann) Grinloning asari fransuz va lotin tillarida yozilgan bo'lib, 23 bobdan iboratdir. Muallif Temurning hayoti va faoliyati haqida imkon qadar batafsilroq ma'lumot berishga harakat qilgan. Yepiskop Jan (Ioann) Amir Temurni yaqindan tanigan, uning hayoti va faoliyati bilan yaxshi tanish bo'lgan. 1403-yil may oyining boshida Parijda bir ruhoni paydo bo'lib, o'zini Amir Temurning elchisi deb tanishtiradi. Chindan ham u Amir Temurning mo'jazgina tamg'asi bosilib, zarhal harflar bilan bitilgan ishonch yorlig'i – maktubini Fransiya qiroli Karl VI ga topshiradi. Jan (Ioann) tashrifining ikki sababini bayon qiladi: birinchisi, Amir Temurning sulton Boyazid ustidan qozongan g'alabasini ma'lum qilish; shu o'rinda u turk sultonining asir olinib, uning tutqunidan ozod qilingan nasroniy bandilarni Amir Temur Yevropaga qaytarib yuborganini va yana boshqa bandilar topiladigan bo'lsa, xuddi shunday yo'l tutajagini bildiradi. Tashrifining ikkinchi maqsadi Fransiya qirolini o'z ko'zi bilan ko'rish va u haqda Amir Temurga so'zlab berish. Yepiskopning gapiga qaraganda, uning elchiliga nasroniy diniga ikki qulay imkoniyat yaratadi: birinchidan, bu elchilik ikkala din vakillariga ham o'zaro erkin savdo qilish imkoniyatini bersa, ikkinchidan, agar qirol va gersoglar rozi bo'lishsa, bu qulayliklarni shartnomaga yoki ahslashuv shaklida rasmiylashtirish mumkin bo'ladi. Fransiyada Sohibqiron hayotligidayoq, paydo bo'lgan ilk asarlardan biri Fransiya Marshali Jan II Busiko (1365-1421) qalamiga mansub bo'lib, u «Le Livre des faits du marechal Boucicaut» («Marshal Busiko amalga oshirgan ishlar») deb ataladi. Sohibqiron haqida Jan II Busikoning xotiralari O'zbekistonda hali o'rganilmagan. Karl VI 1401 yili Genuyaga obru-e'tiborli zodagonlardan biri, qattiqqo'l va sadoqatli ijrochi Marshal Busikoni hokim etib tayinlaydi. U o'z xabarchilari orqali Osiyoda bo'layotgan voqe-a-hodisalardan ogoh bo'lib, o'z navbatida Karl VI ga muntazam axborot bergen. Aynan mana shu sababdan Fransiya qiroli Amir Temurning o'z saltanatining g'arbiy hududlarida joylashgan davlatlar ustiga zafarona yurishi va u bilan Boyazid o'rtasida to'qnashuv sodir bo'lishidan xabardor edi. Busiko o'z kitobining XXXVII bobida Amir Temur shaxsiga to'xtalib, Sohibqiron va uning qo'shini haqida shunday yozadi: «Amir Temur bag'oyat mard odam edi va taqdir uni yana bir oz qo'llab-quvvatlaganida butun yer yuzini zabit etardi, ammo bu unga nasib etmadni. Zero, hammaga ma'lum bir maqolda aytilganidek, «har bir ish Xudoning irodasi bilan». Biroq, u qurol bilan ulkan ishni amalga oshirdi, u o'ttiz yil davomida na jang qilishdan to'xtadi, na bir shaharda tuzukroq tin oldi, aksincha, har doim mo'jizakor qo'shini bilan dalayu dashtda yurdi va lashkarları orasida shunday qat'iy tartib urnatdiki, ularning kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan barcha narsani o'zi bilan birga olib yurdi. U amalga oshirgan mo'jizalar, u kechib o'tgan ulkan daryolar va uning mehnatda toblangan odamlari qilgan ishlar haqida maftunkor asarlar yaratish mumkin». Amir Temur va uning yurishlari haqida italiyalik tujjorlar Paole Zane, Beltramus de Mignanelli va Emmanuil Paole hamda ispan elchisi Rui Gonsalez de Klavixo, asirga tushgan nemis askari Iogannes Shiltberger va boshqalar ham o'z xotiralarini yozib qoldirganlar. Emmanuil Paole arab tilini mukammal bilgan. 22 yil moboynida Misr mamluklari orasida yashagan hamda



Misr sultoni Farajning yaqin kishisi bo‘lgan. U Amir Temurning Damashq yurishiga oid ma’lumotlar to‘plagan. Uning Amir Temur haqidagi ma’lumotlari Venetsiya arxivida saqlanmoqda va hozirgi kunga qadar nashr qilinmagan. Paole Zane esa 1400 yillar Venetsianing Damashqdagi konsuli bo‘lgan. U Venetsiya senatining topshirig‘iga muvofiq Amir Temur haqida ma’lumotlar yiqqan. Uning to‘plagan materiallari ham hozirgi kunda Venetsiya arxivida saqlanmoqda va nashr etilganicha yo‘q. Temurning hukmronlik davri bilan bog‘liq yana bir muhim tarixiy manba – bu ispaniyalik elchi Rui Gonsalez de Klavixoning kundaliklaridir. De Klavixo 1404 yilda Lion va Kastiliya qiroli Genrix III ning topshirig‘i bilan Samarcandga keladi. Uning asari "Samarcandga Temur saroyiga sayohat kundaligi" deb ataladi. G‘arbda Uyg‘onish (Renessans) davrida Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar nashr etildi. Klavixoning («Buyuk Amir Temur tarixi va elchilik safari bayoni») asari 1582 yil Seviliyada nashr etildi. Asar undan keyin yaratilgan tarixiy va badiiy asarlar uchun asosiy manba bo‘lib qoldi. Jumladan, Pero Meksika o‘zining «Silva de varia leccion» («Turli ma’ruzalar majmuasi») to‘plamiga kirgan «Vida delgran Tamerlan» («Buyuk Amir Temur hayoti») nomli essesida Klavixodan juda ko‘p narsa olgan[5, 83]. Meksikaning bu asari XVI asrning o‘zida ikki marta ingliz tiliga tarjima qilingan. Uni dastlab Tomas Fortescu (Thomas Fortescue, The Forests, 1571), so‘ng Jorj Uetston (George Whetstone, English Myrror, 1586) tarjima qilganlar. 1553 yil italyan muarixi Petro Perrondinining «Magni Tamerlani Scytarum Imperatoris Vita» («Skiflar imperatori Amir Temurning hayoti») asari e’lon qilindi. Ahmad ibn Arabshohning asari ham shu asrda Yevropa tillariga, jumladan, abbat Jan dyu Bek (Jean du Ves) tomonidan «Histoire de grand Tamerlan tiree des monuments antiques des Arabes» («Arablarning qadimiy yodgorliklaridan olingan buyuk Amir Temur tarixi») nomi ostida fransuz tiliga tarjima qilindi. Amir Temurning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab manbalar hali to‘lig‘icha tadqiq etilmagan, ayniqsa, lotin tilida yozilgan manbalar shular jumlasiga kiradi. O‘z davrining buyuk siyoshi Amir Temur Yevropada e’tirof etilgani shu manbalarning o‘zi isbotlab turibdi. Zero, Jan Busiko aytganiday “Amir Temurga yana bir imkoniyat berilganda butun dunyoga hukmronlikni o‘z qo‘liga olib adolat o‘rnatardi”.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Али Мухаммад. Амир Темур солномаси. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 52 б.
2. «Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни» мавзуидаги халқаро конференция тезислари. 1996 йил 23-26 октябрь, Тошкент. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 124 б.
3. Амир Темур жаҳон тарихида. – Т.: Шарқ, 1996. – 296 б.
4. Баҳодир Эрматов. Амир Темур Фарбий Европа адиллари нигоҳида. – Т.: «Navro‘z», 2019.
5. Ҳаким Сатторий. Ҳазрат Соҳибқирон. – Т.: «Sharq», 2016



### QADIMGI XORAZMNING JANUBIY QISMIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING SHAKLLANISHI MASALALARI

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o‘g‘li

Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

s\_baxtiyarov96@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi Xorazm hududida urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi xususida so‘z boradi. Janubiy hududlar aholisining qadimgi davrda Xorazmga ko‘chib kelishi va buning urbanizatsiya jarayonlariga ta’siri atroficha muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Xumbuztepa, Oqchadaryo deltasi, Amirobod madaniyati, Quyisoy madaniyati, Tajan – Murg‘ob vodiysi, Qal’aliquir 1.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается формирование процессов урбанизации на территории древнего Хорезма. Подробно обсуждается переселение населения из южных регионов в Хорезм в древности и его влияние на процессы урбанизации.

**Ключевые слова:** Хумбузтепа, дельта Окчадары, Амирободская культура, Куисойская культура, Теджен – Мургабская долина, Калялыкыр 1.

Qadimgi Xorazmda mil.avv. VI asrga kelganda tub siyosiy va iqtisodiy rivojlanish kuzatiladi. Vohaning janubiy qismida Xumbuztepa, uning shimoli-g‘arbiy qismida mustahkam mudofaaga ega bo‘lgan Ko‘zaliqir qal’asi bunyod etiladi. Bu taraqqiyot hududning bu davrdan oldingi jamiyati bilan bog‘liq bo‘lmagan. Bu shaharlar qisqa vaqt ichida qurilgan va aholisi rivojlangan dehqonchilik va kulolchilik bilan shug‘ullangan. Bu davrdan oldingi jamiyatlar Amirobod va Quyisoy madaniyatini yaratgan aholi bo‘lgan. Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi janubiy Oqchadaryo deltalari bo‘ylarida Amirobod madaniyati aholisi istiqomat qilgan bo‘lib, u mil.avv. X – VIII asrlarga oid.

Xorazm vohasining janubiy tomonidan Tuyamo‘yin havzalarida, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida ko‘chmarchi chorvadorlar yashagan. Bu joy ko‘chmarchi chorvadorlarning qishlov joylar bo‘lgan. Arxeologik tadqiqot ishlari natijasida bu yerdan mil.avv. VIII – V asrlarga oid bo‘lgan ko‘chmarchilarning mozor – qo‘rg‘onlari topilgan [1, Б.34 – 40]. Ular Meshekli va Uch o‘choq yodgorliklari deb nomlanib, saklarga oid qabrlar ekanligi aniqlangan. Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlarini umumlashtiradigan bo‘lsak, mil.avv. VIII – VI asrlarda qadimgi Xorazm vohasining g‘arbiy tomonida Quyisoy madaniyatini yaratgan aholi, sharqiy tomonida Amirobod madaniyatini yaratgan aholi, janubiy tomonida Meshekli, Uch o‘choq madaniyati aholisi yashaganligi aniqlangan. Ular chaylalarda istiqomat qilgan, ularda monumetal me’morchilik bo‘lganligi aniqlanmagan.

Mil.avv. VI asrning birinchi yarmida Qadimgi Xorazm vohasining janubiy qismida hunarmandchilik markazi bo‘lgan Xumbuztepa, markaziy shahar Xazorasp va shimoli-sharqi qismida mustahkam mudofaa devoriga ega bo‘lgan Ko‘zaliqir shahri bunyod etilgan. Aynan shu shaharlar bunyod etilgan vaqtidan boshlab vohada ilk urbanistik jarayonlar boshlangan, keyingi davrlarda taraqqiy etib borgan. Shu davrdan boshlab Xorazm vohasida o‘ziga xos sivilizasiya shakllangan. Ilk urbanizatsion jarayondan boshlab, Amudaryo vohasining janubi va sharqiy qismidagi taraqqiyot Amudaryoning shimoli-g‘arbiy tomonidagi taraqqiyotdan farqli tomonlari kuzatilgan. Bu o‘ziga xos rivojlanish keyingi davrlarda ham kuzatilgan va yozma manbalarda ham o‘z aksini topgan. Yodgorliklarning qurilishi, sug‘orish tizimi, chorvachilik tarkibi, sopol idishlarning yasalish uslublarida farqlar kuzatiladi.

Xorazm vohasining janubiy qismida ilk urbanizatsiya jarayonida janubiy davlatlar aholisining ta’siri kuzatiladi. Xorazmga janubdan aholining ko‘chib kelganligi masalasi tadqiqotchilar o‘rtasida uzoq vaqt muhokamaga sabab bo‘lgan [C. 82 – 92]. Bu “Katta Xorazm” muammosi bo‘lib, tadqiqotchilar o‘rtasida ikki xil fikr ilgari surilgan. Bir guruh olimlar Xorazm davlatining ta’sir doirasi keng bo‘lib, janubda Murg‘ob va Tajan daryosi hududlariga tarqalgan deb ko‘rsatsa [3, C. 39 – 41] [4, C.55 – 56], boshqa bir guruh olimlar xorazmliklar dastlab janubda yashab, keyinchalik qandaydir sabab bilan Amudaryoning quyi oqimiga borgan deb hisoblashgan [5, C.118] [6, B.6 – 84]. Bu munozarali masalaning yechimi ham Xorazm vohasidagi urbanizatsiya jarayoni qanday kechganligini aniqlashda imkon beradi.

Qadimgi xorazmliklarning janubdan ko‘chib kelganliklar haqida yozma manbalarda



ma'lumotlarning mavjud bo'lishi ham bu masalani tahlil qilishni taqozo qiladi. Xorazm xalqi orasida ham ularning sharq tomondan kelganligi haqida afsona va rivoyatlar saqlanib qolgan. Bu rivoyatlarda ma'lum bir guruh aholi sharq podshosiga bo'y sunmaganligi uchun odam yashamaydigan joyga olib kelib tashlanganligi va ma'lum bir vaqtidan keyin xabar olinganda, ularning bu yerlarni obod etib, shahar bunyod etganligi haqida bayon qilinadi. Shu bilan birga "Xorazm" etimologiyasining kelib chiqishi ham shu badarg'a qilingan insonlarning turmush tarzi bilan bog'langan. Bu afsonalar I.Jabborovning "Ko'hna xarobalar siri" kitobida quyidagicha keltirilgan: "Qadimgi zamonlarda bir podsho bo'lib, uning juda jasur, o'z vatanini himoya qilishda hech tenggi yo'q qo'shini va istedodli lashkarboshilar bo'lgan ekan. Kunlardan bir kun lashkarboshilar bir guruh qo'shin bilan podshoning adolatsiz siyosatiga qarshi isyon ko'taradilar. ... Podsho isyonchilarni o'z vatanidan judo qilib, qumlar orasida changalzor va to'qayzor bo'lib yotgan daryo bo'yidagi bir joyga olib borib tashlaydilar. Surgun qilingan lashkar va lashkarboshilar ancha qobiliyatli bo'lib, o'sha changal va to'qayzorlarni obod bir o'lkaga aylantirib yuboradilar. Ko'p yillar o'tishi bilan keksaygan podsho surgundagi sevimli qo'shinlaridan xabar olishni buyuradi. Podsho odamlari kelib ko'rsa, ilgarigi to'qayzorni tanib bo'lmas emish. Hamma yerda obod shahar va qishloqlar, suvga to'la ariqlar. Ular katta bir shaharga kirib, shahar kattasi bilan uchrashadilar va undan "Bu qanday o'lka?" - deb so'raydilar. Shahar kattasi: "Bu yerdagi xaloyiq bir vaqtlar o'z podshosi tomonidan xor qilingan edi, endi esa o'z mehnati bilan shahar va qishloqlar qurib azim bo'lgan", - deb javob beribdi. Bu voqeani podshoga kelib aytibdilar. Podsho ilgari xor bo'lib, keyin azimga aylangan o'sha yurt kishilarining gunohini kechib, ularni bundan keyin xorazmliklar deb atashni buyuradi" [7, Б.6]. X asrda yashagan arab geografi Maqsidi (Shamsiddin al-Muqaddasi) ham shunga o'xhash afsonani yozib qoldirgan: "Qadim zamonlarda Sharq podshosi o'z mamlakatida yashovchi 400 ga yaqin kishiga darg'azab bo'lib, ularni aholi yashaydigan joylardan 100 farsax yerga eltilib qo'yishni buyuradi. Uzoq vaqt o'tgandan keyin podsho o'sha odamlardan xabar olib kelishni buyuradi. Podsho odamlari qaytib ko'rigan-bilganlarini tasvirlab bergenlarida, podsho: "Ular go'shtni nima der ekanlar", - deb so'rabdi. "Xar (yoki xavar)" deb javob beribdilar. U yana: "O'tinni-chi?" - deb so'rabdi. Ular: "razm" deb javob beribdilar. Keyin podsho: "Ushbu mavzeni shularga taqdim qildim, u Xorazm (Xvarazm) deb atalsin. Keyinchalik u joyda Kas shahri qad ko'tarib, Xorazmshohlar davlatining poytaxti bo'lgan ekan deb o'z fikrini davom ettirgan olim [8, C.44] [7, Б.6]. Bu afsonalarda turli davrlarda bo'lgan voqe va hodisalar umumlashib ketgan bo'lsa-da, ularda berilgan g'oya muhim hisoblanadi. Bunda biz aholining sharqdan Amudaryoning quyi oqimiga ko'chib kelganligi, hududga siyosiy nom berilganligi va shahar bunyod etilganliklariga e'tibor berishimiz muhim. Tarixiy tardqiqot natijalariga e'tibor beradigan bo'lsak, Amudaryoning quyi oqimidagi hudud ahamoniylar imperiyasi tarkib topgandan keyin, Xorazm deb atala boshlangan [9, Б.207].

Tardqiqotchilar o'rtasida xorasmiyarning ilk vatani masalasida ham turlicha qarashlar bo'lgan, chunki Gerodotning Akes daryosi haqidagi ma'lumoti geografik sharoitga mos kelmaydi. Aksariat olimlar bu hududni Tajan-Murg'ob vodiysi deb ko'rsatadilar. [10. C.35-36] [12. C.33] A.Asqarov uni Hirov vodiysi deb, E.V.Rtveladze Amudaryo va Murg'ob oralig'i, ya'ni Turkmanistonning janubi-sharqi, Afg'onistonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Bandi Turkiston tog' oldi va Paramisadning g'arbiy tomonida bo'lgan deb xulosa beradi [11. C.43].

Xorazm vohasining janubiy hududidagi ilk urbanizatsiya jarayoni ham aynan shu xorasmiyalar bilan bog'liq. Ular Amudaryo quyi oqimining chap qirq 'og'iga ko'chib kelganlaridan so'ng, o'zlarining ilk shaharlarini bunyod qilishadi va o'zlarini bilan hududga dehqonchilik va hunarmandchilik an'analarini ham olib kelishgan. Ular qurgan shahar, dehqonchilik va hunarmandchilik uslublari Ko'zaliqir yodgorligining qurilish uslubi, dehqonchilik va hunarmandchilikdan farqli tomonlari kuzatilgan.

Xorazmga vohasining janubiy tomonidan Xumbuztepa, Hazorasp kabi shaharlar ahamoniylar hukmronligidan oldin bunyod etilgan. Shuningdek, bu hududda ahamoniylar hukmronligi o'rnatilganligi haqida ma'lumotlar mavjud emas. Lekin Ko'zaliqir hududlari, ya'ni sharqiy Xorazm hududida ahamoniylar o'z hukmronligini o'rnatgan va ahamoniylarning XVI satrapligi tarkibiga kiritilgan. Bu davrda satrap qarorgohi Parfiyada bo'lgan, keyinchalik u sharqiy Xorazm hududiga ko'chirishga xarakat qilingan. Ahamoniylar rezidensiyasi sifatida Qal'aliqir 1 yodgorligi qurila boshlangan. Bu yodgorlikning qurilishi tugallanmay qolgan. Bu esa, qadimgi Xorazm davlatining mutaqillikni qo'liga kiritganligi va o'zining taraqqiyotida yangi bosqichga o'tganligini ko'rsatadi.



### Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Баратов С.Р. Новые археологические материалы к истории древнего Хорезма. // Хоразм Маъмун академияси аҳборотномаси. 4 – сон. – Самарканд, 2014.
2. Эгамбердиева Н.А. Археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма (VI – IV вв. до н.э.) диссер. на соис. кан. ист. наук. Нукус. 2001.
3. Дьяконов И.М. История Мидии от древнейших времён до конца IV в. до н.э. Москва. 1956.
4. И.Н. Хлопин. Историческая география южных областей Средней Азии. (Античность и раннее средневековье). Ашхабад. “Ылым”. 1983.
5. Ягодин В.Н. Древний Хорезм и Центрально-азиатский урбанизационный процесс. // Тезисы докладов конференции “Возникновения и развития урбанизационных процессов в Центральной Азии”. – Самарканд, 1995.
6. Аскarov А. Қадимги Хоразм тарихига доир баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндошувлар. – Тошкент. 2004.
7. Жобборов И. Қўхна харобалар сири. – Тошкент. 1961.
8. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко – археологического исследования. – Москва. МГУ, 1948.
9. Аскarov А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Тошкент: O‘zbekiston, 2015.
10. Ртвеладзе Э. В. Между Бактрией и Маргианой – первоначальная территория расселения хорасмиев. // – С. 35-36;
11. Ртвеладзе Э. В. Время, причины и пути миграции хорасмиев в низовья Амударьи. // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Нукус. “Бустон”. 2000.
12. Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма. // Ўзбекистон тарихи. № 4. 2007.



Mustafoyev Jaloliddin

Ahmadov Dovudxon

O'zbekiston-Finlandiya

Pedagogika Instituti

+998931395610

**Annotatsiya:** Barchamizga ma'lumki, yigirma birinchi asr texnika hamda texnologiya asridir. Bu davrda mamlakatlar o'z hududi, o'z rahbariga ega va bu ma'sul shaxslar davlat fuqarolari tinchligi uchun tinmay kurashadilar. Ammo, bunday jonkuyarlik avvalgi zamonalarda davlat rahbari uchun ancha qimmatga tushgan. Tarixda ana shunday adolatli, kuchli davlat rahbarlaridan biri bu Amir Temur edi. Bu maqola ana shu tarixiy shaxs va tashkil qilgan davlat, uning diplomatik aloqalari va ijtimoiy hayotiga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** jahon sivilizatsiyasi, "yetti qo'l", qanbul, janglar, Yevropa davlatlari, "Temur tuzuklari".

Tarixiy hujjatlarning dalolat berishicha, XIV-asrning 70-yillaridanoq Yevropa davlatlari vakillari Movarounnahrga kelib, bu yerdagi yangi mustaqil davlatning qudrati va salohiyati bilan jiddiy qiziqsanlar. Amir Temur o'zining markazlashgan davlati uchun tuzilgan tom ma'nodagi Konstitutsiyasi bo'lgan "Temur tuzuklari" kitobi asosida boshqargan. Amir Temur ot surgan paytda dunyo qanday qiyofada edi? Bundan 680 yil oldingi manzarani ko'z oldimizga keltirsak, odamzod bugungi Amerika qit'asini bilmas ham edi. Evroosiyo materigi odamlari esa daraxt yaprog'iga yopinib, cho'qmor bilan ayiq, baliq ovlab, qorin to'yq'azib yurgan edi. Bu davrda Sohibqiron saltanati buyuklikka erishib,zolimlar jilovlangan, xalq osoyish topgan, davlat esa takomillashgan edi.

Amir Temurning markazlashgan davlatni barpo etishi oson bo'lmagan albatta. Bu qon to'kishlar va shiddatli janglar natijasidir. Shu o'rinda ayrim janglarni eslash joizdir. Terek daryosi yonidagi jang (1395-yil, 15-17-aprel) Temur bu jangda 200 000 qo'shin bilan jang qilgan,yutug'i – taktik jihatdan bu harbiy qo'shilmalar mustaqil harakat qilgan va bosh qo'mondonga bo'ysungan. Jangi loy – Temur va Husayn ibn Musalabning Jeta (Mo'g'uliston) xoni Ilyosxo'ja bilan bo'lgan. -Anqara jangi – (1402-yil 12-iyul) Amir Temur va turk sultonı Boyazid I Yildirim o'rtasida bo'lgan. Qunduzcha jangi (1391-yil 18-iyun) Amir Temur va Oltin O'rda xoni To'xtamish qo'shini o'rtasida bo'lgan. Xuddi shunga o'xshagan bir necha janglar va g'alabalar buyuk davlat asosi uchun poydevor bo'lgan desak adashmaymiz. Masalan, qumbul (qunbul, qanbul) (mog'ulcha – markazni qurshamoq, qanot muhofazasi,qo'shin qanotlarini dushman hujumidan himoya qiluvchi suvoriy harbiy qism) Amir Temur jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib jang maydonida 7 qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Amir Temur yoshligidan noyob qobiliyat, aql va tafakkurga ega ekanligi ma'lum.

Shuning uchun ham boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalar qura olgan. Qudratli davlat shakllangach, Kastiliya va Leon qiroli Don Enrike III, Fransiya hukmdori Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV saroyga elchilar yuborgan va diplomatik aloqalar o'rnatganlar. Sohibqiron elchisi arxiyepiskop Ioanning "Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar" asari ham o'tgan 600 yil mobaynida diplomatik aloqa haqida turli tillarda yaratilgan 1000 dan ziyod asarlar orasida ishonchli va xolis manba sifatida alohida o'rin tutadi. Turli mamlakat diplomatlari bu shaxs bilan aloqalar o'rnatishga harakat qilganlar. Yuqorida aytiganidek, "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvi uchun asos bo'lgan. Quyidagi iqtiboslar shu asardan keltirilgan. "...Mening qattiqqo'lligim, bag'ritoshligim, eng avvalo, xalqimning tinchligi, saltanatimning ravnaqi uchundir. Dushmanlarimga ayovsizligim rost. O'g'rilik, talonchilik, zo'ravonlik ildizlariga qattiqqo'llik bilan bolta urilmasa, muloyimmijozlik bilan natijaga erishib bo'lmaydi...", "...Ehtiyyot bo'ling, sharob, may va boshqa kayf beruvchi narsalardan saqlaning.

Agar unga ruju qo'ysangiz, bilingki, mulkingiz barbod bo'ladi, hokimiyatingiz qulaydi". Manbalar Amir Temurni mohir strateg, omadli sarkarda deb ta'riflaydi va uning e'tiqodi, saltanatida dinlarning o'rni, holati xususida quyidagilarni yozadi. Saltanatda diniy huquq hukmron bo'lsa-da, Temur shu qadar dono ish yuritar ediki, o'zini islomning sodiq bandasi sifatida bir necha bor amalda isbotlab bergen. Onlayn kitob ilovalarida fransuz yozuvchisi Marsel Brionning "Men kim Sohibqiron - jahongir Temur" deb nomlangan kitobiga ko'zim tushib qoldi. Asarni o'qir ekansiz, unda Temur hayoti va faoliyati, markazlashgan davlat asoschisi ekanligiga amin bo'lasiz. Dastlab muallif Amir



Temurga bag'ishlangan "Temurlan" ocherkini 1942-yilda chop ettirdi. Odamzod naslining bir vakili hayotligida qanday bo'hronlarni boshdan o'tkazgan. Nima bo'lganda ham Amir Temur xuddi poytaxtda o'rnatilgan muhtasham haykal kabi insoniyat tarixi xiyobonida hech narsani pisand qilmay, mag'rur turibdi. Shunday mahalda beixtiyor biz uni buyuk davlat asoschisi, mohir diplomat deya baralla ayta olamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Saidov. Temur va Yevropa. "Milliy tiklanish" gazetasi. 2010-yil, 7- aprel.14-son.
2. Yunus O'g'uz. Amir Temur. Tarixiy roman. "Yangi asr avlodni", 2014.
3. Amir Temur. Temur tuzuklari. "O'qituvchi", 2018.
4. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. "Mehnat", 1991, 1-qism.



Эркинова Жасмин Азизовна

Студентка Института Иностранных Языков

Телефон: +998970321561

erkinovjasmin@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston tarixida oqibatlarga olib keladigan muhim sanalar va voqealar qayd etilgan. Ushbu satyada asosiy e'tibor mamlakatning tashqi siyosati va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish istagi haqidagi faktlarga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** yangi O'zbekiston, mustaqillik, diplomatiya, BMT, ShHT, MDH.

**Аннотация:** В данной статье упоминаются важные даты и события, имеющие последствия в истории Узбекистана. Данная статья акцентируется на фактах о внешней политике страны и ее стремлении интегрироваться с мировым сообществом.

**Ключевые слова:** новый Узбекистан, независимость, дипломатия, ООН, ШОС, СНГ.

**Annotation:** This article mentions important dates and events that have consequences in the history of Uzbekistan. This article focuses on facts about the country's foreign policy and its desire to integrate with the world community.

**Key words:** new Uzbekistan, independence, diplomacy, UN, SCO, CIS.

Введение. "Когда птицы летят стаей, ни один ветер не сможет сбить их с пути." [1]. Эти слова великого предка-Алишера Навои символизируют, что сила и власть общества, а также государства в ее сплоченности. Сохраняя независимость, подобно одной большой стае, стремящееся к одной общей цели, народ способен преодолеть любую преграду на своем пути. Его слова можно успешно применить на молодом, но стремительно развивающем государстве Узбекистан, имеющая многовековую историю, опирающаяся на традиции и опыт прошлых поколений для достижения успеха в управлении как и во внутренних, так и во внешних делах .

Республика Узбекистан стремительно развивающее государство, имеющее тридцатилетнюю историю продвижения по международной арене , как суверенное государство. Огромный вклад в развитие страны внесли уважаемые узбекские главы. Невозможно недооценить их открытия и усилия когда-то совершившиеся, и также продолжающие по сей день. Концепция Новый Узбекистан, возглавляемая Шавкатом

Мирмоновичем Мирзиёевым, продолжает идею открытости республики для мирового сообщество, начатую еще первым президентом-Исламом Абдуганиевичем Каримовым; и даже совершенствует ее в некоторой степени. 31 сентября в 1991 году была декларирована независимость

Узбекистана. Этот день стал важным событием для каждого гражданина страны. Ислам Каримов, будучи президентом, взял тяжкое бремя управления государством и с этого момента началась новая эпоха для узбекского народа, что, в дальнейшем, стало фундаментом для реформ Шавката Мирмоновича..

После независимости, молодая среднеазиадская страна жаждала получить мировое признание, что ей, собственно и удалось. 2 марта 1992 года считается днем вступления в ООН; точнее Узбекистан был принят в крупную организацию ,объединявшую мировые государства для решения глобальных проблем в области прав человека и экономики. Были подписаны многочисленные документы, согласованы резолюции и приняты меры по защите базовых человеческих прав (включая женщин и детей) [2].

Перед первым президентом стояли множество проблем. Учитывая нехватку кадров в различных отраслях, было принято решение создать соответствующие училища для подготовки квалифицированных специалистов своего дела. Во имя преодоления, казалось бы, глубокого дефицита рабочих, были предприняты соответствующие меры- и область дипломатии не осталась без внимания. 23 сентября 1992 года по инициативе первого президента был основан « Университет мировой экономики и дипломатии » для подготовки образованных кадров в области международного права [3]. Данный университет является ярким примером стремления страны влиться в мировое сообщество.

Стоит отметить что немаловажными являются взаимоотношения Узбекистана с другими тюркскими государствами. Итак, 30 октября 1992 года по инициативе президента Турецкой



Республики Тургута Озала в Анкаре состоялся первый Саммит тюркоязычных государств, на котором появились лидеры Узбекистана, Азербайджана, Казахстана, Туркменистана и Кыргызстана. Саммит оказал огромное влияние на ускорение налаживания политического диалога и развития экономических связей между этими странами. Это были еще первые попытки развития отношений между родственными государствами. Позже 12 июля 1993 года в Алма-Ате было подписано соглашение о создании Международной организации тюркской культуры для переплетения тюркских народов, традиций, языков, создания культурных центров на территории этих стран. Хотя Узбекистан не рассматривал вступление в Тюркский совет, организованный 3 октября 2009 года в Нахичеване, он активно принимал участие в саммитах, которые проводились в последующее десятилетие [4].

Узбекистан не ограничивался только связями с тюркскими республиками. Помимо этого, важным приоритетом являлось укрепление отношений с постсоветскими странами. Поэтому соучредительство Содружества Независимых Государств (СНГ) 8 декабря 1991 года являлось финоменальным решением. С момента образования Содружества,

Узбекистан был в числе тех государств, которые выступали за углубление экономической интеграции, развитие транспортных путей, сохранение безопасности и суверенитета стран-участниц, в случае конфликтов который решает проблемы через мирные переговоры в наивысшем формате. [5].

Важно отметить, что в далекие 2000-ые годы распространялись идеологии терроризма и экстремизма среди гражданского населения, поэтому для Ислама Каримова в приоритете было поддержание спокойствия и безопасности в республике. 15 июня 2001 года Узбекистан был принят в Шанхайскую Организацию Сотрудничества (ШОС) в целях сдерживания терактов и поддержания мира. В настоящее время ШОС является влиятельной международной организацией, вносящей весомый вклад в эффективное решение наиболее актуальных проблем стремительно меняющегося мира. Участие Узбекистана имело важный стратегический характер из-за общей границы с Афганистаном являвшимся очагом терроризма и кризиса [6].

Вся активность продолжавшаяся в годы правления Ислама Каримова является важной и фундаментальной, в то время как реформы Шавката Мирзиёева-это ярчайшие примеры многовекторной политики и добрососедства. Нынешний президент особо стремится улучшить отношения, помимо традиционных партнеров, со странами Запада и дальнего Востока, как США, Великобритания, ЕС, Республика Корея и Япония. Шавкат Мирзиёев за последние годы активно выступает в роли реформатора внутренней и внешней политики Узбекистана, доказательством этому может служить его выступление на 78-сессии

Генеральной Ассамблеи ООН, где он упоминает все достижения страны за несколько лет, как снижение бедности и безработицы, повышение образование; так и стремление создать необходимые условия для развития бизнеса, науки и культуры, при этом, делая ставки на молодежь [7].

И конечно, концепция Новый Узбекистан выдвинутая вторым президентом является примером развития не только экономических отношений, но и дипломатических. 12 ноября 2021 года некогда бывший Тюркский совет был переименован в Организацию тюркских государств (ОТГ) по инициативе президента Узбекистана; далее 11 ноября 2022 года древний Самарканд сыграл площадку для диалога между тюркскими странами. На повестке дня стояли вопросы более тесного сближения тюркского мира как единое целое и развитие экономического потенциала. [8]. Особо нужно выделить роль Самарканда в настоящее время, хотя город и был культурной столицей, но теперь он превращается в многофункциональную площадку для переговоров. Например, с 15 по 16 сентября проходил саммит лидеров государств-членов ШОС того же года. В эти дни проходили двусторонние переговоры между Узбекистаном и странами участниками по расширению торгово-экономических, культурно-политических связей между странами и также вступление Ирана в организацию [9]. Самарканд, являющийся сердцем туризма, получил статус культурной столицы СНГ 2024 года. По договоренности стран-участников в городе должны будут проводиться выставки и мероприятия для презентации различных культур [10].

На этом реформы не закончились. Узбекистан-страна с богатым архитектурным наследием, и потому, по указу президента проводится активная либерализация визового режима. Таким образом власти показывают свою лояльность к иностранным гражданам, которые желают совершить бизнес, либо туристическую поездку в страну [11]



Целеустремленность является важным качеством узбекского народа, который не собирается останавливаться на достигнутом. Узбекистан имеет большие амбиции и ставит высокие цели . На ближайшее будущее страна планирует вступить во Всемирную Торговую Организацию (ВТО).

К 2026 Узбекистан стремится вступить в эту организацию, ибо вступление гарантирует еще лучшую интеграцию в мировую экономику, снижение пошлин на узбекские продукты и увеличение ВВП [12]. Кроме того наш президент анонсировал “Проект 2030”. Это экономическая стратегия по развитию страны, включающая в себе увеличение дохода населения , привлечение инвестиций, и оснащение новыми технологиями.



## ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### SOCIAL DIMENSIONS OF STANDARDIZED ASSESSMENT IN UZBEK CONTEXT

Asrorov Ilgor

Senior Teacher of International

Islamic Academy of Uzbekistan

i.asrorov@iiau.uz

**Abstract:** This article explores the role and impact of standardized assessments and CEFR-aligned language tests in Uzbekistan's educational system. It examines the historical context, current applications, and challenges posed by these tests, including negative washback effects, ethical dilemmas, and their gatekeeping functions. The study highlights the implications for teachers and students, emphasizing the need for balanced approaches that integrate formative assessments to enhance educational outcomes while respecting ethical standards.

**Keywords:** Standardized testing, CEFR, language proficiency, Uzbekistan education, washback effects, ethical dilemmas, gatekeeping, formative assessment.

Standardized assessments and language proficiency tests have played a pivotal role in education globally, including in Uzbekistan, where the implementation of the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) since 2013 has shaped educational policies and practices. These tests, such as IELTS and TOEFL, serve as benchmarks for language proficiency and have significant gatekeeping functions, impacting academic and professional opportunities (Hudson, 2013; Spolsky, 1997). However, their widespread use raises concerns about their influence on teaching methods, learning outcomes, and ethical considerations.

#### Historical Context and Current Application

Standardized testing is not a modern invention; its roots can be traced back to ancient China, where formal examinations were used to select government officials (Cheng, 2008). In contemporary times, these assessments have evolved into high-stakes tests, influencing education systems worldwide. High-stakes standardized tests, characterized by their norm-referenced scoring and consistent administration, often determine access to higher education and employment opportunities (Brown & Abeywickrama, 2010). In Uzbekistan, the adoption of CEFR standards has aligned language assessment with international benchmarks, mandating proficiency levels for both teachers and students.

The CEFR framework, introduced as part of Uzbekistan's educational reforms, requires foreign language teachers to demonstrate at least a C1 proficiency level. This policy, reinforced by the 2012 Presidential Decree on strengthening foreign language learning (Presidential Decree № 1875, 2012), aims to enhance the quality of language education. Additionally, postgraduate candidates must meet specific CEFR benchmarks to qualify for advanced studies (Cabinet of Ministers, 2021). These measures underscore the centrality of standardized tests in Uzbekistan's educational landscape.

#### Impacts on Teaching and Learning

While standardized assessments aim to ensure consistency and accountability, they often result in unintended consequences. Teachers and students may prioritize test preparation over comprehensive language acquisition, leading to a phenomenon known as negative washback (Shohamy, 1993). This shift in focus can undermine the broader objectives of education, such as fostering critical thinking and effective communication skills.

The high-stakes nature of these tests also exerts significant pressure on educators. For instance, teachers who fail to meet the required proficiency standards risk losing their jobs. Such policies, while intended to uphold quality, can create a stressful environment that prioritizes compliance over pedagogical innovation. Furthermore, the emphasis on standardized testing often overlooks the diverse needs of learners, potentially marginalizing those who struggle to adapt to rigid assessment criteria (Menken, Hudson & Leung, 2014).



### Ethical Considerations

The reliance on standardized tests raises important ethical questions. These assessments, by their design, wield considerable power over individuals' academic and professional trajectories. Critics argue that this control can perpetuate inequalities, particularly for individuals from disadvantaged backgrounds who may lack access to adequate preparation resources (Spolsky, 1997).

Moreover, the gatekeeping role of standardized tests can constrain academic freedom and creativity. Educators may feel compelled to tailor their teaching methods to align with test requirements, thereby limiting opportunities for holistic and student-centered learning. Ethical concerns also extend to the validity and fairness of these assessments, as they may not accurately reflect an individual's language proficiency or potential (Shohamy, 1993).

### Balancing Standardization and Innovation

To address these challenges, scholars advocate for a more balanced approach to language assessment. Combining standardized tests with formative, democratic evaluation methods can mitigate the risks of negative washback while promoting meaningful learning experiences. For instance, integrating continuous assessment and portfolio-based evaluations alongside standardized tests can provide a more comprehensive picture of learners' abilities (Brown & Abeywickrama, 2010).

In Uzbekistan, efforts to align language education with international standards must also consider the local context. Policymakers should prioritize professional development opportunities for teachers, equipping them with the skills and resources needed to navigate the demands of standardized assessments (Musoeva, 2020). Additionally, fostering a culture of collaboration and feedback among educators can enhance teaching practices and support student success.

### Conclusion

The implementation of CEFR standards and standardized language tests in Uzbekistan reflects a commitment to aligning educational practices with global benchmarks. However, the high-stakes nature of these assessments presents significant challenges, including negative washback, ethical dilemmas, and the marginalization of diverse learner needs. By adopting a balanced approach that integrates standardized and formative assessments, Uzbekistan can create a more equitable and supportive environment for language learners and educators alike. Such reforms can ensure that language education not only meets international standards but also fosters meaningful and inclusive learning experiences.

### References

- 1) Brown, H. D., & Abeywickrama, P. (2010). *Language assessment: Principles and classroom practices*. White Plains, NY: Pearson Education.
- 2) Cheng, L. (2008). The key to success: English language testing in China. *Language Testing*, 25(1), 15–37.
- 3) Menken, K., Hudson, T., & Leung, C. (2014). Symposium: Language Assessment in Standards-Based Education Reform. *TESOL Quarterly*, 48(3), 586–614.
- 4) Musoeva, A. (2020). *Implementing CEFR in Uzbekistan*. LAP LAMBERT Academic Publishing.
- 5) Asrorov, I. (2024). SOCIAL DIMENSIONS OF STANDARDIZED ASSESSMENT IN LANGUAGE TEACHING IN UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(9), 84-90.
- 6) Shohamy, E. (1993). The Power of Tests: The Impact of Language Tests on Teaching and Learning. *NFLC Occasional Papers*.
- 7) Spolsky, B. (1997). The ethics of gatekeeping tests: What have we learned in a hundred years? *Language Testing*, 14(3), 242–247.
- 8) Asrorov, I. (2024). POWER OF TESTS: STANDARDIZED TESTS AND THEIR IMPACT ON EDUCATION IN UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(10), 18-24.



### YANGILIKLARDA ERGASH GAPLI QO'SHMA SENTENSEMALI SARLAVHALAR VA UNING MATN BILAN PRAGMATIK UYG'UNLIGI (INGLIZ VA O'ZBEK MATERIALLARI ASOSIDA)

Kayumova Nilufar Xotam-Qizi,  
Andijon Davlat Tibbiyot Institutu  
Mustaqil izlanuvchi (PhD)  
Xorijiy tillar kafedrasini o'qituvchisi  
tel: + 998 97 969 52 22  
nilufarxonkayumova@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada ergash gapli qo'shma gaplarning ommaviy axborot vositalarida, xususan yangilik matnlarida qo'llanishi va ularning pragmatik funksiyalari tadqiq etilgan. Ergash gapli qo'shma gaplarning 14 turdag'i tasnifi keltirilib, ularning har biri yangilik matnlari bilan bog'langan holda tahlil qilingan. Ushbu maqola yangilik sarlavhalari va matnlarida ergash gaplarning sintaktik, semantik hamda kommunikativ jihatdan ahamiyatini ochib beradi. Tadqiqotda autentik yangilik matnlaridan olingan misollar asosida tilning lingvistik xususiyatlari, matn tuzilishi va omma bilan kommunikativ aloqa o'rnatishdagi ahamiyati ilmiy yondashuv asosida ko'rib chiqilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** *ergash gap, qo'shma sentensema, yangilik matni, ommaviy axborot vositalari, sintaktik struktura, kommunikativ yondashuv, sarlavhalar.*

Hozirgi zamon ommaviy axborot vositalarida yangilik sarlavhalari nafaqat ma'lumot yetkazish, balki ommanning e'tiborini jalb etish va ularni matn bilan tanishishga undashda muhim vosita sifatida qaraladi [1, 124]. O'z tabiatiga ko'ra, sarlavhalar axborot vositalarining kommunikativ maqsadlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Ular ko'pincha iste'molchi uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni strategik usullarda taqdim etadi, shu bilan birga, lingvistik va pragmatik jihatdan chuqur o'ylangan yondashuvni talab qiladi.

Yangiliklar sarlavhalarida sodda va qo'shma sentensema bilan ifoladalangan jumlalardan tashqari, uning uchinchi kategoriysi ham mavjud bo'lib, uni ***ergash gapli qo'shma sentensemali sarlavhalar*** (complex sentenseme headlines with subordinate clause) deyishimiz mumkin. Misol uchun, *Tributes paid to father and daughter after bodies found on Sicily yacht wreck* [2] // *Sitsiliya yaxtasida halokatga uchraganlarning jasadlari topilgach, ota va qizga hurmat bajo keltirildi.*

Yangilik sarlavhasida bosh – main clause (*Tributes paid to father and daughter*) va ergashgan gap – subordinate clause (*after bodies found on Sicily yacht wreck*) mavjud bo'lib, ergash gap voqeani vaqt va sabab nuqtayi nazaridan aniqlashtiradi. Payt ergash gaplarda ergash gap bosh gapdagi harakatning faqat paytinigina bildirib qolmay, shunga bog'langan holda shart va sabab ottenkalarini ham ko'rsatadi. Lekin bunday gaplarda payt mazmuni sabab, shart ma'nolaridan ustun turadi. Sabab, shart ma'nolari unga qo'shimcha bo'lib keladi. Yoki aksincha, payt kuchsizlanib, boshqa ma'nolar ustun bo'ladi [3, 432]. Mazkur yangilik sarlavhasida qo'llanilgan *after* predlogi orqali bog'langan ergash gap harakatlar o'rtasidagi mantiqiy va vaqt bog'lanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, *after* ergash gapni vaqt nuqtayi nazaridan aniq belgilabgina qolmay, voqealarning sabab-natija munosabatini ham ta'kidlaydi.

Yana bir misolda, *Time to prepare and evacuate "coming to an end", forecaster warn, as tornadic supercells begin* [4]. // *Tayyorlanish va evakuatsiya qilish vaqtini yakunlanmoqda, deya ogohlantiradi sinoptiklar; chunki tornado hosil qiluvchi ulkan bo'ronli bulutlar paydo bo'la boshladi.*

Yuqorida yangilik sarlavhasi payt ergash gapli qo'shma gap sifatida shakllangan bo'lib, u omonimik xususiyatga ega. Bosh gap – *forecaster warn*, bosh gapning to'ldiruvchi elementlari – *time to prepare and evacuate "coming to an end"*, ergashgan gap esa – *tornadic supercells begin*. Subordinativ bog'lovchi *as* ergash gapni asosiy gapga bo'g'laydi. Kuzatuvarimizga ko'ra, *as* bog'lovchisi yordamida shakllangan sarlavhalar yangiliklar matnida ko'p uchraydi. Yangilikda *as* subordinativ bog'lovchisi yordamida bir vaqting o'zida payt ma'nosigina ifoda etilmasdan, sabab va holat ottenkalari ham mavjud. Masalan, qachon? (vaqt ifodasi) – *tornado hosil qiluvchi ulkan bo'ronli bulutlar paydo bo'la boshlagach*, nima sababdan jarayon yakunlanmoqda? (sabab ma'nosi) – *chunki tornado hosil qiluvchi ulkan bo'ronli bulutlar paydo bo'la boshladi*, qanday holatda? (holat



ифодаси) – *tornado hosil qiluvchi ulkan bo‘ronli bulutlar paydo bo‘la boshladi.*

Teun Van Dijkning ta’kidlashicha, yangilik sarlavhasi matnning o‘ziga xos reklama vositasi bo‘lib, unda berilgan ma’lumot matnning keyingi mazmuni bilan uyg‘un bo‘lishi zarur [1, 196]. Masalan, “*Toshkentda xalqaro iqtisodiy forum bo‘lib o‘tdi, unda 15 davlat vakillari ishtirok etdi*” kabi sarlavhalar matn bilan pragmatik jihatdan uzviy bog‘lanib, o‘quvchiga mazmun haqida aniq tasavvur beradi. Ushbu sarlavha matnning mavzusini ochib berish bilan birga, undagi asosiy ma’lumotni qisqacha yetkazadi. Bunday sarlavhalar iste’molchiga matnni o‘qishdan avval uning dolzarbligini tushunishga yordam beradi.

Aniqlanadiki, bugungi kunda ergash gapli qo‘shma sentensemalar ommaviy axborot vositalarida keng qo‘llanilmoqda. Ular omma orasida qiziqish uyg‘otuvchi va o‘ziga tortuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Jumladan, quyidagi gazeta va onlayn nashrlarda bu kabi sarlavhalarning keng tarqalganini kuzatish mumkin:

➤ *Gazeta.uz: Xalqaro forumda muhim qarorlar qabul qilindi, lekin ayrim masalalar ochiq goldi.*

➤ *Kun.uz: Prezident yangi farmonni imzoladi, ammo jamoatchilik fikri ikkiga bo‘linmoqda.*

➤ *Daryo.uz: O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘sishda davom etmoqda, ekspertlar esa xavotir bildiradi.*

Yangiliklarda ergashgan gapli qo‘shma sentensemalar turli grammatik, semantik va kommunikativ funksiyalariga ko‘ra quyidagi 14 asosiy turga tasniflanadi:

1. Ega ergash gapli qo‘shma gap:

a) *Kimning mamlakatni rivojlantirish bo‘yicha rejalari amaliyatga tatbiq etilishi, yaqin vaqt ichida ma’lum bo‘ladi.*

b) *Neft qazib olish qachon to‘xtatilishi, energetika bozoriga ta’sir qiladi.*

2. Kesim ergash gapli qo‘shma gap:

a) *Vazir ma’lum qildi, barcha infratuzilma loyihalari belgilangan muddatda yakunlanadi.*

b) *Tadqiqotlar ko‘rsatdiki, global isish xayfi real tahdidga aylangan.*

3. Aniqlovchi ergash gap li qo‘shma gap:

a) *Qaysi loyihalar ustuvor ahamiyat kasb etishi, hukumat rejasida ko‘rsatib o‘tilgan.*

b) *Mahalliy korxonalarning qanday rivojlanayotgani haqida batafsil tahlil berildi.*

4. To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap:

a) *Prezident ta’kidladi, iqtisodiy o‘sish barqaror bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlar safarbar etiladi.*

b) *Xalqaro tashkilotlar e’lon qilishicha, O‘zbekiston hududida barqarorlik saqlanmoqda.*

5. Ravish ergash gapli qo‘shma gap:

a) *Yangi farmon qabul qilinganligi sababli, soliq tizimida islohotlar boshlandi.*

b) *Transport tariflari oshirilgach, shahar yo‘lovchi oqimi pasaydi.*

6. O‘lchov-daraja ergash gap

a) *Xavfsizlik choralar shu qadar kuchaytirildiki, shahar markazida tartibsizliklar sodir bo‘lmadi.*

b) *Narxlar shu darajada oshganki, iste’molchilar norozilik bildirishmoqda.*

7. Chog‘ishtirish-o‘xhatish ergash gapli qo‘shma gap:

a) *Xabarlarga ko‘ra, iqtisodiyot huddi o‘tgan yilgidek barqaror o‘sishni saqlab qolmoqda.*

b) *Siyosiy jarayonlar go‘yo yangi islohotlarni boshlashga tayyorlanayotgandek ko‘rinadi.*

8. Payt ergash gapli qo‘shma gap:

a) *Qachon yangi loyiha ishga tushsa, mahalliy aholi uchun ish o‘rnlari ko‘payadi.*

b) *Zilzila qayd etilgach, favqulodda holat e’lon qilindi.*

9. O‘rin ergash gapli qo‘shma gap:

a) *Yangilikda aytishicha, voqeal shahar markazida sodir bo‘lgan.*

b) *Qayerda yangi zavod qurilsa, iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatiladi.*

10. Sabab ergash gapli qo‘shma gap:

a) *Ob-havo sharoiti yomonlashgani sababli, aviaqatnovlar bekor qilindi.*

b) *Mahalliy hukumat o‘z vaqtida yordam ko‘rsatmagani uchun, norozilik namoyishlari bo‘lib o‘tdi.*

11. Maqsad ergash gapli qo‘shma gap:

a) *Energiya iste’molini kamaytirish maqsadida, yangi uskunalar o‘rnatalmoqda.*

b) *Tashqi investitsiyalarni jalb qilish uchun, bir qator imtiyozlar taqdim etildi.*

12. Shart ergash gapli qo‘shma gap:

a) *Agar yangi soliq qonuni qabul qilinsa, biznes faolligi oshadi.*

b) *Agar tabiatni muhofaza qilish choralar kuchaytirilsa, ekologik muammolar kamayadi.*



13. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap:

a) *Hukumat vakili ma'lum qildi, qanday qilib iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish rejalashtirilayotgani haqida.*

b) *Yangiliklar xabariga ko'ra, xalqaro hamkorlik orqali qanday muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilayotgani aytib o'tildi.*

14. Natijaviy ergash gap

a) *Hukumat shunday qat'iy qaror qabul qildiki, xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etildi.*

b) *Iqlim o'zgarishi shunchalik jiddiy tahdidik, barcha davlatlar birdamlikni kuchaytirishdi.*

Ergashgan qo'shma gaplarning bunday turlari o'zaro bog'lanish usuli, grammatik shakli va semantik xususiyatlari bilan farqlanadi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, yangiliklar sarlavhalari voqealar oqimini vaqt, sabab hamda holat jihatidan aniqlashtiradi, shu orqali uning semantik doirasini kengaytiradi. Sarlavhaning bunday tuzilishi axborotni rasmiy tarzda taqdim etish, uning jiddiyligini oshirish oshirish hamda lingvistik tamoyillarga mos ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda sodda gap, qoshma gap va ergashgan qo'shma gaplarning har biri o'ziga xos vazifani bajarib, sarlavha va matn o'rtaсидаги bog'liqlikni ta'minlaydi.

Demak, yangilik sarlavhalari voqealar oqimini to'liqroq ochib berishga qaratilgan vosita sifatida ko'riliши mumkin. Sodda gaplardan tortib, ergashgan qo'shma gaplarga bo'lgan tuzilmalar mazmunini izchil taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv lingvistik tamoyillarning, jumladan semantik kengaytirish va pragmatik anglashning o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Van.Djik. Teun A. News as discourse. – Hillsdale, New Jersey. UK: Hove and London, 1988. – 210 p.
2. BBC News. August 23, 2024. <https://www.bbc.com/news/articles/c985d6ypv4lo> (Date of access: 30.08.2024)
3. Абдураҳмонов Ф., Шоабдураҳмонов Ш.Ш., Ҳожиев А.П. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. II том. – Тошкент: Фан, 1976. – 560 б.
4. CBSEveningnews Climate Watch. October 9, 2024. [https://www.instagram.com/cbsnewsplanet/p/DA6KdPsxycN/?img\\_index=1](https://www.instagram.com/cbsnewsplanet/p/DA6KdPsxycN/?img_index=1) (Date of access: 09.10.2024)



BOSH BO'LAKLAR VA UNING IFODALANISHI MAVZUSINI O'QITISH

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Telefon +998(97)9252885

Annotatsiya: Maqolada Ona tili darslarida kesim va uning ifodalanishi mavzusini o'qitishda qo'llanuvchi metodlar mavzusi bo'yicha uslubiy metodik ta'lilot keltirildi.

Kalit so'zlar: Gapning bosh bo'lagi, grammatick munosabat, kesim, sintaktik aloqa, tobe bo'lak, hokim bo'lak

Ta'linda "Sintaksis" bo'limini o'qitishning yangi innovatsion tizimini yaratish o'zbek tili fanining muhim vazifalaridan biri ekanligini anglaymiz

### KESIM VA UNING IFODALANISHI

**Kesimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl) ma'nosini ifoda etgan gapning markaziy bo'lagi kesim deyiladi. Kesim gapning markaziy bo'lagidir. U boshqa bo'laklarsiz ham gap bo'la oladi. Yaxshimisiz. Keldi kabi. 5\***

Kesim *nima qil (-di?-yapti? -moqchi? ) nima bo'l(-di?-yapti? -moqchi? ) kim (dir)? nima (dir)? (gayerdir?)* kabi so'roqlarga javob bo'luvchi mustaqil so'zlar gapda kesim bo'lib keladi

**Masalan, Ishlasang, tishlaysan** maqoli ikkita kesimdan tashkil topgan. Birinchisi nima qilsang? Ikkinchisi nima qilasan? so'roqlariga javob bo'ladi. *Otam — o'qituvchi* gapida o'qituvchi bo'lagi kesim sanalib, **kim (dir)? Kim hisoblanadi?** so'roqlariga javob bo'ladi.

**Kesim -gap markazi** bo'lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi. Gapni yuzaga keltirish, fikrni ifodalash jihatidan kesimning gapdagi ahamiyati juda katta. U hukmni ifodalovchi, gaplikning asosiy belgilarini ko'rsatuvchi eng muhim bo'lakdir. Gapda ega ham, ikkinchi darajali bo'laklar (**to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol**) ham bevosita yoki bilvosita kesimga bog'lanadi. Kesimlik ma'nolari kesimlik shakllari orqali ifodalananadi.

Har bir kesimlik ma'nosi alohida-alohida ifodalanishi mumkin

#### *Men yozmasaydim*

Kesimlik shakllari	<b>-ma</b>	<b>-say</b>	<b>-di</b>	<b>-m</b>
Kesimlik ma'nolari	(inkor)	(mayl)	(zamon)	(shaxs-son).

Bitta kesimlik shakli bir necha kesimlik ma'nolari orqali ifodalananadi

#### *U keldi*

Kesimlik shakllari	-	-	<b>-di</b>	-
Kesimlik ma'nolari	<i>Tasdiq</i>	<i>mayl (xabar)</i>	<i>zamon (o'tgan)</i>	<i>shaxs-son (III shaxs, birlik)</i>

Kesimlik ma'nolari nol shakl orqali ifodalananadi

#### *Sen kel*

Kesimlik shakllari	-	-	-	-
Kesimlik ma'nolari	<i>Tasdiq</i>	<i>mayl (buyruq)</i>	<i>zamon (kelasi)</i>	<i>shaxs-son (II shaxs, birlik)</i>

### FE'L KESIM VA OT KESIM

Kesimlar qaysi turkum so'zlar bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi

#### *fe'l kesimlar*

#### *ot kesimlar*

<b>fe'l va uning sifatdosh, ravishdosh</b> shakllari bilan ifodalangan kesimlardir	fe'lidan boshqa so'z turkumlari-ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid so'z, fe'lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesimdir
--	--

<i>kitob o'qiyapman</i> gapida o'qiyapman nima qilyapman? so'rogiga javob bo'lib, fe'l kesim sanaladi.	<i>Opam — shifokor</i> gapida <i>shifokor kim(dir)?</i> so'rog'iga javob bo'lib, <b>ot kesim</b> hisoblanadi.
--	---



**Fe'l kesimning ifodalanishi**

Sof fe'l bilan	<i>Halol mehnat insonni ulug`laydi</i>
Ravishdosh bilan	<i>Motor gurillab, mashina oldinga intildi</i>
Sifatdosh bilan	<i>It hurur - karvon o`tar</i>

**Ot kesimning ifodalanishi**

Sifat bilan5*	<i>Osmonimiz musaffo. Havo toza. Usti yaltiroq, ichi qaltiroqdir</i>
Ot bilan5*	<i>Men talabaman</i>
Son bilan5*	<i>Sinfimizda o`quvchilar soni o`ttizta. Ikki karra ikki to`rt</i>
Olmosh bilan5*	<i>Yaxshi niyatli kishilarning ahdi - shu! Niyatim –shu!</i>
Ravish bilan5*	<i>Hosilning cho`g`i mo`l. Sizdan umidim ko`p</i>
Harakat nomi bilan	<i>Maqsadimiz yaxshi o`qishdir. O`qish igna bilan quduq qazish</i>
Taqlid so`z bilan	<i>Osmonda yulduzlar g`uj-g`uj</i>
Undov so`z bilan	<i>Uning holiga voy</i>
Modal so`z bilan	<i>Yo`qoling siz bilan adi-badi aytishishga vaqtim yo`q</i>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma – T., 2017



**Raxmatova Saodat Baxrinovna,**  
Toshkent Shahar Yuridik Texnikumi  
“Yuristlar uchun ingliz” fani o’qituvchisi  
Telefon:+998947641037  
raxmatovasaodat01037@gmail.com

**Annotation:** Artificial Intelligence (AI) is transforming various sectors, including education. This article explores the integration of AI in modern education systems, focusing on its benefits, challenges and future implications. By analyzing current trends and case studies, the study highlights how AI enhances personalized learning, automates administrative tasks and supports decision-making. However, it also addresses ethical concerns, such as data privacy, algorithmic bias and the risk of reduced human interaction. The findings suggest a need for responsible AI adoption to ensure equitable and effective educational outcomes. Education is undergoing a paradigm shift, driven by technological advancements. Among these Artificial Intelligence (AI) has emerged as a transformative force. From personalized learning platforms to automated grading systems,[1] AI is reshaping traditional educational practices. This article aims to analyze the role of AI in education, its benefits and the challenges it presents

**Key words:** Artificial Intelligence, Education, Personalized Learning, Algorithmic Bias, Data Privacy, EdTech.

## 1. The Role of AI in Education

### 1.1 Personalized Learning

AI-powered platforms, such as adaptive learning systems, analyze students' strengths, weaknesses and learning styles to provide tailored educational experiences. For instance, tools like Khan Academy and Duolingo use AI to customize lessons, ensuring students progress at their own pace.

### 2.2 Administrative Automation

AI reduces the workload of educators by automating repetitive tasks, such as grading and attendance tracking. Tools like Gradescope streamline assessment processes, allowing teachers to focus on higher-order teaching responsibilities.

### 2.3 Data-Driven Decision Making

AI systems aggregate and analyze large datasets to identify trends and insights, helping educators make informed decisions.[2] For example, predictive analytics can identify students at risk of dropping out and enable timely interventions.

## 3. Challenges of AI Integration in Education

### 3.1 Ethical Concerns

The use of AI in education raises ethical questions, particularly concerning data privacy and security. Sensitive student information stored in AI systems is vulnerable to breaches.

### 3.2 Algorithmic Bias

AI algorithms may inadvertently reinforce biases, disadvantaging certain student groups. Ensuring fairness and inclusivity in AI models remains a critical challenge.

## 4. Future Directions

The future of AI in education lies in responsible implementation. Policy makers, educators and technologists must collaborate to establish ethical guidelines and regulatory frameworks.[3] Investing in teacher training and ensuring equitable access to AI tools will be essential to avoid a digital divide.

## Conclusion

Artificial Intelligence offers immense potential to revolutionize education by enhancing learning outcomes, improving efficiency and enabling data-driven insights. However, its integration must be balanced with ethical considerations and human-centric approaches. By addressing challenges and leveraging AI responsibly, education systems can harness its transformative power to benefit learners worldwide.

## REFERENCES

1. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education.
2. UNESCO. (2022). AI in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development.
3. Baker, R. S., & Inventado, P. S. (2014). Educational Data Mining and Learning Analytics.



### O'ZBEK SHE'RIYATIDA AYRIM GRAMMATIK SHAKLLAR TAHLILI

Nuriddinova Nafisa Muxiddin qizi

SamDCHTI AL bosh o`qituvchisi

nafisanuriddinova45@gmail.com

+998939987428

**Annotatsiya:** Maqolada tilshunosligida lingvopoetikaga oid munosabatlarga turlicha yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Zamonaviy she'riyat misolida badiiy matnni tahlil qilish borasida grammatik vositalardan son kategoriyasining o'rni xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Grammatik vosita, son kategoriyasi, uslubiy yondashuv, badiiy matnning lingvopoetik tahlili.

Zamonaviy she'riyatimizda ham uslubiy vositalar sifatida grammatik kategoriylar muhim o'rin egallaydi Shu o'rinda shoirlarning grammatik vositalarni o'ziga xos tarzda badiiy mahorat bilan qo'llay olishi va ularga qo'shimcha jozibali uslubiy ma'nolarni singdirishi yuksak nutqiy mahoratga ega ekanligini ochib beradi. Tilni, xususan, ot turkumiga oid elementlar morfologik qurilishini stilistik nuqtayi nazardan tadqiq etishdagi eng muhim masala so'zlarning denotativ va konnotativ ma'nolaridagi chegarani to'g'ri aniqlay bilishdadir. Bu ma'nolarning yuzaga kelishida esa morfologik ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi [4-66]. Ana shu ko'rsatkichlar egalik, kelishik, son shakllarida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ularga stilistik resurs sifatida qarash va matndagi qo'shimcha ma'nolarini va funksional-stilistik chegaralarini o'rganish tilshunoslik uchun muhim sanaladi. Tahlillarimiz mobaynida bunday ma'no nozikliklarni zamonaviy she'riyatimiz mahsullari zamirida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Ko'plik ko'rsatkichi -lar grammatik ma'no – predmetning birdan ortiqligini, ya'ni mavhum ko'plikni anglatishdan tashqari yana nutqda o'zi qo'shilib kelgan so'z bilan birgalikda hurmat, kinoya, piching, kesatish, takror, ta'kid, noaniqlik, kuchaytirish, mubolag'a, ajratib ko'rsatish kabi qator konnotativ ma'nolarni ham ifodalashi tilshunosligimizda aytilgan. Bu konnotativ ma'nolar, ayni paytda, semantik-stilistik ma'nolar hamdir [5-119]. Ko'plik kategoriyasining turli semantik ottenkalaridan tashqari ularning funksional chegaralanishlarini ham kuzatish mumkin.

Badiiy uslubda, ayniqsa she'riyatda ta'kid, kuchaytirish, mubolag'a singari ottenkalar ko'proq anglashiladi. Bunday jozibaviy poetik mahoratni zamonaviy she'riyatda ham ayniqsa, keng tahlil obyektiga olishimiz mumkin. Xususan, Shoira Halima Xudoyberdiyevaning ijodida yaqqol ham ko'zga tashlanadi.

Quyidagi o'rnlarda shoira she'rlarida -lar affiksining uslubiy ma'no ottenkalarining rang-barangligiga guvoh bo'lamiz:

1. Mavhum otlar (baxt, muhabbat, tush, qahr, sadoqat, umid, dard kabi). Ba'zan uslubiy talabga ko'ra, ya'ni ma'noni kuchaytirish maqsadida ularga ko'plik affaksi qo'shilishi mumkin: *Tushlarimda qichqiraman, hech kim bermay sas, Arvoҳday sob, dardin ichga yutib turadi.* ("Qamal kunlarida")

2. Bir turdag'i predmetlarning hammasini ifodalovchi turdosh otlar har doim ham -lar affiksini olganda, sof ko'plik ma'nosini anglatavermaydi, -lar qo'shimchasi son kategoriyasining otlardagi yagona affaksi sanaladi [2-339]. Mavhum otlar ko'plik ko'rsatkichini stilistik maqsad bilan qabul qilib, emotsiyonal-ekspressiv bo'yoxqa ega bo'ladi: *Baland dunyolarning pastida yurar, Qurigan bodomzor ostida yurar.* ("Sariosiyoda")

3. Kishilarning yakka organlari, odatda, har doim birlikda qo'llanadi: til, yurak, jigar. Mazkur so'zlar -lar ko'plik affaksi bilan kelganda, uslubiy baho yuzaga keladi. Tasvirlanayotgan holatga ijodkorning subyektiv munosabati ifodalanadi [1-33]: *Katta-kichik tillaringga bo'lgandi fido.*

4. Kishilarning juft organlarini ko'rsatuvchi so'zlar ham birlikda qo'llanadi, ularga uslubiy talab bilan -lar qo'shimchasi qo'shilganda, turli baho ottenkasi yuzaga keladi: *Ko'zlarimdan ketarkan tumon, Gullar o'ssa ko'ngil bog'imda.* ("Hayqiriq"). Bunday so'zlar ko'plik affiksini qabul qilganda, mubolag'a, kuchaytirish kabi ma'nolarni ifodalaydi.

5. Sanash mumkin bo'lmagan predmetlarni ko'rsatuvchi otlar ko'plik shaklida kelganda kuchaytirish ma'nolarini anglatadi: *Men ham ayol edim mevadek suyuk, jon-jonimda so'ngan o'tlarim bilan. Qonlarimda qolgan ne go'dakka rizq,* Ko'ksimda qurigan sutlarim bilan. ("Qirq yildan so'nggi nido")

6. Payt ma'nosini anglatuvchi (kun, tong, payt, lahza) otlariga -lar shakli qo'shilganda, zamon



paytga xos taxmin — ko‘plik+noaniq ma’nosи anglashiladi va bu ma’no kuchaytiriladi, badiiy mazmunni bo`rttirish, kuchaytirish maqsadi bilan -lar ko`rsatkichini qabul qiladi: *To ‘zgan kunlaringni ko ‘p ko ‘rdim xalqim, Buzgan kunlaringni ko ‘p ko ‘rdim xalqim. Uzgan kunlaringni ko ‘p ko ‘rdim xalqim, O’stirgan kuningni ko ‘rarmikinman?* (“Qirq yildan so‘nggi nido”)

Demak, ko`plik formasining o‘ziga xos uslubiy vazifalari uning turli xil modal ma’nolarni anglatishga xizmat qiladi va matn mazmunining bo`yoqdorligini ta’minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурахмонов F., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Т.: Фан, 1973, 33-б.
2. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Тошкент.: Фан, 1975.Б.339.
3. Кўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, 1980.
4. Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксиал синонимия. – Тошкент: “Университет”. 1991.Б.66.
5. Йўлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.док... дисс.автореф. – Тошкент, 2009.Б.119.



## SOHAGA OID AYRIM TERMINKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Nuriddinova Nafisa Muxiddin qizi  
SamDCHTI akademik litseyi bosh o'qituvchisi  
Nafisanuriddinova45@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqola ayrim sohaga oid leksikaning termin sifatida izohli lug'ati bilan tanishtirib, o'zbek tilidagi bir nechta lingvokulturologiyaga asoslangan ifoda planini tahlil qiladi. Shuningdek, uzumchilikka oid terminlarning aynan bizning madaniyatdagi o'ziga xos xususiyatlarini va mazmunini yoritib o'tadi hamda bu masala bo'yicha turli namunalar ketiriladi. Keltirilgan nazariyalar misollar orqali yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, lingvokulturema, maqollar, metafora, lingvistik madaniyat, lingvokulturologik tahlil, moddiy va ma'naviy madaniyat, ko'pma'nolilik.

Bugungi kun tilshunoslik ilmida yangidan yangi sohalarning vujudga kelishi, matn lingvistikasining o'rganilishi bilan bog'liq ishlar jadal sur'atda rivojlanmoqda. Til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya masalalari ham hozirgi kunda deyarli barcha tadqiqotchilar e'tiborini tortayotgan, ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, ammo to'laqonli o'z yechimini topgan emas. O'zbek tilshunosligida ham bu yo'naliш pirovardida qator ishlar olib borilayotganligi e'tiborga molik. Xususan, madaniyatning tilda aks etishi va lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi kabi bir qator masalalar o'zbek tilshunosligidagi dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'naliш", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", N. Saidrahimovaning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari", nomli maqolalarini, SH.Maxmaraimovaning Lingvokulturologiya mavzusidagi monografiyasi kabi tadqiqot materiallarini alohida qayd etishimiz mumkin.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, uzumchilik sohasiga oid so'zlarning xilma-xilligi vaqt o'tishi bilan turli xil tadqiqot nazariyalari va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalangan holda ma'lum bir konseptual-terminologik vosita sifatida shakllanishi, taraqqiy etishi mumkin. Bu xilma-xil ma'nolarning yuzaga chiqishida maqollar, udumlar, urf-odatlar, metaforalar, xalq qo'shiqlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero ular o'ziga xos lingvokulturologik jihatlarni yoritib beruvchi muhim vositalardan sanaladi. Shu sababli biz izlanishimizning obyekti sifatida ularni tahlilga tortishga harakat qilamiz. Bunday tahlillarning ayrimlarini quyidagicha izohlaymiz:

*Bir mayizni qirq kishi bo'lib yeydi.* Ahillik, inoqlik o'zbek xalqiga xos bo'lgan eng oliv xislatlardan biridir. Bir mayizni qirqa bo'lib yeyishlik, xalqimizga xos insoniy fazilatlardan o'zi yemay o'zgaga ilinishlikdir. Aynan bu maqolda *mayiz* leksemasi keltirilganligining mohiyati esa uzum mevasi quritilgandan so'ng hajman kichrayib, shirasi yanada kuchayadi. Lug'atlardagi uning quyidagicha ta'rifi fikrimizni isbotlaydi: Mayiz – oftobda yoki soyada quritilgan uzum. Qora mayiz.<sup>1</sup> Keltirilgan maqolda juda mayda bo'lsa ham birgina mayizning ahillik bilan qirqa bo'linishligi ajdodlarimizdan singgan fazilatdir.

O'zbek tilida uzum navlari nomlaridan biri bo'lgan "charos" terminiga o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif beriladi: "Charos – o'rtapishar, yumaloq qora uzum..."<sup>2</sup> Shuningdek, charos uzumi oliy navli turlarga mansub bo'lganligi uchun uzumlar ichida saralaridan biridir. Xalqimiz og'zaki ijodida "Itimning bog'i yo'q, yegani qora charos" maqolida bu atama o'zgacha ma'no kasb etgandek go'yo, ya'ni ayrim laganbardor insonlarning halol mehnat evaziga emas, noqis, o'g'rilik, egrilik yo'llari bilan hayot kechirishi, albatta, turmushida vaqtinchalik rohat-farog'at, eng sara narsalarning egasi bo'lishi mehnatda ezilib, qo'llari qadoq bo'lgan mazlum xalq tomonidan achinish hissi bilan ifoda etilmoqda. Yana bir "Kishining bolasiga kishmish bersang ham turmas" maqolida esa eng shirin ta'mli uzum navi nomi bo'lgan kishmish atamasi shirinlik ma'nosida qo'llanilmoqda. O'zbek mentalitetiga xos bo'lgan ota-onा, farzand o'rtasidagi mehr-muhabbat, sodiqlik kabi milliy qadriyatlar ana shu maqolda aks etmoqda.

Tilda mavjud bo'lgan leksema o'sha xalqning turmush tarzidan, ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, bu bevosita lingvokulturema sifatida maqollarda, tez aytishlarda, xalq qo'shiqlarida, metaforik birliklarda aks etmasdan qolmaydi. Xususan, "Sharob uzumdan rang oлar, odam odamdan", "Bir tup

<sup>1</sup> Jabborov X. Qishloq xo'jalik terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Qarshi, 2020. – B. 137.

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: "O'zbekiston", 2021.



tok eksang, bir tup tol ek”, “Chillaki chillakini ko‘rib chumak uradi” kabi xalq maqollari; “Kishmish qishda pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish” kabi bir qator tez aytishlar, shuningdek “Bizning yorning yemishi katta bog‘ning kishmishi” singari xalq qo‘shiqlarida ham o‘zining nozik ma’no ottenkalari bilan lingvomadaniy tuzilmalarda ishtirok etadi. Shuningdek, “charos ko‘z” metaforasi ko‘rganda ko‘zni quvnatib turuvchi charos uzum donasidan ilhomlanib olingan chirolyi ko‘zlarga nisbatan ishlatiladi, ya’ni izohli lug‘atda keltirilgan “...qop-qora, yumaloq uzum” ma’nosiga aynan mos tushadi.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, ma’lum bir sohaga oid lingvokulturemalarni tahlil etishda til va madaniyat munosabati xarakterini to‘g‘ri belgilash juda muhimdir. Xususan, bog‘dorchilikning juda ko‘p sohalari qatorida bo‘lgan uzumchilikning leksik qatlamini o‘rganish ham shunday tahliltalab masalalardan biri desak, yanglishmaymiz.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent. 1997.
2. Abdiyev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili. – Toshkent: Abdulla Qodiri, 2004.
3. Mahmudov N. – Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012.-№5.
4. Jabborov X. O‘zbek tilining qishloq xo‘jalik leksikasi. – Toshkent: Fan, 2011.
5. Jabborov X. Qishloq xo‘jalik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Qarshi, 2020.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.: “O‘zbekiston”, 2021.
7. O‘zbek xalq maqollari. T.: “Sharq”, 2005.



### NEOLOGIZM VA ANGLISIZMLAR: LISONIY SHAKLLANISHI, STRUKTURAVIY TALQINI VA LINGVISTIK TAMOYILLARI

Satimova Dilafruz Numonjonovna,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,  
Andijon davlat universiteti doktoranti (DSc),  
tel: +998902585880  
dilmus09@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada neologizmlar va anglisizmlarning lisoniy shakllanish bosqichlari, ularning strukturaviy kategoriyalari hamda lingvistik tamoyillari tahlil qilingan. Neologizmlar va anglisizmlarning zamonaviy o'zbek lisoniy tizimdagи ahamiyati, ularning semantik va morfologik xususiyatlari, milliy madaniyatlarga moslashish jarayonlari hamda til rivojlanishidagi innovatsion transformatsiyasi ilmiy asosda o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda har bir kategoriga ingliz va o'zbek tilidan keltirilgan misollar tahlili hamda qo'llanilish xususiyatlari zamonaviy tilshunoslikning nazariyi va amaliy aspektlari orqali lingvist tahlil qilingan.

**KALIT SO'ZLAR:** *Neologizm, anglisizm, kategoriya, internatsionalizm, individual nutq, okkazionalizm, protologizm, preologizm.*

Til, avvalo, xalq tarixi, madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-funksional tizimdir. Shu sababli, tilning rivojlanishi va o'zgarishi jamiyatdagи ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarning ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, leksik tarkib davom etayotgan tarixiy va madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi real vaqtida yuzaga keladigan so'zlarni yetarli darajada idrok etish hamda qo'llash imkonini beradigan olamning lisoniy manzarasini ochishga imkon beradi. Tilning rivojlanishi uning uzlusiz takomillashib borishi va leksik darajada boyib borishi jarayonida amalga oshadi. So'z boyligi yordamida inson hozirgi voqelikni ifodalay oladi. Har qanday til taraqqiyotining bir misoli neologizmlar, slengizmlar, anglisizmlarning paydo bo'lish jarayonidir, chunki jamiyatda yangi voqeliklarni nomlash uchun shart-sharoitlar vujudga keladi. Bundan tashqari, yangi voqelik va obyektlar nominatsiyasi ko'pincha ma'lum so'zlovchi auditoriyasi hayotining milliy va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Bunga XX asr oxiridan boshlab texnologik taraqqiyotning tezlashuvi natijasida raqamli texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan *smartphone, blogger, login, e-mail, cloud computing* kabi terminlarning kirib kelishi yaqqol misol bo'la oladi. Tilning bu kabi o'zgaruvchanligi *neologizmlar, slengizmlar* va, ayniqsa, *anglisizmlar* shakllanishiga turtki beradi.

Neologizmlar – bu yangi voqelik yoki obyektlarni nomlash zaruriyatidan kelib chiqqan so'zlar bo'lib, ular jamiyatning ma'naviy va iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlarni aks ettiradi [1, 313]. Neologizmlarning paydo bo'lishi til evolyutsiyasining isbotidir. Shuni ta'kidlash kerakki, har bir yangi so'z tilda o'zgarmasdir. Bu so'z dastlab *okkazionalizm* bo'lib, so'ngra asta-sekin til tomonidan o'zlashtirilib, *neologizmga* aylanadi, keyin esa leksik tizimda mustahkamlanib qoladi yoki yo'qolab ketadi [2, 156].

Mazkur fikrga tanqidiy yondashuvni A.Hojiyevning neologizmlarni o'z paydo bo'lish doirasi, muhitiga ko'ra ikkiga bo'linishida ko'rishimiz mumkin: *umumtil (umumnutq) neologizmlari* va *individual nutq neologizmlari* [3, 156]. *Umumtil neologizm*ning tilda umumiste'mol so'zga aylanishi, neologizmdan chiqishi oson. Individual nutq neologizmi odatiy, normativ so'zga aylanishi uchun u avvalo umumtil faktiga o'tishi lozim bo'ladi. *Individual nutq neologizmlari* alohida adiblar, shaxslar tomonidan favqulodda yaratilgan so'zlardir. Shu tufayli bu tip so'zlar tilshunoslikda *okkazionalizmlar* (okkazional so'zlar, okkazional leksika) deb yuritiladi.

Anglashiladiki, *neologizm* tushunchasi mohiyatan nisbiy bo'lib, yangi leksik birliklarning o'ziga xoslik belgilarini yo'qotib, adabiy tilning umumiy normalariga moslashuvi tilning tabiiy rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Biror so'z dastlab til tizmiga kirib kelganida, u o'zining yangilik, o'ziga xoslik bo'yoqlarini saqlaydi va shu xususiyat tufayli neologizm sifatida tan olinadi. Shu bilan birga, so'zning to'liq assimilyatsiyalanmaguncha, aktiv leksika qatlamiciga kirmaguncha va o'zining o'ziga xosligi yoki odatdagidan farqlanuvchi semantik jihatlarini yo'qotmaguncha, neologizm maqomini saqlab qolishi kuzatiladi. Yangi leksik birlikning neologizm bo'lishdan chiqishi faqat vaqt faktori bilan emas, balki uning lingvistik funksiyasi va semantik tabiatini bilan bog'liq. Ba'zan so'z tezda keng foydalilaniladigan adabiy norma qismiga aylanishi yoki aksincha, kam ishlatalishi sababli iste'moldan



chiqib, passiv qatlamga o‘tishi mumkin. Shuningdek, ba’zi so‘zlar o‘zining yangilik belgilarini uzoq vaqt davomida saqlab, neologizm maqomini davom ettirishi mumkin.

Demak, yangi so‘zlar – neologizmlar sifatida tan olinsa-da, ular hali leksik tizimda mustahkam o‘rin egallagan til birliklari hisoblanmaydi. Ularning tilning boylik zaxirasida barqaror o‘rin egallashi uchun ma’lum vaqt mobaynida lisoniyashuv jarayonidan o‘tishi talab etiladi. Ushbu evolyutsion jarayon yangi so‘zning o‘ziga xosligi va yangilik qiyofasi yo‘qolguniga qadar davom etadi.

Dastlab, yangi yaratilgan yoki kash etilgan so‘z prolingvistik bosqichda – ya’ni, **protologizm** sifatida namoyon bo‘ladi. So‘z matbuotda, internet nashrlarida yoki kitoblarda ilk bor paydo bo‘lib, keng miqyosda chop etila boshlagan bosqichda **prelogizm** darajasiga ko‘tariladi. Keyinchalik, bu so‘z ommaga keng tarqalib, odamlar ongida umumiyl tushuncha sifatida shakllangach, u **neologizm** maqomini qo‘lga kiritadi [4, 14].

Tilshunos V.Vositov internatsionalizmlar va o‘zlashmalarni bir-biridan farqlashga alohida e’tibor qaratadi. Uning ta’kidlashicha, internatsionalizmlar o‘zlashma so‘zlardan tubdan farq qiladi. Internatsionalizmlar sinxron tarzda kamida uchta tilda bir vaqtida qo‘llaniladigan universal leksik birliklar hisoblanadi. O‘zlashmalar esa diaxron jarayon natijasida bir tilga xos bo‘lgan vas hu tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi leksik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi [5, 15]. Shu bilan birga, internatsionalizmlar global miqyosda foydalanadigan leksik birliklar bo‘lsa, o‘zlashmalar ko‘proq ma’lum bir tilning ichki chegaralarida amal qiladigan hodisalar sifatida tasniflanadi.

Umuman olganda, tilshunoslikda neologizmlar shakllanish usuliga ko‘ra uch asosiy guruhga bo‘linadi: *semantik*, *leksik* va *leksik-grammatik* neologizmlar. Ushbu guruhlar o‘zining lingvistik xususiyatlari va til tizimidagi o‘rniga ko‘ra quyidagicha izohlanadi:

- **semantik usuldagи neologizmlar** – mavjud so‘zning ma’nosini yangilaydi;
- **leksik usuldagи neologizmlar** – boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar va atamalar hisoblanadi;
- **leksik-semantik usuldagи neologizmlar** – til ichidagi so‘z yasalish jarayonida affiksatsiya, so‘z birikmali, reduksiya, o‘zgartirish va konversiya yo‘li bilan hosil bo‘ladi [6, 64].

Qayd etilgan guruhlarni misollar kesimida tahlil qilsak neologizmlarning klassifikatsiyasi yanada oydinlashadi. Masalan, **birinchi kategoriya**da leksemaning morfologik shakli o‘zgarmasdan, uning ma’no tarkibi kengayadi yoki yangilanadi. Deylik, o‘zbek tilida avvaldan mavjud bo‘lgan *virus* so‘zi faqat biologik tushunchani ifodalagan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar rivoji bilan u *kompyuter viruslarini* ham anglatadigan yangi ma’no kasb etadi. Anglashiladiki, mazkur leksemaning zamonaviy konnotativ ko‘rinishini paydo bo‘lishiga olib keladi.

**Ikkinci kategoriya** e’tibor qilsak, globallashuv, madaniy va ilmiy aloqalar, shuningdek, texnologik taraqqiyot natijasida shakllangan leksik neologizmlardir. Masalan, o‘zbek tiliga qardosh bo‘lmagan ingliz tilidan o‘zlashgan *startap – startup, podcast – podcast, luk – look, trevl – travel* kabi so‘zlar leksik neologizmlar sifatida ko‘riladi. Keltirilgan neologizm leksemalari ko‘pincha tarjima qilinmasdan, o‘z asl shaklida qabul qilinadi.

**Uchinchi kategoriya** yuzlansak, ular bir necha ko‘rinishda shakllanadilar: a) affiksatsiya, mavjud asosga yangi affikslar orqali so‘z hosil qilish bo‘lib, masalan, o‘zbek tilidagi *kompyuterchi* yoki *bankir* leksikalariga suffiks qo‘shish orqali vujudga kelgan; b) so‘z birikmali, ikki yoki undan ortiq so‘zlarning birlashishi orqali yangi ma’no hosil qilingan, masalan, *sun’iy intellekt* kabi atamalar; c) reduksiya, so‘z qisqartmalari orqali neologizmlarning paydo bo‘lishi, masalan, *Wi-Fi* yoki *USB* va h.k.; d) o‘zgartirish va konversiya, bir so‘z turkumining boshqasiga aylanishi yoki sintaktik struktura o‘zgarishlari orqali yuzaga kelgan nutq birliklari, masalan, ot shaklidagi *blog – blogger* fe’l sifatida *blogging* bo‘lib qo‘llanila boshladи.

O‘zbek tilining leksik tarkibi rivojlanish jarayonida turli qatamlarning notekis rivojlanishi kuzatiladi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari – televideniye, gazeta va jurnallar, internet nashrlari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllangan yangi so‘z va iboralar asosan jamoat va kundalik hayotda yuzaga kelmoqda. Zamonaviy global jarayonlar natijasida ingliz tilidan kirib kelgan **anglisizmlar** o‘zbek tilida keng tarqalib, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida faol qo‘llanilmoqda. Hozirda, mediada yangiliklarni targ‘ib etishda qo‘llanilayotgan angilisizmlar diqqat e’tiborni tortmoqda. Bunday nutq birliklari jamiyatdagi inson faoliyatining turli jarayonlarini aks ettiradi va yangi voqeqliklarni kodlash funksiyasini bajaradi. Ushbu jarayonlarga texnologiya, biznes, madaniyat, ekologiya, ijtimoiy-siyosiy hayot, insonning psixologik xulq-atvori va kundalik turmush tarzi bilan bog‘liq hodisalarni ifodalash masalalari qamrab olinadi [7, 45].



### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Matthews P.H. The Concise Oxford Dictionary of Linguistics. – OUP. Oxford University Press, 2014. – 443 p.
2. Пешкова Д.Ю. Английская неология: способы пополнения вокабуляра на современном этапе // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2019. № 6 (139). – С. 155–160.
3. Ҳожиев А., Аҳмедов А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан нашриёти, 1981. – 312 б.
4. Shukurov O.U. O‘zbek tili zamonaviy o‘zlashmalarining evolyutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalari (mustaqillik davri): Filol.fan.d-ri...diss.avtoref. – Qarshi, 2022. – 62 b.
5. Vositov V.A. Ingliz tilidagi turkiy o‘zlashmalar: sotsiolingvistik aspekt: Filol.fan.d-ri...diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023. – 76 b.
6. Satimova D.N. Role, Status, Significance and Development Stages of anglicisms in the Uzbek Language // European Journal of Literature and linguistics. – Vienna: Premier Publishing. №2, 2023. – Р.62-66.
7. Баранникова Л.И. Введение в языкознание. – Саратов: Изд-во Саратовского государственного университета, 1973. – 384 с.



Azimova Sitora Shokirovna

Samarqand davlat chet tillari instituti  
“Ingliz tili filologiyasi va tarjimashinoslik”  
fakulteti 1-bosqich magistranti  
sazimova@gmail.com  
Ilmiy rahbar: Bozorov M

### Annotatsiya

Bu maqolada til va nutqning bevosita bog‘liqligi va ularning madaniy xususiyatlari yoritilgan. Har bir millat boshqa xalqlardan tili, dini va madaniyati bilan ajralib turadi. Til madaniyati millatning umumiyligi hisoblanadi. Uning ma‘lum bir subyekt voqelantiradigan ko‘rinishi nutqdir. Nutqning mukammalik darajasi nutq madaniyatidir.

**Kalit so‘zlar:** til, nutq, madaniyat, psixosemantik, psixomexanika, psixosemiologiya, til me‘yori.

### Abstract

This article focuses on the direct relationship between language and speech and their cultural characteristics. Each nation differs from other nations by language, religion and culture. Language culture is the general culture of the nation. Its appearance, manifested by a certain person, is speech. The level of perfection of speech is speech culture.

**Key words:** language culture, speech culture, psychosemantics, psychomechanics, psychosemiology, language norm, biological, semiotic.

### Абстрактный

В данной статье основное внимание уделяется непосредственной связи языка и речи их культурные особенности. Каждая нация отличается от других наций языком, религией и культурой. Языковая культура – это общая культура нации. Следовательно речь является деятельностью человека. Уровень совершенства речи – это культура речи.

**Ключевые слова:** языковая культура, речевая культура, психосемантика, психомеханика, психосемиология, языковая норма.

### Kirish

Til bu millatning ko‘zgusi va ma‘naviy boyligi hisoblanib, har bir xalqning paydo bo‘lish nuqtasidan tortib imtihosigacha aynan shu til orqali tarixga muhrlash munkun. Albatta til bu insoniyat tarixidagi oliy kashfiyotlardan biri bo‘lib, inson o‘z ongidagi fikr hamda g‘oyalarni boshqa bir shaxsnинг ongiga singdirish, undash va o‘z fikrini targ‘ib qilishi, hech bir jarrohlik amaliyotisiz bajarishining o‘zi ulkan bir mo‘jizadir. Har bir millat o‘zining milliy qadriyatlari, urf-odatlari va madaniyati bilan boshqa etnoslardan ajralib turadi.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Darhaqiqat, til madaniyatni bayon etuvchi, uning shakllanishi va rivojlanishi uchun o‘zining katta hissasini qo‘sadi, hamda madaniyatning ulkan va ajralmas bo‘laklardan biridur. Ma‘rifatparvar Abdullo Avloniy “Har bir millatning o‘zligini ko‘rsatadurg‘on oynai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yuqotmak millatning ruhini yuqotmakdur”- deb ta‘kidlaydi[1;1-2]. Millat degan so‘zning negizida yagona tilda so‘zlashuvchi ma‘lum bir etnoslar tushuniladi. Uzoq yillar davomida ko‘plab olimlarning tilning mohiyati va jamiyatdagi o‘rnini kabi mavzulardagi izlanishlari va muhokamalari natijasida tilshinoslik fani shakllandi. Til bu ma‘lum bir jamiyatni birlashtiruvchi ommilardan biri hisoblansa, madaniyatning unga qanday aloqasi bor deb, fikr yuritishimiz mumkun, ammo insonga suv qanday muhim bo‘lsa, tilga ham madaniyat shunchalik zarurdir. Albatta til va nutq, madaniyat ham tabiat hodisasidir. Til va nutqni biologik jihatlarini olib qarasak, u bir necha undosh va unli qoidalardan iborat bo‘lib, ma‘lum bir tovushlarning yig‘indisi so‘z, ma‘lum bir so‘zning yig‘indisi bu matn hisoblanadi, ammo bu faqat shakl jihatdandir. Tilni ma‘no va mohiyati haqida to‘xtalar ekanmiz, uning bevosita madaniyatga bo‘g‘liq ekanligi guvohi bo‘lamiz. Ya‘ni madaniyat tilning mazmun jihatini aniqlaydi. Mashhur rus tilshinosi G.O. Vinokurning “Tilni o‘rganayotgan har qanday tilshinos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo‘lgan o‘sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi” degan tezisi tilshinoslik shakllangandan davrdan boshlab tasdiqlanib kelmoqda[1;2-5] Milloddan avvalgi VI-asrlarda O‘rta Osiyo hududlarida keng tarqalgan zardushtiylik dinida turli odatlar va rasm-rusumlar mavjud bo‘lib, o‘sha din vakillari xalqni o‘zlarining mohirona va jalb etuvchi nutqlari orqali qat‘iy denga chorlashgan va da‘vat etishgan. Bu o‘z isbotini “Avesto” misolida nomoyon etadi. Bundan shuni tushunish mumkunki til va nutq madaniyati til bilan hamohang ravishda paydo bo‘lgan



va rivojlangan. Boshqacha qilib aytganda til madaniyati ikki tizim: til va madaniyat kesishmasida shakllanadi va shuning uchun mustaqil semiotic tizimni ifodalaydi[2;3-4]. Insonda til va tafakkurining jamlanmasi bu nutq demakdur. Nutq madaniyati deganda nutq odobi nazarda tutiladi. Nutq madaniyati og‘zaki va yozma adabiy me‘yorlardan tashkil topgan. Bundan ma‘lum bo‘ladiki nutq madaniyati eng avvalo to‘g‘ri adabiy til me‘yoriga amal qilgan holda so‘zlashishdir.[2;1-2] E.Sepir nutq va madaniyatni shunday izohlagan “Jamiyatning nima qilishi qarab madaniyatni, qanday o‘ylashiga qarab esa tilni aniqlash mumkin”[4;193]. Buyuk olmon mutafakkiri Yakob Grimm (1785-1863y.y) til tizimi tarixiy taraqqiyoti nazariyasini yaratgan olimlardan biridir. Grimmning fikricha, til milliy ruhning aksi etirishi bo‘lganligi sababli ma‘lum lissoniy holat (rivoji yo parokandaligi) milliy madaniyat holatining davomidir. Grimm adabiy tilni madaniyat rivojining manbai va vositasi deb hisoblaydi[6;224].

### Natijalar va muhokama

Til va nutq munosabati masalasiga to‘xtalgan G.Giyom tilning mavhum tizimi va nutqda qo‘llanadigan aniq shakklar tizimi o‘rtasida hech qanday o‘xshashlik yoki tenglik mavjud emasligini qayd qiladi. Nutq yuzaga kelishidan oldin tushuncha hosil bo‘lishini tenglik mavjud emasligini qayd qiladi, yani “Nutq yuzaga kelishidan oldin tushuncha hosil bo‘lishini ta‘minlovchi tafakkur faoliyati kechadi va bu faoliyat nutqiy birlikni ifodalovchi lissoniy belgilarni tanlash bilan bog‘liq faoliyat bilan tugaydi”[6;225]. Til tizimining qurilishi va nutqning hosil bo‘lishiga oid masalalar o‘rganilishiga nisbatan tilshinoslik uch qismga ajratadi: 1) psixosemantik; 2) psixomexanika; 3) psixosemiologiya; [6;225]. Ferdinand De Sossyur til va nutqni nutq faoliyatining ajralmas bo‘lagi deb hisoblab, ularni “bir paytning o‘zida fizik, fiziologik va psixik, bundan tashqari, individual va ijtimoiy munosabatlarga daxldor jarayonlar” deb ta‘riflagan edi. Bunda olim til faoliyat mahsuli emas, faoliyatning o‘zidir[6;64]. Barcha muhokamalning natijasi o‘laroq til faoliyat bo‘lsa nutq faoliyatning natijasidir. Til va nutqning adabiyligi esa so‘zlovchining bevosita ongi, tafakkuri va madaniyatiga bog‘liqidir. Nutq madaniyatining asosini tashkillashturuvchi muhim omil bu insonning odobi bo‘lib, kishining so‘zlayotgan nutqiga qarab uning tafakkur va bilin darajasini anglash mumkin. Til madaniyati millatning umumiyligi madaniyati hisoblanadi. Tilni ma‘lum bir kishi voqelantiradigan ko‘rinishi nutqdir. Nutqning mukammalik darajasi nutq madaniyati deyiladi[7;7]. Bunda shaxsnинг odobi va madaniyat darajasi uning nutqida yaqqol aksini topib, insonning madaniyatli ekanligini faxmlash mumkin. Yani shaxs nutqida bilimlilik, farosatlilik va kamtarinlik mavjud bo‘lsa barcha millat va qatlama vakkillari orasida hurmat qozonib shaxsnинг mukammalik aksini ko‘rsatuvchi timsol sifatida qadrlanadi. Madaniyatli shaxs kim bilan qayerda va qanday sharoitda munosabatda bo‘lmasin, unda ushbu xislatlarning alohida ajralib turganligiga guvohi bo‘lamiz. Oddiy misol sifatida o‘qtuvchini olaylik. U uch holatdan birida dars berish qoidasini buzadi:

1. Dars berish qoidasini bilmaslik (farosatsizlik);
2. Dars berishga yetarli bilimi bo‘lmaslik (bilimsizlik);
3. O‘z kasbiga etiborsizlik (nokamtarlik);

Kishilar aro muloqot ham bamisol shu qoidalarga o‘xshaydi. Bilimli, farosatli, kamtarin kishilar hech qachon muloqot jarayonida mulzam bo‘lib qolmaydi, ya‘ni muloqot qoidalarini buzmaydi.

### Xulosa

Inson yer yuzida paydo bo‘libtiki rivojlanishdan bir soniya ham to‘xtagani yo‘q, yangi narsa ixtiro qilinsa, asta-sekinlik bilan eskisidan voz kechiladi, ammo nutq madaniyatining o‘rnini va qadriyatlari hamon o‘z shakli va mavqeini yuqotgani, yoki o‘rniga boshqa shakllari paydo bo‘lgani yo‘q. Buni tarix, afsona, buyuk olimlarning yozib qoldirgan qo‘lyozmalari orqali guvohi bo‘lishimiz mukin. Nutq odobi kishida saqlanib qolar ekan avloddan avlodga maros sifatida qoldiriladi. Nutqning mukammallik darajasini faqat ma‘naviy va ma‘rifiy yetuk insonlarda mavjuddir.

### References

- 1) “Til va nutq madaniyati” - Wikipediya
- 2) “Til va madaniyatning o‘zaro aloqasi” 2-5 betlar – arxiv.uz
- 3) “Lngvokulturologiya i lingvokultura: sootnasheniya ponyatiy ” 3-4 betlar – Kazan linguistic journal 2020 Fatkullina F.G.
- 4) “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2000-2005 yil 1-2 betlar – wikipedia
- 5) “Izobranniyi trudi po yazikoznaniyu i kulturologii” 1993yil 193bet
- 6) “Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi” – Tatyana Bushiy, Toshkent “Fan” nashriyoti 2007 yil
- 7) “Nutq madaniyati”- Laylo Raupova Toshkent “Innovatsiya Ziyo” 2019 yil



# АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙÜЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

# **“DEVONI HIKMAT” TASAVVUF TALQINI**

## **Vafoqulova Go'zal Ochilovna**

## Samarqand davlat chet tillar

instituti akademik litsevi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlari tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Mouman, muqir, irdi, yozuq, pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, iymon.

Ahmad Yassaviy she'riyatidagi obrazlar tuzilishi ham tasavvuf ta'limoti bilan, ham og'zaki ijod an'analari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Masalan, she'rlarda uchrovchi pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, iymon kabi obrazlar bevosita tasavvuf bilan bog'lansa, yo'l, rabot, karvon, o'q kabilalar og'zaki ijod an'analari bilan aloqador holda yuzaga kelgan.

Nafs haqida gapirar ekan, Yassaviy uni insnonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baholaydi. Unga "shum" sifatining berilishi bejiz emas. Shuningdek, "nafsi bad", "nafsi yo'li", "nafsi ilgi" singari ifodalar shoir fikrini yorqinlashtiradi. Adib to 'g'ridan to 'g'ri nafsn tepkil, nafsdan kech deya targ 'ib qiladi.

Ahmad Yassaviy shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat bosqichlarining xususiyatlardan kelib chiqib o'z hikmatlarida takabburlikka qarshi «xoksorlik» falsafasini ilgari suradi, mutafakkir nazdida takabburlik adolatning dushmani.

Ahli dunyo xalqimizda saxovat yo`q,

Podshohlarda, vazirlarda adolat yo'q.

Ahmad Yassaviyning falsafiy talqinicha podsho va amaldorlarningadolatsizliklari hayotga qattiq ziyor-zahmat etkazadi. Bu odamlar o`rtasida humatsizlik, oqibatsizlik, shafqatsizlik hissiyotlarini kuchaytiradi. Bu xil ijtimoiy muhitda riyo va makkorliklar qariyb qonuniyatga aylanadi. Vaholanki, Yassaviy boy-badavlat kimsalarga, mansabdarlarga, umuman, ahli mo`minga qaratash:

G'arib, faqir etimlarni qilg'il shodmon,

Haqlar qilib aziz joning ayla qurban,

Taom topsang, ioning bila qilg`il ehson.

Hagdin eshit bu so'zlarni aydim mano.

Bular bejiz aytilmagan, Yassaviy ijtimoiy nohaqlikni chuqur anglaydi, uning mohiyatini teran fahm laydi. Zotan tasavvufning o'zi bir paytlar mavjud, tuzum adolatsizliklariga norozilik kayfiyatları ifodasi sifatida maydonga kelgan edi. Ahmad Yassaviy dunyoparast, molparast, xasis, ochko'z kimsalarni qattiq tangid tig'j ostiga oladi:

Dunyoparast nojinslardan buyun toyla,

Daryo sparast kojishlari dan buyun tovia,  
Buyun toylab daryo bo'lib toshdim mano.

Umuman, dunyodorlik, ahli havo, manmanlik, takabburlik, nafs balosiga bandalik, mansabparastlik, kibr, xudbinlik, fuqaroga napisand qarash, zulm-zo`rlik, behuda xusumat, adovat, g`iybat, kishilar moliga ko`z tikish, ko`rolmaslik, fisqu fujur, amal otiga minib olib o`zgalarni nazarga ilmaslik kabi illatlar takror-takror eslatilib Yassaviy hikmatlarining asl g`oyasi belgilaydi:

Munofiqlar yururlar fisqu fujur qilurlar,

Harom, shubha eyurlar, qo'rqub yig'lar Xoja Ahmad.

Yassavyiy hikmatlarida «Qur’oni karim» oyatlari, rivoyatlari, suralari tajassum topgan, hadis bitiklarining mazmuniy mohiyati she’rga singdirilib ularda Odam ato, Momo havo, Yusuf, Yunus, Ya’qub va boshqa talab rivoyatlarga ishoralar bor:

Yunusdek daryo ichra baliq bo'lsam,

Yusufdek quduq ichra vatan qilsam



Yoqubdek Yusuf uchun ko`p yig`lasam.

Bu ish birla yorab, seni topgaymumen?

«Qur'on» hikoyatlaridan foydalanib she'rga solinib donishmandona jilo berilgan va hikmatlarda singdirilgan iboratomuz o`gitlar mu'jaz talqinda kishilarni yaxshilikka, ezgulikka yo`naltiradi.

Yassaviy tasavvuf yo`lini tutgan barcha so`fiylar bir xil emasligini, ularning yaxshilari va yomonlari mavjudligini yaxshi anglab etadi va yomonlarini ochiq-oydin yomonlaydi, tanqid qiladi:

Darveshman deb toat qilur xalq ichinda,

Riyo qilib yugurib yurar anda-munda

Olloh uchun toat qilg`on darvesh qanda.

Chin darveshlar tog`u cho`lni makon qilur.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida «tuproq» so`zi tez-tez uchraydi, bu so`z aslida badiiy obraz sifatida qo`llanadi va chuqur g`oyaviy mazmun, mohiyat kasb etadi:

Tufroq bo`lg`il, olam sani bosib o`tsin...

Bu xildagi misralar «Devoni hikmat»da istagancha topiladi:

Ishq bobini Mavlon ochgach, manga tegdi.

Tufroq qilib, hozir bo`l deb bo`ynim egdi.

Tasavvufda, tuproq, Ollohnинг munavvar nuri suv uning yorug` hayoti, havo buyukligi, olov uning g`azabi timsoli. Tuproq va suv-jannat mulki, shamol va olov-do`zax ichidagi narsalar. Demak, tuproq Yassaviy talqinida inson, u shu tuproqda, erda, zaminda yashaydi, undan o`z rizqini undiradi, tuproq-maskan, tuproq-vatan, odam tuproqdan bino bo`lgan va u yana tuproqqa aylanadi, unga qaytadi, o`zligini topadi. Tuproq-ko`p ma`nolarga ega, u badiiy obraz shaklida Yassaviy hikmatlarining g`oyaviy mazmunini belgilaydi.

Ulug` alloma shoir Xoja Ahmad Yassaviy XII asr olamida, o`zining asarlari orqali turkiy adabiyotni va eski turkiy adabiyot tilining mavqeini jahon miqyosiga ko`tardi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. B.To`xliyev va boshqalar Adabiyot. ( majmua). 10-sinf uchun.T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 49-57-betlar



## ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARINI RAQAMLASHTIRISHDA INNOVATSION YO'NALISHLAR

G'anibekova Mashhura Ixtiyor qizi  
Urganch Davlat Universiteti  
Iqtisodiyot mutaxasisligi magistranti  
Tel:(99)-169-01-06  
mashhura.002@icloud.com

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, xizmatlar sohasi, blockchain texnologiyalari, barqaror rivojlanish, katta ma'lumotlar texnologiyalari (Big Data), narsalar internet(internet of things), neyron tarmoqlar (sun'iy intellekt), virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari, 3D bosib chiqarish, mobil qurilmalar

**Anotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot, uning xizmatlar sohasini rivojlantirishdagi roli, aloqa xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, ta'lif xizmatlariga kirib kelayotgan raqamli texnologiyalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni joriy etish dasturlari va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini raqamlashtirishdagi innovatsion yo'nalishlar va ularning sohalarni qanday inqilob qilish salohiyatiga ega ekanligi muhokama qilinadi.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, xizmatlar ishlab chiqarish hajmi va ulardan daromadlar ortib bormoqda. Jahon savdo tashkiloti tasnifiga ko'ra xizmatlar ko'rsatish iqtisodiyoti 150 dan ortiq turli xil xizmatlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, biznes xizmatlari, aloqa xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, ta'lif xizmatlari, turizm va unga tegishli xizmatlar, transport xizmatlari, transport va dam olish hamda madaniy va sport tadbirlari singari turlari mavjud. Shundan ko'rinish turibdiki hozirgi vaqtida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy faoliyatning asosiy turi hisoblanadi. Deyarli har bir kishi u yoki bu xizmatda foydalanadi. Raqamli iqtisodiyot eng avvalo keng polosalni internet portlarini yaratishni, optik tolali internet liniyalarini yotqizishni taqozo qiladi. Ushbu muammolarni inobatga olgan holda hamda mamlakatda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart sharoitlar yaratish hozirda dolzarb hisoblanadi. Hozirda mamlakatimizda ham yuqori texnologiyalarga asoslangan, innovatsion va raqamli iqtisodiyotga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Mamlakat prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek "Yangi asrda raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijoratni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi tendensiyaviy tus oladi.

Raqamli iqtisodiyot - bu siyosiy iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida servis sohasini barqaror rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir. Raqamli iqtisodiyot tovarlar va xizmatlarni yaratish, ilgari surish va sotish bilan bog'liq barcha biznes jarayonlarni raqamlashtirishni o'z ichiga oladi. Yaxlit global tarmoqda real vaqt rejimida iqtisodiy tizimlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlovchi xizmat ko'rsatish biznesining axborot muhiti alohida ahamiyatga ega. Raqamli infratuzilma raqamli asosda ishlaydigan kompaniyalarning hisoblash, telekommunikatsiya, tarmoq ehtiyojlarini ta'minlaydigan texnologiyalar majmuasini o'z ichiga oladi. Yangi iqtisodiyotning raqamli infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi eng yangi raqamli texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

- katta ma'lumotlar texnologiyalari (Big Data)
- blokcheyn texnologiyalari
- narsalar internet(internet of things)
- neyron tarmoqlar (sun'iy intellekt)
- virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari
- 3D bosib chiqarish
- mobil qurilmalar
- aqlii sensorlar va boshqalar.



Xizmat ko'rsatish sohasidagi aloqa xizmatlari, bank xizmatlari, turizm xizmatlari raqamli texnologiyalarni faol joriy etishga to'liq yo'naltirilgan, xizmat ko'rsatish iqtisodiyotidagi ko'plab biznes jarayonlar, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi paradigmasiga muvofiq allaqachon qayta qurilgan.

Raqamli iqtisodiyotning eng faol drayveri – bu davlatdir. U raqamli iqtisodiyotning asosiy buyurtmachisi va iste'molchisidir. Masalan, Xitoy bu maqsadlar uchun 9 mlrd dollar atrofida mablag' sarflagan. Bozor kapitalizatsiyasi 210 mlrd dollardan ziyod bo'lgan Alibaba internet resursi ushbu sarmoyalarning to'g'ri yo'naltirilganini isbotladi.

Janubiy Koreya esa elektron hukumat va elektron vositachilikka (elektron tijorat faoliyati va davlat tender xaridlarini o'tkazish uchun) milliy budgetning 1 foiziga teng miqdorda sarmoya kiritib, har yili 10-15 milliard dollar hosil qilmoqda va xarajatlarni 30-40 baravar qoplaydigan daromad olmoqda. Jumladan, davlat va xususiy sektorda call-markazlarni tashkil qilish, mobil ilovalarni yaratish va davlatga tegishli internet-platformalarni reinjiniring qilish orqali mana shunday natijaga erishildi.

Davlat boshqaruvidagi axborot tizimlari bilan ishlaydigan kadrlarni tayyorlash ushbu sohaning muhim yo'nalishlaridan bo'lib qolmoqda. Misol uchun, o'tgan asrning 70-yillarida Belgiyada davlat organlari xodimlarini o'qitadigan va ular uchun bevosita ish o'rinnarida tizimlarni sozlaydigan mutaxassislarining maxsus mobil guruhlari (jumladan ixtisoslik o'quv yurtlaridagi o'qituvchilar va talabalar ham jalg etilgan holda) tashkil qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot butun dunyoni qamrab olishi tufayli, axborotlashtirish va raqamlashtirishga oid har qanday davlat loyihasi kompleks ravishda hamda yagona kodlash tizimi, iqtisodiy va boshqaruvga aloqador axborotni aniqlash asosida o'rganilishi lozim.

Xizmat tarmoqlarini raqamlashtirish texnologik o'zgarish bilan cheklanmay, balki tashkilotlarning ishlash usullari, mijozlar bilan muloqoti va qiymat yetkazib berish usullarini tubdan o'zgartiradi. Zamonaviy vositalar va yondashuvlardan foydalanish orqali korxonalar samaradorlik, chidamlilik va shaxsiylashtirish darajalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Shunday ekan, bugundan boshlab xizmat tarmoqlarini raqamlashtirishga investitsiya kiritish va o'zgarishlarga moslashuvchan yondashish muhimdir. Raqobatda ustunlikni saqlab qolish uchun korxonalar texnologiyalarni qabul qilish bilan birga, doimiy innovatsiya va moslashuvchanlik madaniyatini rivojlantirishi lozim. Bu esa ularni ertangi kunning dinamik va bog'langan iqtisodiyotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Xizmat tarmoqlarini raqamlashtirish nafaqat texnologik yangilanish, balki butun boshli biznes ekotizimini tubdan qayta shakllantirishni anglatadi. Ushbu jarayon korxonalarini yanada moslashuvchan, samarali va mijozlar talablariga sezgir bo'lishga undaydi. Sun'iy intellekt, IoT, blockchain, 5G va boshqa ilg'or texnologiyalarning kombinatsiyasi tufayli raqamli xizmat tarmoqlari faqatgina xizmat ko'rsatishni emas, balki foydalanuvchi tajribasini mutlaqo yangi darajaga olib chiqadi.

Bundan tashqari, xizmat tarmoqlari raqamlashtirish orqali yangi biznes modellarni yaratib, sanoatlararo integratsiyani mustahkamlaydi. Masalan, transport va sog'liqni saqlash xizmatlari birlashib, foydalanuvchilarga yanada samarali, personalizatsiyalashgan xizmatlarni taqdim etadi.

Shuni unutmaslik kerakki, raqamlashtirish shunchaki texnologiyani joriy qilish emas. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun korxona ichida yangicha fikrash va innovatsiyaga ochiqlik madaniyatini shakllantirish zarur.

### Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi".-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydag'i "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish to'g'rsida"gi PQ-5113-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26 fevraldag'i "2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi 55-sonli qarori. //www.lex.uz



## ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОИЗВОДСТВА МОЛОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ БЕЗОТХОДНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Турсунова Хосият Сайд қизи

**Актуальность.** В настоящее время отходы растительного и животного сырья играют большую роль в решении продовольственных, экологических и энергетических проблем. Их следует рассматривать как дополнительные источники ценнейших веществ природного происхождения.

Образуются отходы в процессе транспортирования, хранения и переработки. Основными отраслями, связанными с их образованием, являются: сельское хозяйство, пищевая и перерабатывающая промышленность, общественное питание.

**Цель исследования.** Изучить способы безотходных технологий в производстве молочных продуктов.

Среди большого разнообразия пищевых продуктов, потребляемых человеком, молоко и продукты его переработки занимают важное место в питании человека. Издревле продукты из молока являются особенно ценными и полезными. Молочная продукция полезна своим белком, необходимыми аминокислотами и углеводами для развития организма, фосфором, калием, кальцием, витаминами D, A и B12.

Молоко является обязательным и необходимым продуктом питания, так как содержит наиболее ценные и легко усвояемые белки, жиры, углеводы, минеральные вещества. В состав молочного белка входят такие незаменимые аминокислоты, как лизин, валин, лейцин, триптофан, метионин, аргинин. В состав молочного жира входит около 20 жирных кислот. Углеводы представлены в виде молочного сахара (лактозы).

Часть суточной нормы молока человек должен получать в виде кисломолочных продуктов (200 мл) (кефир, ряженка и т.п.). Они обладают выраженными антибиотическими свойствами, препятствуют гнилостным процессам в кишечнике, за счет вытеснения гнилостной микрофлоры молочнокислыми бактериями, а также содержат больше витаминов B6, B12. Кисломолочные продукты имеют отличительную особенность - стимулируют секрецию пищеварительных соков и желчи, тем самым улучшают пищеварение и рекомендуется при заболеваниях желудочно-кишечного тракта.

В процессе обработки молочных продуктов из цельного молока образуется вторичное молочное сырье – обезжиренное молоко, сыворотка, пахта. Обезжиренное молоко по химическому составу отличается от цельного практически только отсутствием жира.

Молочная сыворотка – белково-углеводное сырье, получаемое при производстве сыра, творога. По полезности она даже превосходит молоко, так как биологическая ценность белков сыворотки (альбумина, глобулина) выше биологической ценности казеина. В молочной сыворотке присутствуют антибиотические вещества (низин).

Пахта, остающаяся после выработки масла, по своему составу мало отличается от обезжиренного молока, но по своим питательным и целебным свойствам во многом превосходит его.

Самой ценной частью всех видов вторичного молочного сырья является белок. В настоящее время организовано производство пищевых растворимых концентратов из обезжиренного молока: казеинатов, казеатов, копреципитатов. Они содержат белка в 2,5 раз больше, а лактозы – в 50 раз меньше, чем сухое обезжиренное молоко. Применяются в качестве добавок при выработке колбасных изделий, мясных, рыбных, хлебных и других продуктов детского питания.

Накоплен большой опыт переработки сыворотки. Организации вырабатывают сухую сыворотку, сгущенную сыворотку. Сывороточные концентраты используются в хлебопекарной, кондитерской, мясной промышленности. Производится широкий ассортимент напитков из сыворотки и пахты. Путем выкристаллизации лактозы из концентрированного раствора молочной сыворотки получают молочный сахар. Такую безотходную технологию планируется внедрить в молочный комбинат «Sadaf sut» Каганского района Бухарской области.

**Выводы:** Молоко – один из самых потребляемых продуктов ежедневного питания. Безотходные технологии способствуют экономии затрат не только самих молочных комбинатов, также они помогают развить такие отрасли как хлебопекарни, кондитерской,



мясной промышленности.

### Использованная литература:

1. Джеймс П. Вумек, Дэниэл Т. Джонс «Бережливое производство». Альпина бизнес букс. Москва. 2005.
2. Материалы семинара «Бережливое производство на ОМЗ- Спецсталь». Шургаев Д.П. СПб, 30 - 31 июля 2012 г.
3. Материалы семинара «Эффективные производственные коммуникации на Предприятии Петросталь». Шургаев Д.П., Тараканов С.Н., СПб, 20 – 21 ноября 2008 г.
4. Вэйдер М. Инструменты бережливого производства: Мини-руководство по внедрению методик бережливого производства. М., 2006.
5. Джеймс П. Вумек, Дэниэл Т. Джонс. Бережливое производство. Альпина Бизнес Букс. М., 2005.
6. Джордж М. Бережливое производство + шесть сигм. М., Альпина Бизнес Букс, 2006



## SURXONDARYO VILOYATIDA SANOAT KORXONALARINING SWOT TAHLILI

**Hojiqulova Feruza Dona qizi**  
Termez davlat universiteti  
O‘qituvchi  
Telefon: +998930817823  
hojiqulovaferuza@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Tahlil orqali viloyatdagi sanoat korxonalarining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, imkoniyatlari va tahdidlar aniqlangan. Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan hududlaridan biri bo‘lib, uning sanoat salohiyati va resurslaridan samarali foydalanish viloyatning iqtisodiy o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ishda Surxondaryo viloyatining sanoat sohasini yanada rivojlantirish uchun muhim strategik takliflar ham berilgan.

**Kalit so‘zlar:** SWOT tahlili, iqtisodiy rivojlanish, sanoat imkoniyatlari, texnologik rivojlanish, ekologik barqarorlik.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub mohiyatini qaraydigan bo‘lsak, aholi farovonligini oshirishdir. Farovonlikni davlatning bevosita va bilvosita boshqaruvi asosida amalga oshirilishida asosan sanoat korxonalari rivojlantirishda bir yo‘la ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash asosiy masala hisoblanadi. Bunda iqtisodiyotning barcha sohalari kabi aholi uchun sifatli va arzon sanoat mahsulotlarini chiqarib berish uchun sanoat korxonalariga kiritiladigan investitsiyalarda imtiyozlar hudud darajasida ko‘rib chiqilishi lozim. Biroq sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirish, sanoat sohasida maxsus investitsiya dasturlari ishlab chiqish orqali kichik va o‘rta sanoat korxonalariga sarmoya kiritishga rag‘batlantirish borasida ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun uni rivojlanish tendensiyalarini kompleks tahlil qilish lozim.

Aholini sifatli mahsulotlar bilan ta’minlashda sanoat korxonalariga ajratilayotgan imtiyozlar muhim omillardan hisoblanadi. Bunda albatta hududiy sanoat korxonalarini raqobatbardosh darajada shakllantirish uchun davlatimiz 2022-yildan oziq-ovqat sanoati sohalarga kiritilgan investitsiya hajmi uchun imtiyozli soliq davri investitsiya summasining 0.3-3 mln gacha qismi 3 yil muddatga daromad, mulk, yagona soliq to‘lovidan, 3-10 mln gacha qismi 2 yil bojxona bojlaridan ozod qilinishi hamda o‘z ehtiyoji uchun chetdan import qilingan tovarlar uchun 5 yil soliqdan ozod qilinishi, shuningdek iqtisodiyotning 22 ta tarmoqlari uchun 10mlndan ortiq qismi 7 yil soliqlardan ozod qilinishi bundan Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan tashqari hududlar uchun bundan mustasno holat belgilangan[1].

Bu o‘rinda albatta Surxondaryo viloyatida sanoat korxonalariga kiritilgan investitsiyalarga qo‘llanilayotgan investitsiyalarni SWOT tahlilini ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi.

**1-jadval.**

**Surxondaryo viloyatida sanoat korxonalarining swot tahlili<sup>1</sup>**

S- KUCHLI TOMONLAR	W- ZAIF TOMONLAR
Surxondaryo viloyati boy tabiiy resurslarga ega bo‘lib, bu sanoat korxonalari uchun qulay sharoit yaratadi. Strategik joylashuv bo‘yicha O‘zbekistonning janubi, qo‘sni davlatlar bilan yaqin aloqaga ega, bu esa eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, Surxondaryo viloyat Markaziy Osiyo, Xitoy davlatlari, shu jumladan Afg‘oniston bilan chegarada joylashgani sababli, transport va savdo imkoniyatlari keng. Siyosiy qo‘llab-quvvatlash jaroyoni bo‘yicha O‘zbekiston hukumati investitsiyalarni amalga oshirish uchun tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlaydi va turli imtiyozlar taqdim etadi. Ijtimoiy rivojlanish jihatidan sanoatni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari va ijtimoiy infratuzilmani oshirish imkoniyatlari mavjud.	Iqtisodiy rivojlanishning pasayishida viloyat dastlabki sanoat inshootlarini modernizatsiya qilmaslik tufayli rivojlanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Infratuzilma yetarli emasligi: Hududning tumanlarida transport va energetika infratuzilmasi rivojlangan emas, bu esa investitsiyalarni jalb qilishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Malakali kadrlarning etishmasligi bo‘yicha sanoat sohasida malakali nazorat va menejment kadrlari yetishmovchiligi. Innovatsion rivojlanishning yetishmasligi: Sanoat korxonalarida innovatsion yechimlar va yangi texnologiyalarni joriy etish yetarli darajada emas. Bozor raqobati jihatidan hududda raqobatchilar ko‘payishi, bu esa mahalliy sanoat korxonalari uchun qiyinchilik tug‘diradi.
O- IMKONIYATLAR	T- TAHDIDLAR

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



Sanoatni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va qo'llab-quvvatlashlar mavjud.	Geografik siyosiy beqarorlik jihatidan mintaqadagi geosiyosiy vaziyatlar homiylik va investitsiyalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari mavjud.	Global iqtisodiy o'zgarishlar va bozor muammolari investitsiyalarni kamaytirishi mumkin.
Xalqaro investorlar va kompaniyalar bilan hamkorlikni o'rnatish imkoniyati.	Xalqaro siyosiy vaziyat va sanksiyalar sanoatni rivojlantirishda murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin.
Eksport imkoniyatlari va yangi bozorlar orqali mahalliy mahsulotlarini yangi eksport bozorlarini izlash va ishlab chiqarishga mukofotlash: Mahalliy mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish.	Sanoat rivojlanishi natijasida ekosistemalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
Turizmni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar orqali qo'shimcha iqtisodiy daromad olish.	

Surxondaryo viloyatining sanoat tarmog'i so'nggi yillarda rivojlanishning ijobiy tendensiyalarini ko'rsatmoqda. Viloyatning tabiiy resurslarga boyligi va geografik jihatdan qulay joylashuvi, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratadi. Har yili sanoat tarmoqlariga kiritilayotgan investitsiyalar va yangi sanoat korxonalarining tashkil etilishi, viloyat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashishiga yordam bermoqda.

Biroq, sanoatning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi ba'zi zaif tomonlar mavjud. Bu, avvalo, texnologik ta'minotning pastligi, malakali ishchi kuchining yetishmasligi va ekologik standartlarga moslashishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq. Shuningdek, global iqtisodiy beqarorlik va sanoatning raqobatbardoshligini oshirishdagi muammolar tahdid sifatida ko'rilmoxda.

Shu bilan birga, sanoat sohasida mavjud imkoniyatlar, masalan, innovatsiyalarni joriy etish, yangi bozorlarni o'zlashtirish va raqamlashtirish, viloyatning sanoat salohiyatini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa o'rnida texnologik yangilanish va raqamlashtirish jihatidan Surxondaryo viloyatidagi sanoat korxonalariga zamонавиу texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zarur. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, sanoat korxonalarining raqobatbardoshliligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar va yuqori texnologiyalarni qo'llash talab etiladi.

Kadrlar malakasini oshirish bo'yicha malakali ishchi kuchini tayyorlash va kasb-hunar maktablari orqali yangi avlodni sanoat sohasiga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Mahalliy oliy o'quv yurtlari va ta'lim markazlari bilan hamkorlikda texnik mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash dasturlarini kengaytirish lozim. Shuningdek, mavjud ishchi kuchining malakasini oshirish uchun doimiy ravishda treninglar, kurslar va seminarlar tashkil etish zarur.

Investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha viloyatga kiritilayotgan investitsiyalarni ko'paytirish uchun biznes va investitsiya muhiti yanada yaxshilanishi kerak. Hukumat tomonidan sanoatni rivojlantirish uchun qulay investitsiya sharoitlari yaratish, soliqlarni kamaytirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhimdir. Shuningdek, o'rta va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish zarur.

Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'yicha Surxondaryo viloyati geografik joylashuvi Xitoy, Afg'oniston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan eksport va import aloqalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Viloyat sanoat korxonalari uchun xalqaro bozorlar bilan aloqalarni kengaytirish va global tarmoqda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish lozim.

Xalqaro standartlarga moslashish jarayonida sanoat ishlab chiqarishining sifatini yaxshilash va eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun xalqaro standartlarga moslashish kerak. ISO, CE, OHSAS kabi sertifikatlar olish, sifatni ta'minlash tizimlarini joriy etish sanoat korxonalarining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Surxondaryo viloyatining sanoat salohiyatini to'liq amalga oshirish uchun innovatsiyalar, kadrlar malakasi, texnologik yangilanish, investitsiya muhiti va ekologik masalalarga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, viloyatning iqtisodiy o'sishini barqaror qilish va sanoat korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish uchun ilg'or tajribalarni joriy etish, tashqi aloqalarni kengaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.



### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.“O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari nishakllantirish va moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ 3437-sonli prezident qarori, 18 dekabr 2017 yil.
2. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. - T.: 2002. i.f.d. diss. Avtoref. 11-14 b
3. Bozorov R. Investitsiya loyiҳalarini iqtisodiy samaradorligini baholash. 2017. 15b.
4. <https://registr.stat.uz/>



### MINTAQADA BALIQCHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING ROLI

Matmuratova N.R. Urganch Ranch texnologiya universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasи o‘qituvchisi, Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi mynigorim@gmail.com +998973620338


**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqada baliqchilik sohasini rivojlantirish zaruriyati, ahamiyati, mavjud imkoniyatlari va ularning roli yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Mintaqqa, baliqchilik, baliqchilik sohasi, baliqchilik xo‘jaligi, tarmoq.

Mintaqada baliqchilik sanoati baliq ovlash, keyinchalik uni iste’mol qilish uchun mas’ul bo‘lgan sanoat turi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu soha yaxshi rivojlangan tarmoq sifatida aholini ushbu muhim mahsulotsiz qoldirmasdan eksport qilish uchun baliq sotishga imkon beradi. Baliqchilik sanoati baliq va dengiz mahsulotlari, dengiz hayvonlari va yosunlarni turli oziq-ovqat, tibbiy, texnik va badiiy mahsulotlarga qazib olish, tashish va qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan iqtisodiyot tarmog‘idir. Uning tarkibiga tarkibiga flot va qirg‘oq obyektlari portlar, baliq va boshqa dengiz mahsulotlarini qayta ishlash zavodlari, baliqchilikdagи o‘sish va ovqatlanish xo‘jaliklari kiradi. Ushbu obyektlardan baliq ovlash floti tabiatni va mehnat shart-sharoitlariga nisbatan xususiyatlarga ega bo‘ladi. Baliqchilik insoniyatning eng qadimgi amaliyotlaridan biri sifatida dunyoning ko‘plab mintaqalarida oziq-ovqat, ish o‘rinlari va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi [1]. Baliq va boshqa suvda yashovchi hayvonlar turlari insonning sog‘lom ovqatlanishi uchun zarur bo‘lgan oqsil, yog‘lar, vitaminlar va minerallarning qimmatli manbai bilan belgilanadi.

Baliqchilik, akvakultura va sanoat baliqchiligi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va suv resurslari biologik xilma-xilligini saqlash bilan belgilanadi. So‘nggi o‘n yillikda akvakultura yoki suvda yashovchi organizmlarni sun’iy ravishda ko‘paytirish va yetishtirish suvdan kelib chiqadigan mahsulotlarni olishning ommalashib borayotgan usuli sifatida barqaror va boshqariladigan oziq-ovqat manbaini ta’minlaydi. Akvakultura markultura, chuchuk suvda baliq yetishtirish va mollyuskalarini yetishtirish kabi turli usullarni o‘z ichiga oladi. Ushbu usullar mintaqada ishlab chiqarishni ko‘paytirish hamda ortiqcha baliq ovlash va atrof-muhitning ifloslanishidan aziyat chekadigan tabiiy baliq turlariga nisbatan ta’sirni bosimni kamaytirishga imkon beradi.

Fikrimizcha, mintaqada baliqchilik sohasi baliq ovlash va baliq yetishtirishga ixtisoslashadi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqada baliqchilik sohasi tarkibi va yo‘nalishlari<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.



Mintaqada baliqchilik xo‘jaliklariga biriktirilgan suv havza maydonlaridan ilmiy yondashuv asosida samarali foydalanish, ularning meliorativ holatini yaxshilash, shuningdek, resurs tejamkor texnologiya va innovatsiyalarni keng ko‘lamda joriy qilish ishlariiga yetarlicha e’tibor berish, sun’iy suv havzalari hosildorligini oshirish uchun baliqchilik xo‘jaliklarining mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish, mineral o‘g‘itni boshqa muqobil o‘g‘itlar bilan almashtirish bo‘yicha ilmiytadqiqot ishlarini olib borish, baliqni intensiv usulda yetishtirish, ovlash va qayta ishlash uchun zarur asbob-uskuna, anjom va mexanizmlarni mahalliy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish zarur [2].

Ushbu mintaqaga baliqchilik sohasi tarkibi baliqchilik sohasining tarkibiy qismlarini belgilaydi. Bu borada baliqchilik sanoati quyidagi vazifalarini bajaradi:

- baliqchilarни ish bilan ta’minlaydi va ularning turmush darajasini yaxshilaydi;
- aholiga oqsillarga boy oziq-ovqat manbai ekanligi bo‘ladi;
- infratuzilmani rivojlantirish uchun ishlataladigan baliq eksporti orqali valyuta manbai bo‘ladi;
- iqtisodiy diversifikatsiyani rag‘batlantiradi va shu orqali daromad oqimini oshiradi va qishloq xo‘jaligiga bog‘liqlikni kamaytiradi;
- ko‘proq ish bilan ta’minlaydigan baliqni qayta ishlash sanoatini rivojlanishiga imkon beradi;
- maktablar va shifoxonalarni rivojlantirish uchun foydalaniladigan soliqqa tortish orqali davlat daromadlari manbai bo‘ladi;
- ozuqa bilan ta’minalash orqali parrandachilik kabi boshqa sohalarning rivojlanishini rag‘batlantiradi;
- ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga olib keladigan yo‘llar, bozorlar va o‘quv muassasalarini kabi infratuzilmani rivojlantirishga imkon beradi;
- mintaqaviy muvozanatga olib keladigan shaharlar o‘sishiga imkon beradi;
- o‘yin baliq ovlash orqali turizmni targ‘ib qiladi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida mintaqada baliqchilikni tartibga solish tizimi dengiz biologik resurslarining iqtisodiy aylanishini oqilona tashkil etishning yo‘qligi, ko‘p tarmoqli, yetarli darajada tezkorligi va yo‘qligi bilan tavsiflanadi. Bu esa sanoat baliqchiligi va baliqchilikni rivojlantirishda barqarorlikni yo‘qotishiga olib keladi. Islohotlar natijasida mintaqaviy ijro etuvchi organlar dengiz bo‘yidagi mintaqalarga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda baliqchilik faoliyatiga vakolatlarga ega bo‘lib, qonuniy ravishda ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu kompleksni boshqarish hududning o‘zaro bog‘liq iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolarini hal qilishga asoslanganligi sababli hozirgi kunda baliqchilikni tartibga solishning mintaqaviy tizimini shakllantirish talab etiladi. Shu bilan birga, mintaqada baliqchilikni barqaror rivojlanish haqiqiy shart-sharoitlarga ega bo‘ladi. Ularning asosiyлари xom ashyo bazasi, ishlab chiqarish va ilmiy salohiyatning mavjudligi bilan namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud shaharni tashkil etuvchi tabiat va baliq sanoatining muhim vazifasi sifatida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashdan iborat bo‘ladi. Bu esa baliqni saqlash shart-sharoitlarini nazorat qilish, uning sifati va iste’molchi uchun xavfsizligini ta’minalash imkonini beradi.

Mintaqada zamonaviy baliqchilik iqlim o‘zgarishi, dengizlar ifloslanishi va biologik xilmallikkining yo‘qolishi kabi qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Sanoatning barqarorligini ta’minalash uchun selektiv baliq ovlash, akvakultura ozuqalarini yaxshilash va ular turlarini tiklashning yangi usullarini ishlab chiqish kabi innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etish zarur bo‘ladi. Bu borada baliqchilik xo‘jaligining barqaror rivojlanishi uchun akvakultura va sanoat baliqchiligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek, dengiz muhitini muhofaza qilish va baliq ovlashni nazorat qilish choralarini joriy etish zarur.

Mintaqada baliqchilik xo‘jaligining hozirgi holati global tendensiyalar va noyob milliy shart-sharoitlarni aks ettiruvchi qator xususiyatlar bilan ajralib turadi. Uning hududi keng suv resurslariga ega bo‘lib, baliqchilikni iqtisodiyotning muhim tarmog‘iga aylantiradi. Akvakultura rivojlanishda davom etadi. Uning baliq mahsulotlarini ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi nisbatan kichik bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda hukumat ushbu sektorni rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratadi. Chunki, bu tabiiy baliq turlariga qo‘srimcha bosim o‘tkazmasdan ishlab chiqarishni ko‘paytirish imkoniyatini anglatadi. Shuningdek, mintaqada qishloq xo‘jaligida baliqchilik sohasi asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Bu borada mamlakatimiz mintaqalarida baliqchilik bilan shug‘ullanib kelinib, bu sohada yetarli tajribalar to‘planmoqda. Hozirgi kunga kelib, fermer xo‘jaliklari va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan sifatli baliq mahsulotlari yetishtirilmoqda [3]. Bu borada keyingi yillarda oziq-ovqat majmuasida sodir bo‘ladigan bozor munosabatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va baliq mahsulotlari marketingi tushunchasi qo‘llaniladi.

Mintaqada bozor raqobati tamoyillari asosida baliq tovarlarini ishlab chiqarish va sotish



samaradorligiga erishish uchun iqtisodiy yechimlarni izlash barqaror barqaror rivojlanish va suv bioresurslaridan ijtimoiy jihatdan maqbul foydalanish zarurligi bilan cheklanadi. Bu borada baliqchilik kompleksini rivojlantirishning ushbu xususiyatlari davlatning ushbu jarayonda ishtirok etish tizimlari va mexanizmlarini shakllantirishga obyektiv ehtiyoj tug‘diradi [4]. Sanoatning barqaror va samarali rivojlanishi mintaqaviy darajada maqsadli davlat ta’siri va tartibga solishni kuchaytirmasdan mumkin bo‘limgan turli shart-sharoitlar mavjud bo‘ladi. Iqtisodchi-olimlardan J.Rodes fikricha, “qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori yoki marketingi haqida to‘xtalib, “marketing - oziq-ovqat va texnika xom ashyolarini fermer xo‘jaligidan bevosita iste’molchigacha bo‘lgan faol ish yuritish yoki ish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichigan oladigan harakatlar yig‘indisidir” [5]. Ushbu yondashuv baliqchilik mahsulotlarini sotish tizimini belgilaydi. Bu borada oziq-ovqat mahsulotlari bozori bo‘yicha mutaxassis G.V.Astratova fikricha, oziq-ovqat tovarlari iste’molchilarini axborotlar bilan to‘liq ta’minlash uchun sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga xaridorlar diqqatini jalb qiluvchi ma’lumotlarni aniqlash zarur bo‘ladi [6]. Avvalo, marketing bozor sifatida ishlab chiqarish va sotish omillarini o‘zida birlashtiradi. Hozirgi zamon marketingi tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni bozor imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishni taqozo etib, bozor uchun moslashgan holda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni shakllantiradi. Bu borada model natijalari ijtimoiy munosabatlar va turlarni diversifikatsiyalashga asoslangan savdo strategiyalari baliq turlari va baliq ovlash mintaqalari o‘rtasida tarqalishga ta’sir qiladi.

Xulosa shuki, baliqchilikning mahalliy va mintaqaviy savdo tarmoqlari butun dunyo bo‘ylab oziq-ovqat xavfsizligi va tirkchilik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tarmoqlar ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlardan iborat bo‘lib, ular turli ishlab chiqarish hududlarini baliq talabining har xil turlari bilan bog‘laydi. Mazkur savdo tarmoqlari tuzilishi va ular ichida sodir bo‘ladigan harakatlar kichik baliqchilikning o‘zgaruvchan ijtimoiy va ekologik sharoitda yetarli baliq bilan ta’minlash imkoniyatlariga ta’sir qilishi mumkin. Bu baliq zaxiralariga kiradigan turli savdogarlar o‘rtasidagi tarmoqlar faoliyatiga asoslaydi. Bu baliqchilik sohasida tarmoq tahlil qilish va sifatli ma’lumotlarga asoslanadi. Bu boradagi empirik ma’lumotlar savdo tarmoqlarida sodir bo‘ladigan savdo jarayonlarini o‘rganishga imkon beradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иванов В.А. Особенности развития рыбного хозяйства, аквакультуры и промышленного рыболовства (на примере Астраханской области). // «Научный аспект», №6, 2024.
2. Rajapov X.B. BAliqchilik sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Monografiya [Matn] / - Xorazm: Khwarezm travel, 2023. - 11 b.
3. Yusupov M.S. Agrosanoat integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Fan va texnologiya”, 2015. - 400 b.
4. Тарханова Л.Б. Регулирование рыбного хозяйства региона в концепции устойчивого развития промышленного рыболовства. // Автореферата по специальности 08.00.05. - М., 2007.
5. Rhodes J. The Agricultural Marketing System. – New York, 1987. - p.7.
6. Астратова Г.В. Маркетинг продовольственного рынка: концептуальный подход. - Шадринск, ПО «Илеть», 1996. - с. 84.
7. Исаичикова Н.И. Экономическая эффективность организации маркетинга теоретико-методологические и практические аспекты. // Ж.: Проблемы экономики, 2006. - №4 (11).



### ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИДА КОЛЛЕГИАЛ ҚАРОРЛАР ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИНинг АҲАМИЯТ

Адҳам Аҳмедов

Фарғона вилояти фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ходимлари малакасини ошириш бўйича ўкув курслари директори, тадқиқотчи

**Аннотация.** Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини самарали ташкил этиш, уларнинг худудларни ижтимоий иқтисодий ривожлантириш дастурларидағи муносаб иштирок этиши, аҳолининг иқтисодий фаоллигини ошириш, ишсиз фуқароларнинг бандлигини таъминлаш орқали доимий даромад олишига муносаб шароит яратиш камбағаллик даражасини қисқартиришга жиддий эътибор қаратилмоқда. Мазкур мақолада фуқароларнинг иқтисодий фаоллигини оширишда муҳим омиллардан бири бўлган фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида коллегиал қарорлар қабул қилиш механизмлари назарий ва амалий жиҳатлари баён етилган.

**Калит сўзлар:** ўзини ўзи бошқариш органлари, аҳоли бандлиги, боқимандалик, иқтисодий фаоллик, коллегиал қарор.

**Аннотация.** В настоящее время особое внимание уделяется эффективной организации деятельности органов самоуправления граждан, их достойному участию в программах социально-экономического развития регионов. Серьезное внимание уделяется снижению уровня бедности за счет повышения экономической активности населения, созданию условий, достойных постоянного дохода, путем обеспечения занятости безработных граждан. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты механизмов коллегиального принятия решений в органах самоуправления граждан, которые являются одним из важных факторов повышения экономической активности граждан.

**Ключевые слова:** органы самоуправления, занятость населения, экономическая активность, коллегиальное решение.

**Annotation.** Special attention is paid to the effective organization of the activities of citizens' self-government bodies, their worthy participation in the programs of socio-economic development of the regions. Serious attention is paid to reducing poverty by increasing the economic activity of the population, creating conditions worthy of a permanent income by providing employment for unemployed citizens. This article examines the theoretical and practical aspects of the mechanisms of collegial decision-making in citizens' self-government bodies, which are one of the important factors in increasing the economic activity of citizens.

**Keywords:** self-government bodies, employment of the population, economic activity, collective decision.

**Кириш.** Ҳар қандай давлат тараққиётнинг юқори чўққисига эришишга интилиб, доимий равишда жамият ва давлат бошқарув тизимини такомиллаштириш борасида фаолият олиб боради. Бугунги кунда Ўзбекистонда ҳам давлат ва жамият қурилишининг барча соҳаларида туб ўзгаришлар рўй бермоқда. Қабул қилинаётган қарорларда фуқаролар ва кенг жамоатчилик манфаатлари уйғуллигини таъминлаш жуда муҳим бўлиб, хукуматнинг барча соҳаларида халқ билан мулокот тамойили илгари сурилмоқда.

Демократик ривожланиш йўлини танлаган Ўзбекистон учун жамият ва давлат ҳаётининг барча соҳаларини ислоҳ этишда кенг жамоатчилик фикри ва истаклари, худудларни ривожлантириш ва ундаги мавжуд муаммоларни самарали ечишда фуқароларнинг ўзи ўзи бошқариш органлари орқали фуқароларнинг фаол иштироки муҳим хисобланади.

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятининг хукуқий асослари Конституцияда, соҳавий қонунлар ва қонуности хужжатларда белгилаб қўйилган<sup>1</sup>. 2013 йилдан бошлаб, 10 йил оралиғида фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини хукуқий тартибга солувчи бир неча қонун ости хужжатлари қабул қилинган.

Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йилдаги “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 380-сонли

1 2013 йил 22 апрелда “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Конуни



қарори билан фуқаролар йигинларидағи жамоатчилик тузилмалари фаолиятини тартибга солувчи нормалар амалиётга жорий этилган. Маҳалланинг ички ресурсларини аниқлаш ҳамда ижтимоий хизматлар ва ёрдам кўрсатиш учун сафарбар этишни самаралари ташкил этиш мақсадида маҳалла “еттилиги” тузилмаси ҳам ташкил этилди. Бу тузилма тегишли худудда қонунлар ва бошқа қонунчилик ҳужжатларининг ижроси таъминланишини, оиласларнинг иқтисодий-ижтимоий ахволи ва эҳтиёжларини ўрганишда фуқаролар йигини кенгашига кўмаклашиши, фуқароларни ижтимоий дафтарларга киритиш, ижтимоий ёрдам ва субсидиялар ажратиш, «Саховат ва кўмак» жамғармаси хисобидан ёрдам бериш бўйича коллегиал қарор қабул қилиш каби вазифалар юклатилган.

Соҳада амалга оширилаётган ислоҳотлар ўзининг ижобий натижасини бермоқда. Бироқ маҳаллабай ишлашга масъул бўлган шахслар фаолиятини самарали ташкил этиш ва уларнинг ҳамкорлигини таъминлаш, маҳалла институтини такомиллаштириш, аҳолининг иқтисодий фаоллигини ошириш борасидаги ишларда айрим камчиликлар кузатилмоқда.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.** Хорижлик олимлардан Шугрина Е.С, В.Н. Парахина, Е.В, Галеев, Л.Н. Ганшина кабилар маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларининг фаолиятининг хусусиятлари, хорижий мамлакатларнинг бу борадаги тажрибасининг таҳлили, хукуқий асосларини илмий таҳлил этгандар.

Ўзбекистонда ўзига хос шакл бўлган фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг мақоми билан боғлиқ масалаларнинг муайян жиҳатларига Маликова Г.Р, Р.Ж.Рўзиев, Ш.Н.Рўзиназаров, Ф.Сайфуллаев, М.Б.Усмонов, Т.Умаров, Ф.Ю.Шодманов, Н.Ф.Имомов каби хукуқшунос олимларнинг ишларида эътибор қаратилган. Бундан ташқари, Д.Аҳмедов, М.Усманова, Ш.Газиев ҳамда Х.Хусановалар томонидан фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг ижтимоий ҳимоя фаолияти билан боғлиқ йўналишлар бўйича тадқиқотлар олиб борилган.

Юқорида баён этилганлар ўрганишлар ва қарашларда фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятида иқтисодий масалалар, аҳоли бандлиги ва фуқароларнинг иқтисодий фаоллигини оширишдаги иштироки масалаларига етарли эътибор қаратилмаган. Шу нуқтаи назардан фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг иқтисодий масалалардаги қарорлар қабул қилинишини тартибга солиш масаласи тадқиқот мавзусининг долзарблигидан далолат беради.

**Таҳлил ва натижалар.** Аҳолини бандлиги ва ишсизликни камайтириш мақсадида ўтказилган иқтисодий-статистик тадқиқотлар меҳнат бозоридаги кескинликни камайтириш билан бандлигини оширишнинг самарали ижтимоий-иктисодий механизмларидан бири сифатида аҳолининг иқтисодий фаоллигини оширишда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари воситасида методологик жиҳатдан татбиқ этишнинг амалий аҳамияти юқори эканлигини тасдиқламоқда..

Сўнгги 200 йил ичидаги бутун дунёда маҳаллий ўзини ўзи бошқариш ривожланди. Европа мамлакатларида, АҚШда, Японияда, Австралияда, Туркияда ва бошқа кўплаб мамлакатларда фуқароларнинг маҳаллий муаммоларни ҳал қилиш ва муниципал фаолиятда иштирок этиши қонун билан расмийлаштирилган. Маҳаллий ўзини ўзи бошқариш тўғрисидаги Европа Хартияси қабул қилинди<sup>1</sup>.

Мамлакатимизда эса “маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари” тушунчаси “фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари” деб юритилади.

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларидан асосий фарқи шуки, у давлат ҳокимияти тизимига кирмайди, мустақил фаолият юритади, ҳамда бевосита фуқаролар томонидан шакллантирилади. Хорижий мамлакатлардаги маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари эса, жойлардаги давлат органлари орқали амалга оширилади ва улар давлат ҳокимияти тизимига киради ҳамда қоида тарикасида, юқори турувчи давлат ҳокимияти ёки бошқаруви органи томонидан шакллантирилади.

Сўнги йилларда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш, бандлиги таъминлаш, турмуш даражасини янада яхшилаш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Ижтимоий дафтарлар тизими орқали аҳолининг кўмакка муҳтож барча қатлами, аёллар, ёшлар, ногиронлар оиласлар қамраб олинмоқда. Фуқароларнинг иқтисодий фаоллигини ошириш, берилган имконият ва яратилаётган шароитлардан унумли фойдаланишларида фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини самарали ташкил этиш муҳим ҳисобланади.

1 <https://docs.cntd.ru/document/1901042>



Бугунги кунда соҳага оид қонунчиликда аҳолини бандлигини таъминлаш, иқтисодий масалаларетарли баён этилмаган. “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларит тўғрисида” ги қонуннинг 13 моддасида маҳалла Кенгашига тегишли ҳудудда яшовчи фуқаролар бандлигини таъминлашга, шу жумладан касаначиликни ташкил этишга кўмаклашиши белгиланган<sup>1</sup>. Бироқ айнан қандай тартибда, қандай ваколатлар билан аниқ белгиланмаган.

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида коллегиал органлар сифатида кенгаш, асосий йўналишлар бўйича комиссиялар ва жамоатчилик тузилмалари ташкил этилган.

Коллегиал орган сифатида ташкил этилган маҳалла “еттилиги” тузилмаситешили ҳудудда қонунлар ва бошқа қонунчилик ҳужжатларининг ижроси таъминланишини, оиласарнинг иқтисодий-ижтимоий аҳволи ва эҳтиёжларини ўрганишда фуқаролар йигини кенгашига кўмаклашиши, жисмоний шахсларни «Темир дафтар», «Ёшлар дафтари» ва «Аёллар дафтари»га киритиш тўғрисида қарор қабул қилиш, субсидиялар ажратиш, «Саховат ва қўмак» жамғармаси ҳисобидан ёрдам бериш каби масалаларда бўйича коллегиал қарор қабул қиласи.

Бу қабул қилинаётган қарорларнинг манзилли, ўз вақтида ва адлоатли бўлиши фуқароларнинг нафақат у ёки бу муаммолини ҳал этилиши, балки уларнинг иқтисодий фаоллигига олиб келади.

Халқаро тажрибада маҳаллий бошқарувда менежмент ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, биринчи навбатда менежер (бошқарув субъекти) қонунчиликда берилган ваколатларга эга эканлигидан келиб чиқади.

Менежернинг барча хилма-хил ишлари учта функция билан боғлиқ:

1. бошқарув қарорини қабул қилиш;
2. бошқарув қарорининг бажарилиши;
3. Назорат, шу жумладан қарорнинг оқибатларини баҳолаш.

Белгиланган функцияларнинг ҳар бири бир қатор таркибий қисмларга бўлиниши мумкин. Шундай қилиб, бошқарув қарорини қабул қилиш вазиятни таҳлил қилиш ва баҳолаш, прогнозлаш ва режалаштиришдан иборат.

Ўзини ўзи бошқариш органларида қабул қилинётган қарорлар коллегиаллиги билан муҳимдир, яъни қарор муҳокамалардан сўнг, бевосита аҳоли вакилларининг иштироқида қабул қилиниши, унинг ижросини ва самарасини таъминловчи ва аҳолининг иқтисодий фаоллигини таъминловчи муҳим омиллардандир.

Фикримизча фуқаролар йигинларида бошқарув қарорлари қабул қилинишида қўйидаги асосий талабларга эътибор қаратиш керак:

- долзарблик-яъни ўз вақтида қабул қиниши;
- аниқ муддатлик-яъни қарор билавн баджаррилиши лозим бўлган чора тадбирларнинг бажарилиш харитаси
- мажбурийлик- қонунчиликда берилган ваколати дорасида қабул қилинган қарорларнинг ижро этилиши мажбурийлиги
- мувофиқлик - олдинги қарорлар ва соҳада олиб борилаётган ислоҳотларга мос келиши
- самарадорлик- таҳлилларга асосан аниқ режа, чора тадбир ва натижага эришишнинг акс этиши

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида қарор қабул қилиш аҳоли турмуш тарзи билан боғлиқ муаммоли вазиятнинг пайдо бўлиши ва уни бартараф этиш билан боғлиқ жараёндир. Бу жараёнда қарорлар қабул қилинишининг самарали бўлиши бир қатор босқичлар, жумладан муаммони аниқлаш, таҳлил қилиш, бартараф этиш бўйича аниқ, манзилли ва асосли чора тадбирлар белгилаш ва ижроси учун маъсуллар, муддатларни аниқ белгилаш кабиларни ўз ичига олади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб қўйидагилар таклиф қилинади:

Биринчидан, “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида” ги қонунни янги таҳрирда ишлаб чиқиши, унда коллегиал қарорлар қабул қилиш, Кенгаш ваколатларини кучайтиришга эътибор қаратиш

Иккинчидан, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари вакиллари(раиси)нинг ҳудудларни ижтимоий иқтисодий ривожлантиришдастурлари лойиҳаларини ишлабчиқишивам уҳокамақилишида иштироқэтишини таъминлаш

Учинчидан ишсиз фуқароларни бўш иш ўринларига жойлаштириш, шунингдек, уларни ҳақ тўланадиган жамоат ишларига жалб этишда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари иштироқи механизмини қатъий белгилаш.

1 <https://lex.uz/ru/docs/2156899>



Тўртингидан маҳалла фуқаролар йигинида, кенгашида коллегиал қабул қилинаётган қарорларини онлайн рақамлаштириш ва рўйхатга олиш учун “Mahalla kengash” платформасини ташкил этиш.

**Хулоса.** Хулоса қилиб айтганда, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятида коллегиал органлар қарорлар қабул қилиниши самарадорлигини ошириш аҳолининг иқтисодий фаоллигини ошишига хизмат қиласиган хуқукий механизмларни қонунчиликбелгилаш ҳамда амалиёттатабиқ этиш истиқболда муҳим иқтисодий восита сифатида маҳалланинг жамиятдаги ўрни ва ролини янада кучайтиришга хизмат қиласиган.

### Adabiyotlar

1. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги ЎРҚ -350 2013 йил 22 апрел.<https://lex.uz/ru/docs/2156899>
- 2 .Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги ПФ-209-сон “Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўғин сифатида ишлашини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида” Фармони // <https://lex.uz/docs/6705763>
3. Рўзиев З. Фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг ваколатлари / Масъулмуҳаррир: юридик фанлар доктори, профессор Ш.И.Жалилов. – Тошкент:«Истиқлол нури», 2016. –
4. Маликова Г.Р. «Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг айрим вазифа ва ваколатларини фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига ўтказиш». Юридик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. Т 2004 й Б15
5. Шугрина Е.С. Муниципальное право: учебник. 6-е изд., перераб. и доп. – Москва : Норма: ИНФРА-М, 2024.
- 6 . Шугрина Е.С. Защита местного самоуправления в Конституционном Суде Российской Федерации: рекомендации эксперта / Е.С. Шугрина – М.
7. Шугрина Е.С. Основы местного самоуправления, 2023. Б.19
8. В.Н. Парахина, Е.В. Галеев, Л.Н. Ганшина “Муниципальное управление 2017 йил



### GLOBAL MARKETING STRATEGIYALARIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Karimova Oyjalon  
UrDU 241-iqtisodiyot magistranti

Annotatsiya: Global marketing strategiyalarida raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi zamonaviy bizneslar uchun katta ahamiyatga ega. Raqamli platformalar kompaniyalarga global auditoriyalar bilan samarali aloqalar o'rnatish, shaxsiylashtirilgan takliflar yaratish, va marketing kampaniyalarini tezkor tahlil qilish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt (AI), big data va mobil texnologiyalar, marketingni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu maqolada raqamli platformalarning global marketingdagi o'rni, afzalliklari va samarali foydalanishning asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Global marketing strategiyalarida raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi zamonaviy bizneslar uchun katta ahamiyatga ega. Raqamli platformalar kompaniyalarga global auditoriyalar bilan samarali aloqalar o'rnatish, shaxsiylashtirilgan takliflar yaratish, va marketing kampaniyalarini tezkor tahlil qilish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt (AI), big data va mobil texnologiyalar, marketingni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu maqolada raqamli platformalarning global marketingdagi o'rni, afzalliklari va samarali foydalanishning asosiy tamoyillari tahlil qilinadi.

**Аннотация:** Эффективность использования цифровых платформ в глобальных маркетинговых стратегиях имеет большое значение для современного бизнеса. Цифровые платформы позволяют компаниям устанавливать эффективные связи с глобальной аудиторией, создавать персонализированные предложения и быстро анализировать маркетинговые кампании. Цифровые технологии, такие как искусственный интеллект (AI), большие данные и мобильные технологии, выводят маркетинг на новый уровень. В данной статье анализируются роль цифровых платформ в глобальном маркетинге, их преимущества и основные принципы эффективного использования.

**Abstract:** The effectiveness of utilizing digital platforms in global marketing strategies is of great importance for modern businesses. Digital platforms enable companies to establish effective connections with a global audience, create personalized offers, and quickly analyze marketing campaigns. Digital technologies, such as artificial intelligence (AI), big data, and mobile technologies, are taking marketing to a new level. This article analyzes the role of digital platforms in global marketing, their advantages, and key principles for effective use.

**Keywordlar:** global marketing, raqamli platformalar, samaradorlik, shaxsiylashtirish, mobil texnologiyalar, sun'iy intellekt, big data, marketing strategiyalari, auditoriya, marketing kanallari.

**Ключевые слова:** глобальный маркетинг, цифровые платформы, эффективность, персонализация, мобильные технологии, искусственный интеллект, большие данные, маркетинговые стратегии, аудитория, маркетинговые каналы.

**Keywords:** global marketing, digital platforms, effectiveness, personalization, mobile technologies, artificial intelligence, big data, marketing strategies, audience, marketing channels.

Global miqyosda raqamli marketing strategiyalari, zamonaviy bizneslarning muvaffaqiyatida muhim rol o'ynaydi. Internet va raqamli platformalar, brendlarning global auditoriyalarga tez va samarali yetishishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Global marketing - bu kompaniyaning mahsulotlarini yoki xizmatlarini global bozorlar orqali sotishga mo'ljallangan strategiyalar va harakatlar majmuasidir. Ushbu marketing yondashuvi turli mintaqalar va mamlakatlardagi iste'molchilarining talab va ehtiyojlarini inobatga olib, mahsulot va xizmatlarni global miqyosda qo'llash va tarqatishga yo'naltirilgan.

Global marketingda raqamli platformalarning o'rni juda muhim va ko'p qirralidir. Raqamli platformalar shunchaki marketing kanallari sifatida emas, balki kompaniyalar uchun strategik imkoniyatlarni ochuvchi vosita sifatida qaralmoqda. Quyida raqamli platformalarning global marketingdagi afzalliklari keltirilgan:

1. Kengaytirilgan auditoriya. Raqamli platformalar orqali global joylashuvdagi mijozlarga tez va samarali yetib borish mumkin. Bu, kompaniyalarga geografik cheklardan kelib chiqmay, kengroq auditoriyaga xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish. Raqamli platformalar yordamida kompaniyalar mijozlar haqidagi



ко‘п ма‘лумотларга ега bo‘ladi. Ushbu ma‘лумотлар tahlil qilinib, xarid qilish odatlari, afzalliklar va iste‘molchilarning ehtiyojlarini aniqlashga imkon yaratadi.

3. Shaxsiy lashtirish.Raqamli platformalarning bir afzalligi shundaki, ular orqali brendlari mijozlarga shaxsiy lashtirilgan takliflar va reklama kampaniyalarini taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu mijozlarni brendga yanada jalg qiladi.

4. Qo‘sishma aloqa vositalari.Raqamli platformalar ijtimoiy tarmoqlar, email marketing va mobil ilovalar orqali mijozlar bilan bevosita aloqada bo‘lish imkoniyatini beradi. Mijozlar bilan real vaqtida muloqot qilish, feedback olish va ularning ehtiyojlarini qondirish osonlashadi.

5. Ijtimoiy tarmoqlarning kuchayishi.Ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing strategiyalari ishlab chiqish brendlarni yanada jozibador qilib ko‘rsatadi. Mijozlar brendlari bilan muloqotda bo‘lishni, ularni baholashni va tavsiya qilishni sevadilar.

6. Tezkor qayta aloqa.Raqamli platformalar orqali kompaniyalar tezkor tarzda marketing kampaniyalarini yaratish, amalga oshirish va ularni tahlil qilish imkonini beradi. Bu o‘zgaruvchan qiyoslash va tizimga moslashishni osonlashtiradi.

7. Dana evangelizm.Mijozlar o‘z tajribalari va fikrlarini ijtimoiy tarmoqlarda baham ko‘rishi orqali brendlari uchun tabiiy reklama yaratadi. Qoniqarli mijozlar haqida ijobiy fikrlar yangi iste‘molchilarini jalg qiladi.

8. Bozor raqobati.Raqamli platformalar orqali kompaniyalar o‘z raqobatchilarini yaxshiroq tahlil qilishlari mumkin.

Mintaqalararo marketing strategiyalarida internet platformalaridan foydalanish samaradorligida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlar quyidagilardir:

1. Maqsadlarni belgilash:Marketing strategiyasini aniqlab olishdan oldin, kutilayotgan natijalarni belgilash muhimdir. Bu, auditoriyaga erishish, brend tanishini oshirish yoki sotuvlarni ko‘paytirishga qaratilgan imkoniyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

2. Auditoriyani tahlil qilish:Raqamli marketing samaradorligini oshirish uchun, maqsadli auditoriya kimligini va ularning xulq-atvorini tushunish kerak. Demografik xususiyatlar, qiziqishlar va onlayn faoliyatlarini o‘rganish foydali bo‘ladi.

3. Platformalar tanlovi:Har bir raqamli platforma (ijtimoiy tarmoqlar, email marketing, veb-saytlar) o‘zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Yangiliklarni kuzatib borish va strategiyani mos platformaga qarab o‘zgartirish mumkin.

4. Kontent strategiyasi:Mijozlarga qiziqarli va foydali kontent taqdim etish, brendning qadrini oshiradi. Har bir platforma uchun mos va interaktiv kontent yaratilishi lozim.

5. Reklama va targeting:Raqamli reklamalarni samarali qilish uchun targeting imkoniyatlaridan foydalaning. Bu, maqsadli auditoriyani aniq jalashtirish va ularga mos ravishda reklama qilish imkonini beradi.

6. Samardorlikni o‘lchash:Har bir kampaniyaning samaradorligini o‘lchash uchun analitik vositalardan foydalanmoqda. Real vaqt rejimida natijalarni kuzatish, strategiyani yangilashga imkon yaratadi.

7. Innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar:AI, big data va mobil texnologiyalari kabi yangi texnologiyalarni marketing strategiyasiga joriy qilish orqali raqobatda ustunlikka ega bo‘lishi mumkin.

8. Mijoz bilan muloqot:Foydalanuvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotda bo‘lish, ularning fikrlarini olish va shuni hisobga olib strategiyalarni o‘zgartirish juda muhimdir.

9. Xavfsizlik va maxfiylik:Raqamli marketingda mijozlarning shaxsiy ma‘lumotlarini himoyalash va xavfsizligini ta‘minlash uchun barcha kerakli choralarни ko‘ringda yordam beradi.

10. Trendlarni kuzatish:Marketing dunyosi juda tez o‘zgaradi, shuning uchun zamonaviy trendlarni kuzatishga va o‘z strategiyalarigizni muvofiqlashtirishda zarur hisoblanadi.

Raqamli marketing strategiyalarida asosiy platformalar sifatida ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, email marketing va onlayn reklama ko‘rsatiladi. Ular har biri o‘z auditoriyasiga mo‘ljallangan va maqsadlarni aniq belgilab olishda yordam beradi.

Global marketingda raqamli platformalardan foydalangan bir qator kompaniyalar o‘zining samarali strategiyalari orqali diqqatga sazovor yutuqlarga erishdi. Quyidagi kompaniyalar bularga misol bo‘ladi: Nike, Coca-Cola, Amazon, Apple Peloton, Zalando, H&M. Bu kompaniyalar raqamli platformalarni innovatsion yondashuvlar bilan birlashtirib, global marketingda o‘z o‘rnini mustahkamlashga va iste‘molchilar bilan mustahkam aloqalar o‘rnativishga muvaffaq bo‘lishdi.

Xulosa shuki, raqamli platformalar orqali global auditoriyaga ta’sir etish, marketing strategiyalarini yanada samarali va foydali qilish imkonini beradi. Raqamli platformalarning



rivojlanishi iste'molchilarning xohishlarini osonlikcha o'rganishga, mahsulot turlari ortishiga, zararning pasayishiga, mahsulotlar global miqqiyosda tez va oson tanilishiga, asosiysi esa mahsulot turi va narxlarning har qanday aholi qatlami uchun mos ravishda bo'lishiga yordam bermoqda. Bulardan kelib chiqqan holda marketing strategiyalari va doimiy o'zgaruvchan raqamli iqtisodiyotda iste'molchilarning tanlovlari o'rtasidagi simbiotik munosabatlarning zamonaviy nuqtayi nazarini sintez qilishda va kelajakdagi tadqiqot harakatlarida va strategik biznes qarorlarda asos yaratadi.

### Foydalaniman dabiyotlar:

1. Sh.J. Ergashxodjayeva. Innovatsion marketing. O'quv qo'llanma. — T.: Iqtisodiyot, 2019. 151 b.
2. Rakesh Mohan Joshi, 2009. "International Marketing Google Books 2009-pp24



### SOLIQ-BYUDJET TIZIMIDA BIRIKTIRILGAN VA TARTIBGA SOLUVCHI SOLIQLARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY ASOSLARI

Turopova Nigora Xolmurod qizi  
Termiz Davlat Universiteti erkin tadqiqodchisi  
Telefon raqami: 998910787770  
Email:[nigoraturopova92@gmail.com](mailto:nigoraturopova92@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ma'lumki, barcha davatlarda soliq siyosati davlat moliyaviy tizimining muhim elementi bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir davlat o'ziga xos soliq tizimiga ega bo'lib, u iqtisodiyotning xususiyatlariga, siyosiy tuzumga va boshqa omillarga qarab shakllanadi. Ushbu tezisda biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari o'r ganiladi, va tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Soliq-byudjet tizimi, biriktirilgan soliqlar, statistika, natija, tartibga soluvchi, davlat, mahalliy, moliya


Dunyoda moliya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan mahalliy moliya(budgetlar)<sup>1</sup>ni shakllantirish, ularning mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash masalalariga doimiy ravishda juda katta e'tibor berib kelinmoqda. Zero, hayotga tadbiq etilayotgan davlat siyosatining muvaffaqiyati va aksincha, uning muvaffaqiyatsizligi hamda shularga mos ravishda hukumatning taqdiri, ko'p jihatdan, ana shunga bevosita bog'liq.

Soliq-byudjet tizimini tashkil etish va uni amalga oshirishda turlicha yo'llardan foydalilanadi. Bu yo'llar ma'lum bir iqtisodiy zarurat tufayli sodir bo'ladi. Umuman olib qaralganda dunyo amaliyotida soliqlarni turlicha guruhlash asosida ular undirib kelinadi. Shundaylardan biri bu-umum davlat va mahalliy soliqlar (federal va shtat (municipial) soliqlar)ga bo'linishidir. Soliqlarning bunday bo'linishi aslida byudjet tizimining qurilmasiga bog'liq bo'ladi. Agar, byudjet tizimi ikki pog'anali bo'lsa, ya'ni respublika va mahalliy byudjetlardan iborat bo'lsa, o'z navbatida soliqlarning guruhlanishi va ularning byudjetga yo'naltirilishi umum davlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Agar, davlatlarning tuzilishiga qarab unitar, federal va yakkaxokimlikka asoslanganligiga qarab byudjet tizimi ham shunday shakllanadi. Masalan, Federal tizimga asoslangan davlatlar, jumladan, AQSh, Rossiya, Kanada va boshqa shu kabi davatlarda byudjet tizimi ham uch pog'anali hisoblanadi hamda soliq tizimi ham unga muvofiq ravishda shunday undiriladi.

Soliq-byudjet tizimini tashkil etish va uni amalga oshirishda turlicha yo'llardan foydalilanadi. Bu yo'llar ma'lum bir iqtisodiy zarurat tufayli sodir bo'ladi. Umuman olib qaralganda dunyo amaliyotida soliqlarni turlicha guruhlash asosida ular undirib kelinadi. Shundaylardan biri bu-umum davlat va mahalliy soliqlar (federal va shtat (municipial) soliqlar)ga bo'linishidir. Soliqlarning bunday bo'linishi aslida byudjet tizimining qurilmasiga bog'liq bo'ladi. Agar, byudjet tizimi ikki pog'anali bo'lsa, ya'ni respublika va mahalliy byudjetlardan iborat bo'lsa, o'z navbatida soliqlarning guruhlanishi va ularning byudjetga yo'naltirilishi umum davlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Agar, davlatlarning tuzilishiga qarab unitar, federal va yakkaxokimlikka asoslanganligiga qarab byudjet tizimi ham shunday shakllanadi. Masalan, Federal tizimga asoslangan davlatlar, jumladan, AQSh, Rossiya, Kanada va boshqa shu kabi davatlarda byudjet tizimi ham uch pog'anali hisoblanadi hamda soliq tizimi ham unga muvofiq ravishda shunday undiriladi.

Bundan tashqari, unitar davlatlar ma'muriy-hududiy birliklarining markaziy hokimiyat organlariga bo'ysunish darajasiga ko'ra guruhlanadi, masalan, markazlashgan unitar davlat - bu mustaqilligi minimal darajadagi markazdan tashkil topgan mahalliy hokimiyatlarning qat'iy bo'ysunishi shaklida mavjud bo'ladi, bu kabi davatlarga Indoneziya, Mo'g'uliston va Tailand kabilalar kiradiki, ularning bu xususiyatlari byudjet-soliq tizimining shakliga ham ta'sir qiladi, ya'nik, byudjet-soliq siyosati va uning strukturasi hududlarning moliyaviy mustaqilligi ancha cheklangan holatda bo'ladi. Buyuk Britaniya, Shvesiya, Yaponiya kabi davatlarning byudjet-soliq tizimi tuzilishi mohiyati jihatdan o'ziga xos bo'lib, mahalliy hokimliklarning moliyaviy mustaqilligi ancha yuqori bo'lib, ular bevosita milliy organlarga bo'ysunmaysliklari bilan, lekin ular hisobdorligi bilan ajralib turadi, bu tuzilmani odatda markazlashtirilmagan unitar davlat tizimiga asoslangan davlat qatoriga kiritishadi.

<sup>1</sup> "Maxalliy budget" tushunchasi xalqaro amaliyotda "munitsipalitetlar budgeti", "kantonlar budgeti", "provinsiyalar budgeti", "prefekturalar budgeti", "shtatlar budgeti", "yerlar budgeti" va boshqa ko'rinishlarga ega.


**Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy negizi****1.1.-rasm. Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy negizi<sup>1</sup>**

Nazariy jihatdan olganda davlatning tuzilish shakli uning boshqaruvi nuqtai nazaridan ma'muriy-hududiy jihatdan shakllanadi, bunda davlat yoki ittifoq (federatsiya) tashkil etuvchi davlatlarni ma'muriy-hududiy tashkil etish (tuzilmasi, tuzilishi) usuli sifatida qaraladi. “Davlatlarning tuzilishi bo'yicha uning ichki tuzilishini, uning tarkibiy qismlarga bo'linishini va ularning o'zлари va markaz o'rtaqidagi munosabatlarnining tamoyillarini belgilaydi. Federal davlatning hududiy tuzilishini tavsiflash uchun “siyosiy-hududiy tuzilma” atamasi ko'proq qo'llaniladi, chunki u shtatning hududiy qismlari o'rtaida ma'lum bir mustaqillik mayjudligini anglatadi. Shu bilan birga, unitar davlatga nisbatan, unitar davlatning davlat hokimiyati organlarining hududiy tuzilishini tavsiflovchi “ma'muriy-hududiy tuzilma” atamasi ko'proq qo'llaniladi. Respublika va mahalliy budjetlarning prognozdan yuqori tushumlarining yarmini infratuzilma ob'ektlarini rivojlantirishga yo'naltirish Moliya vazirligi va hokimlar uchun joriy yildagi asosiy vazifalardan biri bo'lishi kerak.<sup>2</sup> Davlat budjetining mavqeini yanada oshirish hukumatimizning budget-soliq siyosatini samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi shubhasizdir, bu borada mahalliy budjetlarni yanada qo'llab-quvvatlashga harakat qilinmoqda.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: 2020 yil 24 yanvar.



**Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimining zaruriy omillari**



**1.2-rasm. Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimining zaruriy omillari<sup>1</sup>.**

Yuqorida keltirilgan rasmdan ko'rish mumkinki, biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimining zaruriy omillarini uch guruhga bo'lish mumkin. Bularning ichida eng muhimi barcha davlatlar uchun umumiyl xos xususiyat bu hududlarning notekis rivojlanishi bo'lib, ushbu omil tartibga soluvchi soliqlarni zarurat qilib qo'yadigan eng muhimi hisoblanadi. Davlat o'zining milliy rivojlanish dasturlari orqali hududlarning rivojlanishini yaqinlashtirishga harakat qiladi. Ammo, resurslarning notekis taqsimlanishi, ayniqsa, tabiiy boyliklarning mavjudligi yoki yo'qligi o'sha hududning rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. O'zbekiston misolida qaraydigan bo'lsak, kon-metallurgiya sanoati uchun muhim xom-ashyo joylashgan Navoiy, Toshkent viloyati va Qashqadaryo viloyatlarining sanoat bo'yicha o'rta aholi jon boshiga ishalb chiqarishi bo'yicha yuqori hisoblanadi, Toshkent shahri esa infratuzilmaning rivojlanishi yuqoriligi uchun mahalliy byudjetga soliq tushumlarini jalg qilishda katta imkoniyatlarga egadir.

Shu yerda shu narsani ham ta'kidlash joizki, biriktirilgan soliqlarning mahalliy byudjetlarga kelib tushishi va taqsimlanishida soliq siyosati ham katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi, suyultirilgan va sifilgan gaz iste'moliga soliq bu mahalliy soliq bo'lib, qaysi hududda yoqilg'i yoki gaz quyish shaxobchalari ko'p bo'lsa, o'sha hududga ushbu soliq summasi tushib, soliq notekis taqsimlanar edi, bunda hududning infratuzilmasining (ayniqsa yoqilg'i quyish) rivojlangan darajasiga bog'liq bo'lib qolgan edi. Keyinchalik transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi hamda gazdan foydalanganlik uchun jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning o'rniaga aksiz solig'i joriy etildiki, buning natijasida aksiz solig'i umum davlat

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.



soliq‘i hisoblanganligi sababli, mahalliy byudjetlarning biriktirilgan soliqlari miqdoriy va soliq tushumi bo‘yicha salohiyati pasayishiga olib keldi.

**Umumiy xulosa** Shuni ta’kidlash kerakki, dunyo amaliyotida gibrildi soliq tizimi aksariyat davlatlarda qo‘llaniladiki, bu hali biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimi ahamiyatli ekanligidan daloalat beradi. Bu gibrildi soliq tizimlari ham biriktirilgan, ham tartibga soluvchi elementlarni o‘z ichiga oladi, hukumatlar byudjetlarni muvozanatlash, muayyan xatti-harakatlarni rag‘batlantirish yoki assosiy tarmoqlarni moliyalashtirish uchun turli soliq vositalaridan foydalanishga imkon yaratadi. Bunday soliqlarning samaradorligi ularning belgilangan maqsadlarga erishish uchun qanchalik to‘g‘ri ishlab chiqilganligi va amalga oshirilishiga ham bog‘liq bo‘ladi, bugungi kunda mahalliy budgetlarni tartibga soluvchi soliqlar orqali tartiblash mexanizmlarini qaytadan isloh qilish kerak, buning uchun esa, har bir hududning moliyaviy salohiyati va moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj balansini o‘rta va uzoq muddatga ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz . – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi “Budget kodeksi”. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2018-y., 03/18/488/1579-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.04.2018 y., 03/18/472/1050-son.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonuni. 1993 yil 2 sentabr.
6. O‘zbekiston Respublikasining «2024 yil uchun Davlat budgeti to‘g‘risida»gi Qonuni. 2023 yil 20 dekabr.
7. Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2008. -287b.;
- 8 Vahobov A., Malikov T. Moliya. Darslik. – T.: Noshir, 2011. – 712 b.



### AUDITORLIK TEKSHIRUVLARINI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI.

Lola Ergashovna  
1-kurs Magistrant Ataxonova  
Urganch davlat Universiteti

**Annotatsiya.** Maqolada auditorlik tekshiruvlarini raqamlashtirish hamda ularning iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Mintaqada auditorlik tekshiruvlarini raqamlashtirishning ustivor yo'nalishlari va natijalari aniqlangan.

**Аннотация.** В статье анализируется цифровизация проверок и их значение для экономического роста. Определены приоритетные направления и результаты цифровизации проверок в регионе.

**Annotation.** The article analyzes the digitization of audits and their importance in economic growth. Priority directions and results of digitization of audits in the region have been determined.

**Kalit so'zlar:** auditorlik tekshiruvlari, raqamlashtirish, innovatsion rivojlanish, kasb rivojlanishi, ishchilar qisqarishi, investitsiya.

**Ключевые слова:** аудит, цифровизация, инновационное развитие, повышение квалификации, сокращение штатов, инвестиции.

**Keywords:** audits, digitization, innovative development, professional development, downsizing, investment.

Hozirgi kunda barcha sohalarni raqamlashtirish hamda uni takomillashtirish kabi dolzorb masalar oldinga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldag'i "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 5-bandida 2024-yil 1-martdan boshlab "Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi" dasturi joriy etilishi ko'zda tutilgan. Bunda ko'zda tutilgan asosiy maqsad malakali va yetuk kadrlar tayyorlash va barcha sohalarni raqamlashtirish hisoblanadi. Bizga raqamlashtirish nimaga kerak? degan savol paydo bo'ladi. Raqamlashtirish bugungi kunda faol muhokama qilinayotgan qiziqarli va dolzorb mavzudir. Katta ma'lumotlar va tahlillar, blokcheyn, sun'iy intellekt va robot jarayonlarini avtomatlashtirish eng rivojlanayotgan texnologiyalardan biridir. Auditorlik tekshiruvlari — bu tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarini va boshqa operatsiyalarini to'g'ri va aniq baholash maqsadida amalga oshiriladigan nazorat jarayonidir. Hozirgi kunda texnologiyaning rivojlanishi auditorlik sohasiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar auditorlik jarayonlarini tezlashtirish, ishonchlilikni oshirish va inson xatolarini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, raqamlashtirish auditorlar va mijozlar o'rtafiga o'zaro aloqalarni yanada samarali va shaffof qilish imkoniyatini taqdim etadi.

Auditorlik tekshiruvlari odatda bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi: tayyorlov, tekshirish, hujjatlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va hisobot yozish. Ushbu jarayonlarda ko'pgina inson tomonidan qo'lda bajariladigan ishlar mavjud bo'lib, ular vaqtini talab qiladi va ba'zida xatolarga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalarni auditorlikda qo'llash auditorlar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Ma'lumotlarni avtomatik yig'ish va tahlil qilish: Ma'lumotlar bazalaridan avtomatik tarzda ma'lumotlarni olish va ularni tahlil qilish imkoniyati auditorlarga yanada tezkor va to'liq tekshiruv o'tkazish imkonini beradi. Bu jarayonlar sun'iy intellekt va mashina o'rganish texnologiyalari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Avtomatlashtirilgan xatoliklarni aniqlash: Ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan anomaliyalarni avtomatik tarzda aniqlash va tahlil qilish auditorlik ishining samaradorligini oshiradi.

Big Data va Analitika: Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish auditorlar uchun yanada chuqurroq va aniqroq xulosalar chiqarishga yordam beradi. "Big Data" texnologiyalari auditorlarga biznes jarayonlari va moliyaviy holatni yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Cloud (bulut) texnologiyalari auditorlik tekshiruvlarini yanada samarali qilish uchun muhim vosita bo'lishi mumkin. Cloud platformalarida auditorlik jarayonlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni saqlash, boshqarish va ishlov berish imkoniyatlari mavjud. Bulutli tizimlar auditorlarga real vaqtida hisobotlarni kuzatish, mijozlar bilan samarali muloqot qilish va ularning operatsiyalarini onlayn tarzda tekshirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt va mashina o'rganish texnologiyalarini auditorlikda qo'llash auditorlarga yirik ma'lumotlar bazalarida yashirin xatoliklarni va moliyaviy ta'sirlarni



aniqlash imkoniyatini beradi. Masalan, AI (sun'iy intellekt) yordamida ma'lumotlar tahlil qilinadi, va tizim o'z-o'zini takomillashtirib, kelajakda xatoliklarni avtomatik ravishda aniqlash imkonini yaratadi.

Bugungi kunda auditorlik kompaniyalari tomonidan raqamli audit vositalaridan foydalanish kengaymoqda. Bu vositalar orasida avtomatlashtirilgan audit tizimlari, moliyaviy tahlil dasturlari, va raqamli tekshiruvlar uchun maxsus ishlab chiqilgan dasturlar mavjud. Ushbu vositalar auditorlarga o'z ishlarini tez va samarali bajarishga yordam beradi.

**AuditSoft:** Bu dastur auditorlar uchun maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, ma'lumotlar tahlilini avtomatlashtirishga, audit jarayonlarini tezlashtirishga va hisobotlarni aniq va to'g'ri qilishga yordam beradi.

**CaseWare:** Bu yana bir mashhur audit vositasi bo'lib, u raqamli auditlarni o'tkazish, hujjatlarni avtomatik tahlil qilish va audit jarayonlarini soddalashtirish imkonini beradi.

Blockchain texnologiyasi auditorlik jarayonlarida hisob-kitoblarni tasdiqlash va tranzaksiyalarni tekshirishda ishonchlilikni oshirishga yordam beradi. Blockchainning markazlashtirilmagan tabiati auditorlarga tranzaktsiyalarni yaxshiroq va tezkor tekshirish imkoniyatini yaratadi, bu esa xatoliklar va firibgarliklarni kamaytiradi. Raqamli audit hisobotlari an'anaviy auditorlik hisobotlariga nisbatan ko'proq interaktiv va o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Auditorlar hisobotlarni elektron shaklda taqdim etib, mijozlarga real vaqtda tahlillarni taqdim etish imkonini yaratadilar.

Ko'plab tashkilotlar va auditorlar yangi texnologiyalarni joriy etishda qarshilik ko'rsatishi mumkin. Bu qarshilikning asosiy sababi texnologiyani o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar va xodimlar o'rtaidagi tajriba etishmovchiligi bo'lishi mumkin. Raqamli auditorlik jarayonlari bilan bog'liq eng katta xavf — bu ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi. Raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi bilan ma'lumotlar uzatish va saqlash jarayonida xavf-xatarlar paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun raqamli auditorlikni joriy etishdan oldin, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rishi zarur.

Texnologiyani joriy qilishning iqtisodiy jihatlari ham muhim ahamiyatga ega. Dasturiy ta'minot, bulutli tizimlar va boshqa raqamli vositalar uchun katta sarmoya talab qilinadi. Bu esa kichik va o'rta biznes uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Auditorlik sohasida raqamlashtirish tendentsiyasi davom etmoqda. Keltirilgan texnologiyalarni joriy etish auditorlarga samaraliroq va aniqroq tekshiruvlar o'tkazish imkonini yaratadi. Kelajakda sun'iy intellekt, blokcheyn, va big data texnologiyalari auditorlik jarayonlariga to'liq kirib borishi mumkin. Bu esa nafaqat tekshiruv jarayonlarini osonlashtiradi, balki auditorlikning sifatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, auditorlik tekshiruvlarini raqamlashtirish — bu auditorlik sohasidagi asosiy yangiliklardan biri bo'lib, u nafaqat jarayonlarni tezlashtiradi, balki tekshiruvlarning aniq va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Biroq, texnologiyalarni joriy etishda duch kelinishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va xavflarni hisobga olish zarur. Raqamlashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlari texnologiyalarga sarmoya kiritishi, xodimlarni tayyorlashi va xavfsizlik choralariga alohida e'tibor qaratishlari kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Houghton, R., & Edwards, T. (2021). *Digital Transformation in Audit: The Role of Artificial Intelligence and Big Data*. Journal of Accounting & Technology, 33(2), 45-67.
2. Smith, J. M., & Lee, A. (2020). \*Audit



Aminboyeva Fotima Rajabboy qizi,  
UrDU M-241 Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada valyuta kursi chunchasi va uning shakillariga ta'sir qiluvchi omillar, valyuta xalqaro iqtisodiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi, milliy valyuta importda rol oynashi va valyuta kursiga inflatsiyaning ta'siri kabi masalalar ko'rsatib otilgan.

**Аннотация:** В статье показаны факторы, влияющие на валютный курс и его формы, влияние валюты на международные экономические отношения, роль национальной валюты в импорте, влияние инфляции на валютный курс.

**Abstract:** The article discusses issues such as the exchange rate and factors affecting its shape, the impact of currency on international economic relations, the role of the national currency in imports, and the impact of inflation on the exchange rate.

**Kalit so'zlar:** Valyuta, inflatsiya, valyuta kursi, xalqaro kreditorlar, milliy valyuta, stavkalar hajmi, valyuta siyosati, spekulatsiya, deficitsit, profitsit.

**Ключевые слова:** Валюта, инфляция, валютный курс, международные кредиторы, национальная валюта, размер ставок, валютная политика, спекуляции, дефицит, профицит.

**Key words:** Currency, inflation, exchange rate, international creditors, national currency, rates, monetary policy, speculation, deficit, surplus.

Xalqaro valyuta munosabatlarining eng muhim elementlaridan biri bu valyuta kursidir. Aslida, bu milliy valyutaning narxini anglatadi va bu narx chet el valyutasida ifodalanadi. Valyuta kursi bir valyutaning boshqasiga nisbatan qiymatini anglatadi va uning shakllanishiga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Ulardan asosiyлari iqtisodiy sharoitlar, jumladan inflatsiya darajasi, foiz stavkalari va mamlakatlarning umumiy iqtisodiy barqarorligi. Siyosiy o'zgarishlar va qonunchilikdagi o'zgarishlar ham muhim rol o'yndaydi, chunki ular investorlar va iste'molchilarining valyutaga bo'lgan ishonchini o'zgartirishi mumkin.

Valyuta kursi xalqaro iqtisodiy munosabatlarga to'lov va hisob-kitob xizmatida katta rol o'yndaydi. Ularning sub'ektlari o'zaro valyuta savdosida qatnashadilar. Xususan, eksportchilar va xalqaro kreditorlar olingan chet el valyutasini milliy valyutaga o'zgartiradilar. Aksincha, importchilar va xalqaro qarz oluvchilar o'z majburiyatlarini bajarish uchun (etkazib berilgan tovarlarni to'lash yoki qarzni to'lash uchun) milliy valyutaga xorijiy valyutani sotib olishadi.

Valyuta kursi yordamida xalqaro iqtisodiy munosabatlar sub'ektlari jahon va milliy bozorlardagi narxlarni taqqoslash, shuningdek, mamlakatlarni turli nuqtai nazardan tavsiflovchi turli xil qiymat ko'rsatkichlarini taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, davlatlar, banklar, korporatsiyalar valyuta kursiga asoslanib, vaqtqi-vaqt bilan chet el valyutasida ochilgan hisobvaraqlarini qayta baholaydilar. Valyuta kursining tashqi ifodalari koefitsient bo'lib, unga ko'ra bitta valyutani boshqasiga hisoblash mumkin. Ushbu koefitsientning qiymati talab va taklifning valyuta bozoridagi o'zaro ta'sir natijasida aniqlanadi. Valyuta kurslari firma va banklarning xorijiy valyutadagi hisobvaraqlarini davriy qayta baholashga yordam beradi [1].

Valyuta kursining qiymati valyutalarning sotib olish qobiliyatida yotadi. Bu ma'lum bir mamlakatda tovarlar, xizmatlar, investitsiyalar narxlarining o'rtacha og'irlilikdagi darajasini anglatadi. Milliy valyutalarning qiymat nisbati ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonida shakllanadi. Bu dunyoning turli mamlakatlaridagi barcha turdag'i mahsulotlarning sotuvchilarini va xaridorlarini taqqoslashda namoyon bo'ldi. Valyuta kursi qiymat qonunining amal qilishiga bo'ysunadi. Gap shundaki, tovarlarning jahon narxlari xalqaro ishlab chiqarish narxiga (qiymat o'chovi) asoslanadi. Bu esa o'z navbatida tovarlarni jahon bozoriga eksport qiluvchi mamlakatlarda ishlab chiqarishning milliy narxlariga asoslanadi. Shunday qilib, valyuta kursi zamona viy bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan va ishlab chiqaruvchilar va jahon bozori o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi iqtisodiy toifadir. Valyuta kursining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar Valyuta kursining o'ziga xos xususiyati uning multifaktorialligidir. Bu shuni anglatadiki, valyuta kursini shakllantirish jarayoni turli xil tabiatdagi ko'plab kuchlarga ta'sir qiladi. Xususan, valyuta kursini shakllantirishda mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining, birinchi navbatda, yalpi ichki mahsulot dinamikasining roli katta.

Mamlakat va dunyodagi umumiy iqtisodiy va siyosiy vaziyatga qarab, valyuta kursini shakllantirishning turli omillari doimiy ravishda hal qiluvchi rol o'yndaydi. Ularning asosiyлari



quyidagilardan iborat:

- inflyatsiya darajasi;
- to‘lov balansi holati;
- foiz stavkalari hajmi;
- valyuta bozorlari holati;
- xalqaro hisob-kitoblarda valyutadan foydalanishning mashhurligi;
- valyutaga ishonch darajasi;
- davlatning valyuta siyosati.

Valyuta kursiga inflyatsiya darajasi katta ta’sir ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, valyuta kurslari ularni sotib olishga bog‘liq. Boshqa barcha narsalar teng bo‘lsa, mamlakatda inflyatsiya darajasining osishi milliy valyuta kursining pasayishiga olib keladi. Aksincha, inflyatsiya darajasining pasayishi kursning osishiga yordam beradi. Inflyatsiya va valyuta kursining dinamikasi o‘rtasida eksport narxlari asosida kursni hisoblashda eng yaqin bog‘liklik namoyon boladi.

Import narxlari, o‘z navbatida, ko‘p jihatdan valyuta kursinimg dinamikasiga bog‘liq. Foiz stavkalari xalqaro qisqa muddatli kapital harakatiga ta’sir qiladi. Uning o‘sishi chet el kapitalining kirib kelishini va uning pasayishi chet eldag'i kapitalining kirib kelishini va uning pasayishini chet eldag'i kapitalning chiqib ketishini rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, dunyoning turli mamlakatlari foiz stafkasining farqi foyda olish uchun chet el valyutasi bilan oldi-sotdi operatsiyalarni amalga oshiradi, banklar tomonidan hisobga olinadi. Valyuta bozorlari iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarga tezkor munosabat sezgirlik bilam ajralib turadi. Shu munosabat bilan sezgirlik spekulyatsiyasi va “issiq “pul iqtisodiyotida o‘z-o‘zidan harakat boshlanishi ehtimoli katta. Valyutaning talab va taklifi uning xalqaro hisobkitoblardagi ulushi bilan belgilanadi. Jahon savdosida tolo‘v vositasi safatida valyuta tarqatilgan tagdirda, uning kursi o‘sish tendentsiyasiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni atyishimiz mumkinki, milliy va jahon bozorlarida valyutaga bo‘lgan ishonch darajasi ham valyuta kursining shakllanishiga ta’sir qiladi. Ushbu daraja mamlakatdagi siyosiy vaziyat va uning milliy iqtisodiyotining holati va valyuta kursiga ta’sir ko‘rsatadigan boshqa omillar bilan belgilanadi. Mamlakatdan kelgan salbiy ijtimoiy-iqtisodiy yoki siyosiy yangiliklar fonida uning milliy valyutasi kursi sezilarli darajada pasayishi mumkin. Davlat valyuta siyosatini olib borgan holda milliy valyuta kursini tartibga solishga qodir. Bu monetaristlarning qarashlariga ziddir, ammo valyuta intervensiyanlari o‘tkazish hozirda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida keng tarqagan. Bundan tashqari, savdo balanslari va xalqaro hisob-kitoblar hajmi kursga ta’sir qilishi mumkin. Masalan, ma’lum bir mamlakat savdosidagi defitsit yoki profitsit uning valyutasiga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida uning yo‘nalishiga ta’sir qiladi. Moliya bozorlaridagi spekulasyonlar yana bir murakkablik darajasini qo‘sadi, chunki savdogarlar qisqa muddatli tebranishlarga alohida ahamiyat berishlari mumkin, bu esa yo‘nalishni o‘zgartirishga undaydi. Shunday qilib, valyuta kursi ichki va tashqi o‘zaro ta’sir qiluvchi omillarga bog‘liq bo‘lgan dinamik ko‘rsatkichdir.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник для вузов / Л.Н. Красавина, Д.В. Смыслов, С.А. Былиняк, Т.Д. Валовая, В.Ю. Катасонов, И.Н. Платонова, М.А. Портной, Т.М. Сергеева, А.Л. Смирнов, Ю.С. Столяров, Е.С. Хесин, А.Г. Чумаченко, И.З. Ярыгина; под общ. ред. Л.Н. Красавиной. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2005. - 576 с.

2. <https://bankxizmatlari.uz/oz/rates/>



### MINTAQА IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Raximov T.J.,  
Urganch davlat universiteti  
Iqtisodiyot kafedrasи mudiri,  
PhD, dotsent, mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqа iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish mazmuni va unda eksport salohiyati samaradorligini oshirish masalalari yoritib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar.** Eksport, eksport salohiyati, samaradorlik, mintaqah, barqaror rivojlanish.

Eksport faoliyati korxonalar iqtisodiy faoliyatining bir qismi sifatida rivojlanib bormoqda. Tadbirkorlik subektlarining faoliyatning ushbu sohasiga qiziqishi ortib borayotgani milliy chegaralar doirasida bozorni rivojlantirish imkoniyatlarining kamayishi va istiqbolli tashqi bozorlarni o‘zlashtirish hisobiga moliyaviy natijalarning o‘sish istiqbollari bilan bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda eksport faoliyatini kengaytirish mintaqа iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki, xalqaro hamkorlar bilan o‘zaro hamkorlik natijalaridan foydalanish mahalliy ishlab chiqaruvchilarga faoliyatning sifat jihatidan yangi darajasiga chiqish va ularning faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Biroq, eksport faoliyatini rivojlantirishdan oldin tashqi bozordagi raqobatbardoshlik qobiliyati va eksport salohiyatini baholash lozim. Bu holatda eksport salohiyatidan foydalanishga yetarlicha e’tibor berish talab etiladi. Eksport salohiyati raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni tashqi bozorlarda sotishning yaxlit imkoniyatlarini tavsiflaydi. Doimiy o‘zgarib turadigan bozor xususiyatlari va tashqi savdo aloqalarining kengayishi sharoitida eksport salohiyatidan samarali foydalanish masalalarini hal qilish global miqyosda barqaror rivojlanish muammosini hal qilishga qaratilgan yuqori sifatli boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilishni ta’minlaydi.

Mintaqada eksport salohiyati sanoat ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatining barcha jahbalarini, jumladan uning ichki va tashqi iqtisodiy faoliyatini qamrab oluvchi xo‘jalik jarayonlari tizimiga asoslangan murakkab majmua bo‘lib qaraladi. Shu munosabat bilan eksport salohiyatini rivojlantirish jarayonini har tomonlama o‘rganish mintaqaviy iqtisodiyoning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha xorij va mamlakatimiz olimlari, amaliyotchilarning mumtoz va zamonaviy asarlarini o‘rganishga asoslanadi.

Eksport salohiyati jahon bozorlarida raqobatbardoshlikning ko‘rsatkichi sifatida uning yaratilgan tovarlar va xizmatlarni ularga eksport qilish qobiliyatini aks ettiradi. Binobarin, eksport salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari uni rivojlantirishning strategik muhim jihatini tashkil etadi. Eksport salohiyatini ro‘yobga chiqarish ko‘p jihatdan eksport faoliyatini boshqarishda qo‘llaniladigan usullar samaradorligiga, adekvat rivojlanish strategiyasini shakllantirishga va boshqaruv tuzilmasining moslashuvchanligiga bog‘liq bo‘ladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda eksport salohiyatini rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlari mavjud bo‘ladi:

birinchi yo‘nalish biznes-jarayonlarni tashkil etish va rejalashtirishga tizimli, texnologik yondashuv doirasida amalga oshiriladigan hajmlar, mahsulot va geografik chegaralarni, amalda erishilgan eksport salohiyatini ishlab chiqish, o‘zlashtirilgan eksport tovarlari nuqsonlari va shikoyatlarining oldini olishga asoslanadi;


ikkinci yo‘nalishi esa eksport salohiyatini rivojlantirish sifatida alohida loyihalarni ishlab chiqish asosida amalga oshirilmagan eksport salohiyati unsurlarini aniqlash va eksport faoliyatiga jalb etishga asoslanadi.

Shunga asosan, mintaqada bozorlar va mahsulotlar to‘g‘risida yetarli miqdorda zarur ma’lumotlarni olish orqali sanoat korxonasining yagona eksport salohiyatini rivojlantirish yo‘nalishini ishonch bilan aniqlash mumkin. Natijada, eksport salohiyatini rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlari tanlanadi (1-rasm).

Ushbu rasmga asosan, “rivojlangan eksport bozori - mavjud mahsulot” yo‘nalishi eng yuqori ma’lumotga ega bo‘ladi. “Istiqbolli eksport bozori - yangi mahsulot” yo‘nalishi esa bozor va mahsulot haqida minimal miqdoriy ma’lumotlarga ega bo‘lishni anglatadi. Ma’lumotlarning to‘liqligiga qarab eksport salohiyati tipologiyasining taqdim etishdan kelib chiqadigan bo‘lsak, “rivojlangan eksport bozori - yangi eksport mahsuloti” yo‘nalishi “istiqbolli eksport bozori - mavjud mahsulot”



yo‘nalishiga qaraganda miqdoriy ma’lumotlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Amalda esa, bu sohalarda ma’lumotlar miqdori bir xil bo‘lishi mumkin.



**1-rasm. Eksport salohiyati samaradorligini oshirish yo‘nalishlari**

Mintaqada har bir yo‘nalish maqsadlarini shakllantirishda korxona missiyasiga tayanish kerak. Ikkinchisi esa korxonaning eksport maqsadlariga mos kelmasligi jiddiy oqibatlarga olib kelishi va korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hamda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Eksport salohiyatini rivojlantirishning strategik muqobilini tanlash har qanday boshqaruv mexanizmining asosiy bosqichlaridan biridir. Buning sababi shundaki, eksport salohiyatini rivojlantirish yo‘nalishini noto‘g‘ri tanlash eksportga yo‘naltirilmagan bo‘lsa-da, eksport faoliyati samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Eksport salohiyatini rivojlantirish strategiyasini tanlashda me’yoriy-huquqiy bazani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Shundan so‘ng, eksport salohiyatini rivojlantirish uchun tanlangan strategik variantni amalga oshirish rejasи ishlab chiqiladi. Ushbu bosqichda vazifalarning batafsil tuziladi va ularni amalga oshirish muddatlari.

Shuningdek, ularni amalga oshirish uchun mas’ul shaxslar ko‘rsatiladi. Reja kompaniya rahbariyati tomonidan tasdiqlanganidan keyin uni amalga oshirishni boshlash kerak. Amalga oshirish jarayonida ma’lum vaqt oralig‘ida belgilangan maqsadlarga erishishni nazorat qilish kerak. Maqsadlarga 50 foizdan kam erishilgan taqdirda eksport salohiyatini rivojlantirish yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish va belgilangan maqsadlarni aniqlashtirish zarur.

Bugungi kunda mintaqalarda eksport salohiyatini aniqlash uchun quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olgan ko‘p omilli baholash usullari qo‘llaniladi:

- mavjud ko‘rsatkichlar va so‘rov natijalari asosida korxona imkoniyatlarini ekspert baholash;
- korxonaning eksport salohiyatini tahliliy baholash;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun shaffof baholash tizimini shakllantirish;
- korxonalarни o‘rganish natijalari va ekspertlarning fikrlarini o‘zaro taqqoslash.

Birinchi bosqichda hududiy iqtisodiy salohiyatning umumiyligi salohiyatini, uning raqobatdosh afzallikkulari va kamchiliklarini belgilovchi raqobat omillari tahlil qilinadi. Ikkinci bosqichda mintaqaning eksport majmuasi holatini tavsiflovchi tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy yo‘nalishlari baholanadi [1]. Bu yerda jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyalarini va mintaqaviy tizimning global iqtisodiy aloqalar tarkibidagi o‘rnini hisobga olish kerak. Mintaqaning ichki holatining xususiyatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Bularning barchasi birgalikda hududning eksport salohiyatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Uchinchi bosqichda eksportni kengaytirish va uning tuzilmasini takomillashtirishning mumkin bo‘lgan variantlarini tahlil qilish va bashorat qilish amalga oshiriladi. Eksport siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, uni amalga oshirishning



samarali vositalari tanlab olindi.

To‘rtinchi bosqichda mintaqaning hududiy xususiyatlariga va mintaqaviy iqtisodiyotning holatiga (rivojlanayotgan, barqaror, depressiv, ortda qolayotgan, inqirozli va boshqalar) qarab, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning eng maqbul usullari tanlanadi. Hududiy iqtisodiy tizimning geografik va hududiy xususiyatlariga alohida e’tibor beriladi.

Beshinchi bosqich mintaqada eksportga yo‘naltirilgan sanoat tarmoqlarini, jumladan, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini tanlash orqali hududning eksport salohiyatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga asoslanadi.

Oltinchi bosqich hududning eksport salohiyatini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu yerda sa’y-harakatlar tashqi iqtisodiy faoliyatning aniq dasturlarini amalga oshirish natijalari samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Yettinchi bosqich mintaqaning eksport strategiyasi natijalari samaradorligini baholash, uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlariga erishishni o‘z ichiga oladi. Mintaqaning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda uni amalga oshirish mexanizmini taklif qilish imkonini beradi [2].

Natijada, viloyatning eksport salohiyatini rivojlantirish reklamasini shakllantirish tashqi bozorlarning tegishli segmentlarida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ulushini oshirish uchun eksport tuzilmasini optimallashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Elena V. Shestakova, Rinad M. Prytkov, Liudmila V. Dokashenko, Olga V. Burdyugova, Akzhan M. Sitzhanova, Nadezhda A. Chetverikova. Developing the export potential of a region and their practical approbation. // Opción, Año 35, Especial No.19 (2019). – p. 54.

2. Андреева Е.Л., Малышева Е.В. Теоретические подходы к исследованию экспортного потенциала национальной экономики. // Журнал экономической теории, 2020, Т.17, №2. - с. 266.



### MINTAQADA IJTIMOIY SOHANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI INNOVATSION JIHATLARI

Ro‘zmetov K.,  
Urganch Ranch-texnologiya universiteti  
o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqaga ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirish zarurligi, ahamiyati va innovatsion yo‘nalishlari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Mintaqqa, soha, ijtimoiy soha, innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya.

Hozirgi kunda mintaqaga kambag‘allikni qisqartirish, ish joylari yetishmasligi, tengsizlik, sog‘liq va iqlim o‘zgarishi kabi rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy muammolarga duch keladi. Bu borada mintaqada ijtimoiy muammolarni hal qilish va jamiyat rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan dasturlar va jarayonlarga muhtoj bo‘ladi. Bundan tashqari, mintaqada ijtimoiy barqaror rivojlanish jamiyatni rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatda ijtimoiy innovatsiyalar jamiyat rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Chunki, u ijtimoiy muammolarni hal qiladi va mintaqani barqaror rivojlanishini yaxshilaydi.

Mintaqada ijtimoiy innovatsiyalar barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun ijtimoiy muammolar yoki ekologik muammolar uchun amaliy yechim yoki o‘zgarishlarga ega bo‘lgan jarayon yoki mahsulotni aks ettiradi. Mintaqada ijtimoiy muammolar ko‘p hal qilinsa, jamiyat rivojlanishini qo‘llab-quvvatlanadi. Bu borada mintaqada ijtimoiy innovatsiyalarning jamiyat rivojlanishida turli usullar qo‘llaniladi. Shunga asosan, mintaqani rivojlantirishda ijtimoiy innovatsiyalar quyidagi yo‘nalishlarga asoslanadi.

- yangi imkoniyat yaratish. Ijtimoiy innovatsiyalar mintaqaga uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, innovatsion yechimlar yoki innovatsiyalarni ishlab chiqarish orqali mintaqada ko‘proq ish imkoniyatlari, yanada samarali davlat xizmatlari, ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash xizmatlari, ko‘proq biznes yoki bozor imkoniyatlari va boshqalar shular jumlasidandir. Qabul qilish missiyasi ijtimoiy innovatsiyalar o‘z-o‘zidan yaxshi ekanligi va biznes maqsadlariga qo‘shilganda moliyaviy foyda keltiradi.

- kambag‘allikni qisqartirish. Ijtimoiy innovatsiyalar mintaqada kambag‘allikni qisqartirishdan xalos qilishi mumkin. Kambag‘allik mintaqaga rivojlanishiga ta’sir qiladi. Mintaqada ijtimoiy innovatsiyalar ijtimoiy muammolarni hal qilish, yangi imkoniyatlar yaratish va hokazolar orqali hayot sifatini yaxshilaydi va tengsizlikni kamaytiradi. Bu borada mintaqada ijtimoiy tengsizlik kambag‘allikni qisqartirishga olib keladigan asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

- hamkorlik va ittifoqlar. Ijtimoiy innovatsiyalar mintaqani milliy va xalqaro darajadagi sheriklik va ittifoqlarda ishlashga undashi mumkin. Ijtimoiy innovatsiyalarda qanchalik ko‘p hamkorlik qilinsa va birgalikda ishlansa, ijtimoiy innovatsiyalar shunchalik muvaffaqiyatli va ijtimoiy masalalarni hal qilishda samaraliroq bo‘ladi.

- ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni rag‘batlantirish. Mintaqada ijtimoiy innovatsiyalar barqaror rivojlanish maqsadlariga rioya qilish orqali resurslarga bo‘lgan hozirgi ehtiyoj va kelajak avlodlar ehtiyojlarini muvozanatlash orqali ijtimoiy va ekologik javobgarlikni kuchaytiradi. Inson resurslari, atrof-muhit, tabiat va iqtisodiyotning barqarorligi ijtimoiy innovatsiyalar va jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mintaqada ijtimoiy innovatsiyalar jamiyatga ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni ilgari surishning foydasini tushunishga imkon beradi.

- ijtimoiy o‘zgarish va rivojlanish. Mintaqada ijtimoiy innovatsiyalar ijtimoiy o‘zgarish va rivojlanishning asosiy kalitidir. Ijtimoiy innovatsiyalar hozirgi va keyingi avlodlarga kelajakka ega bo‘lish uchun jamiyatni takomillashtirish yoki o‘zgartirish orqali yaxshiroq yechimlar, yaxshi imkoniyatlar va hayot yaratadi. Ijtimoiy innovatsiyalar kabi loyihalarni amalga oshirish orqali ijtimoiy muammolar va ekologik muammolarni hal qiladi yoki o‘zgartiradi.

Ijtimoiy innovatsiyalar va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin bo‘lgan usullar, vositalar va omillarga asoslanadi. Bunga erishish uchun ijtimoiy innovatsiyalar va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ekspertlar o‘rtasida onlayn so‘rov o‘tkazilishi lozim. Shu munosabat bilan namunani o‘z ichiga olgan ekspertlar ijtimoiy innovatsiyalar va barqarorlikka yo‘naltirilgan masalalarda katta tajribaga ega bo‘ladilar. So‘rov natijasida olingan asosiy tushuncha shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning aksariyati ijtimoiy innovatsion tuzilmalar



yoki mahsulot xizmatlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda o‘z institutlarining asosiy roli va o‘ziga xos mavqeiga e’tibor qaratadilar [1].

Mintaqada ijtimoiy yo‘naltirilgan innovatsion iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini tanlashda nazariya va amaliyotning dolzARB muammolari, algoritmik xarakterga ega bo‘lgan ayrim muammolarni hal qilish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan dolzARB muammolar muqarrar ravishda ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini tanlashda ishtirok etishni taqozo etadi. Uning sezgi bilan bir kishi, hal qiluvchi ustunlik ekspertlar va qaror qabul qiluvchi hukmlarini aniq ifodalash, shuningdek, muammoning tuzilishini aniq ifodalash: unsurlar va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka asoslanadi [2].

Mintaqada qarorning murakkabligi turli va ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab subyektiv va obyektiv omillar, shuningdek, turli maqsadlar va qarama-qarshi manfaatlarga ega bo‘lgan kishilar guruhlari o‘rtasidagi ko‘pgina o‘zaro ta’sirlar bilan tavsiflandi. Bu omillar murosaga kelgan holda, hamma uchun maqbul bo‘lgan muqobil variantlardan birini tanlash ehtimoli yoki mumkin emasligini aniqlaydi. Guruhlar, ularning maqsadlari, mezonlari va xatti-harakatlari ushbu maqsadlar bilan belgilanadigan, muqobil natijalar va ushbu variantlar o‘rtasida taqsimlangan resurslarni ifodalash uchun tizimli bosqichni yaratish kerak. Ya’ni, ushbu bosqich muammoning ierarxiyasini qurishga to‘g‘ri keladi. Bu yerda umumiy maqsad muammoning eng yuqori ierarxiya darajasi bilan belgilanadi.

Mintaqada fokusdan keyin eng muhim mezonlar darajasi kuzatiladi. Mezonlarning har birini kichik mezonlarga bo‘lish mumkin. Pastki mezonlardan keyin muqobillar darajasi keladi va ularning soni katta bo‘lishi mumkin. Muqobillarning ma’lum bir mezonga sifat darajasida mos kelishi muqobillarni juftlik bilan taqqoslash orqali sodir bo‘ladi.

Shunga asosan, mintaqada ijtimoiy innovatsiyalar va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy innovatsiyalar va barqaror rivojlanish jamiyat rivojlanishining muhim asosidir. Ijtimoiy innovatsiyalar va jamiyat rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va tushunish orqali duch kelayotgan ijtimoiy muammolar hal qilinadi. Bu esa jamiyatning rivojlanishiga olib keladi.

Mamlakat uchun an‘anaviy ijtimoiy himoya texnologiyalari, davlat kafolatlari va o‘qitishning klassik shakllaridan tashqari, ruslarning ijodiy qobiliyatlarini va turli xatti-harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy boshqaruvning innovatsion texnologiyalari shakllantirildi. Ushbu yo‘nalishda ekologik turizmning avlodlar davomiyligi va talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshiriladigan ijtimoiy missiyasining asoslariga taalluqli bo‘ladi [3]. Zamonaviy jamiyatda kishilar guruhini mustahkamlash uchun vosita sifatida turizm ijtimoiy roli noyob bo‘lib hisoblanadi. Barcha ilg‘or mamlakatlar iqtisodiyoti oldida turgan asosiy muammo sanoatning ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion-texnik qayta jihozlash va tiklashni ta’minlaydigan tarkibiy qayta qurishga asoslanadi [4]. Bunday qayta qurish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan asosiy omil iqtisodiyotning ta’lim va ilmiy salohiyatining rolini kuchaytirish va tarkibiy va investitsiya tarmoqlarining innovatsion sohasini rivojlantirishdir.

Innovatsiya innovatsion usullarni tadqiq qilish va ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Ya’ni, innovatsion faoliyatni metodologiyasi va tashkil etish masalalarini qamrab oladigan bilim sohasi, uning tadqiqot mavzusi va obyekti bo‘lgan muammolar orasida nisbatan mustaqil bilim sohasi sifatida ijtimoiy innovatsiya muhim o‘rin tutadi. Bu yuqori noaniqlik sharoitida inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy vaziyatning murakkabligiga mos keladigan ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish va rivojlantirishning yangi vositalarini aks ettiradi.

Mazkur maqsadga muvofiq natijalarga erishishning hal qiluvchi va ajralmas shartidir. Subyekt harakatlarida texnologiya tomonidan belgilangan parametrlardan og‘ishlar bo‘lsa, butun jarayon kutilgan natijaga erishish xavfi shunchalik real bo‘ladi. Ijtimoiy faoliyat texnologiyasi uchun ishlab chiqarish texnologiyalariga qaraganda kengroq og‘ishlar diapazoni mumkin. Ammo, birinchi va ikkinchi hollarda og‘ishlar chegaralargacha bo‘lishi mumkin. Undan tashqarida ijodkorlik o‘rniga subyektivlik boshlanadi va boshqaruv samaradorligi pasayadi.

Xulosa shuki, jamoalar, hukumatlar va korxonalar jumladan ijtimoiy o‘zgarishlar va mintaqani rivojlantirish uchun barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun hamkorlik qilishlari va birgalikda ishlashlari kerak. Ushbu taklifdan foydalanish natijasida mintaqada ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirishga qaratilgan smart boshqaruvi modeli tuzilib, ijtimoiy soha korxonalariga xos reja va dasturlarining ishlab chiqilishiga imkon bergan. Shuningdek, mintaqada ijtimoiy sohani barqaror innovatsion rivojlantirish uchun ijtimoiy menejment sohasida innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish lozim.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Walter Leal Filho and etc. Social innovation for sustainable development: assessing current trends. // International Journal of Sustainable Development & World Ecology, <https://doi.org/10.1080/13504509.2021.2013974>. - p. 10.
2. Андреева О.Р., Зайцева И.А., Шутенко В.В. Выбор приоритетных направлений инновационного развития социальной сферы на основе использования метода анализа иерархий. // «Современные научноемкие технологии. Региональное приложение», №4 (36), 2013. - с. 16.
3. Talalayeva G.V. Innovative technology development in the sphere of social management. // Scientific journal European Journal of Natural History, Issue №2, 2008. - pp. 110-112.
4. <https://infourok.ru/statya-innovacionnye-socialnye-tehnologii-4665095.html>



## ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TADQIQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Dilafruz Sarimsakova,  
Namangan davlat universiteti  
Jahon tillar fakulteti, Ingliz tili  
kafedrasi dotsenti (PhD)

**Annotatsiya:** Bo'lajak o'qituvchining tadqiqot faoliyati (Teacher Research) - bu o'z o'quv jarayonini tahlil qilish va o'quvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan innovatsion yechimlarni ishlab chiqish jarayonidir. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning sinf tadqiqotini samarali olib borishda qanday ko'nikmalarini egallashlari lozimligi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** talaba o'qituvchi, sinf tadqiqoti, tadqiqot ko'nikmalarini, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish, reflektiv amaliyot, etiket qoidalari.

**Abstract:** Teacher Research is the process of analyzing one's own teaching process and developing innovative solutions that meet the needs of students. This article analyzes the skills that future teachers need to master to effectively conduct classroom research.

**Keywords:** student teacher, classroom research, research skills, data collection, analysis, reflective practice, etiquette.

Bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi keng doiradagi ilmiy tadqiqotlarda atroficha yoritilgan bo'lib, u pedagogik yondashuvlar, metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'qituvchilarni samarali o'quv faoliyatiga tayyorlash, sinftadqiqotlarini to'g'ri tashkil etish va ularda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Rivojlangan davlatlarda tadqiqot faoliyati keng ma'noda talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga va muayyan bosqichlardan iborat muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatiga yordam beradigan faol o'quv jarayoni sifatida tushuniladi.

Ta'lismizda sinf tadqiqotlarini olib borish o'qituvchilik faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Jumladan, Richard Smith tomonidan ilgari surilgan fikrga ko'ra, bo'lajak o'qituvchi sinf tadqiqoti orqali o'quv jarayonini samarali tashkil etishda mavjud muammolarni aniqlashi, tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishi, natijalarni tahlil qilishi va baholash ko'nikmalarini egallashi lozim [1]. Tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi bo'lajak o'qituvchilarga sinf tadqiqotlarini amalga oshirish, tahlil qilish va kontekstga mos metodlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga qaratilgan.

Van Katwijk, L.Jansen va Van Veen tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarni o'quv faoliyatini tashkil etishda sinf tadqiqotlarini qo'llab-quvvatlash, va ularda tanqidiy fikrlashi, muammolarni aniqlashi va innovatsion yondashuvlarni qo'llashi kabi qobiliyatlarini rivojlantirishini ta'kidlaydi [2]. Ya'ni, tadqiqot jarayonida o'qituvchilar reflektiv amaliyotlar orqali o'quv jarayonini chuqurroq tahlil qilib, sinfda yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarni tanqidiy va tahliliy asosda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish natijasida bo'lajak o'qituvchida kasbiy identifikatsiya (professional identity) shakllanadi, o'z kasbiga nisbatan ishonchni oshiradi va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi.

Sinf tadqiqoti bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat metodik yondoshuvni amaliyotga tadbiq etishga, balki ularning o'z tajribalarini tahlil qilish va o'qitish tajribalarini rivojlantirishga undaydi. Bo'lajak o'quvchilar sinf izlanishlarni reja asosida tashkil etishda tadqiqot o'z maqsadini belgilash va muammolarni hal etishga qaratilgan tadqiqot savollarini shakllantira olish, sinf tadqiqoti uchun turli tadqiqot metodlari (sifat, miqdoriy yoki aralash metodlar) qanday qo'llash, ma'lumot yig'ish usullarini tanlash, tadqiqot muddatini belgilash, ma'lumotlarni tahlil qilish eng muhim qadamlar bo'lib, bu jarayonni muvaffaqiyatlidir amalga oshirish uchun bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchi-tadqiqotchi tadqiqot jarayonida etika qoidalariiga rioya qilishi, ya'ni



maktab direktori, o‘quvchilar va ularning ota-onalaridan rozilik olishi kabi jarayonlardan habardor bo‘lishi lozim.

Tadqiqot ko’nikmalarini rivojlantirishda talabalarga tadqiqot metodlari va uslublari bo‘yicha nazariy bilim berish, tadqiqot ishlarning tuzilishi va mazmunini tushuntirish, nazariy bilimlarni amaliyat bilan bog’lash, kichik tadqiqot loyihalarida ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish, ilmiy maqola va tezislar yozish bo‘yicha amaliy ko’nikmalar berish, aniq yo’riqnomalar va namunalar asosida ish olib borish, tadqiqot ishlarini keng jamoatchilikka taqdim etish yo’llarini o’rgatish, ularning taqdimot ko’nikmalarini rivojlantirish, tajribali ilmiy rahbarlar va murabbiylar yordamida tadqiqot faoliyatiga yo’naltirish, horijiy adabiyotlar, elektron ma’lumotlar bazalari va laboratoriyalar bilan ishslash imkoniyatlarini yaratish ularda tizimli va samarali faoliyat yuritish imkonini beradi [3].

Shuningdek, talaba-o’qituvchilarning tadqiqot ko’nikmalarini rivojlantirish amaliyotida ayrim qiyinchiliklar mavjud. Birinchi navbatda, ayrim talaba-o’qituvchilarni sinf tadqiqoti faoliyatiga yetarlicha tayyor bo‘lmasligi, tadqiqot metodikasini o’rgatishda resurslar yetishmasligi, hamda talabalarni tadqiqot faoliyatiga doir yangi metodlar bilan tanishtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, bo’lajak o’qituvchilarning tadqiqot faoliyatiga tayyorlanishda ularga sinf tadqiqotini amalga oshirishning amaliy metodlarini o’rgatish zarur. Bu kabi muammolarni hal qilishda ta’lim tizimida metodik yordam ko’rsatish, bo’lajak o’qituvchilarning tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish bo‘yicha muntazam seminarlar va treninglar bilan ta’minlash lozim.

Demak, bo’lajak o’qituvchilarda tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirish pedagogik jarayonning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, OTM o’quv dasturlariga sinfda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish etish metodikasini o’qitishni dars rejalariga kiritish, bo’lajak o’qituvchilarni doimiy ravishda tadqiqot faoliyatga jalb qilishga qaratilgan amaliy topshiriqlar bilan boyitish zarur. Bo’lajak o’qituvchilarda tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirish nafaqat ularning keljakdagi kasbiy rivojlanishiga, balki uzoq muddatli kasbiy muvaffaqiyatiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati:

- Smith, R., & Rebolledo, P. (2018). *A handbook for exploratory action research*. London: British Council.
- Van Katwijk, L., Jansen, E., & Van Veen, K. (2023). Pre-service teacher research: A way to future-proof teachers? *European Journal of Teacher Education*, 46(3), 435e455. <https://doi.org/10.1080/02619768.2021.1928070>
- Саримсакова, Д. 2024. Понимание исследований учителей: преимущества и заблуждения. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 2, 5 (сен. 2024), 23–30. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5-pp23-30>.



### О‘SMIR YOSHIDAGI BOLALARING KROSSMADANIY TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH

Isxakova Shahlo Ismoilovna

Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti doktarantti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oilaviy kontekstda o‘smirlarda krossmadaniy in’ikoslar qanday shakllanishining psixologik jihatlarini o‘rganadi, madaniy o‘ziga xoslik, ota-onalarning ta’siri, muloqot uslublari va globallashuv ta’siri kabi omillarni o‘rganadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘smir, o‘smirlilik, oila, muhit, munosabat, krossmadaniy.

Globallashib borayotgan dunyoda oilaviy hayot dinamikasiga madaniyatlararo o‘zaro ta’sirlar chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Rivojlanishning muhim bosqichida bo‘lgan o‘smirlar o‘zlarining shaxsiyatlarini va dunyoqarashlarini shakllantirganda, bu ta’sirlarga ayniqsa sezgir.

Oila ko‘pincha madaniy me’yorlar va qadriyatlar uzatiladigan birinchi joydir. Bolalar yoshligidanoq ota-onalarning ko‘rsatmasi, an’analari va o‘zaro tajribalari orqali o‘zlarining madaniy merosini o‘rganadilar. O‘smirlar o‘zlarining shaxsiyatlarini yo‘naltira boshlaganlarida, ular bir nechta madaniy ta’sirlarga duch kelishlari mumkin, ayniqsa ko‘p madaniyatli muhitda. Bunday ta’sir qilish ularning oilaviy madaniyati va tashqi madaniy elementlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirga olib kelishi mumkin.

O‘smirlilik - bu shaxsiyatni shakllantirishning asosiy davri. Erik Eriksonning psixo-ijtimoiy nazariyasi o‘smirlar o‘ziga xoslik va rol chalkashliklari bilan kurashadi, deb ta’kidlaydi. Ushbu bosqichda ular o‘zlarining madaniy kelib chiqishi bilan bog‘liq holda kimligini tushunishga intilishadi. Immigratsion oilalar yoki ko‘p madaniyatli jamiyatlarda yashovchi o‘smirlar uchun bu jarayon yanada murakkablashishi mumkin.

Ikki madaniyatli o‘ziga xoslikni rivojlantirish bu o‘smirlar uchun mumkin bo‘lgan natijalardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har ikkala madaniyatning tomonlarini muvaffaqiyatli birlashtirgan shaxslar o‘zini o‘zi qadrlash va psixologik farovonlik darajasi yuqori bo‘ladi. Biroq, bu integratsiya jarayoni har doim ham silliq emas; O‘smirlarning oilaviy qadriyatlarini tengdoshlari yoki kengroq jamiyat bilan to‘qnash kelganda madaniy dissonans yoki ziddiyatni boshdan kechirishi mumkin.

Ota-onalar farzandlarining madaniyat haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ularning madaniy xilma-xillikka bo‘lgan munosabati o‘smirlarning o‘ziga va boshqalarga qanday qarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Issiqlik va ochiq muloqot bilan ajralib turadigan vakolatlari ota-ona uslublari o‘smirlarda chidamlilik va moslashuvchanlikni rivojlantirishga moyildir. Aksincha, avtoritar yoki e’tiborsiz ota-onalar sog‘lom madaniyatlararo istiqbolni rivojlantirishga to‘sinqlik qilishi mumkin.

Madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish uchun oila ichidagi samarali muloqot muhim ahamiyatga ega. Madaniy farqlar va o‘xshashliklar haqida ochiq munozaralarni rag‘batlantiradigan oilalar o‘smirlar o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini ifodalash uchun xavfsiz muhit yaratadilar. Ushbu ochiq muloqot o‘smirlarda tanqidiy fikrlash va boshqalarning tajribasiga nisbatan hamdardlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Aksincha, madaniy tafovutlar haqida munozaralardan qochadigan oilalar beixtiyor stereotiplar yoki noto‘g‘ri qarashlarni targ‘ib qilishi mumkin. Ota-onalar irqi, etnik kelib chiqishi yoki madaniy urf-odatlari bilan bog‘liq muammolarni hal qilmasa, o‘smirlar boshqa madaniyatlar haqida salbiy tasavvurlar yoki tushunmovchiliklarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ota-onalar ham o‘z farzandlariga namuna bo‘lishadi. Ularning xulq-atvori va turli xil madaniyatlarga ega bo‘lgan shaxslarga bo‘lgan munosabati o‘smirlarning boshqalarni qanday idrok etishi va o‘zaro munosabatiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Misol uchun, ko‘p madaniyatli faoliyat bilan faol shug‘ullanadigan yoki turli madaniyatlarga hurmat ko‘rsatadigan ota-onalar o‘z farzandlariga o‘xshash qadriyatlarni singdiradilar.

Bundan tashqari, ota-onalarning madaniy xilma-xillikni nishonlaydigan jamoat tadbirlarida ishtirot etishi o‘smirlarning turli madaniyatlarni tushunishi va qadrlashini oshirishi mumkin. Bunday tajribalar o‘smirlarga turli millatdagi tengdoshlari bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi, inkiyuzivlikni rivojlantiradi va noto‘g‘ri qarashlarni kamaytiradi.

Globallashuv odamlarning turli madaniyatlar bilan o‘zaro munosabatini o‘zgartirdi. Texnologiya va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi ilgari tasavvur qilib bo‘lmaydigan madaniyatlararo almashinuv platformasini yaratdi. Bugungi kunda o‘smirlar raqamlı ommaviy axborot vositalari, jumladan



musiqa, moda, til va ijtimoiy me'yorlar orqali ko'plab madaniy ta'sirlarga duchor bo'lmoqdalar.

Internet o'smirlarga dunyoning turli burchaklaridan turli nuqtai nazar va turmush tarziga kirish imkonini beradi. Bunday ta'sir qilish ularning turli madaniyatlar haqidagi tushunchalarini kengaytirishi va oldindan o'ylangan tushunchalarga qarshi turishi mumkin. Biroq, bu murakkab madaniy masalalarni yuzaki tushunishga ham olib kelishi mumkin. O'smirlar Internetda o'zlarining tasavvurlarini salbiy shakllantiradigan stereotiplar yoki noto'g'ri talqinlarga duch kelishlari mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy media plattformalari ko'pincha madaniy taqqoslashni kuchaytiradi, bu esa o'smirlarni onlaynda ko'rganlarga nisbatan o'zlarining madaniy o'ziga xosligini baholashga olib keladi. Agar ular o'z madaniyatini boshqalarga nisbatan kamroq qulay deb bilsalar, bu hodisa noadekvatlik yoki begonalashish tuyg'ulariga olib kelishi mumkin.

Globallashuv, shuningdek, gibrildan madaniyatlarning paydo bo'lishiga olib keldi, bu erda turli madaniyatlarning elementlari aralashib, yangi amaliyotlar va o'ziga xosliklarni yaratadi. O'smirlar, ayniqsa, bu gibrildan bo'shliqlarda harakat qilishda mohir, chunki ular o'zlarini haqiqiy tarzda ifoda etishga intiladilar. Bunday uyg'unlik ijodkorlik va innovatsiyani rivojlantirishi mumkin, ammo o'smirlar bir nechta madaniy kontekstlarda o'z o'rnini muhokama qilganda keskinlikka olib kelishi mumkin.

Turli madaniyatlarga ta'sir qilish boyitsa ham, o'smirlar uchun ham qiyinchiliklar tug'diradi. Shaxsning chalkashligi, tengdoshlarning bosimi va ijtimoiy umidlar ruhiy salomatlik va farovonlikka ta'sir qiluvchi sezilarli stresslarni keltirib chiqarishi mumkin. Ko'p madaniyatli o'smirlar o'z oilalari va tengdoshlarining turli xil umidlarini yarashtirishga harakat qilganda, shaxsiyatini chalkashtirib yuborishi mumkin. Bu chalkashlik, agar ular o'zlarini biron bir madaniyatga to'liq tegishli emas deb bilsalar, izolyatsiya yoki etishmovchilik tuyg'ulariga olib kelishi mumkin. Ota-onalar o'zlarining madaniy o'ziga xosliklarini o'rganishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali bu qiyinchiliklarni engillashtirishlari mumkin.

O'smirlar davrida qabul qilish istagi odamlarni o'zlarining oilaviy qadriyatlariga zid bo'lishi mumkin bo'lgan tengdosh me'yorlariga mos kelishiga olib kelishi mumkin. O'smirlar o'z oilalari tomonidan o'rgatilgan emas, balki tengdoshlarining xatti-harakati yoki munosabatini qabul qilish uchun bosim o'tkazishi mumkin. Bu mojaro oilada keskinlikni keltirib chiqarishi va begonalik hissini keltirib chiqarishi mumkin.

Irqi, etnik kelib chiqishi va madaniy o'ziga xosligiga oid ijtimoiy umidlar o'smirlarning tajribasini yanada murakkablashtirishi mumkin. O'z oilalari tomonidan duch keladigan kamsitish yoki noto'g'ri qarashlar o'smirlarning o'zlarining madaniy kelib chiqishini qanday qabul qilishlariga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu ijtimoiy muammolarni ochiq muhokama qiladigan ota-onalar o'z farzandlariga ushbu murakkabliklarni chidamlilik bilan english uchun kuch berishlari mumkin.

Oila sharoitida o'smirlar o'rtasida madaniyatlararo tasavvurlarning shakllanishi turli xil psixologik omillar ta'sirida ko'p qirrali jarayondir. O'smirlar rivojlanishning ushbu muhim bosqichida shaxsiyatni shakllantirish bilan kurashar ekan, ularning madaniyat haqidagi tushunchalarini shakllantirishda oilaning roli muhim bo'ladi. Ota-onalarning ta'siri, muloqot uslublari va turli xil tajribalarga ta'sir qilish - bularning barchasi o'smirlarning ko'p madaniyatli dunyoda o'zini va boshqalarni qanday qabul qilishiga yordam beradi.

Globallashuv va texnologik taraqqiyot bilan ajralib turadigan davrda oilalar madaniy tafovutlar haqida ochiq muloqotni rag'batlantiradigan, shu bilan birga turli xil o'ziga xosliklarni o'rganish va qabul qilishni rag'batlantiradigan muhitlarni rivojlantirishlari kerak. Shunday qilib, oilalar o'smirlarni madaniyatlararo o'zaro ta'sirlarning murakkabligini yo'lga qo'yish uchun zarur vositalar bilan jihozlashlari mumkin, natijada yanada inklyuziv va uyg'un jamiyatga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Урри Дж. Взгляд туриста и глобализация. Массовая культура: современные западные исследования. Москва, Фонд научных исследований «Прагматика культуры», 2005, с. 136–150.
2. Urry J. ConsumingPlaces. London, Routledge, 1995, 264 p.
- 3.Urry J. Sociology beyond Societies: Mobilities for the twenty-first century. Series:International Library of Sociology. London, New York, Routledge, 2000, 255 p.
4. Чистяков Д.И. Динамика взаимодействия массмедиа и общества в коммуникативном пространстве. Вестник МГИМО-Университета, 2013, № 6 (33), с. 234–240.
5. Ponizovkina I., Agibalova E. Collective Memory and Cultural-mythologicalSpace. Proceedings of the 5th International Conference on Education, Language, Art and Inter-cultural Communication (ICELAIC 2018). 2018, pp. 745-748.



### TALABALARNING TAQDIMOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Madina G'affova,  
Namangan davlat universiteti talabasi  
Ilmiy rahbar: **Mahbuba Holmatova**  
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamon talabiga mos ravishda oliy o'quv yurtlarida va boshqa muassasalarida talabalarning taqdimot ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** taqdimot, konferensiya, seminar, auditoriya, struktura, vizual.

**Abstract:** This article discusses the issues of developing students' presentation skills in universities and other institutions in accordance with the needs of the time.

**Keywords:** presentation, conference, seminar, audience, structure, visual.

Barchamizga ma'lumki, zamon rivojlangani sari ilm-fanga extiyoj ham kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Shunga yaqqol misol: hozirgi davr talabi - o'qish, izlanish va yangi g'oyalarni bayon etish. Oliy yurtlarida va boshqa biznes yoki ilmiy ishlarda tadqiqotlar ya'ni presentatsiyalar o'tkazilmoqda. Presentatsiya yoki taqdimot (lotincha praesentatio - taqdim. etish) yangidan yaratilgan tuzilgan muayyan narsaning rasmiy taqdim etilishi. Presentatsiya - bu ma'lumotlarni taqdim etish, taqdimot o'tkazuvchining fikr va g'oyalarni auditoriyaga yetkazish uchun moljallangan vosita. U ko'pincha slaydlar, grafiklar, fotorasmlar va boshqa visual materiallar yordamida amalga oshiriladi. Presentatsiyalar turli sohalarda masalan, ta'limda, ilmiy ishlarda, biznes g'oyalarni tuzishda qo'llaniladi.

Presentatsiyaning asosiy maqsadlari quyidagicha bayon etiladi [1].

1. Ma'lumotlarni taqdim etish; auditoriyaga yangi bilim yoki ma'lumotlarni yetkazish.
2. Fikrlarni ifodalash; o'z fikrlarini ko'zlangan mavzu yoki obektga qaratilgan yangi g'oyalarni va ularning takliflarini aniq va tushunarli tarzda bayon etishidir.
3. Muammolarni hal qilish; aniq bir masalalar bo'yicha hal etuvchi taklif, mulohazalarni taklif etish.
4. Turli xil tadbirlar o'tkazish; konferensiyalar, seminarlar yoki boshqa tadbirlarda qatnashish.

Presentatsiya ya'ni taqdimotlarni tayyorlashda uning maqsadi va kimlarga uni bayon etilishini aniq bilish lozim. Buni tayyorlashda stukturasi, ya'ni reja asosida kirish, asosiy qism va xulosa kabi tuzilmalarga e'tibor berish kerak. Taqdimot o'tkazuvchi ichki hissiyotlarini boshqara olishi, fikrlarini jamlab uni tinglayaotganlarga ravon va aniq bayon eta olish kerak.

Konferensiya va taqdimotni ko'pchilik bir-biridan farqlay olishmaydi. Lekin ularning farqlari bor. Konferensiyada biron bir masala, muammo yoki mavzu bo'yicha olimlar, mutaxassislar yoki biznes ishbilarmon vakillar va boshqa qiziquvchan kishilar tomonidan to'planib o'z fikr mulohazalarini bir-birlari bilan almashishadi. Bundan tashqari shu g'oyalarni asosida tajribalar o'tkazishadi. Konferensiyalar ko'pincha ilmiy, professional, ijtimoiy sohalarda o'tkaziladi. Natijada, ular o'z bilimlari va tajribalari bilan o'rtoqlashishadi. Taqdimot o'tkazuvchi hozirgi kunda faqat mutaxassislar yoki olimlar tomonidan o'tkazilib qolmay, oliy yurt talabalarini tomonidan ham uyuştirilmoqda. Buni amalga oshirishda talabalar umumiyligi xato va kamchiliklarga duch kelishadi. Bu qanday qilib yoki qanday holatlarda yuzaga kelishi mumkin. Taqdimot o'tkazuvchi o'zi tanlagan yoki berilgan mavzuga yetarlicha tayyorgarlik ko'rmasligi, o'ziga berilgan mas'uliyatni his qilmasligi, tanlangan materialni yaxshi o'zlashtirmaslik va auditoriyadagi ya'ni taqdimot o'tkazish uchun mo'ljalangan katta zaldagi tinglovchilarning savollariiga javob berishga tayyormasligidir. Taqdimot davomida vaqtini to'g'ri taqsimlamaslik, muhim fikrlarga befarq bolib, vaqtini kamroq ahamiyatga ega ma'lumotlarga sarflaydilar. Tayyorlangan slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallarni ishlatish va uni chuqur tushunmasdan shoshilib qolish xatoliklarga yo'l qo'yish mumkin.

Presentatsiya qilayotgan paytda o'zining ovoz to'ni va chiroyli talaffuz etishga bundan tashqari nutqi ravon bo'lmasligiga e'tibor berish lozim [2]. Aks holda bu xatoliklar yuzaga kelishi natijada tinglovchilarni zeriktirib yoki unga bo'lgan e'tiborini yo'qotishi mumkin. Taqdimot jarayoni vaqtida faqat bular emas, balkiauditoriya zalidagilarni va savollarni e'tibor bilan eshitmaslik va ular bilan aloqa qilmaslik va ularni fikrlarini inobatga olmaslik xatolari yuzaga kelishi mumkin. Tinglovchilar tomonidan berilgan savollarni hurmat qilgan holda tinglab tushib javob berishi lozim. Har qanday presentatsiya o'tkazuvchida taqdimot paytida stress ichki hayajonlari sababli ham o'z fikrlarini



tinglovchi bayon etishda qiyinchiliklar bo‘ladi va yuzaga keladi. Natijada, ko‘zlangan maqsadga erishilmaydi va taqdimotning sifatiga ham salbiy ta’sir qiladi. Prezentatsiya o‘tkazuvchining nutqi va ovozining ohangi bilan bog‘liq xatolar emas, bundan tashqari belgilangan maqsadni bilmaslik va taqdimotni strukturasida mantiqiy ketma-ketlikning yo‘qligidadir.

Struktura nima? Struktura inglizcha strukture tuzulish, bog‘lanish ya’ni:

1. Belgilangan narsa yoki ilm fan taraqqiyotidagi biron mavzuning tuzulishi.
2. Belgilangan obyektni yaxlitlash va ichki va tashqi o‘zgarishlarini asosiy xususiyatlarini saqlab qoladigan barqaror alaoqalar majmuyidir [3].

Strukturalar turlicha bo‘ladi. Masalan: geografiya fanidan taqdimot o‘tkazish kerak bo‘lsa geografic struktura, matematik struktura, dinamik struktura kabilar. Har bir sohaga qarab tuziladi. Hattoki so‘z strukturasi ham mavjud va taqdimot o‘tkazishdan oldin fikrlarni inobatga olish va e’tibor berib tuzib olish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talaba taqdimot o‘tkazishdan oldin puxta tayyorgarlik qilishi, o‘z mavzusiga oid tushunchalarga ega bo‘lishi, nutqini ravonligiga e’tibor berib, mashg’ulotlar qilishi, tinglovchilar bilan muloqotga tezda kirishib ularning e’tiborini tortishga harakat qilishi lozim. Shunda natijalar samarali va muvaffaqiyatlidir bo‘ladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Carnegie, D. (1991). How to Develop Self-Confidence and Influence People. Simon and Schuster.
2. Reynolds, G. (2011). Presentation Zen: Simple ideas on presentation design and delivery. New Riders.
3. Lucas, S. E., & Stob, P. (2020). The art of public speaking. McGraw-Hill.



### О'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDA NUTQ QOBILIYATINI O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Munavvar Bektemirova,  
Namangan davlat universiteti talabasi  
Ilmiy rahbar: **Mahbuba Holmatova**,  
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning ingliz tilida nutq ko'nikmalarini oshirishda turli xil o'yin turlarining afzalliliklari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** o'yinlar, hamkorlikda o'rganish, ingliz tili, nutq ko'nikmalari

**Abstract:** This article discusses the benefits of different types of games in improving students' English speaking skills.

**Keywords:** games, co-operative learning, English, speaking skills

Bugungi kunda har bir o'quvchi o'rganilayotgan tilda erkin va ravon muloqot qilish qobiliyatini rivojlanirishni istaydi. Biroq o'rganilayotgan tilda muloqot qilish, o'z fikrini erkin va xatolarsiz bayon eta olish va o'sha tilda gaplashuvchilar bilan suhbat olib borish til o'rganayotgan o'quvchilar uchun amaliyot jarayonida qiyinchilik tug'dirmoqda [3].

Ingliz tilida nutq ko'nikmalarini rivojlanirishda hamkorlikda til o'rganish hozirgi kunda keng qo'llanilmoqda. Hamkorlikda til o'rganish nima? Bu guruh bo'lib o'rganiladigan mashg'ulot turi bo'lib, o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy tuzilgan, ma'lumot almashinuviga asoslangan mashg'ulot turidir [2]. Guruh bo'lib o'rganish faoliyati o'quvchilarni mustaqil ravishda va hech qanaqa, o'qituvchi qo'yan talablarsiz, erkin muloqot qilishni yaratib beradi. O'quvchilarning so'zlashuv mahoratidagi rivojlanishlari hamkorlikdagi o'rganishning ba'zi asosiy elementlari o'quvchilarda so'zlashuv qobiliyatini rivojlanirishda kuzatiladi: ijobiy o'zaro bog'liqlik; yuzma-yuz rag'batlantiruvchi jarayon; individual va guruh javobgarliklari; shaxslararo va jamoaviy mahoratlar; guruh nazorati [2].

Ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha so'zlashuv qobiliyatlarini o'yinlar orqali rivojlanirish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Nafaqat og'zaki mahoratini rivojlanirishda, balki o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini o'stirishda, guruhda odamlar qarshisida o'zini yo'qotib qo'ymaslikni va chet tilini xuddi o'z ona tilisida so'zlashgani kabi rivojlanirishda o'z hissasini qo'shamdi.[2]

Sinfda ushbu jarayonni rivojlanirishni tadbiq etish uchun turli xil rag'batlantiruvchi sovg'alar joriy etish lozim. Masalan: bir o'quvchi o'tiladigan yangi mavzu yuzasidan mustahkamash uchun mustaqil o'yinlar tayyorlab kelsa o'sha o'quvchini,o'qituvchi tomonidan rag'batlantirish.Ingliz tilida so'zlashuv muhitini dars jarayonida yaratish va unda kimda kim qoidani buzib o'z tilidan foydalansa ilmiy jarimaga tortish:bitta o'zbekcha so'zga 3 dona inglizcha idioma aytish,va shu kabilar dars murabbiysi tomonidan tashkil etilsa eng samarali,eng qulay usullardan biri bo'ladi.

So'zlashuv bu butun hamma qobiliyatlarini o'z ichiga oladigan nutq mahorati hisoblanadi ammo u samarali va faol mahorat turi hisoblanishiga qaramasdan o'rganuvchilarning ko'pchiligi uni o'zlashtira olmaydi. Chunki ularning 90%idan ko'pi gapisish jarayonida birikmalar, so'zlardan foydalanishda xatolar qilishdan,o'zlarining shaxsiy fikrini ifoda etishdan qo'rqedi.Shu sababli o'quvchilarning ko'pchiligi har kunlik yangi o'zlashtirayotgan tilidan foydalanmaydi.Yuqorida ta'kidlanganidek bu muammoning yechimi,o'qituvchilar o'quvchilarni qay tartibda rag'batlantirish usullarini o'rganishlari lozim.Dars jarayonida o'yinlardan foydalanishning ko'plab afzalliliklari mavjud. Masalan, o'yin vaqtida barcha o'quvchilar faol ishtirop etadi chunki ularning barchasiga bir xil vazifa beriladi. So'zlashish mahoratiga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarningutq mahoratini oshirishga xizmat qiladi chunki ular inovatsion ko'nikmalar hisoblanadi. Ularda gapisishga o'zlarida xohish paydo bo'ladi chunkio'qituvchi bu o'yin orqali o'quvchilarga hech qanday bosimsiz gapisish hissini uyg'ota oladi. Ular erkinlikda bir birlari bilan fikr almashadi.

O'yinlar orqali dars mashg'ulotlarini tashkil etish har tomonlama samarali usullardan biridir. Quyida shunday o'yin turlarini keltiramiz.

**(Last man standing)** Bu o'yinda o'quvchilar guruh bo'lib ishtirop etadi. O'yinda bittadan sardor tayinlanadi. Sardorlar kopyokni oladi va bittadan so'z aytib koptokniikkinci kishiga irg'itadi. Koptokni tutgan odam birinchidagi so'zga bog'liq bitta so'z birikmasi aytib keyingi kishiga uzatadi. O'yin davomida so'z birikmalarini qiyinlashib boraveradi. Va bu orqali har bir o'quvchiga o'tilgan yangi mavzumustahkamlanadi. So'z boyligini oshiradi.



**(Pictionary).** Bu o'yin uchun bizga qirqilgan kartalar va toza doska zarur. O'quvchilarni soniga qarab 5-6 tadan qilib guruxlarga bo'lib olamiz. Har bir guruxdan bittadan vakil chiqib doskada yozilgan so'z,iboralarni rasmlar orqali tushuntirishi kerak. Har bir tasvirlangan rasmga va to'g'ri javobga bir balldan taqdim etiladi. 10 ball to'plagan jamoa g'olib bo'ladi.

**(Charades)** Bu o'yin turi ham (pictionary) o'yiniga chambarchas bog'liq. Farqi ushbu o'yinda, yashirilgan so'zlarni turli harakatlar orqali ko'rsatish lozim.bu orqali sinfda ko'tarinki ruh taqdim etiladi,darsdan zerikkan,uxlash arafasidagi o'quvchilarni harakatga chorlaydi. Guruhlardan vakillar chiqib yashirilgan iboralarni qo'l,oyoq harakatlari orqali hech qanaqa ovoz ishlatmasdan ko'rsatib berishi lozim. Bu o'yin ham 10 ballik tizimda baholanadi.

**(What am I thinking)** guruhlarga bo'lingan o'quvchilardan bittadan vakil tanlanadi va yashirin so'zlar yozilgan kartani olishadi. Tanlangan so'zni o'zidan foydalanmasdan uning sinonimi va antonimi orqali matn tuziladi. Kimning tuzgan matnida eng ko'p iboralar, sinonim, antonimlar mavjud bo'lsa usha guruh g'olib debtopiladi va rag'batlantiriladi.

Hamkorlikdagi o'ylarni tashkil etish o'quvchilar ongida nafaqat so'z boyliklarini oshirishga balki qanday vaziyatlardan qay tartibda so'zlash mahoratini, nutq madaniyatini, hozirjavoblikni, erkin muloqotni o'rghanadi. Bu esa o'z-o'zidan nutqni boyitishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eunice Kit-Lam Tang "Developing speaking skills with games,towards a co-operative learning approach" [etang@mail.shccc.edu.hk](mailto:etang@mail.shccc.edu.hk)
2. Kade Sukemi Ide Ayu, Oke Pumarni Ide Ayu "Developing students speekingthrough guessing games" [duyusukreni13@gmail.com](mailto:duyusukreni13@gmail.com) [idaayuokapurnami@gmail.com](mailto:idaaayuokapurnami@gmail.com)
3. Djabbarov, S. (2020). article Ingliz tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari: Ingliz tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(68).



### MUOMALA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Murtazayeva Shaxloxon Muzaffar qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarda ota-onalar va farzand munosabatlarining psixologik xususiyatlari, oilada ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilingan. Shuningdek, oilada o'zaro hurmat va qadrlashni mustahkamlashda tarbiya va oilaviy qadriyatlarning o'rni masalasi muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** muomala, tarbiya, ota-onalar, farzand, munosabat, oilaviy munosabatlar.

Oila a'zolarining o'zaro hurmati va qadrlashini mustahkamlash bugungi jamiyatda muhim mavzulardan biridir. Oila insonning birlamchi ijtimoiy muhitidir va u yerdagi munosabatlar shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, oiladagi hurmat va qadrlashni mustahkamlash jamiyatning barqarorligi va farovonligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Oila a'zolarining o'zaro hurmati va qadrlashini mustahkamlashning birinchi yo'li ochiq va samarali muloqotdir. Ushbu muloqotning asosi oilaning har bir a'zosini tinglash, ularning fikr va hissiyotlarini hurmat qilishdir. Yozuvchi va olim John Gottmanning "The Seven Principles for Making Marriage Work" asarida ta'kidlanishicha, o'zaro muloqotda ochiq bo'lish va bir-birini tinglash oilaviy munosabatlarni mustahkamlashning muhim omillaridan biridir. Muloqotning samaradorligi uchun oilaning har bir a'zosi o'z his-tuyg'ularini ochiq ifoda etish va boshqalarining his-tuyg'ulariga e'tibor berish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Ikkinci muhim omil o'zaro qadrlashni namoyon etishdir. Har bir oilaviy tadbir va kundalik hayotda o'zaro hurmat va qadrlashni ko'rsatish orqali oilaviy munosabatlar mustahkamlanadi. Masalan, Professor Gary Chapmanning "The Five Love Languages" asarida, oila a'zolariga mos ravishda muloqot qilishni o'rganish oiladagi o'zaro hurmat va qadrlashni kuchaytirishga yordam berishini aytadi. Bu oila a'zolarining bir-biriga nisbatan mehr-muhabbatini va qadrlashini ochiq ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Uchinchi omil - oila a'zolarining bir-biriga ko'rsatayotgan qo'llab-quvvatlashidir. Har bir a'zo o'zining maqsad va istaklarini amalga oshirishda boshqalarning yordamiga tayanishi mumkinligini bilishi kerak. Psixolog Alfred Adlerning fikriga ko'ra, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va hamkorlik insonning ruhiy salomatligi va farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega. Oilada bir-biriga yordam berish va qo'llab-quvvatlash oilaviy munosabatlarni yanada mustahkamlaydi.

O'zaro hurmat va qadrlashni mustahkamlashda tarbiya va oilaviy qadriyatlarning o'rni ham katta. Ota-onalar o'z farzandlariga hurmat va qadrlashni namuna qilib ko'rsatishlari kerak. Shu bilan birga, farzandlarning fikr va his-tuyg'ularini hurmat qilish va ularni tinglash orqali, ota-onalar oilada o'zaro hurmat va qadrlashning mustahkam asosini yaratishlari mumkin.

Shu tariqa, oila a'zolarining o'zaro hurmati va qadrlashini mustahkamlash uchun ochiq muloqot, qadrlashni namoyon etish, o'zaro qo'llab-quvvatlash va oilaviy qadriyatlarning mustahkamlanishi muhim omillardir. Ushbu omillar oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. John Gottman va Gary Chapman kabi olimlarning asarlari ushbu yo'naliishlarda samarali yondashuvlarni taklif qiladi. Xulosa qilib aytganda, oilada o'zaro hurmat va qadrlashni mustahkamlash uchun har bir a'zo o'z hissasini qo'shishi va bir-birini tinglashi, qadrlashi va qo'llab-quvvatlashi zarur.

Yoshlar muomala madaniyatini shakllantirishda ota-onalar ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu qiyinchiliklar jamiyatdagi o'zgarishlar, texnologiyaning rivojlanishi va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri bilan bog'liqidir. Masalan, yoshlar ko'pincha internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali chet el madaniyatlarini o'rganib, o'z milliy qadriyatlarini unuta boshlaydilar. Bu holat ota-onalarga yoshlar bilan muloqot qilish va ularni milliy an'analarga sodiq qolishga undashda muammolar keltirib chiqaradi.

Ota-onalarning asosiy vazifasi yoshlarni yaxshi xulq-atvorga o'rgatish va to'g'ri yo'naliishda tarbiyalashdir. Biroq, zamonaviy texnologiyalar va globalizatsiya jarayonida bu vazifa yanada murakkablashadi. Olimlar T. Parsons va N. Luhmannning nazariyalariga ko'ra, ijtimoiy tizimlarning



o‘zgarishi va murakkablashuvi ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir qiladi. Parsonsning tizim nazariyasi bo‘yicha, har bir tizim, shu jumladan, oila tizimi, o‘z funksiyalarini bajarishi uchun barqarorlikni saqlashi kerak. Biroq, globalizatsiya jarayonida bu barqarorlikni saqlash qiyinlashadi, chunki tashqi ta’sirlar kuchayadi.

Bundan tashqari, ota-onalar yoshlar bilan muloqotda o‘zlariga xos qiyinchiliklarga duch keladi. Yoshlar o‘z fikrlarini mustaqil ravishda ifoda etishni o‘rganayotgan bir paytda, ota-onalar ko‘pincha an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolishga intiladi. Bu esa ikki avlod o‘rtasida kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Psixologlar D. Baumrind va E. Eriksonning asarlarida ta’kidlanganidek, ota-onalarning tarbiya usullari va yoshlar rivojlanish bosqichlari muhim rol o‘ynaydi. Baumrindning tarbiya usullari nazariyasiga ko‘ra, ota-onalar avtoritar, demokratik yoki liberal usullarni qo‘llashi mumkin. Demokratik usul eng samarali deb hisoblanadi, chunki bu usul yoshlar bilan muloqot qilishda muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Erikson esa yoshlarning psixososial rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, ota-onalarning har bir bosqichda qanday rol o‘ynashi kerakligini ko‘rsatgan. Masalan, o‘smirlik davrida yoshlar o‘z shaxsiyilagini aniqlash bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch keladi va ota-onalar ularni qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar muomala madaniyatini shakllantirishda ota-onalar ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar jamiyatdagi o‘zgarishlar, texnologiyalar rivoji va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri bilan bog‘liq. Ota-onalar yoshlar bilan muloqot qilishda demokratik usullarni qo‘llab, ularni milliy qadriyatlarga sodiq qolishga undashi kerak. Shu bilan birga, ota-onalar yoshlarning psixososial rivojlanish bosqichlarini hisobga olib, ularni qo‘llab-quvvatlashi lozim. Bu yondashuvlar ota-onalarga yoshlar muomala madaniyatini shakllantirishda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

### Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akramova F.A. Oilada sog‘lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiypsixologik asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: 2014. – 185 b.
2. Salayeva M.S. O‘zbek oilalarida ota-onalar va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T.: 2005. – 15 b.
3. Ибайдуллаева У.Р., Абдурасулов Р.У. Methods of overcoming internal conflicts betweeen teenagers. EJRRES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 № 6, 2020, 1-7 бетлар.
4. Salayeva M.S. O‘zbek oilalarida ota-onalar va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T.: 2005. – 15.



### BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI GRAMMATIKASINI O'QITISH

Nargiza Abdusamatova,  
Namangan davlat universiteti talabasi  
Ilmiy rahbar: Mahbuba Holmatova,  
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini boshlang'ich sinflarda grammatikani o'qitish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'rta ta'lif maktabi, boshlang'ich ta'lif, til bilish, "Daraxt" metodi, "Eng tezkor" metodi

**Abstract:** This article discusses the issues of teaching English grammar in primary schools.

**Keywords:** secondary school, primary education, language proficiency, "Tree" method, "Fastest" method

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы преподавания грамматики английского языка в начальной школе.

**Ключевые слова:** средняя школа, начальное образование, владение языком, метод «Tree», метод «Fastest»

Boshlang'ich ta'lifdagi eng asosiy va ijobjiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirdi to'g'risida" PQ-1875-sonli qaroridir [1]. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lif maktabalarining 1-sinflarida o'zin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida 2-sinfdan boshlab esa alifbo, o'qish, yozish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Hozirgi kunda davr talabi bo'lgan ingliz tilini yosh avlodga boshlang'ich sinfdan o'rgatib borishning turli xil usullari va yo'llari haqida ko'plab metodlar ishlab chiqilmoqda va hayotga tadbiq etish masalalari ustida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda [2]. Bunday izlanishlar samarasi o'z natijasini ko'rsatishi tayin. Yosh avlodga ularning bolalik chog'lidanoq chet tillaridan saboq berishning ko'plab afzallikkleri mavjud. Ular bolalik chog'ridanoq tilga mehr qo'yishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishimiz eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki ular chet tilini o'rganishi mobaynida o'sha xalqning nafaqat tili, balki millati, qadriyatları va aholisining yashash tarzi bilan ham tanishib boradi [4]. O'zo'zidan o'quvchi ongida dunyo haqida tushuncha va taassurotlar paydo bo'la boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilni o'qitish bosqichma – bosqich o'rgatilishi yo'lga qo'yilgan. Bu jarayonda 1-sinf o'quvchilariga o'zlariga mos tarzda, asosan, multimediali va og'zaki o'rgatish metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. 1-sinf o'quvchilarida o'zlarining ona tilisi haqida to'liq tushuncha va bilim hosil qilmasdan turib ularga ingliz tili alifbosi va yozuv malakasini mutlaqo noto'g'ri hisoblanadi [3]. Shuning uchun ham ingliz tilidan ularga ilk saboqlar o'yinlar, multimedia vositalari va og'zaki usulda o'rgatiladi, so'ngra o'quvchilar 2-sinfda savod o'rgatish davri to'liq yakunlangan bo'ladi va shu davrdan boshlab ularga ingliz alifbosi va yozuv malakalarini o'rgatish va o'quvchilar bilimini shakllantirishni yo'lga qo'yish darkor. Shu tariqa ularda chet tilini shakllantirish va rivojlantirish amalga oshirish mumkin.

Ingliz tili o'zining ko'plab jihatlari va qiziqarli xususiyatlari bilan o'quvchining qiziqishiga va bu tilni jiddiy o'rgasnishga olib keladi. Umumiy o'rta ta'lif maktabalarida 2013-2014- o'quv yildan boshlab 1-sinflardan ingliz tilini o'zin tarzidagi mashg'ulotlari va og'zaki nutq darslari shaklida uzlusiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. 2-sinfdan esa grammatikani o'zlashtirishga qaratilgan boshqa ta'limi o'zinlarni ham tashkil etish mumkin. Masalan, "Daraxt", "Dictionary", "Eng tezkor" va shu kabi ko'plab metodlardan foydalanish mumkin. "Daraxt" metodi haqida gapiradigan bo'lsak bo'lsam, bu metod, asosan, bolalarga o'zin tarzida olib boriladi. Katta oq qog'oz (plakat) ga chiroyli daraxt rasmi chiziladi. O'quvchilarga esa gullarga savollar yozib tarqatiladi yoki mevalarga savollar yozish ham mumkin. So'ngra o'quvchilar savollarga to'g'ri javob berishsa, o'sha gulni (mevani) daraxtga yopishtirishadi. Shu tariqa o'quvhilar o'zlarining "bilim daraxti" ni yasashadi.

"Dictionary" – bu metoddasi esa asosan taqqoslash va solishtirish asosiy o'rinda turadi. Ya'ni, o'quvchilarni 2guruhga bo'lib, 1-guruhga elekronniy lug'atdan, 2-guruhga esa kitob variantdag'i lug'atlardan foydalangan holda so'zlarini, matnni kim birinchi tarjima qilish vazifikasi beriladi. Bu ususlida, albattaki, 1-guruh tezkorlik bilan shartni bajarishadi. Ammo, 2-guruhning xotirasida so'zlar



ko'proq va uzoqroq vaqtga saqlanib qoladi. Chunki, ular har bir so'zni qiynalib va mehnat qilib qidirib topishadi. Yana shu tariqa guruuhlar lug'atlarning bu ikki xil variant haqida ko'plab foydali va samarali usullarin tomonlarini aytib o'tishadi. "Eng tezkor" metodi haqida esa quyidagicha tushuntirib o'taman. Bu metodni qo'llashda o'quvchilarga kichik qog'ozlardan futbolkachalar yasab tarqatiladi. O'quvchilar esa qog'ozga o'zlari bilgan so'zlarni yozib to'ldirishidi. Kim ko'p so'z yozsa va birinchi bo'lib to'ldirib bo'lsa, o'sha eng tezkor o'quvchi hisoblanadi. Shu va shu kabi ko'plab metod hamda o'yinlardan foydalangan holda bolalarning ingliz tilini yaxshi va mukammal o'rganishlarini ta'minlash mumkin. Bu metodlarning samarasini juda ham yaxshi foyda berishi aniq.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish majburiyat sifatida emas qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir nechta samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevori bo'lib xizmat qilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:1.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ -1875-sonli qarori.
2. Iriskulov A.T va boshqalar ; Kids' English pupil's book 2-sinf -Toshkent - O'zbekiston ; 2014
3. Passov Ye.I. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu. 19914. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili O'qitish metodikasi. T., -2003



## TILDAGI LINGVISTIK MUAMMOLAR

Shodiya Turg‘unova,  
Namangan davlat universiteti talabasi  
Ilmiy rahbar: **Mahbuba Holmatova**  
Namangan davlat universiteti o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilning ahamiyati va til o‘rganayotgan yoshlarni tilni o‘rganishdagi qiyinchiliklari va muammolarini yechishga qaratilgan strategiyalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** til, til o‘rganishdagi kamchilik va muammolar, til muhokamalari yechishga qaratilgan chora-tadbirlar.

**Abstract:** This article discusses the importance of language and strategies to address the difficulties and problems of young language learners in learning the language.

**Keywords:** language, language learning difficulties and problems, language discussions, measures to address them.

**Аннотация:** В этой статье обсуждается важность языка и стратегии решения трудностей и проблем молодых людей, изучающих язык, при изучении языка.

**Ключевые слова:** язык, трудности и проблемы при изучении языка, языковые дискуссии, меры по их решению.

Til artofimizdagi dunyoni qanday idrok etishimizni va bir-birimiz bilan muloqot qilishimizga yordam beradi. Til bu o‘qish, yozish, tinglash va gapirishdir. Til fikrlarimizni yodlashimizga katta yordam beradi. Hozirgi kunda ilm-fan rivojlanib bormoqda va shuning bilan bir qatorda yoshlarimiz chet tillarini o‘rganishga ham astoydil harakat qilmoqda.

Hayotimiz davomida biz hohlamasak ham turli-tuman qiyin muammolarga duch kelamiz. Ayniqsa, til o‘rganayotgan bo‘lsak bu soha ham qiyinchilik va muammolardan holi emas. Til o‘rganish qatorida til o‘rganilayotgan mamlakatlarimizni urf-odatlari va madaniyatlaridan ham bir muncha habardor bo‘lishimiz kerak. Bir inson bir tilda ravon gapirishi uchun o‘sha tilni mukammal o‘rganishi kerak. Til buzilishini oldini olish uchun til o‘rganuvchiga lug‘at va grammatikani to‘g‘ri shakllantirish va yodlangan mavzularni takrorlash orqali til ko‘nikmalarini yuksaltiradi. Ayniqsa hozirgi kunda ingliz tilini o‘rganayotganlar ingliz tilidagi fe’l zamonlari, maqolalari, ilmiy va talaffuz, idiomlarni o‘rganishi qiyin. Buning sababi shuki, ingliz tiling boshqa tillardan ancha farq qilishi va ko‘proq so‘zlarni yodlashni talab qiladi. Lingvistik muammolar leksik, sintatik va semantik kabi bo‘lishi mumkin.

“Til bilan bog‘lik qanday muammolar bor?” bu juda katta savoldir. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu aloqa bilan bog‘liq lingvistik muammolarni anglashi mumkin.

Terry E. Cohen quydagicha yondashish nazarda tutgan [1]: a) aksariyat odamlar boshqa tillarnu o‘rganishga qiynaladi; b) agar ularga ochiq fikr bilan yondoshsa, har qanday tilni o‘rganish oson bo‘ladi. Talabalarda nutq muammolarini keltirib chiqishiga turli omillar sabab bo‘ladi. Misol uchun ularda yetarlicha bilim yo‘qligi, gapirganda xato qilib qo‘yishdan qo‘rqish, asabiylashish, bilgan narsalarini ham tashqariga chiqarolmaslik kabilardir.

Tildagi muammolarni yuzaga kelishiga noaniqlik, tushunmovchilik, imlo xatolari va grammatik xatolar kiradi va yana terminologik xatolar ham. Ba’zida so‘zlar va iboralar turli xil ma’nolarni anglatadi. Bu esa tushunmovchilikka sabab bo‘ladi. Misol uchun “olma” so‘zi meva nomi bo‘lsa, uni fe’l shaklida nimadif olma deb tushunish mumkin. Tushunmovchilikka sabab avvalambor insonlar shevaga gaplashganida yuzaga keladi. Ayniqsa bu holat yangi so‘zlardan foydalanganda yuzaga keladi. Imlo xatolari esa og‘zaki nutqda bir muncha xatolargaolib keladi. Bu bo‘lsa fikrni tushunishni qiyinlashtiradi. Bundan boshqa yana terminologik muammolarga ham duch kelishimiz mumkin. Misol uchun bir sohada ishlatiladigan terminlarni boshqa soha vakillari tushunmasligi mumkin. Chunki terminlar umumiy ma’noga ega bo‘lmaydi.

Tilshunoslik muammolarini hal qilish uchun quydagi strategiyalar mavjud. Avvalambor muammoni tushunish, bilim va ko‘nikmalarni amalda qo‘llash, amaliyotni ko‘paytirish va takrorlash zarurdir.

Til doimo o‘zgarib turadi shuning uchun biz ijobiylar, ochiq lingvistik munosabatlarni saqlab qolishimiz kerak. Lingvistik muammolarni yechish uchun eng yaxshi yo‘llar bu tilni bilish darajasini yuksaltirish oddiy so‘zlardan foydalanish va xato qilishdan cho‘chimaslik.



Muloqotdagi to‘siqlarni yengib o‘tish uchun insonlar bilan muloqot qilish odamlar tushunadigan tildanfoydalanish kerak. Tildagi muammolarni yechish juda muhimdir. Buning bir nechta sabablari bor: Tildagi muammolarni yechish bizni yangi bilimlarimizni yanada rivojlantiradi va bizga yangi imkonlar beradi. Tildagi muammolarni yechish xalqaro savdo aloqalarini yanada takomillashishiga yordam beradi. Tildagi muammolarni yechish insonlarni muloqot munosabatini yaxshilaydi va bundan tashqari til o‘rganish davomiyligini foydali qiladi. Inson xatolarini qanchalik tez tushunsa va u xatolarni takrorlamaslikka harakat qiladi va o‘rganishda boshqa u xatolarni qilmaydi. Tildagi muammolarni yechish uchun turli strategiyalarni amalga oshirish mumkin. Buning uchun til o‘rganish davomida amaliy yondashuvlar va turli muhokamalarni qo‘llash kerak. Til o‘qituvchilarni malakasini oshirishni tashlik etish kerak.

Talabalarni lug‘at boyligini kuchaytirish va o‘sha so‘zlarni hayot davomida to‘g‘ri ishlatishni o‘rgatish, talaffuzni yaxshilash bo‘yicha mazmunli mashg‘ulotlar o‘tkazish kerak. Talabalarga o‘z til ko‘nikmalariga ishonishi uchun motivatsiya beradigan darsturlar yaratish eng ma’qul yo‘ldir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tilda tilda muammolar yuzaga kelmasilgi uchun biz yoshlар ko‘proq izlanishimiz va so‘z bilimlarimizni yanada boyitishimiz kerak. Har bir til xalqi bilan birga yashasa yanada rivojlanish bo‘ladi. Tildan qanchalik kam foydalanilsa tilning kuchi va go‘zalligi yo‘qola boshlaydi. Insonlar tildan qancha keng va doimiy ravishda foydalansa til shuncha rivojlanadi va so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay oladi. Tilni o‘rganish va uni avaylash muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Terry E. Cohen Writer Teacher B.A English U Penn.
2. Labov, William Sociolinguistoc Patterns (1972).
3. Heymes, Dell. Foundations in Sociolinguistics. An Ethnographie Approach (1974).
4. Bloomfield Leonord Language (1939).
5. O‘zbek tilshunosligining muammolari va istiqbollari Mematqulov Muzaffar Rahmonqulovich.



### SHAXS RIVOJLANISHI VA O'ZIGA BO'LGAN ISHONCH HISSINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

N.Abdumannatova  
O'zbekiston-Finlandiya  
pedagogika instituti o'qituvchisi  
M.Gulyamova  
O'zbekiston-Finlandiya  
pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxs rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishdagi psixologik ta'sir vositalari va metodlari haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, shaxs rivojlanishida ta'lim tarbiya jarayonining ahamiyati borasidagi fikrlar o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar.** shaxs, rivojlanish, ishonch hissi, psixologik ta'sir.

Mamlakatimiz rahbari Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish haqida fikr yuritib, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'lnlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz", - deb takidlagan edi.

Albatta, bu bejiz emas. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub negizi kelajagimiz egalari bo'lgan yosh-avlod ta'lim tarbiyasiga borib taqaladi. Boshqacha aytganda, shaxs shakllanishi, ularning har jihatdan barkamol bo'lib ulg'ayishini ko'zda tutilmoqda.


Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub negizida kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni har jihatdan yetul qilib voyaga yetkazish masalasi asosiy o'rinda ko'zga tashlanadi. Yoshlarni intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhimdir. Intellektual ijodiy salohiyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Rivojlanib borayotgan yosh-avlodning to'aqonli shaxs bo'lib shakllanishida o'ziga bo'gan ishonch hissini oshirishda jismoniy faollikni oshirish, aqliy va intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida ularga motivatsiya berish, o'quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo'yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, dunyo qarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta'sir etib boriladi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonida bulardan birortasi e'tibordan chetda qolsa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyinlashadi. Mana shu psixologik jihatlarni e'tiborga olingandagina yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib uni rivojlantrishga imkon yaratiladi.

1. O'quvchi-yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida turli faoliyat turlari bilan band qilish va faoliyatini rivojlantirish rejalashtiriladi.

2. Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qaerda ishlatish rejalashtiriladi.

Mana shunday rejaga solinib olib boriladigan ishlarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya tizimi jarayonida ham yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantrib boradi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatini oshirib boradi.

Bugungi kun zamonaviy o'qituvchilarga qo'yilayotgan talablar va keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentliligini bir necha yondashuvlar asosida ya'ni o'qituvchilarda shakllanishi zarur bo'lgan tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalar, qobiliyat va mahorat, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar hamda umuminsoniy xislatlar orqali ifodalash mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarning kundalik hayot tarzi to'g'ri tashkil etishga asosli innovatsion faoliyat kurtaklarini shakllantirish ta'sir etadi. Ta'lim jarayonida axborotni yodda saqlash va faktlarni yig'ishga asoslanganligi tufayli an'anaviy ta'lim sistemasi har doim ham shaxsning, xususan o'quvchining innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantrishga qodir deya olmaymiz. Bu shaxsning dastlabki maktabgacha davridan boshlash kerak desak xato qilmagan bo'lamiz. O'quvchilarni innovatsion fikrlash sifatlari o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Shunga ko'ra o'quvchilada innovatsion fikrlash ko'nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantrishning bir qator yo'llari yoritib o'tamiz.



- Ijodiy tafakkumi rivojlantirish;
- amaliy innovatsion harakat ko'nikmalarini rivojlantirish;
- olingan nazariy bilimlarini amalyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;
- individual psixologik xususiyatlarini rivojlantirish;

Bo'lajak pedagoglar o'zlarining innovatsion fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari uchun o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirish lozimdir. Shu boisdan bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda ishlab chiqarish korxonalariga, ta'lim muassasalariga va maxsus maktablarga sayohatlarini tashkil etib, ularni ma'lum kasb yoki innovatsion faoliyat mazmuni bilan boyitish kerak.

Birinchidan, bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda Oliy Ta'lim muassasalari faoliyatining sifat-samaradorligiga e'tibor qaratish, o'qitish tizimiga zamonaviy yondashuv hamda amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga katta ahamiyat berishni bu borada esa o'quv reja va dasturlarni qaytadan ko'rib chiqish, bunda asosiy e'tiborni o'quv-metodik ishlarga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, bo'lajak pedagoglarni har jihatdan mukammal ruhiy jihatdan barkamol etib tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kerak;

Uchinchidan, uzoq yillik kasbiy tajribaga ega professor-o'qituvchi murabbiylar bilan joylarda ta'lim-tarbiya muammolariga oid ochiq muloqotlarni o'tkazib turish, to'planib qolgan muammolarni hamkorlikda bartaraf etish shubhasiz ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shaxs shakllanishida o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishda ta'limning sifati o'qituvchining bilimi va mahoratiga bog'liq. Shu bois, Oliy Ta'lim muassasalarida ta'lim berilayotgan talaba-yoshlarning kreativligini oshirish va yuqorida bildirilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi davlatimiz raxbari tamonidan qo'yilgan vazifalarning amalda bajarilishini ta'minlaydi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 5538 sonli Farmoni, 2018- yil 5- sentyabr.
- 2.V.M.Karimova, Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.,T, 1999.
- 3.E.G'oziyev. Psixologiya muammolari. –T.: O'qituvchi 1996.
- 4.E.G'oziyev. Psixologiya. –T.: O'qituvchi, 2002.
- 5.M.G. Davletshin, S.M.To'ychiyeva. «Umumiy psixologiya» T.2002.
6. Petrovskiy A.V. taxririda. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Moskva.



### PRINSIPIAL EKLEKTIZM METODI YORDAMIDA B1 DARAJADAGI O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'RGATISH USULLARI

**Haydarova Aziza Zikrullo qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti 1-fakulteti talabasi

Telefon: 919612139

haydarovaaziza383@gmail.com

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola B1 darajadagi o'quvchilarga prinsipial eklektizm metodi yordamida til o'rgatishni, ya'ni turli metodlardan foydalanan bolalarning ehtiyojlari va o'quv maqsadlariga mos yondashishni ta'minlaydi. Shuningdek prinsipial eklektizmning ingliz tilini o'qitishda qo'llanilishi muhokama qilinadi, muhokamada ushbu metodning afzalliklari, uni sindfa amaliy va nazariy qo'llanilishi, hamda bu metodning o'qituvchilar va o'quvchilar uchun qanday foyda keltirilishi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** metod, prinsipial eklektizm, metodologiya, tajriba, pedagogik mahorat.

Ingliz tilini o'qitishda bir qancha metodlar mavjud, ammo prinsipial eklektizm qolgan metodlarga qaraganda zamonaviyroq va foydaliroqligi bugungi kunda olimlar tomonidan tasdiqlangan. Ingliz tilini o'qitish tarixida turli usul va yondashuvlar sinovdan o'tkazilgan. Eklektik yondashuvning ahamiyati shundaki, u turli usullarni birlashtirib, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashuvchan yondashadi. Britishey Trening Markazida prinsipial eklektizmni qabul qilishning asosiy sabablaridan biri turli o'quvchilarning o'rganish afzalliklari, uslublari va madaniy kelib chiqishlarini inobatga olish imkoniyatini yaratishdir. Bugungi kunda globallashgan jamiyatda til o'rganuvchilar turli madaniy va lингistik muhitlardan kelib chiqib o'ziga xos kutishlar va ehtiyojlariga ega bo'ladi. Turli xil metod va texnikani qo'llash orqali prinsipial eklektizm markazga yanada inklyuziv va samarali ingliz tili ta'limini tashkil etish imkonini beradi. Ushbu metodning afzalliklaridan biri Moslashuvchanlik, ya'ni o'qituvchilarga dars jarayonini bolalarning ehtiyojlari, qobiliyatlar, qiziqishlari va o'rganish uslublariga moslashtirish imkonini beradi. Kengroq imkoniyatlar: Metodologianing kombinatsiyasi o'quvchilarni tinglash, gapirish, yozish va o'qish singari barcha til ko'nkmalarini, hattoki grammatik bilimlarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Kommunikativ yondashuv: o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llashni o'rgatadi. Bu usul o'quvchilarning tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nkmalarini birgalikda rivojlantirishga yordam beradi. Grammatika-qarama-qarshi yondashuv: Tilning grammatik tuzilmalarini o'rgatishda an'anaviy yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi, lekin bu bilimlarni amaliyotda qo'llashga urg'u beradi. Bu usul o'quvchilarga grammatik qoidalarni tushunish va ularni muloqotda to'g'ri qo'llash imkonini beradi. Vazifa asosidagi o'qitish: o'quvchilarga muayyan vazifalarni bajarish orqali tilni o'rgatish usuli bo'lib, bu ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, guruh bo'lib loyiha tayyorlash yoki muayyan mavzuda munozara o'tkazish. Audiolingval yondashuv: Tilni eshitish va talaffuz qilish orqali o'rgatishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning talaffuz va intonatsiya ko'nkmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usul dialoglar va takrorlash mashqlari orqali amalga oshiriladi. Integratsiyalashgan ko'nkmalarini rivojlantirish: Til o'rganishning barcha jihatlarini - tinglash, gapirish, o'qish va yozishni birgalikda rivojlantirishga qaratilgan yondashuv. Bu usul o'quvchilarning umumiyl til qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Mwanza (2017b): Eklektik yondashuv, an'anaviy usullarning chekllovleri tufayli shakllangan bo'lib, o'qituvchilarga o'z o'quv jarayonlariga mos keladigan elementlarni tanlash imkonini beradi. Gao (2011): Eklektik yondashuv SLRW (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) elementlarini birlashtirib, darsda amaliyotga e'tibor qaratadi. Ovitegama va Premaratna (2020): Bu ko'p sezgili til yondashuvi bo'lib, bir usulga yopishib olish o'rniiga bir nechta usullarni uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Eklektik yondashuvning afzalliklari: O'qituvchiga o'quv jarayonida erkinlik beradi va o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish imkonini yaratadi. O'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va faol ishtiroki ta'minlaydi. Kumar (2013): Hayotiy tajribalarni tilni o'rganishda o'rgatilayotgan g'oyalarga bog'lashga yordam beradi. Buni dars jarayonidagi ba'zi misollar orqali ko'rishimiz mumkin. Masalan: ingliz tilida "Oziq-ovqat" mavzusini prinsipial eklektizm metodi yordamida o'rgatish bolalarning diqqatini darsga yaxshiroq jalb qiladi. Buning asosiy sababi bu metoddan foydalanganda dars ikki qismiga: nazariy va amaliy yondashuvga bo'linadi. Bunda darsning birinchi qismini nazariy yondashuvlar tashkil etib, o'quvchilarga oziq-ovqat mavzusiga oid lug'atlar beriladi, bu lug'atni boyitish bo'lib



vizual yondashuv texnikasidan foydalaniladi. Keyingisi matn bilan ishslash ya’ni bolalarning o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot hisoblanib, bolalarga “Healthy eating habits” yoki “Traditional Foods Around the World” kabi oziq - ovqatga oid matnlar beriladi va bunda topshiriqqa asoslangan yondashuv texnikasi ishlataladi. So‘nggisi grammatik qoidalarni o‘rganish bo‘lib, grammatik tarjima usulidan foydalanib oziq-ovqat mavzusiga bog‘liq berilgan lug‘atlar yordamida turli xil zamonlarda gaplar tuziladi va bu usul ikkita ko‘nikmani bir vaqtida rivojlantishiga sabab bo‘ladi. Ikkinchi qismini esa amaliy yondashuv (amaliy o‘qitish jarayoni ) tashkil etadi. Bu qismda nutq ko‘nikmalarini, gapirish va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun rolli o‘yinlar (restorandagi holat, sog‘lom ovqat tayyorlash v.k ) tashkil etiladi, mavzu guruhda muhokama qilinadi. Tinglash va Tushunish ( Listening Practice ) bo‘limida oziq-ovqat savdosiga oid yoki restorandagi holat, ovqat retsepti haqidagi audio yozuvlar o‘quvchilarga eshittiriladi va tinglagandan keyin o‘quvchilar tinglagan narsalarini tahlil qiladilar. Natijada ularning tinglash ko‘nikmalari rivojlanadi. Guruhiy loyiha (Group Project) tashkillashtirilib o‘quvchilarga dars jarayonida salad tayyorlash yoki bu jarayonni darsdan tashqari holatda bajarib video rolik tayyorlashga o‘xshagan topshiriqlar beriladi. Albatta, bu darsni qiziqarli bo‘lishini ta’minalash bilan birgalikda bolalarning oshpazlik, sxuxandonlik, bloggerlik qobiliyatlarini ochib beradi. Eng oxirgisi yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar hisoblanib, bunda guruh ichida interaktiv o‘yinlar tashkil etiladi. Masalan : har bir bola rangli kartochkalarga sevimli ovqatini retseptini yozadi va o‘qituvchi ularni aralashtirib hammaga bittadan kartochka tarqatadi, keyin hamma birma-bir qo‘lidagi retsept yozilgan kartochkani o‘qib bu qaysi ovqatligini aytadi. Bu mashq ham ikkita ko‘nikmani bir vaqtida rivojlantiradi.

Shuni ta’kidlash joizki, prinsipial eklektizm yordamida nazariy qismda o‘rganilgan so‘zlar, grammatik qoidalari, va matnlar amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladi. Dars jarayonida bu metoddan foydalanilsa darsda ko‘proq muloqot qilinadi. Ko‘proq Muloqot qilish esa o‘quvchilarni tilni o‘rganishga qiziqtiradi hamda ularning so‘z boyligini oshiradi. Dars davomida ko‘proq muloqot qilish talaffuzni yaxshilaydi. To‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganishda ko‘proq ertak kitoblar o‘qish ingliz tilida she’rlar yodlash ham nutqni ravon qiladi, qolaversa ingliz tilida multfilmlarni ko‘rish ham ingliz tilidagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga undaydi. Mana shu sababli ham til bilishda asosiysi eshitib takrorlashdir. Principled eclecticism metodi esa bu borada yaxshi natija beradi. Bu metoddan foydalanish o‘qituvchidan kuchli pedagogik mahoratni talab qiladi.

Pedagogik mahorat – o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo‘llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi. Eklektik yondashuvni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar yuqori darajadagi malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quv jarayoniga mos keladigan usullar va texnikalarni ishlab chiqishi tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda bu metoddan foydalanib ingliz tilini o‘qitilganda o‘quvchidan ham o‘qituvchidan ham darsga nisbatan faollik talab etiladi. Kuzatuvalar natijasi shuni ko‘rsatdiki prinsipial eklektizm metodidan foydalanib dars o‘tilganda o‘quvchilar darsda olgan bilimlarini amalda qo‘llay olishgan. Bu holat albatta til o‘rganish uchun sarflangan vaqt behuda ketmaganini ko‘rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- British International Journal of Education and Social Sciences Official Publication of Center for International Research Development Double Blind Peer and Editorial Review International Referred Journal; Globally index. Page 18. Vol.09, No.11; November-2022; ISSN (3342 – 543X); p-ISSN 4519 – 6511 Impact factor: 9.82

- “Eclectic Approach in Teaching English Language: A Panacea to Language Needs in Nigerian Secondary Schools. Mualliflar: Otagburuagu, E.J., & Eze, N.Manba:ResearchGate.Havola:[https://www.researchgate.net/publication/280805600\\_Eclectic\\_Approach\\_in\\_Teaching\\_English\\_Language\\_A\\_Panacea\\_to\\_Language\\_Needs\\_in\\_Nigerian\\_Secondary\\_Schools](https://www.researchgate.net/publication/280805600_Eclectic_Approach_in_Teaching_English_Language_A_Panacea_to_Language_Needs_in_Nigerian_Secondary_Schools).

- Inspirational journeys Follow the stories of academics and their research expeditions Principled Eclecticism in English Language Teaching Shady Abuyusuf Mon, 09 Dec 2024 N<655.

- IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI 5 İYUN / 2024 YIL / 40 – SON BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.

- PEDAGOGIK MAHORAT 0‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010-yil 21-oktyabridagi 396-sonli buyrug‘iga asosan 5140800 - “Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘alishining talabalari (o‘quvchilari) uchun darslik sifatida tasdiqlangan.(Guvochnoma Jfe 396-19) Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.



### BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA "ALOQA" METODIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI

Sharipova Fazilat Ollaberganova

Mustaqil tadqiqotchi UrDU

Tel. (90) 079 38 88

Email: Sharipova. Fazilat83

**Annotatsiya:** Maqolada biologiya ta'limalda "Aloqa" metodining nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi tahlil qilingan. "Aloqa" metodining o'quvchilarning faoliyatini oshirish, bilimlarni chuqur o'zlashtirish, shaxsiy rivojlanishga ko'maklashish va darsga qiziqishni uyg'otishga yordam beruvchi jihatlari misollar bilan yoritilgan. Shuningdek, maqolada "Aloqa" metodini dars jarayoniga joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Maqola biologiya fani o'qituvchilari, metodistlar va pedagogika sohasidagi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zi:** "Aloqa metodi", "biologiya ta'limi", "faol o'qitish", "o'quvchilar faolligi", "samarali ta'lim".

Biologiya fanini o'qitishda "Aloqa" metodidan foydalanan juda samarali bo'ladi. Bu metod talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirot etishini ta'minlaydi, ularning bilim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quv materialini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Biologiya fanini o'qitishda "Aloqa" metodidan foydalangan olimlar haqida aniq va alohida ro'yxat mavjud emas. Sababi, "Aloqa" metodi o'zi birgina olim tomonidan yaratilgan va aniq ta'riflangan metodika emas. U o'qitishda faoliyatga asoslangan yondashuvning bir qismi sifatida shakllangan va turli olimlar hamda pedagoglar tomonidan turli xil usulblarda rivojlantirib kelingan. Shunday bo'lsada, biologiya fanini o'qitishda "Aloqa" metodiga yaqin tamoyillardan foydalangan va unga katta hissa qo'shgan bir qancha olimlar va pedagoglar mavjud.

**Jon Dyui (John Dewey):** Amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Jon Dyui "o'qish orqali o'rganish" (learning by doing) va tajribaga asoslangan ta'lim tamoyillarini targ'ib qilgan. U o'quvchilarni faol ishtirot etishga undagan va amaliy mashg'ulotlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilishni ta'kidlagan. Bu tamoyillar "Aloqa" metodining negizini tashkil etadi.

**Lev Vigotskiy (Lev Vygotskiy):** Sovet psixolog Lev Vigotskiy ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqdi. Uning fikricha, o'quvchilarning bilim olishi ijtimoiy o'zaro ta'sir va muloqot orqali amalga oshadi. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasasi" tushunchasi, o'qituvchilarning o'quvchilarni qiyinroq vazifalarni bajarishda yordam berishi va ularning rivojlanishiga tutki bo'lishini ta'kidlaydi. "Aloqa" metodi bu tamoyilga mos keladi.

**Jerom Bruner (Jerome Bruner):** Amerikalik psixolog Jerom Bruner o'quv jarayonida o'quvchilarni faol ishtirot etishga undagan, "kashf qilish orqali o'qitish" tamoyilini ilgari surgan. Bruner o'quvchilarga o'zlarini mustaqil ma'lumotlar topish, o'rganish va xulosa chiqarish imkoniyatini berish kerakligini ta'kidlagan. Bu ham "Aloqa" metodining muhim qismi hisoblanadi.

**David Kolb (David Kolb):** Amerika ta'lim nazariyasi David Kolb "amalga asoslangan o'rganish sikli" (tajribaviy ta'lim sikli) modelini taklif qilgan. Bu model to'rt bosqichdan iborat: aniq tajriba, kuzatuv va fikrlash, abstraktlash, va faol tajriba. Bu sikl "Aloqa" metodining amaliyot bilan bog'liqligini va faollikka yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

**Robert Marzano (Robert Marzano):** Amerikalik ta'lim tadqiqotchisi Robert Marzano o'quvchilarning bilim olishida o'zaro ta'sir va hamkorlikning muhimligini ta'kidlagan. Uning tadqiqotlari "Aloqa" metodining guruhli ishlari va muloqotning samaradorligini tasdiqlaydi.

**Turli biologiya o'qituvchilari va metodistlari:** Ushbu olimlarning nazariyalaridan tashqari, ko'plab biologiya o'qituvchilari va metodistlari o'zlarining darslarida "Aloqa" metodining turli elementlaridan foydalaniib, uni rivojlantirib kelishgan. Ular munozaralar, guruhli ishlari, laboratoriya ishlari, amaliy tajribalar, interaktiv darslar kabi usullarni qo'llaganlar.

"Aloqa" metodining biologiya darslarida qo'llanilishi va uning afzalliliklari:

**O'quvchilarning faolligini oshiradi:**

**Munozara va bahs-munozaralar:** Talabalarni kichik guruhlarga bo'lib, ma'lum bir mavzu yuzasidan munozara yoki bahs-munozara o'tkazish, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o'z fikrlarini erkin ifoda etishga o'rgatadi.

**Guruh loyihalari:** Talabalarga biologik muammolarni yechish yoki tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha



guruh loyihalari berish, ularning hamkorlikda ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Interaktiv darslar:** O'qituvchi ma'ruzasi o'rniga, savol-javoblar, o'yinlar, interaktiv topshiriqlar orqali darsni olib borish o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.

### **Bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi:**

**O'zaro o'qitish:** Talabalarni bir-biriga mavzuni tushuntirishga undash, ularning o'zlari ham mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

**Muammoli vaziyatlar:** Biologik muammoli vaziyatlarni yaratish va talabalardan yechim izlashni so'rash, ularning tanqidiy fikrlesh va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Amaliy mashg'ulotlar:** Laboratoriya ishlari, dala tajribalari, kuzatuvlar orqali nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llash, o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

### **Shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi:**

**O'ziga ishonchni shakllantirish:** O'z fikrini erkin bayon eta olish, munozaralarda faol ishtirok etish, loyihalarda o'z hissasini qo'shish, talabalarning o'ziga ishonchini oshiradi.

**Jamoada ishlash ko'nikmalari:** Guruh ishlarida hamkorlik qilish, vazifalarni taqsimlash, bir-biriga yordam berish orqali jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

**Muloqot qilish qobiliyati:** Munozaralar, bahs-munozaralar va taqdimotlar orqali talabalarning muloqot qilish, o'z fikrlarini aniq va tushunarli ifoda etish qobiliyati rivojlanadi.

### **Qiziqishni oshiradi:**

**Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish:** Virtual laboratoriylar, animatsiyalar, 3D modellar orqali biologiya fanini o'qitish, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va darsni yanada qiziqarli qiladi.

**Hayot bilan bog'lash:** O'quv materialini kundalik hayot bilan bog'lash, biologiya fanining ahamiyatini ko'rsatish, talabalarning fanga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

**O'yinlar va interaktiv usullar:** Turli o'yinlar, viktorinalar va interaktiv usullardan foydalanish darsni dinamik va qiziqarli qiladi.

### **Misollar:**

**Genetika:** Talabalarga genetik muammolarni yechish bo'yicha guruh loyihalari berish, ularning genetikani chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

**Ekologiya:** Talabalarni o'z hududidagi ekologik muammolarni o'rganish va ularni hal qilish bo'yicha loyihalar tuzishga undash, ularning atrof-muhitga bo'lган mas'uliyatini oshiradi.

**Anatomiya:** Talabalarga inson tanasining tuzilishini o'rganishda 3D modellar, virtual laboratoriylardan foydalanish, ularning mavzuni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi.

### **Xulosa:**

"Aloqa" metodi alohida bir olim tomonidan yaratilmagan bo'lsa-da, biologiya fanini o'qitishda faol o'qitish tamoyillarini ilgari surgan ko'plab olimlar va pedagoglarning nazariyalari asosida shakllangan. Bu olimlarning ishlariga e'tibor berish orqali, "Aloqa" metodining biologiya ta'limida qanday qo'llanilishi mumkinligini yanada chuqurroq tushunish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Felder, R. M., & Brent, R. (2009). Active learning: An introduction. ASQ Higher Education Brief.
2. Freeman, S., Eddy, S. L., McDonough, M., Smith, M. K., Okoroafor, N., Jordt, H., & Wenderoth, M. P. (2014). Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics. Proceedings of the National Academy of Sciences, 111(23), 8410-8415.
3. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-learning and the science of instruction: Proven guidelines for consumers and designers of multimedia learning. John Wiley & Sons. (multimedia ta'limga oid).



### BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT FANI O'QITUVCHILARIDA SPORT TURIZMIGA OID BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Salixov Timur Mansurovich

Buxoro davlat universiteti  
Psixologiya kafedrasi musaqil tadqiqotchisi

Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy madaniyat fani o'qituvchilarining sport turizmiga oid bilimlarini shakllantirish maqsida olib borilgan izlanishlarning qisqacha tahlili keltirib o'tilgan. Bunda asosan sport turizimining shakllanish bosqichlari asosiy turlari hamda umum-jismoniy rivojlanuvchi mexanizmlari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sport faoliyati, Jismoniy tarbiya, Shaxsiy sifatlar, Sport turizmi, Olimpiya o'yinlari, Mexanizmlar, Kompetesiylar.

Turizm-chet el fuqarolari va fuqaroligi bo 'Imagan shaxslarning doimiy yashash joyidan sog'lomlashtirish, bilim, kasb-hunar-biznes, sport, diniy va boshqa maqsadlarda vaqtincha bo'lgan mamlakatda pullik faoliyat bilan shug'ullanmasdan vaqtincha chiqib ketishi (o'zbekiston fuqarolarining sayohatlari). Sayyoh-ketma-ket 24 soatdan 6 oygacha pullik faoliyat bilan shug'ullanmasdan yoki kamida bir kecha-kunduzda dam olish, bilim, kasbiy, biznes, sport, diniy va boshqa maqsadlarda vaqtincha qolish mamlakatiga (joyiga) tashrif buyuradigan fuqaro. Turizm vositalariga quyidagilar kiradi: sayohatlari, ekskursiyalar, sayohatlari va sayohatlari, turistik mitinglar va musobaqalar, turizm turlari bo'yicha kompleks sayohatlari va to'lovlar, turistik ko'ngilochar va faol dam olish, turistik 9 ekspeditsiyalar, turistik o'lkashunoslik va boshqalar. Tasniflashning asosiy vazifasi ob'ektlarning xilma-xilligini o'rghanish va alohida guruhlar o'rtasidagi haqiqiy munosabatlarni aks ettirishdir.

Yaxshi tuzilgan tasnif ilmiy asoslangan terminologiyani yaratish uchun asosdir. Turizmning har xil turlari quyidagicha tasniflanadi: murakkablik darajasi, yoshi, ijtimoiy xususiyati, faoliyat turlari, ma'lum bir idoraga aloqadorligi, tashkiliy shakllari va boshqalar.

Turizmning turlari va shakllari - maqsadli funktsiyasi, motivlari va turizm natijalari bo'yicha ajralib turadi: - sog'lomlashtirish; - sport; - dam olish; - reabilitatsiya; - professional va amaliy; - o'quv; - madaniy va kognitiv; - madaniy va ko'ngilochar; - ekskursiya; - o'lkashunoslik; - sarguzasht; - ekspeditsiya; - biznes; - tijorat; - birlashtirilgan; - dasturiy ta'minot.

Sport turizmi-tabiyy to'siqlarni engib o'tishda sportni takomillashtirishning maqsadli funktsiyasiga ega. Bu insonning qo'pol erlarda xavfsiz harakatlanishi uchun zarur bo'lgan barcha bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish va murakkab tabiiy relyefni engish uchun jismoniy tayyorgarlikni yaxshilashni anglatadi.

Rekreatsion turizm orqali insonning jismoniy va aqliy kuchlarini tiklashning maqsadli funktsiyasiga ega. Bu ochiq havoda dam olish va sog'lomlashtirish turizmi, shuning uchun uni ko'pincha sog'lomlashtirish turizmi deb atashadi.

Reabilitatsiya turizmi-ba'zikasalliklarni turizm vositalari bilan davolashning maqsadli funktsiyasiga ega. Shu bilan birga, sayyoohlarning turli xil yashash joylarining iqlim sharoiti, shifobaxsh buloqlar, yurish paytida dozalangan yuklar va boshqalar qo'llaniladi.

Kasbiy va amaliy turizm-turizm vositalari (geologlar, geograflar, glatsiologlar) tomonidan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishning maqsadli funktsiyasiga ega.

Turizm turlari-turistik yo'nalihsining tabiatini bilan ajralib turadi: - piyoda; - chang'i; - tog'li; - suv (sallar, eshkak eshish kemalari); - velosiped; - avtomatik Moto; - speleo; - o'mratilgan; - birlashtirilgan.

Jamiyat hayotidagi mavjudligi va ijtimoiy ahamiyati darajasiga ko'ra turizm aholining keng qatlamlari uchun ochiqligi sababli ommaviy xarakterga ega bo'lgan ijtimoiy va u yoki bu sabablarga ko'ra (narx, jismoniy mashqlar va boshqalar) cheklangan shaxslar guruhlariga mavjud bo'lgan elitaga bo'linadi. turizm bilan shug'ullanadigan joyda xalqaro va ichki turizm ajralib turadi, ular aholining keng qatlamlari uchun ochiqdir. masofaga qarab uzoq va yaqin bo'ling. Tashkiliy asoslarga ko'ra turizm uyushgan va uyushmaganlarga bo'linadi. Tashkil etilgan turizm tashkilot shakllari bo'yicha rejalshtirilgan (vaucher) va havaskorlarga bo'linadi. Rejalshtirilgan turizmda turistik xizmatlar ma'lum tashkilotlar (turistik firmalar va turistik faoliyat huquqi uchun patentga ega bo'lgan xususiy shaxslar va boshqalar) tomonidan ma'lum (rejalshtirilgan) tartibda vaucherlar bo'yicha taqdim etiladi. Turistik xizmatlar keng qamrovli va xususiy bo'lishi mumkin, masalan: marshrutni ishlab



chiqish, guruhni to’ldirish, moddiy-texnik ta’midot (transport, oziq-ovqat, turar joy, eskort, sayyoohlilik uskunalarini, xavfsizlikni ta’minlash, ekskursiyalar va boshqalar). Rejalashtirilgan turizmda turistik faoliyatga ma’lum talablar mavjud (litsenziyalash, sertifikatlash va boshqalar).

Umumiy jismoniy tayyorgarlik-maxsus tayyorgarlikning asosi bo’lib xizmat qiladi. Uni yuqori darajada ushlab turmasdan, turizmning har xil turlari texnikasini o’zlashtirish va takomillashtirishda muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Umumiy jismoniy tayyorgarlik jarayonida har qanday ixtisoslashgan sayyoohlolar uchun zarur bo’lgan asosiy jismoniy fazilatlarni har tomonlama rivojlantirish muhimdir: umumiy chidamlilik, kuch, moslashuvchanlik, harakat tezligi va epchillik. Umumiy jismoniy tayyorgarlik, ayniqsa, turizmning dastlabki bosqichlarida va har qanday malakali sportchilarni yil davomida o’qtishning tayyorgarlik davrida juda muhimdir, chunki bu funksional imkoniyatlarning umumiy darajasini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi.

Maxsus turistik tayyorgarlik-turizmning har bir turiga xos bo’lgan quyidagi asosiy bo’limlar bo’yicha bilim, ko’nikma va ko’nikmalarni shakllantirish: - sport turistik kampaniyasini tashkil etish; - turizm topografiyasi; - sport turizmi texnikasi; 18 - sport turizmining taktikasi; - sport turizmi psixologiyasi; - xavfsizlikni ta’minlash. Maxsus turistik tayyorgarlikning asosi ushbu tayyorgarlik bo’limlari bo’yicha amaliy ko’nikma va ko’nikmalarni shakllantirishdan iborat bo’lib, turizm turiga katta e’tibor beriladi. Tashkiliy tayyorgarlik - quyidagilarni o’z ichiga oladi: - turistik sayohatning maqsad va vazifalarini aniqlash; - guruhlarni yollash va vazifalarni taqsimlash; - marshrutni kunlar bo’yicha ishlab chiqish, nazorat punktlari va ularning marshrut boshidan oxirigacha o’tish muddatlarini aniqlash; - shaxsiy va guruh jihozlarini tayyorlash; - oziq-ovqat tayyorlash; - marshrut hujjatlarini tayyorlash; - boshqa tashkiliy vazifalarni hal qilish (moliyalashtirish, aloqa, transport va boshqalar). Ushbu tayyorgarlikning umumiy namunasi: marshrut qanchalik murakkab bo’lsa, u butun tashkiliy tayyorgarlik majmuasiga ko’proq vaqt va e’tibor talab qiladi.

Topografik tayyorgarlik-turistik sayohatlar va musobaqalarni tashkil etish va o’tkazish sharoitida zarur bo’lgan topografiya elementlari bo’yicha bilim, ko’nikma va ko’nikmalarni shakllantirishni ta’minlaydi. Ushbu elementlarga asosiy tushunchalar kiradi: - turizmda ishlatiladigan xaritalar, sxemalar, Krok haqida; - hududning belgilari to’g’risida; - hududning keng ko’lamli va mashtabsiz tasvirlari haqida; - masofalar, yo’nalishlar, er balandliklarining eng oddiy o’lchovlari to’g’risida;

Umuman olganda, sayyoohning psixologik tayyorgarligi sport turizmida mavjud bo’lgan maxsus yaratilgan va tabiiy vaziyatlarda turli xil nazariy va amaliy muammolarni hal qilishga asoslangan. Xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha tayyorgarlik-maxsus turistik tayyorgarlikning bir qismi sifatida sport turizmining ob’ektiv va sub’ektiv xavflari to’g’risida bilimlarni shakllantirish, turizmni tibbiy qo’llab-quvvatlash shakllari va usullarini bilish, jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko’rsatish ko’nikmalari va ko’nikmalarini o’z ichiga oladi.

Xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha tayyorgarlik ko’plab tayyorgarlik turlari, ayniqsa sug’urta texnikasi va qidiruv-qutqaruv ishlari texnikasi bilan bog’liq, ammo sport turistik sayohatlari va musobaqalarining xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kengroq va keng qamrovli tarkibga ega. Xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha tayyorgarlik turizmning har bir turi uchun umumiy va o’ziga xos masalalarga ega. Integral tayyorgarlik-maxsus va qisman umumiy turistik tayyorgarlikning deyarli barcha masalalarini to’playdi. Bu sportchi-sayyoohlarni tayyorlashning ko’p yillik va yillik tsikllarida sport yurishlari va musobaqalarining (ham asosiy, ham o’quv) Real sharoitida barcha turdagи tayyorgarliklarning amalga oshirilishini anglatadi. Integral tayyorgarlik boshqa turlardan sport turistik sayohatlari va musobaqalarini tashkil etish va o’tkazish bo’yicha hal qilinadigan vazifalarning ma’lum bir yaxlitligi bilan ajralib turadi. Yosh, beqaror organizm haddan tashqari yuklarga tezroq va keskinroq javob beradi va shakllanmagan psixika xavf hissi va tarqoq e’tiborning xiralashishi tufayli vaziyatni yanada kuchaytiradi.

### FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagи “2022—2026-yillarda O’zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-165-son farmoni
2. Салихов Т. и др. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
3. Mansurovich S. S. Methodology of organizing physical education lessons through digital technologies // European Journal of Modern Medicine and Practice. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 107-111.



## ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### О'zbekiston Respublikasi Hududida Joylashgan Kaolin Xomashyolariing Fizik-Kimyoviy Xossalariini Tahlil Qilish

Xojeva Muxlisa Obid Qizi  
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti 23m-34FQB guruh talabasi

Kaolin oq-jigarrang mineralidir. U kislorod molekulalari orqali bitta alyuminiy oksidi oktaedr qatlami bilan bog'langan bitta tetraedral silikat qatlamiga ega bo'lgan aluminiy silikatning ( $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ) kaolinitining asosiy tarkibiy qismiga ega. Kaolin bilan topilgan eng keng tarqalgan yordamchi minerallar slyuda, dala shpati, temir, kvarts va titan kabi jinslaridir. Ilmenit, gematit, illit, boksit, tsirkon, rutil, grafit va montmorillonit kabilar kiradi. Temir minerallari oq kaolin rangini bildiradigan eng zaharli aralashmalardir. Temirning kaolin bilan bog'lanishi (a) gematit, goetit va pirit kabi uch xil shaklda sodir bo'lishi mumkin, (b) anataza, rutil va slyuda kabi minerallarning kristall tarmog'ida almashinishi va (c) sirt yutilishi sifatida montmorillonit va kaolin ustida. Kaolin kulolchilik, oqava suvlarni tozalash, kompozit plomba ishlab chiqarish va zeolit kabi qattiq katalizatorlar ishlab chiqarish kabi turli xil ilovalar uchun ishlatiladi. Tabiiy kaolini boyitish kaolin oqligini yaxshilash va uni metall oksidi va tuzlari kabi kimyoviy va jismoniy aralashmalardan tozalashning ilg'or jarayonidir. Bundan tashqari, boyitish kvarts, dala shpati, toshlar, gris, muskovit, slyuda, titan oksidi va temir oksidi kabi o'lik mineral fazalarni yo'q qiladi. Bundan tashqari, boyitish jarayoni loy minerallarining sifatini, jumladan, zarrachalar hajmining taqsimlanishi, shakli, kimyoviy tarkibi, yorqinligi va qo'llash uchun mo'ljallangan ko'rinishini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin. Limon kislotosi, sulfat kislota, xlorid kislotosi, oksalat kislotosi, natriy ditionit kabi noorganik va organik kislotalar yordamida kimyoviy boyitish kabi keng qo'llaniladigan turli xil boyitish usullari mavjud. Biologik boyitish usuli ham kaolini bakteriyalar va zamburug'lar yordamida tozalashning yana bir usuli hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston hududidan olingen kaolin mineralining kimyoviy tarkibini o'rganish.

Namuna kukunlarining kimyoviy tarkibi Horiba MESA-50 rentgen floresan tahlili (XRF) yordamida tahlil qilindi.

Xomaki kaolinning kimyoviy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan XRF yordamida aniqlanadi.


#### 1-jadval: Xom kaolin va boyitilgan kaolinining kimyoviy tarkibi.

Tarkibi	$\text{Al}_2\text{O}_3$	$\text{SiO}_2$	CaO	MgO	$\text{Fe}_2\text{O}_3$	$\text{Na}_2\text{O}$	$\text{K}_2\text{O}$	MnO	$\text{TiO}_2$	$\text{P}_2\text{O}_5$	LOI
Kaolin (%)	24.35	58,73	1.65	1.29	2.06	3.01	5.36	0,01	0,13	0,21	1.96
Foydali kaolin (%)	27.52	60.25	3.35	0,47	0,39	1.05	4.09	—	0,08	—	3.24

